Ayniqsa, u tomondan 1905 yilda nashr etilgan «Protestant axloqi va kapitalizm ruhi» bizda katta qiziqish uyg'otdi. Mazkur asarida u dinning bosh vazifasi – inson faoliyatiga muayyan ma'noni berish funksiyasidir degan g'oyani ilgari suradi [3, 157]. Chunki din kishilar faoliyati qanday yo'nalishda kechishidan qat'iy nazar, unga kuchli ta'sir qilish salohiyatiga ega. Dinning shunday sifati tufayli Veber uni sotsial o'zgarishlarning muhim omili, deb hisoblaydi va xristianlikdagi protestant yo'nalishining kalvinizm mazhabini G'arbiy Yevropa mamlakatlarida vujudga kelgan hamda jadal rivojlanayotgan kapitalistik tuzumning ma'naviy omili sifatida qayd etgan. Taniqli amerikalik sotsiolog Talkot Parsons (1902-1979) M.Veberning dinning sotsial o'zgarishlar omili haqidagi konsepsiyasiga quyidagi bahoni bergan edi: «Maks Veber hech bir sotsiolog ko'rsatib bera olmagan hodisani aniqladi, ya'ni u jamiyatni asosiy turlarga ajralishi, muayyan sotsial o'zgarishlarning muhim rag'batlarini yaratilishi va ayniqsa, zamonaviy industrial jamiyat rivojining omilini belgilab berishda hal qiluvchi hissasini qo'shgan asketik protestantizm timsolida buyuk diniy harakatlarning ahamiyatini yaqqol isbotlab berdi» [4, 376].

Veber kishilik jamiyati taraqqiyotini ta'minlashga ulkan asos bo'lgan kapitalistik tuzumning ham aynan G'arbda shakllanganligini ishonchli dalillar bilan isbotlashga harakat qildi: «Tadbirkorlik, to'kin-sochinlik va ko'proq moliyaviy foyda olishni ko'zlash kapitalizm bilan hech qanday umumiylikka ega emas. Bunday intilishlar ofisiantlar, shifokorlar, izvoshchilar, rassomlar, poraxo'r-amaldorlar, harbiylar va hatto, qaroqchilar, salb yurishlari qatnashchilari va qimorbozlarda ham kuzatilgan va kuzatilmog'da. To'la asos bilan aytish mumkinki, bunday maqsadga intilish uchun biror-bir ob'ektiv sharoit bo'lsa, bu xususiyat har davr va har qanday mamlakatga xos voqelikdir» [2, 47-48].

Yuqoridagi mulohazalariga tayanib, u kapitalizm haqidagi mazkur sodda tasavvurlardan voz kechish kerakligini ta'kidlaydi. Boylik ortirish yo'lidagi cheksiz ochko'zlik hech qanday ma'noda kapitalizmga mos va xos emas. Ayniqsa, bu hol uning

ruhiga tamoman ziddir va shuning uchun «kapitalizmning o‘zi irrasionalizmga asoslangan ushbu hodisani bartaraf qilish mexanizmidir», degan xulosaga keladi. Uning fikricha, kapitalizm – bu muttasil faoliyat ko‘rsatadigan rasional kapitalistik korxonalar doirasida foyda ko‘rishga, sarmoyadorlik va samaradorlikka intilishdir. Lekin bunday korxonalar ilgari jamiyatlarda ham faoliyat ko‘rsatganlar. Veber «Xitoy, Hindiston, Bobil, Misr kabi mamlakatlarning G‘arbdagi davlatlar bilan farqi shundaki, ularda burjuaziya va proletariatning sinf sifatidagi munosabatlari mavjud emas», degan xulosasini ilgari suradi.

Shuningdek, u Sharq va G‘arb o‘rtasida boshqa bir qator o‘zaro o‘xshashliklarni ko‘rsatib o‘tib, kapitalistik jamiyatning shakllanishiga asosiy ta‘sirni ko‘rsatgan ma‘naviy omil – xristianlikdagi protestantlik oqimining rasionallikka asoslangan axloqiy xususiyatlaridir, degan fikrga keladi. Bunday xulosani chiqarish uchun u yana tarixiy materiallarga murojaat qiladi. Ma‘lum bo‘lishicha, XIX asr boshlariga kelib, protestantlikka e‘tiqod qiluvchi mamlakatlar katolisizm va pravoslavie hukmronlik qilgan mamlakatlardan iqtisodiy jihatdan ancha o‘zib ketishgan. Bunga u protestantlikka moyil bo‘lgan ilg‘or – Angliya va Niderlandiya, shuningdek, katolisizmga qattiq rioya etib kelayotgan qoloq – Ispaniya va Italiyaning tajribasini misol tariqasida keltiradi. Bu holatning asosiy sabablari sifatida Veber protestantlikdagi tolerantlik xususiyatlari va bu mazhab cherkovining sarf-xarajatlari rasionallik asosiga qurilgani: ortiqcha bayramlar, bekorchi, tekinxo‘r ruhoniylarning yo‘qligi va buning natijasida esa qo‘shimcha ishchi kuchlari paydo bo‘lganini ta‘kidlaydi.

Lekin eng asosiysi – bu protestantlikda «dunyoviy asketizm»ni ifodalovchi rasional tafakkurning hukmronligidir. Unga muvofiq, protestantizm dunyoviy kasbiy faoliyatni Xudo yo‘lida xizmat qilish, iqtisodiy qonunlarni esa diniy majburiyatlarning bajarish vositasi, degan fatvoni qabul qildi. Albatta, Veber ijtimoiy taraqqiyot masalalarini din sotsiologiyasi jihatidan kelib chiqib, amalga oshirgan tahlilida faqatgina «Protestant axloqi va kapitalizm ruhi» asari bilan cheklanib qolmadi. Bu mavzudagi o‘z ilmiy qarashlarini keyingi asarlarida tobora takomillashtirib borishga muvaffaq bo‘ldi va uning ilg‘or g‘oyalari din sotsiologiyasida rasionallizm yo‘nalishining tutgan ahamiyatini yanada oshishiga o‘zining katta ijobiy ta‘sirini o‘tkazdi.

Veber merosini o‘rganib, uni tahlil qilish asosida: «Agarda protestantizm shakllanishi XVI asr sharoitlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa va u XIX asrda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida kapitalistik tuzumning vujudga kelishiga faol ta‘sir ko‘rsatib, uning iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlagan asosiy ma‘naviy omillaridan biri sifatida gavdalansa, VII asrning birinchi yarmida Arabiston yarim orolida nozil bo‘lgan va taraqqiyotini Movarounnahr mutafakkirlari faoliyatida topgan islom dini o‘zining rasionallizm tamoyili asosida zamonaviy O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining ma‘naviy omillaridan biri sifatida xizmat qilishi mumkin emasmikin?» degan savol bizda konkret bir ilmiy gipotezaning paydo bo‘lishiga xizmat qildi.

Mazkur gipotezaga muvofiq, 15 yil davomida, professor N.S. Aliqoriev ilmiy maslahatchiligida 22.00.03. – «Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi» ixtisosligi doirasida «O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida islom rasionallizmi omili» mavzusi bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib bordik.

Avvalambor, ijtimoiy taraqqiyot hodisasining tizimli tahliliga kirishdik va ijtimoiy taraqqiyot bir qator omillarning bajarayotgan tizimli hamda determinatsiyalashtiruvchi vazifalari natijasida amalga oshiriladi, degan xulosada to‘xtaldik. Albatta, ularning orasida moddiy-iqtisodiy va moliyaviy omillar o‘rni beqiyosdir. Chunki mo‘‘tadil tabiiy iqlim va qulay hududiy joylashuv hamda boy tabiiy qazilmalar zaxirasining mavjudligi har qanday mamlakat taraqqiyoti uchun muhim ma‘no kasb etadi. Shu bilan birgalikda bu jarayonda ma‘naviy omillarning ahamiyati moddiy omillarnikidan sira kam emas. Jahonning rivojlangan postindustrial mamlakatlari (Yaponiya, Germaniya va hokazolar) tajribasi bunga ishonchli misol bo‘lishi mumkin. Masalaga aynan shu nuqtai nazardan yondashganda, ijtimoiy taraqqiyotni o‘z milliy rivojlanish xususiyatlari asosida amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasida ham moddiy omillar bilan bir qatorda ma‘naviy omillarning o‘rniga alohida e‘tiborga qaratilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etishimizda mazkur omillarning muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida e‘tirof etib kelmoqda. «Barchamizga ayonki, O‘zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma‘naviy salohiyatidir» [1, 144].

Darhaqiqat, boy tarixiy-madaniy meros negizida shakllangan va takomillashayotgan milliy mentalitetimiz o‘zida yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatni mujassamlashtirgandir. Milliy mentalitetimizning shakllanishi va rivojiga dunyoviy- madaniy xususiyatlarimiz bilan o‘zaro uyg‘unlikda bo‘lgan islom dini hamda uning falsafasi ham ijobiy ta‘sir qilib keldi va hozirda ham shunday bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва обод, демократик жамиятни барчамиз биргаликда барпо этамиз. //Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Тошкент: «Ўзбекистон». 2017.
2. Вебер. М. Избранные произведения. –Москва: «Прогресс». 1990.
3. Гараджа В.И. Социология религии. –Москва: «ИНФРА-М». 2007.
4. Парсонс Т. Общий обзор. //Американская социология. Перспективы, проблемы, методы. –Москва: «Прогресс». 1972.

BOSHQARUV AMALIYOTIDA SOTSILOGIK TADQIQOTLARNING O‘RNI

Shohida Marhaboyevna Sodikova

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, sotsiologiya fanlari doktori
Toshkent, O‘zbekiston

sodikova.shohida1011@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda boshqaruv amaliyotida sotsiologik tadqiqotlarning o‘rni, ulardan samarali foydalanish yo‘llari, sotsiologik ma‘lumotni boshqaruv tuzilmalariga kiritish usullari va shakllari, sotsiologik tadqiqot dasturining asosiy funksiyalari masalalariga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Boshqaruv, sotsiologik tadqiqotlar, sotsiologik ma’lumot, tadqiqot dasturi, sotsiologik ma’lumot usullari.

OF SOCIOLOGICAL RESEARCH IN MANAGEMENT PRACTICE RELAY

Shahida Marhaboyevna Sadigova

Professor of the International Islamic Academy of Uzbekistan, doctor of sociology
Tashkent, Uzbekistan

sodikova.shohida1011@gmail.com

Anntation: This article focuses on the role of sociological research in the practice of Management in modern society, ways of their effective use, methods and forms of incorporating sociological information into management structures, issues of the main functions of the sociological research program.

Keywords: Management, sociological research, sociological information, research program, methods of sociological information.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 22 fevraldagi PF-5667-son Farmoni [1] mamlakatimizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning barcha sohalarini demokratlashtirishga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga, inson salohiyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratishga, aholining farovonlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Jumladan, sotsiologik tadqiqotlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, uni rivojlantirish, zamonaviy tadqiqot amaliyotini shakllantirish, ilg‘or xorijiy va mahalliy nazariy-metodologik vositalardan foydalanish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi bosqichga qadam qo‘yar ekanmiz, boshqaruv amaliyotida sotsiologik tadqiqotlarning o‘rni va ahamiyati, ularni tashkil etish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda aytish joizki, boshqaruv amaliyotida yutuqlar bilan birga kamchiliklarni ham chuqur tahlil qilib, ularni bartaraf etishda xalq bilan muloqotning mutlaqo yangi va samarali tizimi joriy etilganligini e‘tirof etish o‘rinli. Bugungi kunda xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qila boshlagani uchun ham odamlarning fikri, dunyoqarashi o‘zgarimoqda, el-yurtimizning kuchi va imkoniyatlariga, ertangi kunga ishonch bilan qarashi mustahkamlanmoqda.

Ma’lumki, xalq bilan muloqot olib borish, uning dardu tashvishlari bilan yashash, xalqni rozi qilish, farovon hayotni ta’minlashga qaratilgan uzoq muddatli strategiya yaratildi. Bu hozirda boshqaruvda faoliyat ko‘rsatayotgan rahbarlarga juda katta mas’uliyat, fidoiylik, sadoqat bilan xizmat qilish, xalq ishonchini qozonish, muammolarni hal qilishda hamjihatlik tamoyillarini yanada takomillashtirish kabi talablarni qo‘yadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, hozirgi kunda boshqaruv amaliyotida aholining turmush sharoitlarini, ularning muammolarini o‘rganish, muayyan ishlarni amalga oshirishda sotsiologik tadqiqotlarning o‘rni, ahamiyati va ularni tashkil etish masalalari dolzarb hisoblanadi. Jumladan, sotsiologik

tadqiqotlarning natijalari boshqaruv amaliyotiga *sotsiologik ma'lumot* [2] sifatida kiritiladi.

Odatda, “sotsiologik ma'lumot” tushunchasi ikki xil ma'noda tushuniladi. *Keng ma'noda* umumiy sotsiologik daraja va ayrim sotsiologik fanlar doirasida olingan, muayyan predmet sohasi haqidagi bilim va ma'lumotlar sifatida ifodalangan nazariy konsepsiyalar, sermazmun xulosa va aniq takliflar yig'indisi tushuniladi.

Tor ma'noda sotsiologik tadqiqotlar natijalarining muayyan muammoli vaziyatga bevosita bog'liq bo'lgan va amaliy boshqaruv faoliyatida faol foydalanilayotgan qismi tushuniladi.

Birinchi yondashuv, ayniqsa, mustahkam zaminga ega. Bunda umumlashtirish darajasiga qarab sotsiologik ma'lumotning ikki turi: konseptual-nazariy va konkret-amaliy sotsiologik ma'lumot farqlanadi. Konseptual-nazariy sotsiologik ma'lumot ilmiy nazariya va qonunlarning ta'riflaridagi bilim va ma'lumotlarni o'z ichiga oladi hamda sotsiologik bilimning tarkibiy tuzilishidagi nazariy darajasiga muvofiq keladi. Konkret-amaliy sotsiologik ma'lumot faktlar bayoni ta'rifidagi bilim va ma'lumotlar sifatidagi sotsiologik tadqiqotlarning natijalarini o'z ichiga oladi hamda sotsiologik bilimning empirik darajasiga muvofiq keladi.

Sotsiologik ma'lumotning turlari sotsiologiyadagi nazariy va empirik darajalarning o'zaro ta'siri bilan belgilanadigan murakkab dialektik aloqalarga kirishadi. Konkret-amaliy sotsiologik ma'lumot konseptual-nazariy axborotda (bilim darajasida) ta'riflangan umumiy va xususiy qonuniyatlarning rang-barang aniq ko'rinishlari holatini aniqlash imkoniyatini beradi. O'z navbatida, konseptual-nazariy ma'lumot konkret-amaliy ma'lumot to'plamlarining shakllanishini belgilovchi mantiqiy aloqalarni asoslash uchun imkoniyat yaratadi.

Boshqaruv sub'ekti tomonidan tashkil etiladigan sotsiologik tadqiqotlar bilan bir qatorda konkret-amaliy ma'lumot bilan konseptual-nazariy ma'lumot ham olinishi mumkin. Ammo u, qoida tariqasida, axborot bilan maxsus intellektual ishlash mahsuli hisoblanadi, ushbu ish sotsiologning to'g'ridan-to'g'ri mansab vazifalariga nisbatan qo'shimcha xususiyat kasb etadi. Konkret amaliy boshqaruv qarorlari qabul qilishga bevosita ta'sir ko'rsatmasligi ham mumkin. Shunga qaramay, konseptual-nazariy sotsiologik ma'lumot boshqaruv strategik maqsadlarini, ularni amalga oshirish loyiha va rejalarini asoslashda foydali bo'lishi mumkin.

Ikkala turdagi sotsiologik ma'lumotning vazifasi ijtimoiy boshqaruv ob'ekting insoniy omillarini (odamlarning kayfiyatlari, ularning qadriyatlariga, muayyan harakatlarni bajarishga munosabati va hokazo) aks ettirishi lozim. Hozirgi sharoitda uning dolzarbligi oshib bormoqda.

Ma'lumki, boshqaruvchilar sotsiumda muomala qilishiga to'g'ri keladigan “ob'ektlar” klassik tizimli modellar doirasida o'rganiladigan “qurilmalar”ga umuman o'xshamaydi [3]. Ijtimoiy ob'ektlar ichki va tashqi omillar ta'sirida uzluksiz o'zgaradi. Bularning barchasi ijtimoiy boshqaruvni axborot bilan ta'minlash tarkibidagi sotsiologik ma'lumotning muhim xususiyatlarini belgilaydi. Ular konkret-amaliy sotsiologik ma'lumotda, ayniqsa, bo'rtib namoyon bo'ladi va quyidagilardan iborat:

- vaqt o'tishi bilan uning qimmati pasayishi;
- formallashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi;

- axborot olish uchun ko‘p miqdorda moliyaviy va tashkiliy xarajatlar talab etilishi;

- maqbul sifatli axborot ta‘minlashning o‘ta mehnat talabligi.

Sotsiologik ma‘lumotning mazkur xususiyatlari boshqaruvda axborotga qo‘yiladigan talablarning barchasiga ham to‘liq javob bermasligiga sabab bo‘ladi. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun boshqaruv organlari boshqaruvning informatsion ehtiyojlariga sotsiologik ma‘lumotning muvofiqlik darajasini oshirishga qaratilgan choralar ko‘rishi talab etiladi.

Sotsiologik ma‘lumotni boshqaruv amaliyotining ehtiyojlariga moslashtirishga uning metodik va instrumental jihatlarini uzluksiz takomillashtirish, empirik axborotni yig‘ish, unga ishlov berish va tahlil qilish taomillarini ixtisoslashtirish va texnologiyalashtirish, axborot-tahlil tuzilmalarining boshqaruvchilar bilan o‘zaro aloqalarining tashkiliy shakl va mexanizmlarini maromiga yetkazish hamda takomillashtirish yordamida erishiladi. Bu muttasil yangilanuvchi axborot texnologiyalari va amaliy sotsiologik tadqiqotlar sohasi rivojlanishining yangi tendensiyalariga qarab mo‘ljalluvchi mazkur axborot kanalini tashkil etish jarayonini nazarda tutadi. Bunda sotsiologik ma‘lumotni yetkazib beruvchi tadqiqotchi sotsiologlar va mazkur axborot iste‘molchilari – boshqaruv organlari o‘zaro hamkorlik qilishlari talab etiladi.

Sotsiologik ma‘lumotni boshqaruv tuzilmalariga kiritish usullari va shakllari. Sotsiologik ma‘lumotni boshqaruv faoliyati amaliyotiga kiritishning bir necha usullari bor. Ancha keng tarqalgan *birinchi usul* – boshqaruv organlarining nufuzli ilmiy tekshiruv tashkilotlari bilan “buyurtmachi-ijrochi” tamoyillariga muvofiq sherikchiligi. Boshqaruvchilarni sotsiologik ma‘lumot bilan ta‘minlash ushbu shaklining afzalligi – foydalanilayotgan metodikaning sifatligi, ijrochilarning yuksak kasbiy mahorati. Ushbu omillar olinayotgan ma‘lumotlarning haqqoniyligini, binobarin, chiqarilgan xulosa va berilgan tavsiyalarning to‘g‘riligini ta‘minlashi lozim.

Ikkinchi usul – sotsiologik tadqiqotlarni o‘z kuchi bilan o‘tkazish. Birinchi usul bilan taqqoslaganda, bu usul butunlay qarama-qarshi afzallik va kamchiliklar bilan tavsiflanadi.

Uchinchi usul – aralash usul, ayniqsa, optimaldir. Bunda tadqiqotchilar jamoasi buyurtmachi va ijrochidan tarkib topadi. Ayni holda buyurtmachining vakillari sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishning muayyan ko‘nikmalariga ega ekanligi, bunda foydalaniladigan konseptual va metodikani o‘zlashtirgani nazarda tutiladi.

Sotsiologik ma‘lumot faoliyatining uch asosiy tartibini farqlash mumkin: monitoring, tahliliy-prognostik tadqiqotlar, ekspress-tadqiqotlar.

Monitoring – sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etishning shunday usuliki, bunda metodik vositalarga yuklatiladigan parametrlar tuzilmasi ikki qismdan iborat bo‘ladi. *Birinchi (asosiy qism)* tadqiq etilayotgan parametrlar (so‘rovnoma savollari va ularga muvofiq keluvchi shkalalar)ning o‘zgarish blokini tashkil etadi. Hajm jihatidan u parametrlar nomenklaturasining 80-90% gacha yetishi mumkin. Parametrlarning mazkur bloki boshqaruv tizimining muhim xususiyatlari (masalan, korporativ uyushqoqlik darajasi, norozilik kayfiyatlari, ijtimoiy muhit, shaxslararo o‘zaro munosabatlar xususiyati va b.q.)ni aks ettirishi lozim. Uning vazifasi – boshqaruv

tizimi asosiy parametrlarining holati va dinamikasini aniqlash, ularning o‘zgarish xususiyatini prognoz qilish uchun axborot bazasini ta’minlash.

Mazkur parametrlar nomenklaturasining ikkinchi (o‘zgaruvchi) qismi boshqaruv tizimidagi zaif bo‘g‘inlarni, rahbariyatning harakatlariga xodimlarning ehtimol tutilgan munosabatini aniqlashni nazarda tutadi. Monitoring vaqti-vaqti bilan, teng vaqt oralig‘ida (har oyda, har chorakda bir marta va sh.k.) o‘tkaziladi. Bu olinayotgan dinamik qatorlar qiyosiylikini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Tahliliy-prognoz tadqiqotlari keng ko‘lamli tadqiqot loyihasining asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi, qoida tariqasida, tashkilotni rivojlantirish strategik dasturlarini ishlab chiqish, uning faoliyatini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini aniqlash uchun axborot bazasini kengaytirish maqsadida o‘tkaziladi. Bu turdagi tadqiqotlar yordamida tushuntiruvchi tahliliy konsepsiyalar ilgari surilishi, sababiy bog‘lanishlar aniqlanishi, ijtimoiy-texnik tavsiya va metodikalarga chiqishning asoslangan yo‘llari ta’riflanishi mumkin.

Ekspress-tadqiqotlar vaziyatli xususiyat kasb etadi. Ular tashkilotdagi aniq vaziyatni tez tahlil qilish, muqarrar (qoida tariqasida, “yoqimsiz”, fors-major) qarorlar qabul qilinishiga xodimlarning ehtimol tutilgan munosabati xususiyatini aniqlash uchun mo‘ljallangan.

Tadqiqotlarning oxirgi ikki turi qat’iy belgilangan davriylik bilan emas, balki zaruriyatga qarab o‘tkaziladi. Bundan tashqari, boshqaruv jarayonlarini o‘rganishning yana ikki turini qayd etish mumkin.

Tashabbusli tahliliy tadqiqotlar tahlil xizmatlari tomonidan boshqaruv sub’ektining (qaror qabul qiluvchi shaxsning) oldindan rejalashtirilmagan topshiriqlariga muvofiq yoki monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish chog‘ida muammolar aniqlanishi natijasida o‘tkaziladi. Qoida tariqasida, bu – yangi tadqiqotlarning boshlang‘ich bosqichlari.

Tezkor tadqiqotlar ularni o‘tkazishning tezlik darajasiga o‘ta talabchanlik (kechi bilan bir kun, bir hafta), mavjud boshlang‘ich axborotning taqchilligi, ekspertlar axborotiga ishlov berishning maxsus usullari qo‘llanilishi bilan tavsiflanadi. Tezkor tadqiqotlarni o‘tkazishda foydalaniladigan asosiy metodlar imitatsion (taqlid qilish) modellashtirish va ekspertiza usulida baholashning turli xil metodlaridir.

Sotsiologik ma’lumotni boshqaruv tizimlariga kiritishning umumiy qoidalari ana shular. Sotsiologik tadqiqotlarning turlari, shakllari va ularni o‘tkazish tartiblarining turliligiga qaramay, ularning barchasi aniq belgilangan hamda qat’iy rioya etiladigan qoidalarga muvofiq o‘tkaziladi. Bu qoidalar umumiy tarkibiy tuzilishga ega bo‘lgan Sotsiologik tadqiqot dasturida aks etgan.

Sotsiologik tadqiqot dasturi – uning nazariy-metodologik asoslari (umumiy konsepsiyasi) keng bayon etilgan, amalga oshirish mo‘ljallangan tadqiqotning dolzarbligi, maqsadlari, vazifalari, ob’ekti, predmeti va gipotezalari asoslangan, shuningdek, uning metodik apparati, barcha turdagi ishlarning tashkiliy rejada aks ettirilgan hujjat. Sotsiologik tadqiqot dasturining mazmuni tadqiqot turi va maqsadlariga qarab har xil bo‘ladi. Sotsiologik tadqiqot dasturining asosiy funksiyalari – metodologik, metodik, prognostik, tashkiliy-texnologik funksiyalardan tashkil topadi.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, aytish joizki, hozirgi vaqtda ko‘pgina institut va universitetlarda, shuningdek, “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tomonidan keng sotsiologik tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari asosida boshqaruv amaliyotida maslahatlar, ko‘rsatmalar, taklif va tavsiyalarning faollashuvi kuzatilmoqda, boshqaruv tizimida maslahatlar, ko‘rsatmalar berish maktablari ancha samarali rivojlanmoqda. Amaliyotchi sotsiologlar faoliyatining, ayniqsa, keng tarqalgan shakli – yo individual faoliyat, yo davlat tuzilmalari va xususiy tashkilotlarning grantlari hamda buyurtmalariga muvofiq ishlarni bajarishga turli soha mutaxassislaridan tarkib topgan tadqiqot yoki ijtimoiy-texnik jamoalar tarkibidagi faoliyat ham shakllangan.

Shu bilan birga aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 22 fevraldagi PF-5667-son Farmoniga muvofiq, vazirliklar, idoralar, boshqa davlat organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari rahbarlari “Ijtimoiy fikr” markaziga uning vazifalarini samarali amalga oshirishda har tomonlama va to‘liq ko‘maklashish uchun shaxsan javobgar ekanligi [1] bilan izohlanadi. Bunda esa xizmatlar ko‘rsatish doirasi kengayadi. Shu bilan bir vaqtda, biz sotsiolog olimlar mas’uliyatni his etgan holda, hamkasblarimiz bilan o‘zaro aloqa va hamkorlikni rivojlantirish, tajribali mutaxassislardan maslahatlar olish usullaridan keng foydalanish zarurligi bugungi kun tartibidagi muhim masalalar ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Социологик тадқиқотлар ўтказишни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2019 йил 22 февралдаги ПФ-5667-сон Фармони.
2. Романов П.В. Социологические интерпретации менеджмента: исследования управления, контроля и организаций в современном обществе. – Саратов, 2000.
3. Социологическая энциклопедия: В 2 т. Т. 2. – М., 2003.

СОЦИОЛОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В ФОРМИРОВАНИИ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА КАК ПРОБЛЕМА СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Файзиева Фарогат Бахтиёровна

доктор философии по социологии, (PhD)

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы
имени Алишера Навои. Ташкент, Узбекистан

faro_fb@mail.ru

Аннотация: Мы являемся свидетелями того, что при формировании современного общества проводятся масштабные реформы, направленные на демократизацию всех сфер государственного и общественного строительства в целом, создание необходимых условий и возможностей для развития

человеческого потенциала наряду с внедрением инновационных технологий в развитие сфер. В данной статье анализируется особая роль социологической культуры в формировании современного общества и дается определение понятия социологической культуры. Проанализированы необходимые условия и основы развития социологической культуры среди населения. В статье подчеркивается важность социологии в формировании цепочки событий в жизни человека.

Ключевые слова: культура, социологическая культура, социологическое воображение, общество, социальная общность, человеческое сознание, цепочка событий, социологические исследования, социально-экономические процессы.

SOCIOLOGICAL CULTURE IN THE FORMATION OF MODERN SOCIETY AS A PROBLEM OF SOCIOLOGICAL RESEARCH

Fayzieva Farogat Bakhtiyorovna

Doctor of Philosophy in Sociology, (PhD) Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi. Tashkent, Uzbekistan

faro_fb@mail.ru

Abstract: We are witnessing that in the formation of a modern society, large-scale reforms are being carried out aimed at democratizing all spheres of state and social construction in general, creating the necessary conditions and opportunities for human potential development along with the introduction of innovative technologies in the development of spheres. This article analyzes the special role of sociological culture in the formation of modern society and defines the concept of sociological culture. The necessary conditions and foundations for the development of sociological culture among the population are analyzed. The article emphasizes the importance of sociology in shaping the chain of events in a person's life.

Keywords: culture, sociological culture, sociological imagination, society, social community, human consciousness, chain of events, sociological research, socio-economic processes.

В настоящее время мы являемся свидетелями реализации масштабных реформ, направленных на демократизацию всех сфер государственного и общественного строительства в Узбекистане, внедрение инновационных технологий в развитие этих сфер, создания необходимых условий и возможностей для развития человеческого потенциала, повышения уровня благосостояния населения.

В условиях качественного изменения ситуации в той или иной сфере, а также продолжения выполнения задач ее развития на основе использования передового зарубежного и отечественного теоретико-методологического инструментария, вопрос формирования новой, современной исследовательской практики проведения социологических опросов приобретает особое значение. В целях эффективной реализации задач в 2017-2021 годах, определенных в стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан, был принят Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по государственной поддержке проведения социологических исследований» [1.3].

Сегодня Президент Республики Узбекистана уделяет большое внимание области социологии и в данный указ свидетельствует о том, что к организации социологических исследований придают особое значение.

Несомненно, социологические исследования помогают повысить благосостояние жизни людей. Посредством социологических исследований изучается каждый слой населения. Главным в социологические исследования является человеческий фактор, а это значит, что необходимо постоянно совершенствовать деятельность, которая служит этому явлению.

Поэтому формирование социологической культуры среди населения также играет важную роль в эффективности социологических исследований. Важно оценивать проблему общества со своей точки зрения, не давая поверхностную информацию. А в этом выражается главный фактор формирования социологической культуры среди населения.

С целью изучения социально - политических, экономических и других проблем населения во всех регионах страны слушается мнение народа. Иногда население, участвующее в опросах как респонденты, не до конца понимают, своего участия в этих исследованиях. Существует множество случаев, когда большинство людей открыто не высказывали свои мысли или поверхностно в виде «все хорошо» давали ответы на вопросы, когда у респондентов был внутренний страх, т.е. боязнь неправильности ответа на поставленные вопросы.

В Указе Президента от 22 февраля 2019 года «О мерах по государственной поддержке проведения социологических исследований» [1.3] определение основных направлений формирования мировоззрения граждан, состояния и содержания их политического, общественно-экономического, морального, правового сознания, изучение уровня политической, правовой культуры населения и определение основных направлений их развития установлено как основной задачей социологических исследований.

Безусловно, изучение основных направлений формирования мировоззрения граждан и формирования социологической культуры в их развитии является важным фактором для решения этой задачи.

Каждый человек должен уметь оценивать события, происходящие вокруг него, в жизни общества в целом исходя из своего мировоззрения. Широкие мировоззрение граждан служит более глубокой, широкой, правильной оценке событий окружающей действительности, а также направления их в пользу человеческого фактора.

Какое определение можно дать социологической культуре?

В настоящее время в научных словарях и во многих социологических изданиях существует понятие социологического воображения, понятие «Imagination sociological» [2.244] интерпретируется Ч.Милсом, как самосознание человека, возможность управления своим поведением через интеллект, сознание.

Это понятие характеризуется более обобщенной концепцией. Так в чем же выражается понятие социологической культуры? Давайте попробуем интерпретировать понятие социологической культуры. Социологическая культура созвучно с заботой человека на пути поиска цели жизни не только о

себе, но и об интересах окружающих его людей. Наши мечты, цели в жизни обязаны своим существованием окружающим нас людям, их взаимоотношениям, то есть взаимному существованию. Когда в юности мы имеем различные мечты, цели, становясь старше не замечаем, как они меняются в зависимости от нашей среды, нашего общества, так, что порой наши давние мечты кажутся нам несерьезными, даже нелепыми.

Социальные, духовные и культурные изменения нашей жизни подобно цепи тесно связываются на основе социальной среды и бытия, поведения и поступков людей в социальном реальности, их отношений.

В центре сюжета научно-фантастического рассказа американского писателя Рэя Брэдбери «И грянул гром» [3.221-235] стоит охотник-любитель по имени Экельс, за большие деньги отправляется на путешествие в мезозойскую эру вместе с ещё несколькими охотниками. Однако, охота на динозавров обставлена жёсткими условиями: убить можно только то животное, которое должно и без этого вот-вот погибнуть (например, раненое упавшим деревом), а возвращаясь, необходимо уничтожить все следы своего пребывания (в том числе вытащить из тела животного пули), чтобы не внести изменения в будущее. Люди находятся на антигравитационной тропе, чтобы случайно не задеть даже травинку, поскольку это может внести непредсказуемые потрясения в историю. Во время очередной охоты Экельс, увидев тираннозавра, не решается продолжать охоту и возвращаясь к Машине времени, сходит с тропы.

После возвращения в своё время охотники неожиданно обнаруживают, что их мир изменился: иная орфография языка, у власти вместо президента-либерала стоит диктатор. Причина этой катастрофы тут же выясняется: Экельс, сойдя с тропы, случайно раздавил бабочку. Так, привнесение маленького изменения в цепь мезозойского периода повлияло на всю эволюцию.

Рэй Брэдбери в своем рассказе показывает, что каждый поступок в нашей жизни и кто мы в результате этого есть окружающая нас среда природы, группа людей, последовательность событий все связывают друг с другом, эта цепочка основана на том, что в связи с другим событием, местом или окружающей средой возникает некая связь.

В работе Дюркгейма «Самоубийство» [4.399], изданной в 1897 году, используется метод вторичного анализа существующей официальной статистики в целях доказательства того, что самоубийство имеет только социальные корни. По мнению автора, над людьми в обществе витает общественное сознание, что диктует им совершать определённые поступки. Например, это общественное сознание называет человека бесполезным для общества существом, что он одинок, не имеет семьи и детей, не участвует в религиозной жизни общины, не играет никакой роли в обществе, поэтому это общественное сознание диктует человеку совершить акт самоубийства и тем самым мстит человеку за отказ от людей. Таким образом, с точки зрения Дюркгейма, главная причина самоубийства – это одиночество. Аналогичную идею мы видим и в истории Рэя Брэдбери.

То есть в течение жизни человек приобретает определенный статус, стремится занять человеческую и статусную позицию, свое место в обществе.

Именно из-за этих социальных факторов, с которыми живет человек, заставляют чувствовать себя нужным в обществе.

«Самоубийство» Дюркгейма основано на географических факторах, климатических факторах, окружающей среде, социальных отношениях.

Как видно, в обоих анализах была изменена цепь взаимоотношений, если в первом случае нарушение данной цепи привело к разрушению целой человеческой цивилизации, то во второй ситуации рассматривается цепь событий, отношений, явлений с рождения до самоубийства, к которому они, собственно, и привели.

Посредством социологии не просто изучается связь данных цепей, но старается вносить обращения в цепи, положительно влияющих на человеческий фактор.

Большую роль в процессе создания этих цепей относятся к человеческим сообществам и их сознанию.

Для создания положительной доли цепи, объединяющей социальную среду и сообщество необходимо участие и самого человека, то есть формирование социологической культуры в каждом человеке служит основой в эпоху современной открытой действительности.

В социологии каждая мысль высоко ценится, потому что каждая мысль, идея формируется на основе различного жизненного опыта, знаний, социальных отношений, взаимоотношений и взглядов на жизнь.

Социологические опросы служат поискам решения проблем человеческой жизни, в руководстве деятельностью общества поможет служить человеческий фактор, а это отражается через обзор мнений самих людей об его жизнеустройстве, окружающей среде и обществе.

Зарубежный опыт показывает, что множество семей хорошо знакомы с понятием социологических исследований, то есть когда интервьюер посещает их дома с целью проведения опроса, они готовы к опросам, поэтому отвечают четко, выражая свои мысли уверенно и грамотно, стойко отстаивая свою позицию и взгляды. Ежедневно средства массовой информации информируют население о социологических данных, и видя среди них хоть малую долю своего вклада, каждый радуется тому факту, что его мнение способно что-то решить, послужить улучшению окружающей его среды.

Это приводит к формированию у населения также политической культуры. Итак, если социологическая культура будет широко распространена среди населения, то можно с уверенностью сказать, что это поспособствует развитию политической культуры у населения, обеспечение участия народа в анализе политических процессов тоже.

А формирование политической культуры среди населения, особенно если население способно правильно оценивать политические процессы, то это предотвратило бы возможные идеологические столкновения, конфликты в стране. Связи с этим приходим к мнению, что политическая культура не может быть полной без социологической культуры.

В свою очередь, стоит выделить еще один важный аспект, для повышения социологической культуры населения сегодня, нам нужно начать обучать этому с помощью учебных предметов со школьной скамьи. Ребенок получает базовые знания, которые крепко закрепляются в юном сознании через программы средней школы.

В 1980-90-х годах и ранее в рамках школьных программ уроки труда проводились один раз в неделю. На этих занятиях мальчики учились мастерить своими руками деревянные столы, стулья, скворечник, различные бытовые принадлежности, а девочек учили вышивать и готовить. На уроках труда девочки готовили различные пряности и угощали мальчиков класса, то есть с ранних лет дети обучались неписанным правилам культуры и этикета, как приглашать гостей, как гостить, также набирались жизненного и социального опыта. И этот опыт сопутствовал им в течение всей жизни.

Аналогичным образом, сегодня, когда мы будем объяснять ученикам основные понятия социологии место социологии в обществе со школьной скамьи, конечно в будущем эти дети без сомнений и препятствий будут проходить сквозь трудности социальной жизни, столкновения в обществе, в семейных отношениях и так как в них уже будет основа социологической культуры и формирования правильной политической культуры в целом.

Естественно, могут возникнуть встречные вопросы, вроде, зачем делать столы и стулья вручную в то время, как придуманы 3D-принтеры для этого, зачем нужно учиться готовить в эпоху процветания KFC, Fast Food, которые позволяют сэкономить время, да и существует множество различных кафе и ресторанов, чтобы приглашать, встречать гостей. Вышесказанное является лишь простым примером, но несмотря на это работа, выполненная на коллективной основе, ярко демонстрирует способность человека создавать чего-либо собственной рукой, положительно влияет на человеческий дух, тем самым повышает самооценку.

Действительно, теперь, мы знаем, как пользоваться 3D-принтерами, мы можем заказать еду домой или пойти в кафе по пути с работы. Это все второстепенное. Но не надо забывать о главном, что человеческий род развивается во взаимодействии друг с другом, и без взаимоотношений, групп, связей не останется и целей в жизни, что приведет к гибели, самоуничтожению человечества.

Общество постоянно развивается, возникают новые конфликты, новые условия и новые проблемы. И роль социологии состоит в том, чтобы постоянно изучать общество, анализировать новые проблемы, находить решения их. Следовательно, по мере развития общества роль социологии в обществе возрастает. Его роль в школьной программе также будет расти.

А именно в формировании со школьной скамьи в сознании ребенка понятия общества, в выявлении социальных проблем, на основе разработок и выполнений своих проектов, в правильные оценки происшедших событий предшествующих обществ, в нахождении своего места в мире.

Главное научить смотреть на мир, окружающую среду по-другому, относиться более внимательно, одновременно с этим содействуя правильному патриотическому воспитанию.

Это послужит основой для предотвращения любой возможной глобальной катастрофы, возникшей в результате человеческого фактора, будь то мировые войны или кибер атаки.

Когда у учащегося со школьного возраста правильно сформировано понятие социологии, понятия об обществе и т.п. то он всегда сможет найти правильное решение в любой проблемной ситуации в течение своей жизни.

Начиная с 4-го класса учащиеся должны иметь представление об обществе и общественной среде, также знать основателей социологии. Вместе с этим, непременно должны знать о деятелях социологической науки, положивших начало развитию этой сферы в Узбекистане. В целом, можно сказать, что все сферы в Узбекистане на сегодняшний день достаточно хорошо развиты. Учащиеся Узбекистана должны с гордостью изучать труды ученых, которые вносят большой вклад в развитие различных отраслей социологии и более информированными быть в этом вопросе.

Мы должны гордиться нашими учеными, которые заложили основы социологии и вносят вклад в развитие этой науки и по сей день. Обучать и ознакомлять учащихся с их жизнью и научными работами является нашим долгом.

К примеру, немало ученых, закрепивших свое имя за данной наукой, упорно трудились и трудятся ради ее развития и по сей день. Среди них Р.А.Убайдуллаева, Б.Ота-Мирзаев, М.Бекмуродов, М.Ганиева, А.Умаров, Н.С.Аликориев [5.] и др. Именно они положили основу узбекской школы социологии, поэтому со школьного возраста учащиеся должны близко познакомиться с ними на уроках социологии.

В рамках школьной программы на уроках социологии дети должны научиться овладеть навыками анализа различных социальных изменений, происходящих в обществе, также уметь создавать собственные проекты по решению социальных проблем. Так постепенно у учащихся со школьной скамьи будет формироваться социологическая культура.

А формирование социологической культуры в масштабах страны это в первую очередь повышает уровень государственного управления в служении человеческому фактору.

Список использованной литературы:

1. Ш.Мирзиев “Социологик тадқиқотлар ўтказишни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси президенти фармони Тошкент 22 февраль 2019й
2. Лоусон Т., Гэррод Д. Социология. А-Я: Словарь-справочник.пер. с англ. М.: Фаир-Пресс, 2000. С. 444.
3. [Рэй Брэдбери «И грянул гром»](#) Сборник научно-фантастических повестей и рассказов / Составитель К. К. Андреев. — М.: [Знание](#), 1963. — С. 221—235.

4. Дюркгейм Э. Самоубийство: Социологический этюд / Пер, с фр. с сокр.; Под ред. В. А. Базарова.—М.: Мысль, 1994.— 399с.
5. Сорокин П.А. Социальная и культурная динамика. Исследование изменений в больших системах искусства, истины, этики, права и общественных отношений. – СПб.: РХГИ, 2000.М.:Апрель, 2006. – 1175с.
6. Комлев Н.Г. Словарь иностранных слов 2006 [англ. interviewer]
<https://dic.academic.ru/dic.nsf/business/5389>

SOTSILOGIYADAGI MATEMATIK METODLAR HAQIDA

Akramov Xasan Furkatovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent, O‘zbekiston
xasakramov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sotsiologik tadqiqot metodologiyasi va sotsiologik ma’lumotlarni yig‘ish, o‘lchash va tahlil qilish, ijtimoiy jarayonlarning matematik modellarni qurish muammolariga bag‘ishlangan. Katta hajmdagi axborotni analitik qayta ishlash uchun zamonaviy matematik tahlil usullaridan foydalanish hozirgi vaqtda inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida, shu jumladan, ilmiygeometriyada ham qo‘llaniladi. Matematik tasniflash usullaridan foydalangan holda hal qilinishi mumkin bo‘lgan muhim amaliy vazifalar mamlakatdagi tashkilotda matematik yo‘nalishlarning rivojlanish dinamikasini baholash edi. Usullar nazariyasi va tarixi ma’lumotlarni yig‘ish tartiblari, o‘lchov usullari, matematik modellashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish usullari tanlangan. Sotsiologik tadqiqot o‘qitish metodikasi va metodikasi.

Kalit so‘zlar: dinamik tizimlar, matematik usullar, matematik metodlar, matematik modellashtirish, sotsiologik tadqiqot, o‘lchov usullari, matematik tasniflash.

ABOUT MATHEMATICAL METHODS IN SOCIOLOGY

Akramov Khasan Furkatovich

Tashkent State University of Uzbek language and
Literature named after Alisher Navoi
Senior Lecturer, Department of social and humanities
Doctor of philosophy in sociology (PhD)
Tashkent, Uzbekistan
xasakramov@gmail.com

Annotation: The article is devoted to the methodology of sociological research and the problems of collecting, measuring and analyzing sociological data, building mathematical models of social processes. Modern mathematical analysis methods for the analytical processing of large amounts of information are currently used in all areas

of human activity, including scientific geometry. One of the most important possible actions, saving from the methods of mathematical classification, was to manage the dynamics of mathematical directions in the organization in the country. Theory and history of methods, data collection procedures, measurement methods, mathematical modeling, data analysis methods. Methodology and methods of teaching sociological research.

Key words: dynamic systems, mathematical methods, modeling, sociological mathematical research, measurement methods, mathematical classification

Sotsiologiyada matematik usullar – bu statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usullari va ijtimoiy hodisa va jarayonlarni matematik modellashtirish usullari hisoblanadi. Sotsiologiyaning nazariy, empirik va amaliy masalalarini hal qilish uchun kompyuter texnikasi imkoniyatlaridan foydalanish zamon talabiga aylandi. Ijtimoiy tizimlarning o'lchash nazariyasi - bu sun'iy intellektga ega sun'iy ijtimoiy agentlar sifatida qaraladigan va kompyuter texnologiyalari orqali o'z vaqtida amalda ishlaydigan ijtimoiy agentlarning xususiyatlari va munosabatlarini simulyatsiya qilish tushuniladi.

1964 yilda matematik sotsiologiyaga bag'ishlangan birinchi monografiya nashr etildi (J. Koulmen «Matematik sotsiologiyaga kirish»). 1971 yildan boshlab matematik sotsiologiya bo'yicha xalqaro jurnal “The Journal of Mathematical Sociology” nashr etiladi. Ijtimoiy jarayonlarning sotsiologik va iqtisodiy-matematik modellarining tabiiy jarayonlar modellari bilan o'xshashligi jarayonlarning inertsiyasi kabi umumiy xususiyatni ko'rsatishdan iborat bo'lib, farqi bu inertsiyaning tabiatidir. Tirik tabiatning barcha jarayonlari ularda jonsiz tabiat jarayonlarida mavjud bo'lmagan axborot komponentining u yoki bu tarzda ishtirok etishi bilan bog'liq, ammo sotsiologiya va iqtisodiyotda bu komponent axborot-kognitiv ko'rsatkichning eng yuqori shakli – “bilim” bilan ifodalanadi. Iqtisodiy va sotsiologik-matematik metodlar o'rtasidagi farq shundan iboratki, ko'rib chiqilayotgan ijtimoiy jarayonlarning aksariyati (diffuziya, etnik o'z-o'zini identifikatsiya qilish va boshqalar) vaqt ko'lami iqtisodiy davrlardan yuqori bo'lgan ijtimoiy-madaniy aks ettirish bilan belgilanadi. Tsikllar lekin Kondratyev fikriga ko'ra tekislik davriga mutanosib ravishda - texnologik naqshlarning o'zgarishi bilan yuz beradi. Shunday qilib, jamiyat tomonidan uzoq vaqt davomida ishlab chiqilgan chuqurroq aks ettirish tufayli ijtimoiy jarayonlarning inertsiyasi iqtisodiy inertsiyadan yuqori bo'lib, bu qo'llanilganda o'zgarmas oqibatlarga ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar modellarida ijtimoiy konstantalarning mavjudligiga olib keladi. Ijtimoiy jarayonlarni o'rganishda asosiy sotsiologik va matematik metod, bu funktsiyalar tabiiy modellar uchun shunga o'xshash holatlarga qaraganda kamroq, ammo iqtisodiy jarayonlarga qaraganda yuqori. umumiy holda, qaramlikni hisobga olgan holda, bog'liqliklarni tavsiflovchi funktsiyalar to'plami bo'yicha takrorlanuvchi tenglamalarning konservativ diskret tizimi emas, balki, sinflarning maksimal silliqligi hisoblanadi. Dinamik tizimlar turli xarakterdagi jarayonlarni tavsiflash uchun matematik modellarining eng keng sinfidir. Shuning uchun sotsiologiyada o'rganiladigan jarayonlarni tavsiflashda biz bu tizimlarni ham diskret, ham uzluksiz uchratamiz.

Statistikaga asoslangan matematik tadqiqot usullari sotsiologiyada uzoq vaqtdan beri qo'llanilgan. Dinamik tizimlar nazariyasi va metodlari hamda kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan kompyuter simulyatsiyasi usullarining afzallik parametrlari soni asosiy tadqiqot vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Mahalliy sotsiologiyada ijtimoiy jarayonlarni amaliy sotsiologik tadqiq qilish vositalari sifatida sotsiologik va matematik modellarni qurish metodologiyasi bilan bog'liq masalalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, tegishli matematik modellar ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Sotsiologik jarayonlarning matematik modellarini tasniflashning quyidagi mezonlari ajratiladi:

- jarayonni rasmiylashtirish amalga oshiriladigan matematik apparat turi (asosiy farq, modelning stoxastik ehtimollikmi, tasodifiymi, yoki o'zgarishlarning tabiatini aniq bashorat qilib bo'lmaydimi ya'ni deterministik (aniq, sababiy) bilan bog'liq.);

- boshqa kichik tasniflar ishlatiladigan o'zgaruvchilar turiga tegishli (doimiy yoki diskret vaqt; bog'liq o'zgaruvchi uzluksizmi yoki u diskret holatlarni ifodalaydi).

Nazariy va empirik tadqiqotlarda jarayon modellarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Ushbu asosiy funktsiyaga ko'ra modellar nazariy empiriklarga bo'linadi. Tahlil qilinayotgan jarayonlarning mazmuni: kichik va katta guruhlardagi jarayonlar, individual va guruh qarorlarini qabul qilish jarayonlari, guruh tuzilishi dinamikasi va boshqalarga ajratiladi. Ijtimoiy fanlarda kompyuter simulyatsiyasidan foydalanish ancha yangi g'oyadir, garchi bu yo'nalishdagi birinchi ishlar 1960-yillarda amalga oshirilgan bo'lsa va kompyuterlardan keng foydalanish 1990-yillarda boshlangan. Ushbu g'oya katta imkoniyatlarga ega, chunki modellashtirish ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilish va tushunishning ajoyib usuli hisoblanadi.

Matematikaning qo'llanilishi topilgan har qanday sohadagi munosabatlari ikki yo'l bilan rivojlanadi. Bir yo'l aniq va oddiygina matematikani qo'llashdan iborat bo'lib, uni turli yo'llar bilan amalga oshirish mumkin: aniq amaliy muammolarni hal qilishdan tortib, keng qamrovli nazariyalarni ishlab chiqishgacha. Odatda ko'pchilik e'tibordan chetda qoldiradigan ikkinchi yo'l - amaliy sohani “matematikaga qo'llash” mumkin. Bunday “ilova” yoki matematikaning yangi bo'limlarining rivojlanishini rag'batlantiradi, yoki ma'lum matematik muammolarni hal qilishda yordam beradi.

1. “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qarori. 2019 yil 7 mart.
2. 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi. Toshkent. 2021 yil.
3. Otaqulov Sh. Gender tenglik siyosatiga amal qilishning innovasion yondashuvlar/ Falsafa va huquq jurnali № 2/ 2021 yil.

GLOBALLASHUV DAVRIDA IJTIMOIIY QADRIYATLARGA MOS MA'NAVIY HAYOTINI SOG'LOMLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Meyliyev Ulmas Farmonovich

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston

meyliyev@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv tushunchasining mazmun-mohiyati haqida hamda, globallashuv sharoitida sotsiologik qadriyatlar va milliy ma'naviyatimizga bo'layotgan turli xil tahdidlar va ularning oldini olish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, mafkura, milliy g'oya, ma'naviyat, ma'naviy xuruj.

MECHANISMS OF ENHANCEMENT OF THE SPIRITUAL LIFE IN THE ERA OF GLOBALIZATION, IN ACCORDANCE WITH SOCIOLOGICAL VALUES

Meiliyev Ulmas Farmonovich

Senior lecturer of the Institute of Retraining and Advanced Training of directors and specialists of preschool educational organizations

Tashkent, Uzbekistan

meyliyev@mail.com

Abstract: This article talks about the essence of the concept of globalization and various threats to our sociological values and national spirituality in the context of globalization and ways to prevent them.

Key words: globalization, ideology, national idea, spirituality, spiritual attack.

Bugungi ko'nda shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida yashayotgan ekanmiz globallashuv jarayonida kechayotgan voqea-hodisalarni to'g'ri talqin qila olish, har bir voqeylikni milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimiz asosida tahlildan o'tkazish ulkan ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa milliy g'oya va mafkuramiz mustahkam bo'lmog'i lozim. Yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirilgan milliy g'oya har qanday yot g'oyalarning ta'siriga berilib qolmaslikni ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga va uni asrab avaylashga undaydi. Bugungi dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir payitda yoshlarimizni milliy qadriyatlarga mos ma'naviy sog'lom hamda sadoqat ruhida tarbiyalash otabobolarimizdan meros bo'lib qolgan qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash oldimiz quygan yuksak vazifalardan biridir. Tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdidlar va xatarlar tobora ko'payib borayotganligi ommaviy axborot vositalari orqali ochiq ko'rsatilmoqda. Ayrim davlatlardagi sodir bo'layotgan nohush voqea-hodisalardan

habar topgan insonni vujudi junbushga keladi. Qaysidir davlatda aholining mamlakat islohotlaridan norozi kayfiyatda namoyishga chiqayotgan bo'lsa, ayrimlarida fuqarolari ko'chaga chiqib “kechga uyimga sog'-salomat qaytib kelarmikanman”, degan o'y-xayollar, eng achinarlisi, farzandlar ayni bolalik beg'uborlik davri gashtini surish o'rniga ertalab uydan chiqishda yaqinlaridan rozi rizolik so'rab tark etayotgani, har daqiqa tirik yashash umidida kunlari o'tayotgan xalqlarni ko'rmoqdamiz. Bu esa har bir sog'lom fikrlovchi insonning shukrona tuyg'usini uyg'otmasdan qo'ymaydi.

“Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish.

Aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish.

Targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish choralarini ko'rish.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash.

Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o'z vaqtida berib borish orqali yolg'on ma'lumotlar tarqalishining oldini olish.

“Mahalla — tuman — viloyat — respublika” prinsipi asosida hududlar kesimida ijtimoiy-ma'naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish.

Ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish.

Maktablarni chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash.

Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash ko'nikmasini shakllantirish.

“Yoshlar — Yangi O'zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans” g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlash[1],261.b.

Shu sabab, ma'naviy-ma'rifiy ishlar holati, milliy g'oyaning mamlakat taraqqiyotidagi o'rnini, jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir etuvchi tahdidlar va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-amaliy izlanishlar olib borishni taqazo etmoqda.

2021-yilning 19-yanvarida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'tkazilgan yig'ilishdagi “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir” ma'ruzasi Ma'naviyat va ma'rifat sohasi uchun yana bir katta ijobiy burilish bo'ldi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi faoliyatini takomillashtirish, uning muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish, sohada ilmiy yondoshuvni keng joriy etish, ilg'or tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berildi.

Ma'naviyat masalasi har doim kun tartibida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2021 yilda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaz huzurida tashkil etilgan Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur institut “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan g'oya

asosida mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, aholi, ayniqsa, yoshlarni Vatanga muhabbat, ma'naviy merosimiz, milliy adabiyotimizga hurmat ruhida tarbiyalash g'oyasini hayotga tatbiq etish ishlarini ilmiy-metodik va axborot-tahliliy jihatdan ta'minlash kabi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, dunyoning mafkuraviy manzarasini o'rganish, tahlil qilish, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mos xorijiy tajribani amaliyotga joriy etish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish nazarda tutilmoqda. Bugungi global makonda, o'zaro raqobat, turli siyosiy, iqtisodiy, g'oyaviy qarama-qarshiliklar nihoyatda ko'chaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining o'rni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas.

Yoshlar har qanday jamiyatning ajralmas qismidir va globallasuv davrida avvalambor uning muammolari birinchilardan bo'lib yuzaga chiqadi. Insoniyatning global muammolari, globallasuvning real jarayonlari va shakllarini aniqlashda, birinchi navbatda, yoshlar parametri turadi. Aynan yoshlar iqtisodiy va ijtimoiy tomondan aziyat chekadilar va mojarolar markaziga bo'lib qolishlari mumkin. Avvalo, yoshlar yangilanib borayotgan dunyoviy etikani puxta egallab, uning asosida yashashni o'rganishlari kerak. Mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz tinchlik madaniyatini anglashlari va tushunib etishlari, globalizasiya jarayoniga ijtimoiy masofadan qarashlari muhimdir[2].

Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Oliy Majlis Senati qoshida 100 nafar va Qonunchilik palatasi qoshida 250 nafar faol va tashabbuskor yoshlardan iborat «Yoshlar parlament»lari, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya tashkil qilindi[3].

Globallasuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda, shuni ob'ektiv tan olish kerak-bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqiyocida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

O'zbekistondagi taraqqiyotning harakterli xususiyatlaridan biri shiddat bilan kengayib borayotgan globallasuv jarayonida ijtimoiy, siyosiy madaniy, ma'naviy hayotning yalpi axborotlashuvidan iboratligidir. Qayd qilish lozimki globallasuv va axborotlashuv o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan dialektik birlikdagi ijtimoiy voqeelikdir. Globallasuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma'noni anglatishini ta'kidlash lozim, globallasuv-bu avvalo hayot sur'atlarini beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.

Axborot texnologiyalari jamiyatning hamma sohalarini egallab, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tobora zamonaviylashuvini, takomillashuvini ta'minlamoqda va fundamental, ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng yangi yutuqlaridan unumli foydalangani holda barcha fanlarning muntazam rivojiga shart-sharoit yaratdi. Buning natijasi o'laroq biotexnologiya, genmuhandisligi (geninjeneriya)ga asoslangan qishloq xo'jaligi, turli

innovasiyalar, yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat va telekommunikasiya aloqalari va kompyuter texnologiyalariga asoslangan xizmat ko'rsatish sohalari vujudga keldi. Hozirgi davrning mazmuni va mohiyati intellektual bilim davri va “bilimga asoslangan” jamiyatdir.

Bugungi kunda yoshlarning aksariyati bo'sh vaqtlarini, hattoki, ta'lim muassasalarida bo'lish paytlarini ham internet-klublarda o'tkazmoqda. Natijada Internet ular uchun faqat o'yinlar olamiga aylanib borayapdi. Bunday o'yinlar bozorlarda kontrafakt disklarda sotilmoqda[4].

Ustiga ustak, Yevronyus kanalining telexabarlariga qaraganda, hatto skandinav davlatlarida ksenofobiya va radikalizm bilan bog'liq yoshlar harakati jonlanib qolgan.

Demak, mafkuralar to'qnashuvi olamidagi bunday noxush holatlar yangi noan'anaviy muammo tajovuzkor mafkuralarga qarshi mustaqil pozitsiyani mustahkamlashning yangi davrini ilmiy idrok etish, ommaviy axborot vositalarining geosiyosiy darajadagi masalalarni hal qilishdagi rolining aniq ifodalanishini talab etadi. Binobarin, butungi kunga kelib ayni mafkuraviy ta'sir va tazyiq o'tkazish davlatning eng asosiy geosiyosiy potentsiali bo'lmish - milliy mentalitet, madaniyat, odamlarning axloqi va e'tiqodi, mustaqil pozitsiyasini o'zgartirish qudratiga ega. Bularning barchasi axborot makonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun OAVning siyosiy funksiyalaridan unumli foydalana olayotibmizmi, bundan buyon ommaviy kommunikatsiyalarining, ayniqsa, elektron ommaviy kommunikatsiyalarining shiddatli taraqqiyoti inson ongini manipulatsiyalashni qay tariqa davom ettirib boradi, axborot olamidagi raqobatning aniq ilmiy-siyosiy, tarixiy-falsafiy talqiniga ega bo'la oldikmi, degan savol- larni oldimizga dolzarb qilib qo'yadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda boshqaruvni liberallashtirish, davlat va jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonlari ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirish mavzusiga mutlaqo yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. Chunki, davlat va jamiyat oldida ayni ommaviy axborot kommunikatsiyalari taraqqiyotigina siyosiy-g'oyaviy, ma'naviy-ruhiy kommunikatsiyaning asosiy tayanchi sifatida ulkan imkoniyatlarni keltirib chiqarish qudratiga ega.

Jamiyat taraqqiyotining yangi bocqichida internet bepoyon axborot maydoniga aylandi. Axborotlashuv jarayoning asosiy subyekti va harakatlatiruvchi kuchlari manfaatlariga xizmat qiladigan bunday sa'y-harakatlardan ko'zlangan maqsad milliy manfaat va qadriyatlarga tayangan ananaviy tafakkur tarziga zarba berib, butun dunyoda g'arbona andozalarga asoslangan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatdan yagona tamaddun hukumronligini o'rnatishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 261.b Toshkent 2022 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi. <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/ozbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72sessiyasida-nutq-sozladi.html>

1. “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 yildagi 23-son qarori. <https://lex.uz/docs/5234746>.
2. “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 yildagi 23-son qarori. <https://lex.uz/docs/5234746>.

YOSHLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Arslonov Zafar Doniyorovich

Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini
o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institute tayanch doktoranti
Toshkent, O‘zbekiston
zafararslonov@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining tutgan o‘rni bilan bog‘liq jarayonlar sotsiologik jihatdan tahlil qilgan. Bugungi globallashuv jarayonlarda yoshlarning axborot olish, saqlash, qayta ishlash va yuborishga doir axborot madaniyatining shakllanishi omil ekanligi asoslanib, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, axborot texnologiyasi, ijtimoiy faollik, zamonaviy jamiyat, ta’lim, axborot madaniyati, ijtimoiy taraqqiyot, globallashuv.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGY IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY

Arslonov Zafar Danielovich

Youth problems under the Youth Affairs Agency
Institute of learning and promising personnel training Foundation doctoral student
Tashkent, Uzbekistan
zafararslonov@gmail.com

Annotation: the article sociologically analyzed processes related to the role of modern Information Technology in increasing youth social activity. Conclusions and recommendations have been developed based on the fact that today's globalization is a factor in the formation of the information culture of young people in the process of obtaining, storing, processing and sending information.

Keywords: Youth, Information Technology, social activism, modern society, education, information culture, social progress, globalization.

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalariga innovatsion texnologiyalarning qo‘llash asosida zamonaviy ishlab chiqarishga zamin yaratish, boshqaruvda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining me‘yoriy-huquqiy poydevorini mustahkamlash, ta’limning barcha bosqichlarida

elektron madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlar yoshlarning axborot olish, saqlash, qayta ishlash va yuborishga doir axborot madaniyatining alohida unsuri sifatida elektron munosabatlarini faollashtirmoqda. “Globallashuv davrida jahonning ko’pgina taraqqiy etgan davlatlari “axborot jamiyati”, “bilimlar iqtisodiyoti”, “raqamli iqtisodiyot” yulini tanlaganiga guvohmiz. Zamonaviy dunyoda inson kapitali, intellektual salohiyat, innovatsion g’oyalar, yuqori texnologiyalar jadal va barqaror taraqqiyotning fundamental asosini tashkil qilmoqda”[1. –B. 307].

Davlat yoshlar manfaatlarini ta’minlash, ularni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, katta maqsadlar sari safarbar etish uchun mamlakatdagi barcha sektorlarni jalb etmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning integratsiyalashuvi, jahonning bir burchagida paydo bo’lgan g’oyalar, yangiliklar hamda ijtimoiy qarashlarning boshqa hududlarga tezkorlik bilan yoyilishini xalqaro globallashuvning ajralmas fenomeni sifatida e’tirof etish mumkin. Ijtimoiy jarayonlarda harakatlantiruvchi kuch sifatida yoshlar qatlaminin o’rni va roli katta.

Yirik xalqaro korxonalarining markazlari bilan hamkorlikda raqamlashtirish yo’nalishidagi faoliyatda inson kapitalini rivojlantirish, shu jumladan. IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish, IT-korxonalar uchun institutsional sharoitlarni yaxshilash va ma’muriy to’siqlarni kamaytirishga alohida diqqat qilish zarur[2. – B. 194]. Hozirgi global butunjahon tendentsiyalarni hisobga olib, O’zbekiston uchun AKTdan jamiyatning barcha sohalarida unumli foydalanish, shuningdek, raqamli texnologiyalarning umumiy rivoji innovatsiyalar hamda jahon iqtisodiyotiga jadal sur’atlarda kirishi va integratsiyalashuvining harakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi. Buning uchun Respublikada jadal sur’atlarda chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, lekin dastlabki ilmiy asos va ilmiy tadqiqotlarsiz ushbu jarayonlarda yuqori samaradorlikka erishib bo’lmaydi.

Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari ijtimoiy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, uning xar bir foydalanuvchisi tobora “virtual olam”ning “virtual odam”iga aylana bormoqda. O’z farazlarida boshqalar bilan bir qatorda ommaviy kommunikatsiya vositalaridagi inqilob natijalariga tayanayotgan postmodernizm “virtual” ta’rifini olgan yoshlar o’zgacha zamon va ideosferaning yangicha “mezonini” nazarda tutadi. “Vituallik” tushunchasi hozirgi vaqtda eng yangi multimedial audiovizual va kompyuter texnologiyalari imkoniyatlariga taqqoslanadi, bular yordamida mutlaq ishonchli sifatida idrok etiladigan va boshdan kechiriladigan hom hayollarni (illyuziya) yaratish mumkin bo’ladi.

Albatta, ushbu fikrni yanada to’ldirish va uning salbiy hamda ijobiy tomonlarini tahlil qilish mumkin. Zamonaviy o’zbek jamiyatida yoshlarning kattagina qismi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni o’zlashtirish salohiyati yuqori baholanadi. Shu bilan birga, axborotni sintez qilish hamda qabul qilishda axloqiy va milliy madaniyatni tark etish, ijtimoiy yolg’izlikka kelib qolish yoki aksincha, turli norasmiy jamoalar, diniy oqimlar, turli “zamonaviy madaniy” oqimlar, online o’yinlar va boshqalar ta’siriga tushib qolish, oqibatida moddiy va ma’naviy zararga uchrayotgan ba’zi holatlarda suitsid holatlari bilan tugayotgan voqealarni

alohida ta'kidladilar. Yangi axborot texnologiyalari davridagi etnik hodisalarni ijtimoiy-madaniy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlardan alohida ko'rib chiqmaslik kerak. Odamlar va etnik guruhlar ko'plab axborot hamda ijtimoiy aloqalarda qatnashadilar. Milliy internet tarmog'ining roli etnik ommaviy axborot vositalari faoliyatidagi bo'shliqlarni to'ldirish, to'g'ridan-to'g'ri etnik aloqalardagi nuqsonlarni bartaraf etish orqali aholining an'anaviy milliy mentalitetini shakllantirishdan iborat.

Mavzuga doir muhim masalalar. Global kompyuter tarmoqlari va telekommunikatsiya texnologiyalari joriy etilgan zamonaviy jamiyatda axborot ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim manbai va omiliga aylanmoqda. Bizning ko'z o'ngimizda dunyo real voqeadan axborot-virtualga aylanmoqda; afsuski, virtual haqiqat mavjudlikning asosiy shakllaridan biri sifatida tan olinmoqda. Shu munosabat bilan, axborot resurslarini saqlash va tarjima qilish, aloqa tarmoqlarining murakkablashuvi va chuqurlashishi, voqelikni virtuallashtirishning oqibatlari, axborot texnologiyalari ta'siri natijasida ma'naviy mezonlarga bo'lgan e'tiborning pasayishi bilan bog'liq muammolar ilmiy va falsafiy munozaralar uchun dolzarb bo'lib qolmoqda.

Sotsiologik nazariyalar tizimida o'ziga xos ahamiyat kasb etadigan “ijtimoiy-madaniy” yondashuvning asoschisi P. Sorokin shunday ta'kidlaydi: “Jamiyat va madaniyat – o'ziga xos shunday birlikki, unda sotsium o'zining sotsiomadaniy aloqa va jarayonlarga kirishish bilan individumni tashkil etadi”. O'z navbatida madaniyat sotsiumdagi ma'nolar, qadriyatlar va me'yorlar majmuini ob'ektivlashtirib, kishilarni etnik hamda diniy jihatdan ijtimoiylashuvga tayyorlab beradi. Madaniyat shu tariqa inson ijtimoiy xulqining asosiy, ammo faqat uning o'zigagina xos bo'lgan xususiy (shaxsiy) determinanti (ilgari suruvchi) sifatida jamiyatga etnomadaniy omil sifatida uyg'unlashadi[3. –B. 296].

Taniqli iqtisodchi olim A.N. Ijyev[4] o'zining ilmiy tadqiqotida shunday ta'kidlaydi: “etnik o'zigaxoslikning eng muhim funktsional yadrosi – bu etnosning deyarli barcha ekzistentsional ongli sohasini qamrab oluvchi va doimiy ravishda (ommaviy axborot vositalari yordamida) axborot va kommunikatsion oziqlanishni talab qiladigan, birinchi navbatda, etnik-madaniy mulk shaxsning hayotiy ta'minotini kafolatlaydigan asosiy himoya vositasi bo'lgan ma'naviy qadriyatdir” – deya tariflaydi.

Kundalik hayotimizga “zamonaviy odam” degan so'z ishlatilishi tabiiy holatga aylandi. Bu terminga A.Yu. Hots[5] o'zining tadqiqotida quyidagicha tariflaydi: - “Axborot jamiyatining asosiy afzalliklari bilan bir qatorda, insonlarning kundalik hayotni, yangi madaniyatlar bilan boyitadi, an'anaviy turush tarzidan voz kechadi, turli eltiar madaniyatlarni o'zlashtirib o'zining standartini yaratadi”

“Virtual jamiyat” nazariyasining muallifi A. Byulning fikriga ko'ra virtual reallik texnologiyalari rivojlanishi bilan kompyuter hisoblash mashinasidan “ko'zgulardagi” olamlarni yaratish bo'yicha universal mashinaga aylandi. Jamiyatdagi har bir tizimcha “parallel” olamlar tomonidan shakllangan bo'lib, bularda virtual o'xshashliklar: Internet tarmog'ida iqtisodiy interaktsiyalar va siyosiy harakatlarning amalga oshirilishi, kompyuterli o'yinlar personajlari bilan muloqot va h.k.lar yuz bermoqda.

Kompyuter yordamida o‘ziga xos olam, jamiyat yaratishga ta’sir ko‘rsatish jarayonini A. Byul virtuallashuv (virtual olam) deb ataydi[6.].

Berilgan fikrdan quyidagicha xulosa qilish mumkin: virtual voqelikka kirib ketish orqali insonlar o‘rtasida real voqelik va haqiqatdan uzoqlashtirishga olib kelmoqda. Natijada bu jarayon har bir etnik guruh va jamoada o‘z aksini topib, insonlarning ijtimoiylashuv jarayonlari virtual maydonga ko‘chib o‘tdi. O‘z navbatida turli ijobiy va salbiy hususiyatlari bilan namoyon bo‘lmoqda.

Raqamli xavf dunyosida odam ontologik va epistemologik muammolarga duch keladi. Bir tomondan, raqamli shaxs sifatida u hayotining barcha sohalarini keng ko‘lamli texnologik, raqamli egallashda ishtirok etadi. Boshqa tomondan, uning aks ettiruvchi tafakkuri muammoli sohalarga, halokatli oqibatlariga, raqamli texnologiyalarning insonning bilish chegaralariga sun’iy ravishda yoki haddan tashqari ta’sir qilish orqali tabiatni bostirish xavfini, shuningdek, insonparvarlik o‘lchamidagi xavflarni ko‘rsatadi. Begonalik, yolg‘izlik, bekorchilik (bo‘sh vaqt), biofiliya va sog‘lig‘ini yo‘qotish, kiberkasalliklar kabi muammolarning mavjudligi yangi xavf-xatarlarga ko‘tarilish tendentsiyasini va bizni ularni majburiy ravishda qabul qilishimizni ko‘rsatadi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. Hozirgi vaqtda bir qator sabablarga ko‘ra sun’iy intellektga antropomorfik maqom berish noqonuniy hisoblanadi. Tabiiy va sun’iy intellekt o‘rtasida sifat jihatidan farq bor. Inson harakat qobiliyatlari va psixikasini modellashtirishning mumkin emasligi hayvonlar va odamlarning yaxlitligini, gomeostazni, miyaning yuqori funksiyalarini amalga oshirish qobiliyatini va tirik mavjudotlarning protoxujayralardan odamlarga evolyutsiyasini tushunish metafizik vazifaga tayanadi. Insonparvarlik inson mavjudligining o‘ziga xosligi va uning o‘ziga xosligi sifatida raqamli texnologiyalar yordamida inson tabiatiga ochiq eksperiment o‘tkazishning barcha ijobiy va salbiy tavakkalchiliklari va oqibatlarini tanqidiy baholash uchun filtr vazifasini o‘taydi.

Inson ongini va shaxsiy taqdirini belgilovchi xavf-xatarli aloqalar bugungi kunda jamiyatdagi me’yorlar va standartlarni aniqlash, ularni kundalik amaliyotda qo‘llash, shuningdek, jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan shaxsiy va ijtimoiy muammolar manbai bo‘lgan kurashning markazidir. Raqamli aloqa orqali bir nechta xavfli transformatsiyalar sodir bo‘ladi. Haqiqiy va virtual aloqalar asl nusxa va buzilgan nusxa sifatida ko‘rinadi.

Har narsaning yaxshi va yomon tarafi bo‘lganidek, so‘nggi yillarda internetning ham jiddiy xatarlari yuzaga chiqmoqda. Eng achinarlisi, buzg‘unchi, yot oqimlar ijtimoiy tarmoqlardan o‘zlarining g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanmoqdalar. Bu esa yoshlarni o‘z domiga tortayotgani, ayrim saytlarda behayolik, axloqsizlik kabi ayanchli illatlar targ‘ib etilayotgani, shuningdek, turli fitnalar, jamiyatni beqarorlashtiruvchi yolg‘on ma’lumotlar berilayotgani afsuslanarlidir.

Ijtimoiy tarmoqlar, virtual olam odamlarning ta’siri, obro’-e’tiboriga baho berish, o‘zimizni ko‘rsatib qo‘yishning yangi, o‘ta zamonaviy ko‘rinishiga aylanib qoldi. Bu jihatlar oilalarning barbod bo‘lishi, samimiyatning yo‘qolishi, balandparvoz so‘zlarga ishonish, o‘zligini his etmaslik, insoniy fazilatlarini qadrlamaslik kabi illatlarni boshlab kelayotgandek. Qayd etish joizki, so‘nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda ayrim

yoshlarning xalq orasida obro‘-e‘tibor qozongan ahli ilm, imom, ulamolarni masxaralab, obro‘sizlantirishga qaratilgan lavhalari orqali ayanchli illatlarni targ‘ib etayotgani har bir musulmon kishining qalbini larzaga keltirdi

Tarbiyaviy va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etishda yoshlarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo‘rlik va majburlovlardan voz kechish, yoshlarning asosiy qiziqishi va faoliyat doirasini tashkil etayotgan turli xil sohalarni tarbiya jarayonida to‘liq qamrab olish, bunda, axborotli texnologiyalar (ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televidenie va internet) xizmatidan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish, milliy qadriyatlarimizni o‘zida aks ettiradigan internet saytlari, multimedia va roliklarni ko‘paytirishdan iborat.

Ta‘lim muassalarida quyidagi masalalarga alohida e‘tibor qartilishi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- ta‘lim bosqichlaridagi ma‘naviy tarbiya soatlarida “Uyali telefon va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati” davra suhbatlari o‘tkazish;
- aholi va yoshlarning kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borish;
- ijtimoiy tarmoqlar vositasida talaba-yoshlar o‘rtasida ta‘limiy dasturlar, kitobxonlikni targ‘ib qiluvchi saytlar milliy qadriyatlarni tarannum etuvchi dasturiy o‘yinlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalarni kashf etish va ularni amaliyotga joriy etish;
- yoshlarining ilmiy va intellektual faoliyati, ularning fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijalarini ijtimoiy tarmoqlarda maqsadli targ‘ib etish;
- turli ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan yoshlarni vatanparvarlik ruhidagi yangi guruhlariga birlashtirish orqali ularni innovatsion ishlanmalarga jalb etish;
- milliy Internet tarmoqlarida yoshlarbop materiallarni ko‘paytirish;

Endilikda virtual makondan birdaniga chiqarib bo‘lmaydi va bu salbiy xolat ham emas, faqatgina maqsadsiz, tafakkur rivojlanishiga foyda keltirmaydigan “saviyasiz videolar, o‘yinlar” o‘rniga balki quyidagi axborot mahsulotlari bilan ularga kerakli ma‘lumotlarni berib borish lozim:

- Vebinarlar; • Treninglar; • Onlayn o‘quv kurslari; • Elektron; kitoblar.

Oliy ta‘lim talabalari uchun dunyoning eng yetakchi universitetlarida o‘qiydigan chet ellik talabalar bilan “tengdosh-tengdosh” ta‘moili asosida online o‘quv-ilmiy almashinuv dasturlari orqali virtual suhbatlar tashkilishi maqsadga muvofiq. Tashkil etilgan vebinarlarda talabalar ijtimoiy hayoti, xorij ta‘lim tizimidagi o‘quv jarayonlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, talabalar bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishdagi dasturlar, kitobxonlik bo‘yicha suhbatlar, turli yangilik va innovatsiyalar haqida axborot almashilinadi.

Yoshlar O‘zbekistonning kelajagi, yurtimizning ijodiy va innovatsion tafakkurga ega qudratli intellektual resursi uning yosh avlod vakili bo‘lib, raqamli texnologiyalar davrida tug‘ilgan internet avlodi ham ijtimoiy fenomenlardan o‘ziga xos xulosa chiqarib ulg‘aymoqda. Virtual hayotda yashash, masofadan eshitish va yozish. Unda insonning xissiyot va tuygular eshitilmaydi. Axborot to‘g‘ridan to‘g‘ri, xech bir extiroslarsiz boradi. Shu sababali insonlar bir-birini tushunolmay, nizolarga kirib

koladilar. Ijtimoiy tarmoqning o‘zbek segmentida dunyoqarashi teran, jamiyatdagi muammolar borasida o‘z fikru mulohazalarini bildirib keladigan ziyoli qatlam vakillari yetishib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. - Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 307. (456)
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-Toshkent: O‘zbekiston, – 2021. – B.194.
3. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. – М.: Политиздат, 1992 – С. 296.
4. Ижаев А.Н. Информационно-политическая и этническая идентичность в пространстве массовой коммуникации: автореф. дис. ... канд. полит. наук. М., 2007 // Библиотека диссертаций dslib.net.
5. Хоц А.Ю. Информационная революция и этнические аспекты культуры современного общества: автореф. дис. ... канд. филос. наук. Ставропол, 2001
6. Бюл А. Виртуальное общество 21 века: социальные изменения в эпоху цифровых технологий. Висбаден: Westdeutscher Verlag, 2000.
7. Гаврилов А. А. Основные подходы к определению категории «виртуальная реальность» в современном философском дискурсе / А. А. Гаврилов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2012. — № 9 (44). — С. 162-166. — URL: <https://moluch.ru/archive/44/5330/> (дата обращения: 08.01.2022).
8. Содиржонов М. Инсон капитали ривожии шахснинг онги, билими, ахлоқ-одоби, дунёқарашига боғлиқ// Янги Ўзбекистон. Ижтимоий-сиёсий газета 2022 йил 10 феврал, № 30 (552), (<https://yuz.uz/news/inson-kapitali-rivoji-shaxsning-ongi-bilimixloq-odobi-dunyoqarashiga-bogliq>)

IJTIMOIIY TARMOQLARNING YOSHLAR MA’NAVIY-AXLOQIIY QARASHLARIGA TA’SIRI: MEDIA TAHLIL METODLARI

Qo‘qonboyeva Gulnoza

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasii sotsiologiya yo‘nalish 2-bosqich talabasi
Toshkent, O‘zbekiston

gulnozaqoqonboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviy-axloqiy qarashlariga ta’siri haqida qisqacha ma’lumotlar va statistic com orqali hozirgi kunda keng miqiyosda foydalanila yotgan ijtimoiy tarmoq haqida ko‘plab fikrlar berilgan. Yoshlar hayotida ijtimoiy tarmoqni ijobiy va salbiy tomonlari haqida ham to‘htalib o‘tilgan. Hali voyaga yetmagan maktab o‘quvchilari bu tarmoqlarga bog‘lanib qolishi natijasida huquq buzarliliklar sodir etishi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: internet, ijtimoiy tarmoq, media, OVA.

**THE EFFECT OF SOCIAL NETWORKS ON THE SPIRITUAL AND
MORAL ATTITUDES OF YOUTH: METHODS OF MEDIA ANALYSIS**

Kokanboeva Gulnoza

Alisher Navoi University of Uzbek language and Literature Department of social and
humanities sociology direction 2-Stage Student

Tashkent, Uzbekistan

gulnozaqoqonboyeva@gmail.com

Annotation: This article provides brief information about the influence of social networks on the spiritual and moral views of young people and many opinions about the social network that is currently widely used through statistic com. The positive and negative aspects of social networks in the life of young people were discussed. It has been reported that underage schoolchildren commit crimes as a result of being connected to these networks.

Keywords: internet, social network, media, OVA.

Kirish. Bugungi kunda yanada rivojlanib, o‘zining yangi yo‘nalishlariga ega bo‘lib borayotgan internet ya‘ni ijtimoiy tarmoq haqida gapirar ekanbiz, biz yashayotgan XXI asrni bu siz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa yoshlar hayotida internet kunning yilning va asrning eng ilg‘or ixtirosi-xalqaro o‘rgimchak to‘ri bizning hayotimizning bosh qahramoniga o‘zimizdan ham oldin aylanib bo‘ldi. Shu o‘rinda “Internet” tushunchasining mohiyatiga alohida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

Internet global kompyuter tarmog‘i bo‘lib, u World Wide Web (WWW) deb ham ataladi. [1] Mazkur zamonaviy manba orqali bugungi kunda kinoteatr yoki san‘atkorlar konsertiga borish, kutubxonada o‘tirish, bozor yoki savdo markazlarida xaridlar bilan ovora bo‘lish shart emas, balki kompyuter qurilmasidagi monitor yoki smartfonlar orqali barcha kerakli ma‘lumotlarni olish imkoniyati mavjud. Ko‘pgina yoshlar ijtimoiy tarmoqdan ko‘ngilochar vosita sifatida foydalanmoqda, uning qimmatli bilimlar manbayi ekanligi hamda o‘quv faoliyatida yordamchi qurolligi ikkinchi o‘ringa tushib qoldi desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Aslida “Ijtimoiy tarmoq” tushunchasi 1954 yilda paydo bo‘lgan ini va albatta, internetga hech qanday aloqasi yo‘qligini hamma ham bilmaydi. Olimlarimiz bu hodisani o‘tgan asrning 30-yillarida o‘rganishni boshladilar. Kontseptsiyani sotsiolog Jeyms Barns kiritgan: “Ijtimoiy tarmoq” – bu ijtimoiy ob‘ektlar va ular o‘rtasidagi aloqalar bo‘lgan tugunlar guruhidan iborat ijtimoiy tuzilma va hozirgi kunda internet bilan birgalikda qo‘llanilmoqda. [2]

Muhokama va natijalar. Bugungi kunda yoshlar orasida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, ayni vaqtda respublikada 46 million bo‘lib, tarmoqdan foydalanuvchilarining aksariyatini yoshlar va voyaga yetmaganlar tashkil etadi. Ijtimoiy tarmoqlardan Oylik faol foydalanuvchilar soni bo‘yicha 2024-yil yanvar holatiga ko‘ra dunyo bo‘ylab eng mashhur ijtimoiy tarmoqlar.

Mana ko‘rinib turibdiki, insonlar qanchalik bu ijtimoiy tarmoqlarga bog‘lanib qolganligi. Ayniqsa, yoshlarimiz bu tarmoqlarga mukasidan ketmoqda. Qaysi yoshdagi insonlarni ko‘rmaylik ularning qo‘llarida smartfonlari orqali har xil sayt va ijtimoiy

tarmoqlarda o‘tirganini kuzatamiz. Hattoki ota-onalar farzandlari yig‘lamasligi va ularning ish faoliyatida halaqit bermasligi uchun ularga smartfonlar olib bermoqda. Bu o‘tib kelayotgan yoshlarning ma‘naviy-axloqiga qanchalik yomon tasir qilayotganini OVA vositalari orqali kuzatib boramiz. Men bu tarmoqlarni yomon yoki yaxshi deb aytmayman faqatgina inson o‘ziga hamma narsani chegara va meyorini belgilab olishlari lozim.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Ijtimoiy odoblar” kitobida “Jumladan, matbuot va axborot vositalaridan foydalanishning ham me‘yori bo‘lishi kerak. Ulardan o‘ziga, oilasiga, xalqiga va vataniga foydali bo‘ladigan narsalar haqida ma‘lumotni olish mumkin. Buning uchun rejali ish yuritish kerak bo‘ladi. Ma‘lum soatlarda ma‘lum narsani ko‘rish, o‘qish yoki eshitish mumkin”. [3] Odam yuz yil yashasa ham umr qisqa. Uni ilm olish va o‘rganishga sarflagan ma‘qul. Virtual olamdan ham ilm yo‘lida yaxshilik maqsadida foydalansak, o‘z-o‘zidan bu qurilmalar bizga xizmat qiladi. Aksincha, biz unga asir bo‘lamiz. Ta‘limni barcha bo‘g‘inlarida yoshlarning fe‘l atvori, ayniqsa odobi, ya‘ni salom alik qilishi va xushmuomilasi zamonaviy tarbiyaviy jarayonda xal qiluvchi omillardan biriga aylandi. Mazkur muammoning kundan kunga murkkablashib borishini O‘zbekiston respublikasi “Oila” markazi ma‘lumotlarida kuzatish mumkin. Markaz 2017-yilda 20 mingdan ortiq jinoyat voyaga yetmagan yoshlar, jumladan 310 nafari maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etilganini alohida takidlab o‘tgan. Mutahassislar fikricha, 769 holatda maktab o‘quvchilrining xuquqbuzarlik va bezoriligining oldini olish bilan bog‘liq talablar bajarilmagan.[4]

Yoshlarimiz orasida yuzaga kelayotgan bunday ayanchli holatning yana bir sababi bu yoshlarimizning ijtimoiy tarmoqlarga tobeligidir. Chunki ijtimoiy tarmoqlar ayniqsa o‘smir yoshlarga ma‘naviy va psixalagik jihatdan kuchli ta‘sir etadi. O‘smirlarda ijtimoiy taroqlarga mukkasidan ketish va virtual olamga moyilligi oqibatida odamovilik jizzakilik va asabiylik vujudga keladi. Demak bundan ko‘rinib turibdiki yoshlarimizning xuquqbuzarlik va jinoyat ko‘chalariga kirib qolishiga sabab inson ongi va qalbi va ruhiyatiga ta‘sir o‘tkazayotgan ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqalgan axborot xurujlari sanaladi. Ijtimoiy media butun dunyo bo‘ylab doimiy ravishda kengayib, rivojlanib borayotgani bu tarmoqlardan foydalanuvchilarning umumiy soni 2027-yilga borib 5,85 milliarddan ortiq kishiga yetishi kutilmoqda, bu esa dunyo aholisining yarmidan ko‘pini tashkil qiladi deb ma‘lumot beradi statista.com. [5] Ijtimoiy tarmoq, yoshlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiya olishida ijobiy tomonlarini ham ko‘rib otish muhim vazifani bajaradi. Masalan:

Tarbiyaviy mavzu va manbalar: Ijtimoiy tarmoq, internet, ommaviy tarmoqlar, ilmiy maqolalar va hokazo orqali yoshlarga ma‘naviy-axloqiy tarbiyani taqdim etishi mumkin. Bu manbalar orqali tushunchalarni o‘stirish, mavqelarni tushunish, odob-ahloq qoidalarini o‘rganish va yaxshi o‘zara aloqalar qurishning o‘rnini o‘zlashtirish imkoniyatini beradi.

Ma‘naviy ta‘lim platformalari orqali yoshlarga ma‘naviy axloqiy topshiriqlar, darslar, testlar, ma‘naviy ta‘lim o‘yinlari, o‘qitish materiallari va qo‘shimcha resurslar orqali yoshlarda ma‘naviy-axloqiy tarbiyani shakillantiradi.

Ijtimoiy tarmoq, yoshlarga o‘zlariga ta’sir qiladigan yaxshi namunalar va rol modellar bilan ta’minlaydi.

Bu tarmoqlarni o‘rganishda, ota-onalar, o‘qituvchilar va jamoat institutlari bilan hamkorlik qilish muhim hisoblanadi. Kelajak yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda biz kattalarni o‘rni juda muhim.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, hayotimizda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni katta. Lekin bizning bosh maqsadimiz kelajagimiz bo‘lmish yoshlarimizga sifatli ta’lim berish bilan birgalikda vatanparvarlik, insoniylik g‘oyalarini singdirishdan iboratdir. Biz yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalana bilishimiz lozim. Bir ustozim shunday deganlar ya’ni Hindiston milliy-ozodlik harakati rahbarlaridan biri Maxatma Gandi so‘zlarni aytganlar ular shunday degan ekanlar “Men uzoq umr ko‘raman deb chang g‘uborlardan o‘zimni saqlash uchun bir xonaga kirib oynalarni ham bekitib olmayman chunki, yashashim uchun havo ham kerak degan ekanlar”. Bu naql bilan shuni takidlamochimanki biz hamma narsani cheklab tashlay olmaymiz faqatgina yoshlarni qanday ijtimoiy tarmoqdan foydalanayotgani kuzatib ularga to‘g‘ri yo‘llanma berishimiz lozim. Kelajagimiz bo‘lmish yoshlarga befarq bo‘lmagan holda ularning ma’naviy-axloqiga zid ijtimoiy tarmoqlarni cheklashimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

1. Ismailova Nigora Axtamovna “Proceedings of International Educators Conference”
2. Ibroximov Nodirbek “Yosh Tadqiqotchi Jurnal”
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590831>
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad yusuf “Ijtimoiy odoblar” «Hilol nashir» -T: 2012. b-253.
4. Oila davrasida. -№ 21 -2018 24 mart
5. <https://www.statista.com/markets/424/topic/540/social-media-user-generated-content/#statistic1>.

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ravshanova Sitoraxon Xaitali qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
1-kurs sotsiologiya yo‘nalishi talabasi, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonunga asoslanib, ishlab chiqilgan respublika yoshlarining ijtimoiy hamda ma’naviy kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatining maqsad va vazifalari yoritib berilgan. Hozirgi kunda yurtimiz yoshlariga berilayotgan imkoniyatlar hamda ularni

qo‘llab-quvvatlashda yoshlarga oid davlat siyosatining o‘rni yuzasidan atroflicha fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston yoshlari, yoshlarga oid davlat siyosati, ta’lim-tarbiya, iqtidorli yoshlar, beshta muhim tashabbus.

STATE POLICY ON YOUTH IN UZBEKISTAN AND ITS SPECIFIC FEATURES

Ravshanova Sitorakxon

1 st year student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
named after Alishera Navoi, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This article describes the goals and objectives of the state policy on youth, which was developed on the basis of the law “On the foundations of state independence of the Republic of Uzbekistan”, aimed at creating conditions for the social and spiritual development of the youth of the republic. At present, the opportunities given to the youth of our country and the importance of the state policy regarding youth in their support have been thoroughly discussed.

Key words: youth of New Uzbekistan, state policy on youth, education, talented youth, five important initiatives.

O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrdagi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida’gi Qonunida yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy kafolatlar belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, bu qonunning qabul qilinishi yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga mo‘ljallangan tashkiliy tadbirlarni ham ko‘zda tutdi. Qonunning 1-moddasida “Yoshlarga oid siyosat O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida imkon boricha to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir”, deb yozib qo‘yilgan.

Yoshlarga oid siyosat- yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va rivojlanishi, butun jamiyat manfaatlari yo‘lida ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy shart-sharoitlar va kafolatlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

“Yoshlar siyosati bu jismonan va ruhan sog‘lom milliy-etnik genofondni saqlash, qayta ishlab chiqarish, rivojlantirishga, intellektuallashtirish, ijtimoiylashtirish darajasini yaxshilash hisobiga uning salohiyati va mobilligini oshirishga, har bir yoshni faol jamiyat a‘zosi, uyg‘un rivojlangan shaxs sifatida yetishib chiqish jarayonlarini rag‘batlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma’naviy shart-sharoitlar majmuini yaratish sari maqsadli yo‘nalish olgan davlat va jamiyat, partiyalar va harakatlarning alohida siyosiy yo‘lidir” [1] deb ta’kidlagan edi siyosatshunoslik fanlari doktori S.A. Jo‘rayev.

2016-yilga kelib mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarimiz tashkil etgan[2]. Bugungi kunda O‘zbekiston

Respublikasi doimiy aholisi soni 2022-yil 1-yanvar holatiga 35 271,3 ming kishini tashkil etib, 2021-yilda 712,4 ming kishiga yoki 2,1 foizga o'sdi [3]. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston tug'ilish nisbatan yuqori mamlakatlar qatoriga kiradi va kelajakda ham mamlakat aholisining umumiy sonida yoshlarning salmog'i yuqori bo'lishini kuzatish mumkin. Bu orqali O'zbekistonni yoshlar mamlakati deb e'tirof etiladigan maqomi yanada mustahkamlanadi.

O'zbekistonda qurilayotgan fuqarolik jamiyati, hayotimizga kirib kelayotgan modernizatsiya jarayonlari va islohotlar samarasi eng avvalo yoshlarni qo'llab-quvvatlashga, ularning intellektual salohiyatini oshirish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga qaratilgan. Jamiyatning kelajagi yoshlar bilan bog'liq va ular taraqqiyotining asosiy kuchi hisoblanadi. O'z navbatida yoshlarimiz ham ilm-fan va boshqa sohalarda erishayotgan yutuqlari bilan davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikka munosib javob bermoqdalar. Shu bois mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish, modernizatsiyalash, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida yoshlarning o'rni kuchayib bormoqda. Yoshlarga doir olib borilayotgan davlat siyosati: bu borada mavjud qonunchilik, yangi qarorlarning qabul qilinishi va islohotlarning amalga oshirilishi mustahkam kuchli tayanch bo'lmoqda. O'zbekistonda yoshlarga mamlakatning kelajagi sifatida e'tibor berilib, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratib kelinmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, “Unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz ota-bobolarimizning munosib vorislari bo'lib voyaga yetishi, XXI asr talablariga har tomonlama javob beradigan insonlar bo'lib kamol topishi uchun biz bundan buyon ham kuch –g'ayratimizni ayamaymiz, chunki takror aytaman, ertangi kun- yoshlar qo'lida. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga yanada ko'proq ishonch bildirish lozim. Bu masalaga bir yoqlama qaramaslik kerak. Davlatimiz, jamiyatimizning bu boradagi vazifasi- kelajak avlodni hayotda har bir odam, har bir yosh yigit- qiz duch keladigan murakkab sinovlarga har tomonlama tayyorlashdan iborat”.

Shuningdek, 2008-yilni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Yoshlar yili”, 2010-yil “Barkamol avlod yili”, 2012-yil “Mustahkam oila yili”, 2013-yil “Obod turmush yili”, deb nomlanishi munosabati bilan Davlat Dasturlarining qabul qilinishi esa yoshlarga oid davlat siyosati tamoyillarining joriy qilinishi va amalga oshirilishida muhim bosqich bo'ldi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda” [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqida “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat” [5], deb ta'kidlagan edi. Ta'kidlab o'tishimiz joizki, Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi bo'lib

imzolagan qonun hujjati ham aynan yoshlar masalasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu qonun 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati tog‘risida”gi [6] qonuni edi.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma’lumoti va siyosiy e’tiqodidan qat’i nazar yoshlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish;
- yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish;
- yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, yoshlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o‘z manfaatlarini amalga oshirish yo‘llarini erkin tanlay olish olishlariga kafolat berish;
- jamiyatni rivojlantirishga, ayniqsa respublika yoshlari hayotiga oid siyosat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishi.

Yoshlarga oid davlat siyosati yuqoridagi qoidalarga binoan o‘z mazmunini doimiy takomillashtirish, muntazam ravishda o‘z e’tiborini jamiyat hayotining eng murakkab jihatlariga qaratish yo‘nalishlarida keng rivojlantirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida yosh avlodga qaratilgan davlat siyosatining bosh tamoyillari davrga hamohang tarzda takomillashib, o‘z mazmunini boyitib hamda ichki sur’atini namoyon etib bormoqda. Buning natijasida yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi sohasida O‘zbekiston Respublikasida quyidagi vazifalar belgilandi:

- respublika hududida yoshlarga oid davlat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilash;
- yoshlarga oid davlat siyosati boshqaruv idoralarini tuzish;
- yoshlarga oid davlat siyosati sohasida Respublikada kompleks va aniq maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga mo‘ljallangan moliyaviy mablag‘larni tasarruf etish;
- respublika yoshlarining, yoshlar jamoat uyushmalarining tashabbuslarini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Yuqorida belgilangan vazifalar asosida mamlakatda ta’lim sohasini bosqichma-bosqich, aniq maqsadga yo‘naltirilgan holda isloh qilish bo‘yicha uzoqni ko‘zlagan dasturlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Chunki, jamiyatning kelajagi yoshlarning tarbiyasi va ta’lim olishlari, oliy insoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishlari, ijtimoiy faoliyatga tayyorligi bilan belgilanadi. Umummilliy dasturlar doirasida o‘tgan davr mobaynida yurtimizdagi ta’lim muassasalari: maktablar, litsey va kollejlarning zamonaviy moddiy-texnik va o‘quv bazasini shakllantirish va mustahkamlash, ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi standartlar, ilg‘or pedagogik va axborot –texnologiyalarini joriy etish borasida ko‘lami va ma’no-mazmuniga ko‘ra ulkan ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya natijasida yoshlarga har tomonlama g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmoqda. Masalan, Oliy o‘quv yurtlariga shartnoma asosida o‘qishga qabul qilingan yoshlarga imtiyozli kredit olib o‘qishlarini davom ettirayotganligini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim. O‘zbekiston Respublikasida yoshlar uchun tibbiy xizmat, ta’lim olish, sport sog‘lomlashtirish va madaniy-ma’rifiy muassasalarga imtiyozli shartlarda qatnash, uy-joy qurish, ro‘zg‘or buyumlari sotib

olish uchun imtiyozli kreditlar berish, dastlabki mehnat faoliyati uchun ish joyi bilan ta'minlanish, o'quvchilar, talaba yoshlar va voyaga yetmagan fuqarolar uchun transportda yurish imtiyozlari, voyaga yetmaganlarga kompensatsiya to'lovlarini kafolatlovchi ijtimoiy ta'minlanish minimumlari belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida 2020-yil 30-iyundagi so'zlagan nutqida quyidagilarni PF ga ilova qilgan:

O'zbekistonda 30-iyun - “Yoshlar kuni” deb e'lon qilindi. Turli sohalarda yuksak natija yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarimizni rag'batlantirib borish maqsadida “Mard o'g'lon” davlat mukofoti, “Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo'yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali ta'sis etildi.

Yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga olgan beshta muhim tashabbus amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, yoshlarda zamonaviy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali ularning bandligini ta'minlash, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini samarali tashkil etish, oilaviy ajrimlarning oldini olish, yosh avlodda mustahkam vatanparvarlik g'oyasini hamda qat'iy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish borasida qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'tgan yillar ichida O'zbekiston Respublikasida yoshlar huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha huquqiy baza shakllantirilib, yoshlar tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi va ta'minlovchi iqtisodiy va huquqiy mexanizm yaratilgan.

Davlatning qudratini belgilaydigan qator omillardan biri, shubhasiz, ma'nan yetuk, jismonan sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Shu ma'noda, bugungi kunda mamlakatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash naqadar muhim, mas'uliyatli vazifa ekani barchamizga ayon. Yoshlarga, bolalarga e'tibor, darhaqiqat, kelajakka qo'yilgan eng katta sarmoyadir. Vaholanki, kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat qurish farzandlarimizning faol ishtiroki, qo'llab-quvvatlashi orqaligina to'laqonli amalga oshar ekan, ma'naviyati yuksak, chuqur bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo'lgan o'g'il-qizlarni tarbiyalash buyuk kelajagimizni ham ta'minlashiga shubha yo'qdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jurayev S.A. Osobennosti formirovaniya gosudarstvennoy molodejnoj politiki Respubliki Uzbekistan v perexodniy period: teoriya i praktika. Ar.diss...dok. politol.n.-T., 1994.-S.17.

2. Mirziyoyev.Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016 y. B.13
3. [https:// www.stat.uz](https://www.stat.uz)
4. Mirziyoyev.Sh.M. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir. Xalq so‘zi, 2017-yil. 1-iyul.
5. O‘zbekiston Respublikasi. Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT ning 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi//<https://uz.uz/uz/posts/o‘zbekiston-prezidenti–shavkat-mirziyoyev-bmt–bosh-assambleyasi>
6. 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi Qonun//<https://lex.uz/docs/3026246>
7. <https://www.lex.uz>.

O‘ZBEKISTON-QOZOG‘ISTON DAVLATLARINING BUGUNGI KUNDAGI ISTIQBOLLARI

Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
katta o‘qituvchisi

kamola.abdurazakova@gmail.ru

Annotatsiya: Markaziy Osiyo insoniyat taraqqiyotida, xalqaro kuchlar muvozanatida doimo muhim rol o‘ynab kelgan. Albatta, mintaqaning geosiyosiy va geoiqtisodiy omillari yirik davlatlarning e’tiborini o‘ziga jalb etmasdan qolmaydi. Shu bois maqolada aynan Markaziy Osiyo davlatlari O‘zbekiston va Qozog‘istonning hamkorlik istiqbollari doirasiga e’tibor qaratilgan. Bugungi kunda ikki davlat o‘rtsidagi hamkorlik masalalari ularning manfaatlari doim ham mintaqa davlatlarining manfaatiga mos kelavermaydi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, hamkorlik, O‘zbekiston, Qozog‘iston, geosiyosat.

PROSPECTS OF UZBEKISTAN-KAZAKHSTAN STATES TODAY

Abdurazakova Kamolaxan Yusupovna

Tashkent State Uzbek language and Literature named after Alisher Navoi
university senior lecturer

kamola.abdurazakova@gmail.ru

Annotation: Central Asia has always played an important role in human development, in the international balance of power. Of course, the geopolitical and geoeconomic factors of the region do not remain without attracting the attention of large states. Therefore, the article focuses on the scope of cooperation prospects of the Central Asian countries Uzbekistan and Kazakhstan. Today, the issues of cooperation between the two countries do not always correspond to the interests of the countries of the region.

Keywords: Central Asia, Cooperation, Uzbekistan, Kazakhstan, geopolitics.

Davlatlararo aloqalarda gumanitar hamkorlik, albatta, ikki tomonlama munosabatlarning muhim sohasi bo‘lib, uning to‘la rivojlanishi ikki mamlakat xalqlarining intilish va qiziqishlariga to‘la javob beradi. Mamlakatlarimiz mustaqillikka erishgach, ancha murakkab muammolarni hal etishga majbur bo‘ldi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy hamkorlik huquqiy asosi 1994 yil 10 yanvarda Toshkentda imzolangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qozog‘iston Respublikasi Hukumati o‘rtasida “madaniyat, sog‘liqni saqlash, ilmfan, ta‘lim, turizm va sport sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risida”gi bitim asosida olib boriladi. Unga ko‘ra, ikki davlat o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy aloqalarni rivojlantirish davlatlararo aloqalarni yanada rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shgan holda xalqlarimiz o‘rtasida tarixiy rivojlanib kelayotgan do‘stlik munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi⁵⁶.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy hamkorlikni quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

Birinchi navbatda, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida ijtimoiy sohada olib borilayotgan hamkorlikda ta‘lim sohasida olib borilayotgan hamkorlik ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Ikki davlat o‘rtasida ta‘lim sohasida olib borilayotgan hamkorlikni quyidagicha baholash mumkin. Ikki mamlakat ilmiy va ta‘lim muassasalari o‘rtasida o‘qituvchilar, talabalar, o‘quv-uslubiy materiallar almashinuvi sohasida bevosita aloqalar olib boriladi.

O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalari Qozog‘istonning 50 dan ortiq oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlik shartnomalarini imzolashgan. Mazkur shartnomalar doirasida aloqalar ilmiy kengashlar doirasida, o‘qituvchi va o‘quvchilar almashinuvi, o‘quv-uslubiy materiallar shaklida amalga oshiriladi.

Ikki mamlakat Fanlar akademiyalari o‘rtasidagi samarali hamkorlik an‘anaviy ravishda kimyo va kimyoviy texnologiyalar, biologiya va biotexnologiya, biotibbiyot va dori-darmonlar, seysmologiya va seysmodinamika, arxeologiya va tarix kabi sohalarga ixtisoslashgan institutlar darajasida amalga oshirilmoqda.

Qozog‘istonning 97 ta oliy o‘quv yurtida 17,014 nafar o‘zbekistonlik talabalar turli yo‘nalishlarda tahsil olmoqda⁵⁷.

Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning zarur darajasini ta‘minlashda ikki tomonlama hamkorlikda olimlar va malakali universitet o‘qituvchilari almashinuvi muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston respublikasi ilmiy ishlari tarixchilari B.A.Tulepbaev, K.M.Baypakov, S.F.Mazhitov, M.K.Abuseitova, etnograf U.H.Shalekenov, demograf X.Salimov, filolog M.Yusupov, me‘morlar M.Mendikulov, M.Zandarbek va boshqalar ma‘lum.

2001-yil 16-noyabrda Qozog‘iston Arxiv va hujjatlarni boshqarish bo‘yicha qo‘mitasi raisi buyrug‘i bilan “Qozog‘iston Respublikasi uchun tarixiy va madaniy ahamiyatga ega xorijiy mamlakatlar arxiv va ilmiy muassasalari Qozog‘iston XV-XX

⁵⁶ Ўзбекистон Республикаси Хукумати Билан Қозоғистон Республикаси Хукумати ўртасида “маданият, соғлиқни сақлаш, илм-фан, таълим, туризм ва спорт соҳасидаги ҳамкорликни чуқурлаштириш тўғрисида битим” <https://www.lex.uz/ru/docs/2565040>

⁵⁷ Ўзбекистон Республикасининг Қозоғистон Республикасидаги элчихонаси расмий сайти <http://www.uzembassy.kz/ru/page/kulturno-gumanitarnye-svyazi>

asrlar tarixi bo'yicha hujjatlar nusxalarini topish va sotib olish uchun chora-tadbirlar dasturi” tasdiqlangan. Shu munosabat bilan Qozog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida Qozog‘iston tarixiga oid hujjatlarni aniqlash bo'yicha olimlar va tarixchilar bilan shartnomalar tuzdi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida ta’lim sohasida hamkorlikni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tish muhimdir:

- Qozog‘iston tomoni bilan kelishgan holda O‘zbekiston ta’lim muassasalarida qozoq tilini, Qozog‘iston ta’lim muassasalarida o‘zbek tilini o‘qitish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni (davra suhbatlari, treninglar, seminarlar, konferensiyalar) o‘tkazish;

- qozoq tilida o‘qitiladigan umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun qozoq xalqi madaniyati va an‘analarini keng yoritishni ifodalovchi “ochiq eshiklar” kunlarini o‘tkazish;

- umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida ilmiy-ijodiy olimpiadalar (tanlovlar, uchrashuvlar va boshqalar)ni o‘tkazish;

- chegara hududlari, jumladan, Orolbo‘yi mintaqasidagi umumta’lim maktablarining moddiy-texnik, uslubiy va kasbiy-pedagogik bazasini takomillashtirish bo'yicha investitsiya loyihalarini muhokama qilish va rivojlantirish.

- umumta’lim maktablari o‘quvchilari, jumladan, qozoq millatiga mansub o‘quvchilar ishtirokida “Barkamol Avlod” markazlari negizida tashkil etilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlarni o‘z tengdoshlari bilan o‘tkazib, interfaol mashg‘ulotlar, o‘yinlar va shu kabilar orqali ijodiy, sport va intellektual ko‘nikmalarini rivojlantirish⁵⁸.

Shubhasiz, yuqorida qayd etilgan barcha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi Qozog‘iston va O‘zbekiston xalqlari o‘rtasidagi hamkorlikni faollashtirish va yanada amaliy, samarali va o‘zaro manfaatli hamkorlikka, jumladan, talabalarning kelgusidagi yutuqlari orqali ilmiy, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish va oshirishda katta turtki beradi.

Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasida madaniy hamkorlik sohasida qozoq milliy madaniyat markazi va O‘zbekistonda chop etiladigan “nurli jol” gazetasi katta ish olib bormoqda. Markaz raisi U.F.Asqarovning O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga qilgan ma’ruzasi shuni ko‘rsatadiki, 2007 yil qardosh respublikalar o‘rtasidagi madaniy hamkorlikni rivojlantirishda samarali yil bo‘ldi. Bugungi kunda nafaqat davlat darajasida, balki viloyatlar o‘rtasida ham madaniyat sohasida yaqin hamkorlik jarayoni kechmoqda. Masalan, 2007 yil 16 fevralda Janubiy Qozog‘iston viloyatining Jetisay teatri Navoiy viloyatida sayr qilib, Toshkentdagi Turkiston saroyida gala-konsert bilan yakunlandi⁵⁹.

Qozog‘iston Respublikasining O‘zbekistondagi elchisi A.Mirzaxmetov va Toshkent shahar hokimi A.To‘htayev Almatida, Toshkentda A.Kunanboev va A.

⁵⁸ Д.Кенжаев “Узбекско-казахстанское сотрудничество в области образования” Материалы международной конференции «Узбекистан – Казахстан: 25 лет установления дипломатических отношений» (г. Ташкент, 31 октября 2017 г.) <http://www.kisi.kz/images/izdanie/4---.pdf>

⁵⁹ Отчет Казахского национального культурного центра Республики Узбекистан (КНКЦ РУ) в Министерство юстиции Республики Узбекистан. - Ташкент, 2007. – 7с.

Navoiy haykalini o'rnatish bo'yicha kelishuvga erishdilar. Bundan tashqari, M. Auezov o'qigan va ishlagan binoda yodgorlik lavhasi ochilishi haqida fikr bildirildi. Mehmondo'st O'zbekiston diyorida Abayning 150 yilligi, M.Auezovning 110 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar, shuningdek Almatida “Amir Temurning O'rta Osiyo xalqlari tarixida tutgan o'rni va roli” mavzusida anjuman bo'lib o'tdi. 2007 yil 15 mart kuni Toshkent viloyati Qibray tumanidagi M.Auezov nomidagi qozoq maktabida buyuk qozoq yozuvchisi tavalludining 110 yilligiga bag'ishlangan yubiley kechasi bo'lib o'tdi⁶⁰.

O'zbekiston Respublikasi rahbariyati qozoq xalqining madaniy merosiga hurmat va ehtirom bilan qaraydi. 2007 yil 29 mart kuni Toshkent shahrida qozoq Batyr Tolebi sharafiga o'tkazilgan xayriya ziyofati bunga misol bo'la oladi. Bundan tashqari, YuNESKOning qaroriga ko'ra, O'zbekistonning dunyoga mashhur shaharlari Buxoro va Xivaning 2500 yilligi hamda Navoiy, Ulug'bek, va boshqa ko'plab olimlarning yubileylari keng nishonlandi.

Madaniy festivallar har yili Toshkent va Ostona o'rtasida o'tkaziladi. Shunday qilib, 2007 yil 18 aprel kuni Kuan'yshbaev nomidagi qozoq davlat drama teatrining gastrol safari, 2007 yil 3-7 oktabr kunlari Toshkentdagi M.Auezov nomidagi qozoq akademik teatri, Xamza nomidagi O'zbek davlat akademik teatri jamoasi ishtirok etgan “Alem Sanniyaz-Qozog'iston” xalqaro san'at festivali bo'lib o'tdi.

Shunday qilib, Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi madaniy aloqalarni faqat zamonaviy davr bilan cheklab bo'lmaydi. Ularning madaniy o'zaro aloqalari uzoq o'tmishga, turkiy sivilizatsiya davrlariga borib taqaladi. Shunga qaramay, mustaqillikka erishgach, ikki Davlat o'rtasidagi madaniy aloqalar bir-biriga teng ravishda to'xtab qolmadi va rivojlanishda davom etmoqda.

Qozog'iston Respublikasi vakillari Samarqandda “Sharq Taronalari”, Shahrisabzda “Maqom”, Termiz shahrida “Baxshi”, Marg'ilonda “Buyuk ipak yo'li”, Qo'qonda “Hunarmand” xalqaro musiqa festivallarida muntazam ishtirok etib kelmoqda⁶¹.

2018 yilda Qozog'iston Respublikasida e'lon qilingan “O'zbekiston yili” doirasida 90 dan ortiq tadbirlar, jumladan, O'zbekiston san'at ustalarining 5 ta konserti, o'zbek teatr truppalarning 4 ta ijodiy safarlari, tasviriy va amaliy san'at 4 ta ko'rgazmasi, 1 ta folklyor ekspeditsiyasi, “O'zbek kinosi kunlari” va Qozog'iston shaharlarida “Madaniyat kunlari” va boshqalar o'tkazildi.

2019 yilda O'zbekistonda “O'zbekistonda Qozog'iston yili” doirasida 80 dan ortiq tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, Qozog'iston Respublikasining “Saltanat” Davlat raqs ansambli, Qizilo'rda viloyat filarmoniyasi, Jambil nomidagi va Qozog'iston Xalq artisti R.Rimbaeva nomidagi qozoq Davlat filarmoniyalarining konsertlari, “Ostana” nomli davlat Opera va balet teatri turlari, I.Omarov nomidagi Qo'stanay viloyat qo'g'irchoq teatri, Qizilo'rda viloyat drama teatri, Ostona balet teatri, Qozog'iston Respublikasi Aktobe viloyati Olakai qo'g'irchoq teatri, shuningdek

⁶⁰Ўзбекистон Республикасининг Қозоғистондаги Элчихонаси расмий сайти
<http://www.uzembassy.kz/ru/page/kulturno-gumanitarnye-svyazi>

⁶¹Ўзбекистон Республикасининг Қозоғистондаги Элчихонаси расмий сайти
<http://www.uzembassy.kz/ru/page/kulturno-gumanitarnye-svyazi>

Qozog‘iston yetakchi rassomlar bilan ijodiy uchrashuvlar tashkil etildi⁶². Ta‘lim va adabiyot sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida O‘zbekiston universitet talabalari o‘rtasida buyuk qozoq ma‘rifatparvari va shoiri Abay Kunanbaevning ijodiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan “Abayning dunyosi - mening jahonim” ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi..

Millatlararo munosabatlar sohasidagi hamkorlik rivojlanmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va do‘stona munosabatlar bo‘yicha qo‘mita faoliyat ko‘rsatmoqda. Xorijiy davlatlar bilan Do‘stlik jamiyatlari va O‘zbekistonning xorijiy davlatlar bilan madaniy-ma‘rifiy aloqalari Kengashi, 138 milliy madaniy markaz, shuningdek, 34 do‘stlik jamiyati faoliyat ko‘rsatmoqda.

1991-2019-yillarda 630 nafar (shu jumladan, 2016 yildan 33 nafar) O‘zbekiston fuqarolari-qozoqlarga davlat mukofotlari topshirildi. 1991 yildan hozirgi kungacha Qozog‘iston fuqarolari O‘zbekistonning yuksak davlat mukofotlarini olishgan. Jumladan, N.A.Nazarbaevga “Buyuk xizmatlari uchun”, “El-yurt hurmati” ordenlari, va A.Maminga “Do‘stlik” ordeni berilgan⁶³.

O‘zbekistonda 1992-yildan buyon 30 ga yaqin hududiy va mintaqaviy filiallarga ega bo‘lgan qozoq Madaniyat markazi, Qozog‘istonda esa 42 ta Qozog‘iston Respublikasining o‘zbek etno-madaniy uyushmasi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda⁶⁴.

Milliy davlatchilik qurilishi bilan o‘tmishga, boy tarixiy merosga, ma‘naviy qadriyat va an‘analarga munosabat o‘zgardi. Xalq bayramlari, urf-odatlarini jonlanib, Qozog‘iston va O‘zbekistonda yashayotgan barcha millat vakillarining milliyligi mustahkamlanmoqda. Ko‘plab atoqli shaxslar - davlat arboblari va harbiy rahbarlar, o‘tmishning buyuk allomalari va mutafakkirlarining nomlari qayta tiklanmoqda.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy hamkorlikni rivojlantirishning yana bir sohasi – bu turizm sohasi bo‘lib bugungi kunda ikki davlat o‘rtasida o‘zaro turizmni rivojlantirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Turizm sohasida O‘zbekiston quyidagi sohalarda Qozog‘iston bilan hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdordir:

- Qozog‘iston turoperatorlar uchun bepul o‘rganish turlarini tashkil etish;
- Tadbir turizmni rivojlantirish (Ipak va ziravorlar festivali, “O‘zbekim” palov festivali);
- O‘zbekiston va Qozog‘iston milliy teleradio kompaniyalari o‘rtasida davlatlar turizm salohiyatiga bag‘ishlangan efir vaqti almashish;
- xorijiy sayyohlar uchun Markaziy Osiyoda Birlashgan turlar yaratish masalasini ko‘rib chiqish;
- Qozog‘iston ommaviy axborot vositalari uchun matbuot turlarini tashkil etish;
- O‘zbekistondagi xalqaro ko‘rgazmalarda Qozog‘iston ishtirokchilari uchun stand tashkil etish bo‘yicha chegirmalar taqdim etish
- Qozog‘istonda O‘zbekiston reklama kampaniyasini tashkil etish;

⁶² Ўзбекистон Республикасининг Қозоғистондаги Элчихонаси расмий сайти
<http://www.uzembassy.kz/ru/page/kulturno-gumanitarnye-svyazi>

⁶³ Ўзбекистон Республикасининг Қозоғистондаги Элчихонаси расмий сайти
<http://www.uzembassy.kz/ru/page/kulturno-gumanitarnye-svyazi>

⁶⁴ Ўзбекистон Республикасининг Қозоғистондаги Элчихонаси расмий сайти
<http://www.uzembassy.kz/ru/page/kulturno-gumanitarnye-svyazi>

- kasaba uyushmalari orqali yirik korxonalar, zavod va fabrikalar xodimlari uchun turlar tashkil etish;
- maktab, kollej, oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun turlar tashkil etish;
- xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalarda sayyohlik mahsulotlari (turlar) qo‘shma taqdimotini o‘tkazish;
- ikki mamlakat o‘rtasida investitsiya salohiyatini kuchaytirish maqsadida O‘zbekistonda qo‘shma korxonalar tashkil etish;
- O‘zbekiston va Qozog‘iston turoperatorlari o‘rtasida B2B ish uchrashuvlarini tashkil etish⁶⁵;

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida siyosiy sohadagi hamkorlik ikki davlat siyosiy vakillari o‘rtasida turli sohalarda olib boriladi. Chunonchi, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida “O‘zbekiston-Qozog‘iston do‘stlik parlament guruhi” faoliyat ko‘rsatmoqda. Mazkur guruh har ikki tomon parlament a‘zolarini qamrab olgan bo‘lib, Parlamentlar doirasida ikki davlat o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston Markaziy Saylov Komissiyalari, siyosiy partiyalari o‘rtasida ham hamkorlik o‘rnatilgan bo‘lib, ular asosan o‘zaro tajriba almashish, partiya vakillarini saylovlar davrida mustaqil kuzatuvchi sifatida ishtirok etish kabi yo‘nalishlarda hamkorlik olib boriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish mumkinki, O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida ijtimoiy-siyosiy hamkorlik rivojlanishi ikki davlat o‘rtasida o‘zaro tushunish, xalqlar o‘rtasida bir-biriga bo‘lgan hurmat oshishiga xizmat qiladi. Qolaversa, O‘zbekiston-Qozog‘iston munosabatlari izchil rivojlanmoqda. Qozog‘iston O‘zbekistonning muhim savdo sheriklaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi bilan Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi ayirbosh qilinadigan mahsulotlarning yarmi uning hissasiga to‘g‘ri keladi. Ikki davlat o‘rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun ishga solinmagan imkoniyatlar ko‘pdir. Qozog‘iston bilan ikki tomonlama hamkorlik, shubhasiz, mintaqada barqarorlikni ta‘minlash va dolzarb masalalarni birgalikda va samarali hal etishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Qozog‘iston va O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi barqaror rivojlanayotgan davlatlar sifatida mintaqadagi xavfsizlikni ta‘minlashda asosiy aktorlar hisoblanishadi. Ikki davlat rahbarlarining olib borayotgan oqilona siyosati natijasida, birinchi navbatda Afg‘oniston muammosini hal qilish, juda muhim ekanligini ta‘kidlab, Afg‘onistonga amaliy yordam ko‘rsatib kelishmoqda. Ikki davlat aloqalari Markaziy Osiyodagi xavfsizlikni taminlashda, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda, mintaqada davlatlarining hamkorligini rivojlantirishda juda muhim hisoblanadi. Ikki davlat ham buni yaxshi tushungan holda aloqalarni yanada rivojlantirmoqda.

Bugungi kunda jahonda xalqaro miqyosdagi xavf-xatarlar, beqarorlik omillari bilan to‘qnash kelmagan birorta ham mintaqada bo‘lmasa kerak. Markaziy Osiyoning

⁶⁵ Усманов Р. “Узбекистан – Казахстан: историко-культурное наследие и перспективы сотрудничества в области туризма” МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ «УЗБЕКИСТАН – КАЗАХСТАН: 25 20 ЛЕТ УСТАНОВЛЕНИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ» (г. Ташкент, 31 октября 2017 г.) <http://www.kisi.kz/images/izdanie/4---.pdf>

hozirgi dunyodagi ahamiyati mintaqaning imkoniyatlari va kreativ salohiyati bilangina belgilanmaydi. Marakaziy Osiyo bu yerdan kelib chiqayotgan va tarqalayotgan xavf-xatar va tahdidlar tufayli ham jahon hamjamiyatining markazidadir. Mintaqaning ayni paytdagi geosiyosiy ahamiyatini belgilovchi omillar guruhini mintaqa taraqqiyotiga g‘ov bo‘layotgan tahdidlar tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati Bilan Qozog‘iston Respublikasi Hukumati o‘rtasida “madaniyat, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, ta’lim, turizm va sport sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risida bitim” <https://www.lex.uz/ru/docs/2565040>
2. O‘zbekiston Respublikasining Qozog‘iston Respublikasidagi elchixonasi rasmiy sayti <http://www.uzembassy.kz/ru/page/kulturno-gumanitarnye-svyazi>
3. Кенжаев Д. “Узбекско-казахстанское сотрудничество в области образования” Материалы международной конференции «Узбекистан – Казахстан: 25 лет установления и дипломатических отношений» (г. Ташкент, 31 октября 2017 г.) <http://www.kisi.kz/images/izdanie/4---.pdf>
4. Отчет Казахского национального культурного центра Республики Узбекистан (КНКЦ РУ) в Министерство юстиции Республики Узбекистан. - Ташкент, 2007. – 7с.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qozog‘istondagi Elchixonasi rasmiy sayti <http://www.uzembassy.kz/ru/page/kulturno-gumanitarnye-svyazi>
6. Усманов Р. “Узбекистан – Казахстан: историко-культурное наследие и перспективы сотрудничества в области туризма” Материалы международной конференции «Узбекистан – Казахстан: 25 лет установления дипломатических отношений» (г. ташкент, 31 октября 2017 г.) <http://www.kisi.kz/images/izdanie/4---.pdf>

2-SHO‘BA. AMALIY PSIXOLOGIYA VA ZAMONAVIY DUNYO

UDK.75.056.(576.1)

TALABALARNING ILMIY TAFAKKURIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI O‘RGANISH YO‘LLARI

Shamsiddinov Sadriddin Saparovich

TMC Instituti, Pedagogika va psixologiya

kafedrasi o‘qituvchisi

sadriddinshams2408@gmail.com

Annotatsiya: Yigitlar va qizlarni dunyoni anglashiga ular yashab turgan ijtimoiy makon (mikrojamiyat, mezojamiyat va makrojamiyat) jiddiy, chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Bu yerda jonli muloqotda ular hayot hamda kattalar, kasbiy sohasida o‘z-o‘rnini topgan kishilar faoliyati bilan tanishadilar.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy makon, mikrojamiyat, mezojamiyat va makrojamiyat, jonli muloqot, kasbiy sohasi, faoliyati.

INFLUENCE ON THE SCIENTIFIC THINKING OF STUDENTS WAYS OF STUDYING THE DRIVEN FACTORS

Abstract. The social space in which they live (micro-society, meso-society and macro-society) has a serious and deep influence on boys' and girls' understanding of the world. Here, in a lively conversation, they get to know the life and activities of adults and people who have found their place in the professional field.

Key words: social space, micro-society, meso-society and macro-society, live communication, professional field, activity.

Har kuni ishda hamkasblar, o‘qishda tengqurlar, oilada esa ota-onamiz, aka-ukalarimiz bilan, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari va virtual olam orqali ham muloqot qilamiz. Ushbu muloqotlarning dunyoqarashimizga, tafakkurimizga, muloqotimizga qanday ta’siri bor? U ma’naviy hayotimizni to‘ldiradimi, boyitadimi? Shu nuqtayi nazardan qaysi vositalar, omillarning yoshlar o‘y-fikrlariga ta’siri qay darajada ekanligini o‘rganish ham hayotiy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Yigitlar va qizlarni dunyoni anglashiga ular yashab turgan ijtimoiy makon (mikrojamiyat, mezojamiyat va makrojamiyat) jiddiy, chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Bu yerda jonli muloqotda ular hayot hamda kattalar, kasbiy sohasida o‘z-o‘rnini topgan kishilar faoliyati bilan tanishadilar. Shunday bo‘lsa-da, oila yigitlar va qizlar o‘zlarini eng xotirjam his qiladigan mikrojamiyatligicha qolmoqda. Ota-onalar bilan hayotiy istiqbollari, asosan, kasb to‘g‘risidagi masalalar muhokama qilinadi, ayni vaqtda ular o‘z hayotiy rejalarini ustozlari, o‘zlarining ular uchun fikri muhim bo‘lgan yetuk yoshdagi tanishlari bilan, albatta, bir-birlari bilan o‘rtoqlashadilar. Olib borgan tadqiqotimizda yoshlarning tafakkuriga qaysi omillar qanday ta’sir etayotganini

o‘rganish uchun ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma asosida respondentlarga bir qator savollar bilan murojat qildik. Talabalar ko‘proq kimlar bilan shaxslararo munosabatda bo‘lishlarini aniqlash maqsadida “Muloqotga ko‘proq kimlar bilan kirishasiz?” degan savolga tadqiqotda ishtirok etgan tabiiy yo‘nalish talabalarining 85,6%, gumanitar yo‘nalish talabalarining 86,9%, texnik yo‘nalish talabalarining 95%, litsey o‘quvchilarining 90,4%, maktab o‘quvchilarining 97% ota-onam bilan degan javobni bildirganlar. Shu bilan birga aka-uka, opa-singillari bilan muloqotga kirishishni afzal ko‘rishlarini bildirganlar. Talabalar guruhlarida sinfdoshlariga nisbatan kursdoshlari bilan ko‘proq muloqot qilishni afzal ko‘rishgan. Bu tabiiy hol, chunki har kuni o‘qish faoliyatida ko‘p vaqtlarini birga o‘tkazishlari birinchi omil bo‘lsa, ikkinchi omil esa ularning hozirgi kunda bir xil maqsadlar bilan ijtimoiy guruh a‘zosi ekanligi va ularning bahsmunozaralarga undaydigan umumiy mavzuning mavjudligi bilan xarakterlidir.

Yoshlarning ijtimoiy hodisalar, kishilar bilan o‘zaro munosabat sohalaridagi muammolarini qo‘yish va hal qilish, o‘z hayot yo‘lini tanlashga yo‘naltirilgan maqsadlari, shaxs va jamiyatning o‘ziga xos aloqalari bilan belgilanadigan hamda tafakkurning barcha asosiy bosqichlarida namoyon bo‘ladigan his etish, muammolilik, muqobil yechimlarni tanlash va talqin qilishda namoyon bo‘ladi. Albatta, oilada ota-ona bilan ko‘p muloqot qilishi tabiiy. Chunki yer yuzidagi insonlarning aksariyati oilalarga birlashib yashashni xohlaydilar. Bizning mamlakatimizda ham oila eng qadimiy ijtimoiy institut sifatida o‘z faoliyatini milliy qadriyatlarimiz va urf odatlarimizni avloddan avlodga yetkazuvchi muqaddas makondir. Shuning uchun ham mamlakatimiz siyosatida ham oilalarning barqaror va mustahkam bo‘lishi uchun bir qator qonun va farmonlar mavjud. Yoshlar ham ilmiy muhitga bo‘lgan qiziqishlarining ilk kurtaklari namoyon bo‘lishi, uning oila a‘zolari bilan bo‘ladigan samimiy munosabatlarida kechadi. Yuqoridagi diagrammadan ham ko‘rinib turibdiki, o‘spirin yoshlar asosan muloqotni o‘zi bilan eng ko‘p birga istiqomat qilgan insonlar bilan amalga oshirishini anketa savollariga bergan javoblarida ma‘lum bo‘ldi. Tadqiqotimiz davomida o‘spirinlar o‘y-fikrlariga va ijtimoiy hayotdagi vaziyatlarni hal qilishda muloqotning qaysi turidan foydalanishlarini aniqlashga harakat qildik. Tadqiqot davomida o‘spirinlarning ko‘pchilik qismi ommaviy kommunikatsiya va virtual olamga nisbatan yuzma-yuz muloqot shaklidan foydalanishlarini qayd etganlar. O‘spirinlik yoshi o‘ziga xos jo‘shqin bir davr bo‘lib, bu davrda inson uchun uning kelajakdagi hayotida muhim bo‘lgan maqsadlarni qanday amalga oshirishi uchun o‘y-fikrlarga cho‘mgan davrdir. Shuning uchun bu davrda ular muloqotning barcha turlaridan foydalanishga harakat qiladilar. Hattoki, yuzma-yuz muloqot qilish vaqtida ham bir-birlari bilan ma‘lumotlarni kimdan, qaysi manbadan, qanday saytlardan degan savollarga javob topib o‘z fikrlari tasdig‘ini topish uchun ham shaxslararo munosabatga kirishni afzal ko‘radilar.

Ijtimoiy tarmoqlardan esa telegram kanalini ma‘qul ko‘rganlar. Telegram kanalini afzal ko‘rishlari, albatta, tabiiy. Chunki qulaylik va mobil qurilmalar orqali ham hamma yerda foydalanish imkoniyati baland, shuning uchun fikr almashish uchun o‘spirinlar ko‘proq telegram kanalidan foydalanadilar. Elektron pochta, whatsapp va instagramdan juda kamchilik o‘spirinlar foydalanishlarini, muloqotning boshqa turlari

bilan munosabatda kamroq bo'lishlarini qayd etishgan. O'spirinlarning dars vaqtlari tugagandan so'ng ular qanday mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlarini aniqlash maqsadida “Bo'sh vaqtingizda nimalar bilan shug'ullanasiz?” degan savol bilan murojaat qildik. Tadqiqot natijalarining tahliliga ko'ra, litsey o'quvchilarining 73,8%, texnik yo'nalish talabalarining 50%, maktab o'quvchilarining 49,2% internetdan qiziqarli ma'lumotlarni o'rganishni o'z qarashlaridan kelib chiqib ma'qul ko'rishlarini bayon qilganlar. Tadqiqotda ishtirok etgan barcha yo'nalish talabarlari chet tilini o'rganish bugungi davrning talabi ekanligini anglab yetganlar. Bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishda kitob o'qish bo'yicha litsey o'quvchilarida ustunlikni ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda prezidentimizning 2019-yil 30-sentyabrdagi “Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijrosi doirasida o'quvchi yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va o'sib kelayotgan avlodning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, shu bilan birga yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta muhim tashabbus amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Tadqiqot davomida o'quvchilar va talabalar axborotning turli manbalari, ko'rinishlari, uning shakllari to'g'risidagi tasavvurga ega ekanliklarini ko'rsatdi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining tabiiy fanlar yo'nalishi talabarlari 80,4%, gumanitar yo'nalish talabarlari 95,6%, texnik yo'nalish talabarlari 93,2% va litsey o'quvchilarining 90,4%, maktab o'quvchilarining 89,8% uchun axborot olishning asosiy vositasi internet ma'lumotlari ekanligini o'z javoblarida ta'kidlashgan. Oilada ota-onamdan olaman degan javoblarni ham salmoqli ekanligini kuzatdik. Ko'pincha yoshlar internet va boshqa manbalardan olgan yangi ma'lumotlarini ham ota-onalaridan to'g'ri, ishonchli ekanligini tasdiqlash uchun ham ularga murojaat qiladilar. Internetdan axborot ko'proq ishonarli, biroq hissiy-ijtimoiy va nufuzli ehtiyojlar axborot sifatida baholanadi. O'quvchilar va talaba yoshlar axborotni izlash, olish va uzatish uchun mobil qurilmalardan foydalanishni afzal ko'rishadi. Muloqot qilish, o'rganish, yangiliklarni izlash, ijtimoiy faollik va ko'ngilxushliklar uchun internet zahiralardan foydalanmoqda. Ular bir kecha-kunduzda besh soatdan ortiqroq vaqtni internet tarmog'ida o'tkazmoqda, axborotni ko'z bilan ko'rish hamda uni ovozli xabarlar shaklida uzatishni afzal ko'radilar.

Kitoblardan olingan axborotga katta ishonch litsey o'quvchilarida qayd etilgan. Ma'naviy kamolot va bilimning manbasi kitob bilan bog'langan. Kitob bo'lmasa, uni o'qimasa, bilimdonlik shakllanmasligi sir emas. Donolikni va bilimdonlikni o'rgatish, saqlash va tarqatish ana shu kitoblarga bog'liq. Kitob faqat o'tmishni bilish uchun emas, balki kelajakni ham belgilab beruvchi, ijod qilish manbayidir. Shu bilan birga, kitob o'qish ham mehnatdir, ham bekorchilikning kushandasidir. U insonlarga kulfatlardan qutulish yo'lini ko'rsatuvchidir. Adabiyot jahon tarixida eng hayratomuz, eng ajoyib, beqiyos bisotlarning biridir. Butun tarix davomida adabiyot insoniyatning hamrohi bo'ldi. U insoniyatni ozodlikka, farovon hayot uchun kurashga undadi, jasoratga chorladi, uning his-tuyg'ulari, go'zalliligini madh etdi, baxtsiz kunlarida dalda berdi, g'ayrat bilan ishlashga madad berdi. Avlodlarning asrlar osha aloqasi mana shu adabiyot orqali o'z ifodasini topdi. U dunyoni bilish va

o'zgartirishning betimsol quolidir. Shunga ko'ra bugungi axborotlashgan asrda ham kitob o'qishga bo'lgan ehtiyoj balandligicha qolmoqda. Faqat kitobning nashr shakli emas, elektron shakliga ko'plab murojaatlar bo'layotgani kuzatilyapti. “Kimlardan yangi ma'lumotlarni olasiz?” degan savollarda ham ota-ona, oilamdan degan javoblarni ustunligini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqot natijalarini tahlil etar ekanmiz, shunga amin bo'ldikki, farzandlar ona Vatan haqidagi shaxslararo munosabatlarni, ilm-fanga qiziqishni, avvalo, oila davrasidan olar ekanlar. Tadqiqotimiz davomida o'spirinlarga “Siz qanday mazmundagi axborotlarni ma'qul ko'rasiz?” degan savol bilan murojat qilganimizda, ular ilm-fan yangiliklari, badiiy kitoblar, chet tilini o'rganish, sport va musiqalardan muntazam foydalanishlarini ta'kidlashdi. Pazandalik, turizm haqida, turli kompyuter o'yinlaridan deyarli foydalanmasliklarini o'z javoblarida bildirganlar. Tadqiqotda ishtirok etgan ko'pchilik gumanitar yo'nalishda tahsil olayotgan o'spirin qizlarimizda ham bugungi kunda texnikaga qiziqish yuqori ekanligini kuzatdik. Raqamlashgan jamiyatda axborot muhiti shaxsiy ahamiyatga ega muhitga aylanmoqda. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini muayyan axborot guruhlari bilan taqqoslash hamda o'zini namoyon etishning yangi imkoniyatlari uchun axborot manbalari va mazmunini, uni uzatish shakllari va vositalarini tanlashni taqdim etgan holda bilimlarga keng yo'l ochmoqda. Axborot afzalliklarini individuallik va ijtimoiylik birligi, shaxs va axborot muhitida taqdim etilgan tahlil birligi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bu axborot afzalliklarini axborotli ijtimoiylashuvning eng muhim omili deb hisoblashga hamda shaxsni yaratish va ijtimoiy mansublikdagi ularning rolini o'rganishga imkon beradi.

Tadqiqotimiz natijalaridan ma'lum bo'ldiki, o'spirinlarning ilmiy-innovatsion tafakkurini shakllantirishga oiladagi shaxslararo munosabatlar, virtual muloqot, kitoblar, do'stlar bilan muloqotdagi xabarlar asosiy vosita bo'lib, ular yoshlarning hayotida muhim o'ringa ega ekan. Agar yuqoridagi axborot maydonlarini yoshlar uchun ma'lumot olish manbayi deb hisoblasak, ular uchun bu vositalarning ta'limtarbiya samaradorligini oshirishda saviyasi, uning rang-barangligiga yanada ahamiyat berish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Голубева Н.А., Марсинковская Т.Д. Информационная социализация: психологический подход. Психологические исследования, 2011, 6(20), 2. <http://psystudy.ru>
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – T.: “Universitet”, 2016.- 96 b.
3. Тихомиров О.К. Психология мышления. - М.: Академия, 2002.- 287 с. 4. G'oziyev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. – T.:O'qituvchi. 1990. – 183 b.

UDK 740

YAPON TA'LIM - TARBIYA PSIXOLOGIYASIGA BIR NAZAR

Aslonov Ilkhom Nizomovich

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası mudiri, filolog, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

ilhom-aslonov@mail.ru

Annotatsiya: Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida o'tkazilayotgan islohotlarning maqsadi mamlakat ta'limini yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning boy va qadimiy me'rosi, pedagogik tajribasidan samarali foydalanish, shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganib, eng foydali ta'lim uslub va metodlarini o'zlashtirishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: Yapon ta'limi, oilada bola tarbiyasi, dunyoqarash, ta'lim, psixologiya.

A LOOK AT JAPANESE EDUCATIONAL PSYCHOLOGY

Abstract: The purpose of the reforms carried out in the education system of the Republic of Uzbekistan today is to raise the country's education to a new level, to effectively use the rich and ancient heritage and pedagogical experience of our people in the education and upbringing of the young generation, and at the same time, to study the experience of developed countries and master the most useful educational methods and methods.

Keywords: Japanese education, family upbringing, outlook, education, psychology.

Mamlakatimiz, tomonidan ta'limga qaratilayotgan e'tibor alohida e'tirofqa sazovordir, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarining qayta qurilayotganligi, moddiy-texnik jihatidan jihazlanayotganligi, yangi tipdagi maktablar tashkil etilayotganligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Prezidentimiz, mamlakat rahbariyati tomonidan o'qituvchilarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi sha'ni, hurmatini o'rniga qo'yish, ularni rag'batlantirish borasida qilinayotgan sa'yi-harakatlar bugungi kunda ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarning o'z kasbidan faxr-iftixor tuyg'ularini tuyishlari bilan bir qatorda ularning jamiyat oldida yuksak mas'uliyati mavjudligidan dalolat beradi. Bu say'i-harakatlar jamiyatdagi ta'limga, maktabga va o'qituvchiga bo'lgan munosabatni o'zgartirishga, eski tizimning adminstrativ-buyruqbozlik usullaridan voz kechishga qaratilgan muhim qadamdir.

O'z tarixida ta'lim tizimidagi islohotlar evaziga yuqori taraqqiyotga erishgan mamlakatlar tajribasini o'rganish bugungi kunda mamlakatimiz ta'limida kechayotgan o'zgarishlarni teranroq tushunishga yordam beradi.

Shunday mamlakatlardan biri Yaponiyadir. Biz Yaponiya tajribasiga murojaat qilishimizning boisi shundaki, yapon millatining urf-odatları, milliy qadriyatları, oilaviy munosabatlari xalqimiz qadriyatlariga yaqindir. Aslida, yapon tili turkiy tillar mansub bo‘lgan Oltoy tillari oilasiga kiradi. Shuning uchun xalqlarimiz orasida umumiylik bo‘lishi tabiiy holdir.

Zamonaviy yapon oilasi bir qancha o‘ziga xoslikni saqlab keladi, ularning eng asosiysi – patriarxallik. An’anaviy yapon oilasi bu – ona, ota va ikki farzand. Avvallari oilaviy rollar aniq differensiyalashgan edi: er – boquvchi, xotin – uy bekasi, ammo keyingi paytlarda g‘arb madaniyatining ta’siri sezila boshladi, yapon ayollari oilaviy majburiyatlarni ish bilan qo‘shib olib borishga harakat qilishmoqda, ammo erkaklar bilan tenglashishga ularga hali ancha bor, hozirda ham ularning asosiy vazifasi uy va bolalar tarbiyasi, erkaklar esa doimo ish bilan band.

Xotinga nisbatan keng ishlatiladigan murojaat “kanay” so‘zining tub ma’nosi “uy ichida” degan iborani, erga nisbatan ishlatiladigan “syudzin” so‘zi esa “bosh odam”, “xo‘jayin” degan ma’noni bildiradi. Oiladagi bu tartib bolalarga munosabatda ham aks etadi. Yapon tilida “aka” va “opa” so‘zlari yo‘q. Ular o‘rnida “ani” (katta aka), “ottooto” (kichik aka), “ane” (katta opa), “imooto” (kichik opa) so‘zlari qo‘llaniladi, ya’ni har bir farzandning o‘rni aniq belgilangan. Shu tarzda oila a’zolarining yuqorida va quyida turishi g‘oyasi bola ongida mahkam o‘rnashgan, bosh o‘g‘ilni boshqalaridan ko‘ra alohida ajratishadi, uning huquqlari ko‘proq, shu bilan bir qatorda majburiyatlari ham ko‘p, albatta. Ota-onani hurmat qilish, keng ma’nodagi kattalar irodasiga bo‘ysunish – mana shu yaponlar tafakkuridagi insonning eng muhim axloqiy majburiyatidir [2].

Yaponlar bolaga hech narsani ta’qiqlashmaydi, kattalardan ular faqat “xavfli”, “yomon” kabi ogohlantirishlarni eshitishadi. Agar bola baribir qoqilib yiqilsa, ona o‘zini aybdor his qiladi va uni ehtiyot qilolmagani uchun bolasidan kechirim so‘raydi. Bolalar yura boshlaganda ularni hech qachon qarovsiz qoldirishmaydi. “Hamma narsa mumkin” bo‘lgan davr faqat 5 yoshgacha davom etadi. Shu davrgacha yaponlar bolalarga “podshoday” munosabatda bo‘lishadi. 5 yoshdan 15 yoshgacha esa “quldek” munosabatda bo‘lishadi. Keyin esa “do‘st” bo‘lishadi. Bu sharqona hikmat bizga ham notanish emas, ammo farqi shundaki, yaponlar bunga qat’iy rioya etishadi. 15 yoshli o‘smir o‘z majburiyatlarini yaxshi biladigan, qoidalarga qat’iy rioya etadigan “katta odam” sifatida qabul qilinadi [1].

Yapon tarbiyasining “ajabtovurligi” ham shundaki, bolaligida hamma narsaga ruxsat berilgan boladan kelgusida intizomli va qonunlarga itoat etuvchi fuqaro shakllanadi. Bu holatni ko‘r-ko‘rona boshqa bir mamlakat uchun tatbiq etish notug‘ri bo‘lardi, chunki bu narsani yapon dunyoqarashi hamda turmush tarzidan ayro holda ko‘rib bo‘lmaydi. Ha, kichkina bolaga bu yurtda hamma narsaga ruxsat beriladi, ammo 5-6 yoshda bola ma’lum bir vaziyatda qanday hatti-harakat qilish aniq belgilab qo‘yilgan, juda qat’iy qoida va cheklovlar tizimi muhitiga tushadi. Bu qoidalarga rioya etmaslikning iloji yo‘q, chunki ularga hamma buysunadi, boshqacha yo‘l tutish “o‘z qiyofasini yo‘qotish”, jamoadan ajralishni anglatadi. “Hamma narsa o‘z vaqti soati bilan” – yapon dunyoqarashining asosiy tamoyillaridan biridir. Bolalar buni ilk yoshlaridanoq o‘zlashtiradilar.

Yaponlar bolaga nisbatan ovozlarini balandlatishmaydi, jismoniy jazo u yoqda tursin, ularga tanbeh ham berishmaydi. Chetdan qaraganda ular bolalarni umuman tergamayotgandek tuyuladi, ammo, hamma narsani so‘z bilan ifodalamaslik yapon nutq madaniyatining o‘ziga xos jihati bilan bog‘liqdir. Shuning uchun yaponlar suhbatdoshning kayfiyatini, uning haqiqiy munosabatini intuitiv his qilishga moyildirlar. Yapon ayoli bolalari ustidan hukm o‘tkazishga harakat qilmaydi, ularning fikricha, bu narsa ularning begonalashishiga olib keladi. Onalar bolalar xohish – irodasi bilan raqobatga kirishishmaydi, balki, o‘z noroziliklarini bilvosita anglatishga harakat qilishadi: bolaning nomaqbul hatti-harakati ularni juda xafa qilganligini bildirishadi. Ziddiyatlar yuzaga kelganida ular boladan uzoqlashmaydilar, aksincha, ularni boshqarishning asosiy vositasi sifatida o‘rtadagi emotsional aloqani kuchaytiradilar.

Jamiyatda o‘zini tutishni o‘z misolida namoyish etish, o‘rnak ko‘rsatish – eng muhim vosita bo‘lib hisoblanadi. Bolalar o‘z onalarini shu darajada yuqori o‘ringa qo‘yishadiki, ularni xafa qilganliklaridan qattiq aybdorlik hissini tuyushadi. Eng og‘ir ma‘naviy jazolash usulini “begonalashuv tahdidi” - deb atash mumkin. Oiladan ajratish yoki guruhdan haydaliq yapon bolalari uchun eng dahshatli jazodir, chunki yaponlar o‘zini jamoadan ayro holda tasavvur eta olmaydilar. Yaponcha axloqiy qoida shunday tarbiya beradi: “o‘zing mansub bo‘lgan guruhingni top, unga sodiq bo‘l va suyan. Yolg‘iz bo‘lsang sen hayot so‘qmoqlarida adashasan, hayotdagi o‘rningni topa olmaysan”. G‘arb induvidualizmidan farqli o‘laroq, yaponlar jamoaviylikni afzal ko‘radilar va bolalarda aynan shu sifatni tarbiyalashadi [1].

Yevropalik ota-onalar bilan solishtirganda yaponlar bola tarbiyasiga nisbatan g‘ayratliroq hamda tirishqoqdirlar. Bu borada ular o‘zlarining bolalarga nisbatan xotirjam va e‘tiborli ekanliklarini namoyon etadilar, kichkina bolaga uni qiziqtirgan savolini tushuntirib berish uchun ular albatta zarur darajada vaqt ajratadilar.

Yaponiyada an‘anaviy tarzda bolalarni “yaratganning tortig‘i” deb qabul qilishadi va bolani tushunish qobiliyatiga juda katta ahamiyat berishadi. Yaponlar avloddan-avlodga tarbiyaning asosiy qoidasini etkazishadi – bolalarni tarbiyalashda ularning xarakteridagi ijobiy sifatlarni rivojlantirishga harakat qilish. Asosiy urg‘u odamlarga, hayvonlarga nisbatan mehrli, oliyjanob munosabatda bo‘lish, tabiatga ehtiyotkorona munosabat, go‘zallik va ulug‘vorlik hislarini tarbiyalashga, o‘z-o‘zini nazorat, jamiyat rivojiga o‘z hissasini qo‘shish kabi zamonaviy kishilar uchun zarur sifatlarni shakllantirishga qaratiladi.

Yaponlar birinchilardan bo‘lib, go‘daklikdan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapira boshlashgan. Bundan 50 yil ilgari mamlakatda “Uch yoshdan keyin kech” degan kitob nashr etilgan bo‘lib u yapon pedagogikasida to‘ntarish yasadi. Uning muallifi, Masaru Ibuka – “Talantlar tarbiyasi” tashkiloti direktori va dunyoga mashhur “Soni” firmasi yaratuvchisi bo‘lib hisoblanadi. Kitobda aytilishicha, birinchi uch yillikda bola shaxsining poydevori qo‘yiladi. Kichkina bolalar barcha narsani juda tez o‘zlashtiradilar, ota-onaning asosiy vazifasi bolaning o‘z qobiliyatlarini yuzaga chiqarishi uchun sharoit yaratishdir.

Yapon pedagogikasining asosiy vazifasi – jamoa bilan yakdil mehnat qila oladigan insonni tarbiyalashdir. Bolalarni ochiq raqobat qilishdan qochishga o‘rgatishadi, chunki birining g‘alabasi boshqasining mag‘lubiyatidir.

Bolalar 3-5 yoshdan bog‘chaga borishadi. Ularni 8 kishilik guruh(xan)larga birlashtirishadi. Yapon bog‘chalarida bolaning “o‘z ish joyi” mavjud, ya‘ni yapon bolalari bog‘chaga “ishga” borishadi. Bu holat ularda go‘daklikdan mas‘uliyat hissini tarbiyalashga qaratilgan. Avval ta‘kidlaganimizdek, guruhlarda individuallikdan ko‘ra jamoaviylikni tarbiyalashga ko‘proq ahamiyat berishadi. Har besh oyda bolaning guruh(xan)i o‘zgartiriladi. Agar bola 2 yil bog‘chada bo‘lsa, demak u 4 ta guruhga qo‘shiladi. Turli xarakterdagi bolalar bilan muloqotga kirishuv hamda birgalikdagi faoliyat bolada kelajakda ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bizda ota-onalar ko‘pincha bolani bir guruhdan boshqa guruhga o‘tkazishga qat‘iy qarshilik ko‘rsatishadi. Ammo, ilk bolalik davrida bola psixologik jihatdan ancha moslashuvchan bo‘lib, o‘zgarishlarga tez ko‘nikadi, shu xususiyatdan foydalangan holda bolalarda ijtimoiy adaptatsiyani rivojlantirish masalasi shaxs shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyachilari bilan suhbatda ayrim bog‘chalarimizda xuddi shunday tajriba joriy etilayotganligi aytib o‘tishdi. O‘ylaymizki, yuqoridagi tajribani boshqa muassasalarda ham ommalashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi [3].

Boshlang‘ich ta‘limda bolalar davlat hisobidagi 1945 “kandji” hieroglifdan 1006 tasini yod olishi kerak. Kanji bilan bir qatorda, Yaponiyada ikkita alifbo turi “hiragana” va “katakana” mavjud. Har bir to‘plamda 46 ta belgilar mavjud. Original tovushlarni o‘zgartirish uchun ishlatiladigan aniq nuqtalar bilan birlashgan holda, bu belgilar zamonaviy yapon tilining barcha tovushlarini ifodalash uchun etarli. Hiragana oddiy yaponcha so‘zlarni yozish uchun kanji bilan birgalikda ishlatiladi. Katakana boshqa tillardan olingan so‘zlarni, begona odamlar va joylar, tovushlar va hayvonlarning hayqiriqlarini yozish uchun ishlatiladi.

Ta‘lim Yaponiyada oila, jamiyat va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan – “iloh” darajasiga ko‘tarilgan, chunki, mamlakatda qabul qilingan “umrbod yollanish” tamoyili insonga jamiyatda munosib joyni egallash uchun faqat bir marta imkoniyat beradi va yaxshi ta‘lim olish shu imkoniyatni muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun kafolat yaratadi.

Yapon maktablarining an‘anaviy maqsadi ta‘lim berishdan ko‘ra ko‘proq tarbiyalashga qaratilgan, zero, xalq orasida “olim bo‘lishdan ko‘ra yaxshi odam bo‘lish afzalroqdir”, degan ibora mavjud. Bu maqsad kichik maktab yoshidagi sinflarda o‘quv rejalariga kiritilgan maxsus fanlar orqali amalga oshiriladi.

Kunchiqar mamlakatda bugungi kun dunyo mamlakatlari uchun umumiy bo‘lgan, yoshlarning kattalar tanqidini qabul qilmaslik holatlari, kattalarga, shu jumladan, ota-onalarga nisbatan agressiv munosabatlar, o‘smirlar o‘rtasida suidsidning o‘sishi kabi bir qancha salbiy holatlar ham uchraydi, albatta. Ammo, o‘rtadagi farqlarga qaramasdan, yaponlardan bolalarga nisbatan g‘amxo‘rlik, yangi avlod muammolariga e‘tibor, ota-onalarning bola taqdiri uchun yuqori mas‘uliyati, oilaviy an‘analarga bo‘lgan hurmat kabi sifatlardan o‘rnak olsa arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Корецкая, С.В. Семейное воспитание в традиционных культурах :На материале Японии и Северного Кавказа/ С.В. Корецкая. – диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Владикавказ, 2003.
2. Накасонэ Я. Государственная стратегия Японии в 21 веке: Пер. с яп. М., 2001.
3. Официальный сайт Министерства образования, культуры и спорта Японии: <http://www.monbu.go.jp>

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING MAKTABGA
MOSLASHUVI BORASIDAGI SHARQ MUTAFAKKIR OLIMLARINING
QARASHLARI**

Jurayeva Dilfuza Abdug‘aniyevna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek til va adabiyoti universitet
o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada sharq mutafakkir olimlarining bolalarga ta’lim berishda inobatga olish kerak bo‘lgan jihatlarining mazmun mohiyati borasidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Bola, tarbiya, oila, vatanparvarlik, oliyjanoblik, ta’lim, kasb-hunar, mehnat.

**THE VIEWS OF EASTERN THINKERS ON SCHOOL ADJUSTMENT
OF PRIMARY SCHOOL CHILDREN**

Abstract: The article describes important materials that should be taken into account in raising children by Eastern thinkers.

Key words: Child, education, family, patriotism, nobility, education, profession, labor

O'smirlik davrida xotiraning qayta qurilishi bilan bog'liq muhim jarayonlar amalga oshadi. Mantiqiy xotira aktiv rivojlana boshlaydi va bola ko'proq xotiraning mazkur turidan, shuningdek, ixtiyoriy va bilvosita xotiradan foydalana boshlaydi. Hayot davomida mantiqiy xotiradan ko'proq foydalanish oqibatida mexanik xotira rivojlanishi sekinlashadi. Maktabda yangi fanlarning ko'payishi natijasida o'smir mexanik tarzda eslab qolishi kerak bo'lgan informatsiyalar soni ham ortib boradi. Shuning uchun ham kichik maktab yoshidagilarga nisbatan o'smirlarda xotira bilan bog'liq muammolar va xotirasining yomonligiga doir ko'plab shikoyatlar bo'lib turadi.

Shu bilan bir qatorda, o‘smirlarda xotirani yaxshilash usullariga bo‘lgan qiziqish ortib ketadi.

A.N.Leontev bolalik davrida xotiraning ikki ko‘rinishi, ya’ni bevosita va bilvosita xotira rivojlanishini tadqiq etgan bo‘lib, ularni katta maktab yoshida qayta shakllanishining o‘ziga xos jihatlarini aniqlagan. U yosh kattalashishi bilan bilvositaga nisbatan bevosita eslab qolish yaxshilanib borishini ko‘rsatib bergan. Shu bilan birga, maktabgacha yosh davridan kichik maktab yoshi davrigacha bo‘lgan paytda bevosita va bilvosita eslab qolish samaradorligi o‘rtasidagi uzilish kattalashadi. Keyin o‘smirlik va o‘spirinlik davrida esa bevosita eslab qolish samaradorligining o‘sishi sekinlashib, bir vaqtning o‘zida bilvosita eslab qolish samaradorligi o‘sadi.

Yosh o‘tishi bilan xotira va tafakkur orasidagi munosabatlar ham o‘zgaradi. Ilk bolalik davrida xotira eng asosiy psixik funksiyalardan biri bo‘lib, uning asosida qolgan psixik jarayonlar shakllanadi. Bu davrdagi bolaning tafakkuri ko‘p jihatdan uning xotirasi bilan bog‘liq bo‘ladi; tafakkur qilish – esga olish demakdir. Kichik maktab yoshida tafakkurning xotira bilan yuqori korrelyatsiyasi kuzatiladi va xotiraga bevosita bog‘liq holda rivojlanadi. Xotiraning boshqa psixik jarayonlar bilan hal qiluvchi qo‘zg‘alishi o‘smirlik davrida sodir bo‘ladi. Mazkur yosh davridagi bolalar xotirasining tadqiqiy natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘smir uchun eslash – bu tafakkur qilishdir. Undagi eslab qolish jarayoni tafakkur bilan, eslab qolinayotgan material ichida mantiqiy munosabatlar o‘rnatish bilan bog‘liq bo‘lib, esga tushirish esa mazkur munosabatlar orqali materialni qayta tiklash asosida amalga oshiriladi.

O‘smirlik davri faoliyatining yetakchi turlari – o‘qish, muloqot va mehnat asosida bolalarda umumiy va maxsus qobiliyatlar rivojlanishi bilan xarakterlanadi. O‘qish orqali umumiy intellektual qobiliyatlar, ayniqsa, tushunchali nazariy tafakkur shakllanadi. Bu jarayon tushunchalarni o‘zlashtirish, ulardan foydalana olish, mantiqiy va abstrakt fikrlay olish orqali amalga oshadi.

Inson o‘z xotirasini doimiy ravishda rivojlantirib borishi, bilim olishi, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, o‘z kasbining yetuk mutaxasissi bo‘lishi hayotda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Оксфордский толковый словарь по психологии. Под ред. А.Ребера
2. Блонский П.П. Память и мышление. - СПб.: Питер, 2001. - 288 с.
3. Петровский А.В., Ярошевский М.Г. Психология. – М.: Академия, 2000.
4. Выготский Л.С., Лурия А.Р. Культурное развитие специальных функций: память // Психология памяти: Хрестоматия / Ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, В.Я. Романов. - М.: ЧеРо, 2000. - С.406-419.
5. Леонтьев А.Н. Логическая и механическая память // Психология памяти: Хрестоматия / Ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, В.Я. Романов. - М.: ЧеРо, 2000. - С.626-652

**TALABALARNI KASBGA YO‘NALTIRISHDA PSIXOLOGIK
TEMPERAMENT XUSUSIYATLARIGA KO‘RA YONDASHISH**

Karimov Farxod Toshtemirovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

f.karimov8282@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni kasbga yo‘naltirishda psixologik temperament xususiyatlariga ko‘ra yondashish masalalari xususida so‘z boradi. Shuningdek, mavzuni yoritish jarayonida “temperament” xususiyatlari, talabani fan predmetlarini qabul qilish ko‘nikmalarini inobatga olgan holda dars soatlarini tashkil qilish masalalari atroflicha muhokama qilinadi. Shu jumladan mazkur maqola mavzusi yuzasidan xorij va mahaliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari umumlashtirilib mavjud muammo yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: OTM talabalari, temperament, kasbiy tayyorgarlik, psixologiya.

**APPROACH TO PROFESSIONAL GUIDANCE OF STUDENTS
ACCORDING TO THE CHARACTERISTICS OF PSYCHOLOGICAL
TEMPERAMENT**

Abstract: this article deals with the issues of approaching students according to the characteristics of psychological temperament. Also, in the process of covering the topic, the features of "temperament" and the issues of organizing lessons taking into account the student's ability to accept subjects are discussed in detail. Including, the scientific research works of foreign and local scientists on the topic of this article are summarized and relevant suggestions and recommendations are given on the existing problem.

Key words: higher education students, temperament, professional training, psychology.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim tizimi sifatiga qo‘yilgan talablarning ortib borishi natijasida xalqaro malaka talablariga mos, shaxsga yo‘naltirilgan kompetensiyaviy yondashuv asosida yuksak bilimli, intellektual rivojlangan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish yo‘nalishidagi islohotlar izchil davom ettirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan *“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”*da[1] belgilangan vazifalarga muvofiq, xalqaro malaka talablariga mos raqobatbardosh, zamonaviy kadrlar tayyorlash, ularning mustaqil bilim olish malakalarini shakllantirish, barkamol mutaxassis shaxsini rivojlantirishni nazarda tutadi. Xususan talabalarni turli xil ixtisoslik yo‘nalishiga ko‘ra kasbga yo‘naltirishda psixologik temperament xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’limni tashkil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy jihatdan **“temperament”** tushunchasi **“temperamentum”** lotincha **“aralash”** [2] degan ma’noni anglatadi. Temperament muammosiga bo‘lgan qiziqish 2,5 ming yil avval paydo bo‘lgan. Bu qiziqishning paydo bo‘lishiga organizm biologik

va fiologik tuzilish va rivojlanishi xususiyatlari, shuningdek, ijtimoiy rivojlanish, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarning takrorlanmasligi xususiyatlari asosidagi individual farqlarning mavjudligi sabab bo‘ldi. Temperament shaxsning biologik jihatdan shartlangan tuzilmalariga kiradi. Temperament odamlar o‘rtasida, shuningdek, hissiyotlar, hissiy taassurotlilik, harakatlarning maromi va jadalligi, va boshqa bir qator dinamikaga ega bo‘lgan xususiyatlardagi ko‘plab psixik farqlarning mavjudligini belgilab beradi. Umuman olganda psixologik tadqiqotlar psixologik **“temperament”** tushunchasida turli qarashlarni ilgari suradi. Biz yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib temperament shaxs psixologiyasining ochiq va yashirin xususiyatlari deb ta’rifladik. Ilmiy adabiyotlarda **“temperament”** tiplarini turmush psixologiyasi nuqtai nazaridan shunday xarakterlash mumkin: **xolerik** – tez, ba’zida, hatto, juda keskin, nutqda, mimika va imo-ishoralarda yaqqol ifodalanadigan kuchli tezda alanganadigan hislarga ega, jadal emotsional ta’sirlanishga moyil odam; **sangvinik** – tez, harakatchan, barcha taassurotlarga emotsional javob beruvchi odam, uning hislari bevosita tashqi xulq-atvorida ifodalanadi, lekin ular kuchli emas, va bir-birini oson almashtiradi; **melanxolik** – emotsional kechinmalar xilma-xilligining uncha katta emasligi, lekin katta kuchga va davomiylikka egaligi bilan farq qiluvchi inson, u barchasiga ham munosabat bildirmaydi, agar bildirgudek bo‘lsa ham chuqur o‘ylaydi, o‘z hislarini u darajada namoyon qilmaydi; **flegmatik** – sust, mutanosib va xotirjam odam, uning emotsional ta’sirlanishi oson emas, va o‘zidan chiqarish qiyin, hislari tashqaridan deyarli namoyon bo‘lmaydi[3]. Bugungi kunda aksariyat pedagogika yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda OTM tizimida kichik guruhlardan tashkil topgan muhitni shakllantirish ularni kasbga yo‘naltirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda yuqorida sanab o‘tilgan tiplarning har birini alohida guruhlariga ajratish orqali emas, aksincha, kichik guruhlarda aralash tip vakillariga temperament xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ta’lim, amaliy mashg‘ulotlar dasturini tuzish lozim. Mazkur holatda har bir fan predmeti yuzasidan talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari qisqa davr oralig‘ida tahlil qilib borish lozim.

1-rasm. Pedagogika mutaxassisligi talabalarining psixologik temperamentidan kelib chiqqan holda dars soatlarini tashkil qilish aksiologik paradigmasi



Mustaqil ish mavzularini shakllantirish. Dastlab asosiy fan yuzasidan mavzularni shakllantirish hamda talaba temperamenti xususiyatidan kelib chiqqan holda topshiriq amaliy ko‘rinishini ishlab chiqish;

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilishda guruhlar bilan ishlash turli auditoriyaga moslashish, guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;

Ijodiy fikrlash ko‘nikmasini oshirib borish. Har bir asosiy fan predmeti yuzasidan o‘tilgan mavzular yuzasidan yozma fikrlarni olish orqali tasavvur imkoniyatlarining reflektiv qobiliyatini baholash.

Xulosa qilib aytganda OTM tizimida talabalarning psixologik temperamentidan kelib chiqqan holda dars soatlarini tashkil qilish va ularning fikrlash doirasini baholab borish, malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada OTM tizimida uzoq yillar davomida samarali natijaga erishib kelayotgan, rivojlangan Germaniya, Finlandiya hamda Amerika ta‘lim tizimidagi ayrim tashkiliy modullarni O‘zbekiston OTM tizimiga moslashtirish kelajakda mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиqlаш тўғрисида”ги (2019 йил 8 октябрь) ПФ-5847-сонли Фармони // <https://lex.uz/docs/4545884>. Мурожат санаси: 25.01.2020.

2. Nishanova Z.T. Psixoiogik maslahat: o‘q u v qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi. - Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010 y. - N 4.

3. Русалов В.М. Предметный и коммуникативный аспекты темперамента человека// Психологический журнал. М., 1989.- Т.10.- № 1.Б.12

UDK 159.9

PSIXOLOGIYA FANI VA UNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Karimova Madina Xolmuratovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi

karimova1810@gmail.com

Nishonboyeva Mahbuba Asqarovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili ta‘limi fakulteti, amaliy psixologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada psixologiya fanining inson hayotidagi o‘rni va psixologiya fani va uning sohalari bo‘lgan yosh va rivojlanish psixologiyasi, pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiyalar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: psixologiya, psixofiziologik yosh davrlari, ijtimoiy (sotsial) psixologiya, pedagogic psixologiya

THE SCIENCE OF PSYCHOLOGY AND ITS PLACE IN HUMAN LIFE

Annotation: this article provides information about the role of psychology in human life and the science of psychology and its branches: youth and developmental psychology, pedagogical psychology, and social psychology.

Key words: psychology, psychophysiological age periods, Social (social) psychology, pedagogical psychology

Psixologiya (qad.yunon — «ruh, qalb, ong, xarakter» va λόγος — «taʼlimot») — odam va odamlardan iborat guruhlarining psixikasi va psixik faoliyatining funksiyasi, rivojlanishi va yuzaga kelishi qonuniyatlarini oʻrganadigan fan. Psixologiya tushunchasi murakkab boʻlib, u oʻzida gumanitar va tabiiy fanlar yondashuvlarini birlashtiradi. Psixologiya sohasi bizning hayotimizda muhim rol oʻynaydi, bizning oʻy- fikrlarimiz, xatti-harakatlarimiz va his-tuygʻularimizning negizidagi bilimlar bevosita psixologik bilimlar hisoblanadi. Psixologiya fani diqqat sezgi, idrok xotira, taffakur, xayol kabi psixik jaryonlarning psixik va psixofiziologik asosini oʻrganib, insonlarning ruhiy kechinmalari, ong va ong osti hodisalarini oʻrganuvchi yagona fandır. Inson tugʻulgandan umrining oxirigacha boʻlgan davrni psixik taraqqiyot jihatidan davrlashtirib, har bir yosh davrida boʻladigan psixik inqirozlarni aniqlab, ularni oʻrganadi. Insonlarning ijtimoiy foaliyati, tashqi muhit bilan boʻladigan psixik aloqasini, undagi muommalarni oʻrganadi. Bundan tashqari inson hayotida yuzaga keladigan turli xil muammolar oqibatida stress, depressiya holatlarini amaliy psixologik bilimlar orqali psixologlar toʻgʻri talqin qilgan holda yordam beradi. Psixologiya fani va psixologik bilimlar bugungi kunda har bir shaxs uchun oʻrganilishi kerak boʻlgan muhim sohadir. Maʼlumki, inson ongining rivojlanishi uning tashqi olamni faol aks ettirishda namoyon boʻladi. Insonning bilish jarayonlari unga oʻzini qurshab turgan borliqni yanada chuqurroq va aniqroq, aks ettirishda asl mohiyatini anglashda yordam beradi. Psixologiya inson hissiyotlariga taʼsir qiluvchi obʼektning xususiyatlarini shu nabatda insoning mativlarini ham oʻrganadi. Shuning uchun biz hayotimizni va atrofimizdagi dunyoni shakllantrishda psixologiyaning rolini eʼtiborsiz qoldira olmaymiz.

Psixologiyaning 300 dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlangan va bu hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Yosh va rivojlanish psixologiyasi orqali, biz, bolalik, oʻsmirlik, oʻspirinlik, yetuklik va qarilik davrida shaxs taraqqiyotining xususiyatlarini oʻrganamiz. Yosh davrlaridagi inqirozlar va psixofiziologik oʻzgarishlarning ilmiy asoslari orqali shaxs rivojidagi tavsiyalar ishlab chiqiladi. Pedagogik taʼlim muommolarida ham psixologiyaga boʻlgan ehtiyoj kam emas. Olingan bilimlar pedagogik psixologiya fanining rivoji uchun ham muhim hisoblanadi. Taʼlimning maqsadi rivojlanayotgan jamiyat talablariga javob beradigan shaxsni shakllantirish. U maqsadga erishishida uning bilish qobiliyatlari, qiziqishlarini, ijtimoiy munosabatlarini, uning dunyoqarashini

psixologiya fan sohasi o‘rganadi. Psixologiya ko‘plab fanlar chorrahasida ekanligini ko‘rsatadi. U bir tomondan, falsafiy fanlar, ikkinchi tomondan, tabiiy fanlar, uchinchi tomondan, ijtimoiy fanlar, o‘rtasida oraliq o‘rinni egallaydi. Shunday qilib, psixologiyaning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni katta. Har bir o‘qituvchi o‘quvchiga ta‘lim berayotgan paytda ta‘limga qo‘shib tarbiya ham beradi, maktabga borgan bola maktabdan faqat ta‘lim olibgina qolmay, tarbiya ham oladi va atrofdagilar bilan muloqot qilishni, yurish-turish, kiyinish madaniyatini ham o‘rganadi. Shuni ma‘lumot o‘rnida aytish lozimki, pedagogik psixologiyani shartli ravishda bir necha turlarga ajratish mumkin: a) ta‘lim psixologiyasi; b) tarbiya psixologiyasi; d) o‘qituvchi psixologiyasi; e) oliy ta‘lim psixologiyasi kabilarga bo‘linishi mumkin.

Bundan tashqari shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va insonlar bilan faol muloqotga kirishiga yordam beruvchi psixologiyaning muhim sohalaridan bir bu ijtimoiy (sotsial) psixologiya - odamlarning ijtimoiy guruhlariga birlashishini, bu guruhiy tavsifni, shaxsning guruhiy faoliyati va xulq-atvorini, ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar, holatlar, hodisalar, ijtimoiy ustanovka kabilarni tadqiqot qiluvchi psixologiya sohasi hisoblanadi [1].

Bolalikdagi tajribamiz, ta‘limdagi yutuqlarimiz, ishdagi, hayotimizdagi va shaxsiy munosabatlarimizdagi har bir jarayon bevosita psixologiya bilan bog‘liqdir. Psixologiya insonning xulq-atvori va ruhiy jarayonlarini o‘rganadi, bu bizning hayotimizning barcha jabhalariga tegishli bo‘ladi. Bizning fikrlash, o‘zini tutish va muloqot qilish usullarini tushunishdan tortib, shaxsiy nizolarni hal qilishgacha psixologiya bizga hayot kechirishimiz uchun zarur bo‘lgan vositalarni beradi. Psixologiyaning har bir sohasasi imkoniyati doirasida shu sohaga tegishli bo‘lgan muammolar, ularning sabablari va yechimlarini o‘rganadi va amaliyotga tatbiq etadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak psixologiya hayotimizning barcha jabhalarida ajralmas rol o‘ynaydi, u bizga ongli qarorlar qabul qilish, murakkab vaziyatlarni tushunish va ularning idrok qilish boshqarish va ruhiy salomatlik muammolarini samarali hal qilish uchun tushuncha va vositalarni taqdim etadi. U bolaning rivojlanishi va xulq-atvorida bolaning ruhiy holatidagi o‘zgarishlar uning psixik holati rivojlanishi haqida tushuncha beradi, odamlarga ularning qobiliyat va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasb tanlashda yordam beradi va ularning hamkorlik faoliyatini, ish muhitini rivojlantiradi. U bizga sog‘lom va qoniqarli bo‘lgan shaxsiy munosabatlarni o‘rnatish va saqlash uchun zarur bo‘lgan muloqot qobiliyatlari va vositalari haqida malumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ergash G‘oziyev “Umumiy psixologiya” darslik 30-35 bet Toshkent - 2008 yil
2. Ergash G‘oziyev “Ontogenez psixologiya” Toshkent 2020-yil
2. V. M Karimova “Ijtimoiy psixologiya” Toshkent 2007 -yil
3. Muhamedova. D, Mullaboyeva. N, Rasulov . A “Umumiy psixologiya” darslik 50- 51 bet Toshkent-2023
4. Страница главнога редактора. А.В. Глузман

АКМЕОЛОГИЯ И ЕЕ РОЛЬ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКЕ

Лысенко Елена Михайловна

ФГБОУ ВО Санкт-Петербургский государственный технологический институт (технический университет), профессор кафедры социологии, доктор философских наук, кандидат педагогических наук
lem280662@mail.ru

Аннотация: в данной статье рассматривается специфика акмеологических исследований в подготовке высококвалифицированных компетентных специалистов. Акмеология имеет солидный потенциал наработок на сегодняшний день, особенно в сфере подготовки высококвалифицированных компетентных специалистов.

Ключевые слова: акмеология, анастрофическая модел, катаболе, катастазис, анастрофе.

В новом тысячелетии, как никогда раньше, востребована идея формирования созидательной, гармоничной личности, способной максимально использовать свои ресурсные возможности для достижения собственных вершин развития и самосовершенствования, или «акме» (в переводе с греческого «Акме» – высшая степень чего-либо, вершина, совершенство). Акме как кульминация может быть «не только у индивидуального человека, но и у любого социального института – семьи, корпорации, нации, государства, союза государств» [1, с. 367]. Кроме того, в условиях природных и общественных вызовов, нестабильности и угроз огромное внимание уделяется созидательной активности человека, умению производить материальные и духовные продукты, создавать благоприятную атмосферу вокруг себя.

В связи с этим новое дыхание обретает акмеология - интегративная наука, возникшая еще в прошлом веке на стыке естественных, общественных, гуманитарных и технических дисциплин, и изучающая феноменологию, закономерности и механизмы развития человека на пути достижения им своего «акме», используя при этом систему общественных методов познания и инструментарий исследования этих наук (Н.В. Кузьмина) [14]. Важно подчеркнуть, что именно акмеологи взяли на себя смелость воплотить в жизнь извечную мечту человечества о совершенствовании, гармонии и процветании, представив эти заманчивые перспективы не только как плод человеческой фантазии, но и рассмотрев их в научном дискурсе. В данной статье будут рассмотрены и обобщены некоторые достижения акмеологической науки.

Принято считать, что создателем акмеологии явился Н.А. Рыбников, так как именно он в 1928 году предложил использовать этот термин для разработки научных знаний "о развитии зрелых людей". Но акмеология не застыла в своем первоначальном значении, так как уже к середине XX века Б.Г. Ананьев расширил ее понимание, определив в систему наук о человеке. На сегодняшний

день акмеология изучает не только достижения человека в период его зрелости, но и всю совокупность факторов, которые привели личность к этой вершине. Таким образом, сведение акмеологии к психологии развития оправданно, но односторонне. Действительно, если акмеология определяет *условия*, при которых человек сможет достичь максимального развития духовных, интеллектуальных и физических возможностей и обрести смысл жизни, то предмет ее исследования охватывает, как минимум, всю совокупность гуманитарных областей науки.

Но говорить об акмеологии как о науке о достижении исключительно вершинных точек развития - значит лишить ее диалектического характера. Поэтому совершенно обоснованно С.Д. Пожарский много внимания уделяет моделированию путей достижения акме-результата [2, с. 141-157], ссылаясь на схему Э.Фромма о предельных точках развития человека, – точке роста и точке распада. В связи с этим в акмеологии принято говорить о восходящем и нисходящем развитии. Заслугой Пожарского С.Д. является моделирование многовершинного «акме» и «кате» и выделение в связи с этим раздела акмеологии, названного «катабологией». Человек в ходе развития может единожды достичь своего вершинного развития - акме (рис. 1. Одновершинная акмеологическая модель) или несколько раз в различных областях добиваться пика своих возможностей со сходными или различными вершинами (Рис. 2, Рис 3 Многовершинная акмеологическая модель). В ситуации жизненного кризиса жизненный путь личности колеблется, незначительно поднимаясь над нулевыми отметками или опускаясь ниже их (Рис. 4. Кризисная модель) или может резко идти на спад, приближаясь к кате-, или катастрофе (Рис. 5 Модель постоянного низинного развития (катастрофическая модель) с резким падением всех жизненных показателей ниже нулевой отметки (Рис 6 Трагическая катастрофическая модель развития).




Рис. 1 Одновершинная акмеологическая модель

Рис. 2 Многовершинная акмеологическая модель




Рис. 3 Макровершинная акмеологическая модель



Рис 4. Кризисная модель




Рис 6. Трагическая (катастрофическая модель) развития




Рис 5. Модель постоянного низинного развития (катастрофическая модель)



Рис 7. Анастрофическая модель развития

Чаще всего в период трудных жизненных ситуаций динамику жизненного пути человека отражает анастрофическая модель с линиями снижения жизненных сил (катаболе), пребывания в низинной точке (катастазис) и, отражая преодоление кризиса, когда человек, находя в себе силы подняться над ситуацией (анастрофе), снова достигает своих вершин (Рис. 7 Анастрофическая модель развития). Тем не менее многие исследователи считают акмеологию частью психологии развития и исследования в этом направлении позволяют им выявить механизмы развития личности и динамику ее достижений. Ответом на вызовы научного сообщества, сомневающегося в необходимости признания акмеологии, послужили научные разработки пассионариев акмеологической науки - Н.В. Кузьминой, А.А. Деркача, В.П. Бранского, С.Д. Пожарского, А.А. Понукалина, а так же Г.Х.Баевой, Бурдаковой О.П., Гагина Ю.А., Варфоломеевой Л.Е., Водовозовой С.Я., Ершова А.А., Жариновой Е.Н., Иманова Г.М., Лысенко Е.М., Максимовой В.Н., Манойловой М.А., Молодиченко Т.А., Паутовой Л.Е., Селезневой Н.А., Софьиной В.Н., Турчина А.С. и многих других. Были разработаны: - акмеологическая теория фундаментального образования, фундаментальная акмеология (Н.В. Кузьмина) [3];

- труды по истории и предыстории акмеологии и катабологии (С.Д. Пожарский) [4];

- этноакмеология (В.П.Бранский, М.А. Манойлова) [5];

- синергетическая акмеология (В.П.Бранский, С.Д. Пожарский) [6];

- теоретическая акмеология ориентированная на ресурсы, высшие ценности психического развития и сверхнормативное психическое развитие (А.А.Понукалин, О.А.Рагимова, Т.А. Молодиченко, Е.М. Лысенко) [7];

- уровни акме-развития (Т.А. Молодиченко) [8];

- теория акмеологической культуры (А.А. Деркач, Е.В. Селезнева) [9];

- педагогическая акмеология (Н.В. Кузьмина, В.Н. Максимова, А.К. Маркова, Е.И. Степанова и др) [10];

- акмеология профессиональной деятельности (АА Бодалев, О.П. Бурдакова, А.А. Деркач, Ю.А. Гагин, В.Н. Максимова и др.) [11];

- акмеологические тренинги (Е.Н. Жаринова) [12];
- способы формирования акмесосоциокультурной зрелости субъектов культуры жизни (Е.М. Лысенко, Н.В. Бригадиренко) [13].

Специфика акмеологических исследований сегодня проявляется в разработке и эффективном внедрении в практику алгоритмов, методов и технологий, которые обеспечивают формирование у человека способности к саморазвитию и способствуют достижению высшей ступени становления личности в различных сферах его жизнедеятельности. Акмеология имеет солидный потенциал наработок в дне сегодняшнем и за ней большое будущее, особенно в сфере подготовки высококвалифицированных компетентных специалистов.

Список использованной литературы:

1. Бранский В.П., Пожарский С.Д. Социальная синергетика и акмеология: теория самоорганизации индивидуума и социума. – СПб: Политехника, 2001. - 476 с.
2. Пожарский С.Д. Предыстория акмеологии России – СПб.: Научный и учебный центр «Социальная синергетика», 2012. - 198 с.
3. Кузьмина Н.В. Акмеологическая теория фундаментального образования Монография. – СПб.: «Центр стратегических исследований», 2012. - 271 с.
4. Ильин В.В., Пожарский С.Д. Философия и акмеология – СПб: Политехника, 2003. - 395 с.
5. Кузьмина Н.В., Манойлова М.А. Акмеология полиэтнической компетентности: диагностика и развития- СПб.: «Центр стратегических исследований», 2012. - 267 с.
6. Бранский В.П., Пожарский С.Д. Социальная синергетика и акмеология: теория самоорганизации индивидуума и социума. – СПб: Политехника, 2002. - 476 с.
7. Акмеология: в 2ч. / Т.А Молодиченко, О.А. Рагимова, Г.Ф. Андреева и др./ Под ред. А.А. Понукалина, – Саратов: Изд-во В.П. Латанова, 2003. - 120 с.
8. Молодиченко Т.А. Социоакмеологическое конструирование развития высшего педагогического образования. – Саратов: Изд-во СГУ, 2012. - 162 с.
9. Деркач А.А. Акмеология: личностное и профессиональное развитие человека : Методолого-прикладные основы акмеологических исследований - М, 2000. - 391 с.
10. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования : Монография / Н. В. Кузьмина - М : Исслед. центр проблем качества подгот. специалистов, 2001. - 144 с.
11. Максимова В.Н. Акмеологический подход в педагогике: монография /В.Н. Максимова – СПб.: ЛГУ им. А.С. Пушкина, 2007. - 195 с.
12. Жаринова Е.Н. Теория и методика ведения психологического тренинга. – СПб.: Центр стратегических исследований, 2012. - 119 с.
13. Лысенко Е.М., Бригадиренко Н.В. Акмеологический контекст инновационной деятельности педагога-мастера / В мире научных открытий. Проблемы науки и образования. Красноярск: НИЦ., 2013. №11.7 (47).

14. Лысенко Е.М. Научные и смысложизненные ориентиры Н.В. Кузьминой / Акмеология образования 2023. Методологические и методические проблемы. /Сб. статей к 100-летию Н.В. Кузьминой. - М.: Русайнс: 2023, С. 32-44.

O‘QUVCHI-YOSHLARNING PSIXOLOGIK VA MA’NAViy-MADANIY MUHITINI YUKSALTIRISHDA MUSIQA TA’LIMI

Olimova Fotima Botirovna,

Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktoranti

fotimaolimova8989@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada respublika ta’lim tizimidagi islohotlar, dolzarb vazifalar, islohotlar zamirida erishilayotgan yuksak natijalar va o‘quvchi-yoshlarni psixologik va ma’naviy-madaniy muhitini yuksaltirish va mazkur jarayonda musiqa ta’limi tizimining o‘rni haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, yoshlar, tarbiya, insof–diyosat, mehr–oqibat, bag‘rikenglik, oila, saxovat, iymon, madaniyat.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikamizda ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda musiqa ta’limi sohasida mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga dunyo miqyosida shunday o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqdaki, ushbu o‘zgarishlar butun boshli xalqni, millatni, elatlarni boringki, butun isoniyatning hayotini o‘zgartirib yubormoqda. Ushbu o‘zgarishlar jarayonida psixologik qiyofasi hamda madaniyati, axloqiy munosabatlarning o‘rni juda katta hisoblanadi. Bularning barchasiga musiqa ta’limi tizimida olib boriladigan sifatli ta’lim–tarbiya orqali erishiladi.

Aslini olganda, musiqa ilmi yoshlar psixologiyaga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Nemis tabiatahunosi G. Helmgolts ijodi “Musiqa nazariyasi eshitish sezgilari to‘g‘risidagi ta’limotning fiziologik asosi sifatida” asarida boshlangan. U ushbu asarida eshitish rezonans nazariyasini ishlab chiqqan, eshitish sezgilarining paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rgangan. [1]

Vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini o‘ylab yoshlarni ezgulikka, insof–diyosatga, mehr–oqibat va bag‘rikenglikka da’vat etishga qaratilgan musiqiy-tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshirishi talab etiladi.

Binobarin, “Musiqa asari fenomen sifatida o‘zida ijod, ijro va tinglovchilik idrokini aks ettiradi. Bu kommunikativ zanjir bo‘g‘inlari ma’lum tarzda bir-biri bilan bog‘liq: kompozitor ijodi - birlamchi, ijrochilik - markaziy va tinglovchilik yakuniy bo‘g‘in bo‘lib xisoblanadi” Mazkur izchillik tinglash samaradorligini belgilovchi omil bo‘lib xisoblanadi. [2]

Yoshlarning ma’naviy muhitini tarbiyalash va rivojlantirishda, axloqiy jihatdan

yetuk shaxs sifatida musiqa ta’limi asosida shakllantirish bizning oldimizdagi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Yoshlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish borasidagi yetilgan muammolarni o’z vaqtida hal etish, uzluksiz ta’lim tizimida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, real iqtisodiyotda va mamlakat hayot faoliyati sohalarida ta’lim muassasalari tomonidan tayyorlanadigan mutaxassislarga bo’lgan talabni ta’minlashni bosh maqsad qilib qo’ydi. [3]

Ma’naviy tarbiya shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo’lgan munosabatlarida foydalanishi, o’z-o’zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o’z ichiga oladi. Demak, ma’naviy axloqiy muhit tarbiya masalasiga e’tibor berishimiz va uning elementlarini aniqlab olishimiz muhimdir.

2024-yil O‘zbekistonda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilindi. Bu haqida prezident Sh. Mirziyoyev O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan yangi yil tabrigida ma’lum qildi. [4]

Ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalangan shaxs axloqiy madaniyatga ham ega bo’ladi. Axloqiy madaniyat axloqiy hayotning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va kishilarni tarbiyalash maqsadidagi ishlov berib yaratilgan qismi bo’lib, u hayotning substansiyasi, ya’ni asosi hisoblanadi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, yosh avlodni axloqiy tarbiyalash masalalari azaldan Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tajribasida yaqqol ko’zga tashlanadi. Ayniqsa, ko’plab mutafakkirlarimiz asarlarida xalqimizning murakkab tarixiy–madaniy tajribasi mobaynida yuz bergan voqea–hodisalar mohiyatini jamiyatning ilk bo’g’ini bo’lgan oiladan izlash an’anasini uchratamiz. Xususan, oila va oilaviy tarbiyaga oid fikrlar Abu Nasr Farobiyning Fozil odamlar shahri”, Abu Rayxon Beruniyning “Mineralogiya”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “O’tgan avlodlar obidalari”, Abu Ali ibn Sinoning “Axloq”, “Axloq fani”, “Oila xo’jaligi”, Alisher Navoiyning “Hayrat–ul–abror” va “Mahbub-ul–qulub” asarlarida o’z ifodasini topgan. Millatimiz boshiga tushgan ko’pgina achchiq qismatlar dastavval oila tarbiyasidagi kamchiliklar oqibati ekanini ma’rifat ahllari yaxshi anglashgan. Bizning ham fikrimizcha, bundan xolos bo’lishda oila tarbiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Abdurauf Fitratning “Oila yoki oilani boshqarish tarbiyalari” asarida bu haqda ibratli mulohazalar ilgari suriladi. “Har bir millatning saodati, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog’liq” – deb yozadi u, tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining ma’naviy-intizomiga tayanadi. Qaerda oila mustaqilligi kuchli intizom va tarbiyaga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo’ladi”. [5]

Yoshlar ongiga musiqa ta’limi orqali ma’naviy muhitini yuksaltirishdan maqsad, ularning Ona Vatan oldidagi burchi, o’z taqdiri uchun mas’ul ekanligi mahalla, mehnat jamoasi, oila va yaqin kishilar hayoti uchun mehribonlik hissini tarbiyalashdan iborat.

Oila ta’lim-tarbiya maskani bo’lib, milliy g’oya va ma’naviyatni yoshlar ongi va qalbiga singdirish, ularning psixologik qiyofasidagi ma’naviy-madaniy g’oyalar va tushunchalar aynan oiladan boshlanadi. Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi va bu jarayon yuksak ma’naviyatlilikni talab etadi. Tanlangan

muammo esa ilmiy jihatdan yoshlar kamolotida yangicha talablar shakllanishiga zamin hozirlaydi. [6]

Har qachongidan ko‘ra ko‘proq ichki va tashqi go‘zallikning axloq bilan birlashuviga ahamiyat kuchaydi. Ta‘lim tizida esa xususan, musiqa ta‘limida yoshlardagi faqat tashqi ko‘rinish estetik madaniyatning yaxshi bo‘lishiga olib kelmasligi, balki ulardan musiqiy – ma‘naviy boy, pokiza, ma‘naviy dunyoqarashi keng, saxovatli, iymonli, muomala madaniyati yuksak bo‘lishi kabi umuminsoniy ma‘naviy qadriyatlar talab etila boshlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. В.И. Петрушин. Музыкальная психология. Москва «Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС» 1997. 383стр.
2. А.Р.Бахриев. Ўқувчиларда муסיкий тингловчилик маданиятини шакллантириш. замонавий таълим. 39-45.
3. <https://lex.uz/docs>
4. <https://daryo.uz>
5. Divnogorseva S. Yu. Duxovno-nravstvennoye vospitaniye v teorii i opite pravoslavnoy pedagogicheskoy kulturi. M.: Izd-vo PSTGU, 2012.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlarning-ma-naviy-axloqiy-tarbiyasini-shakllantirishning-pedagogik-xususiyatlari>
7. У.Ю.Юлдошев, (2019). Муסיқа ўқитувчиси мутахассислигининг замонавий модели ва профессиограммаси. Современное образование (Узбекистан), (9 (82)), 47-53.

UDK: 159.9

O‘SMIRLAR O‘RTASIDA BULLINGGA TA’SIR ETUVCHI, IJTIMOY VA PSIXOLOGIK OMILLAR

Amirova Luiza Maratovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi.

Annotatsiya: maqolada o‘smirlik davridagi bulling va uning mohiyati yuzaga kelib chiqish sabablari, zo‘ravonlik, bezorilikning psixologik omillari, oilaviy munosabatlarning ahamiyati, bulling tushunchasining qo‘llanilishi va ilmiy nazariy tahlili, olimlarning fikrlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: bulling, tushuncha, ong, jamiyat, zo‘ravonlik, tajavuz, tazyiq, yoshlar, o‘smirlik, ta’sir.

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING BULLYING AMONG ADOLESCENTS

Abstract: the article describes the causes of bullying in adolescence and its essence, violence, psychological factors of bullying, the importance of family

relationships, the application and scientific and theoretical analysis of the concept of bullying, the opinions of scientists.

Key words: bullying, understanding, consciousness, society, violence, aggression, oppression, youth, adolescence, influence

Bugungi kunda “bullying” tushunchasi keng tarqalmoqda bu tushuncha zo‘ravonlik, tazyiq bezorilik degan ma‘nolarda qo‘llaniladi. O‘smirlar bazan tazyiqqa uchrashib turishi mumkin. Zo‘ravonlik Amerikaning psixologik assotsiatsiyasi tomonidan tajovuzning eng dahshatli shakli sifatida belgilanadi. Bugungi jamiyatda yoshlar zo‘ravonligi misollari tarixiy zo‘rlash, o‘ldirish, o‘q otish va jang qilishdir. Ommaviy axborot vositalarida zo‘ravonlik o‘smirga ta‘sir qilishi va ularni agressiv harakat qilishiga olib kelishi mumkin. Ko‘plab universitetlar tomonidan "[Media zo‘ravonliklarining yoshlarga ta‘siri](#)" nomli tadqiqotida aytilishicha, "Zo‘ravon televidenie va filmlar, video o‘yinlari va musiqa bo‘yicha tadqiqotlar ommaviy axborot vositalari zo‘ravonliklarining zudlik bilan va uzoq muddatli munosabatlarda agressiv va zo‘ravonlik harakati ehtimolini oshirayotgani haqida aniq dalillarni keltirmoqda. " Bu yerda "media" sizning internetda, televizorda, jurnallarda, kinolarda, video o‘yinlar, reklama va hokazolarda o‘zingiz ko‘rgan, ko‘rgan yoki ular bilan muloqotda bo‘lgan har qanday narsa deb ta‘riflanadi. Ota-onalar yoki ota-onalar tomonidan yetarli darajada nazoratni olmagan o‘smirlar yomon tanqislik qilgani sababli tajovuzkor xatti-harakatlar yoki jinoyatchilik faoliyati bilan shug‘ullanishga moyil bo‘ladilar. Bezorilik muammosining birinchi tizimli tadqiqotlari Skandinaviya tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirildi: D. Olweus, P.P. Heinemann, A. Pikas, E. Roland. Ular bullying (ingliz tilidan bully - bully) tushunchasini ishlab chiqdilar, uni zulm, diskriminatsiya va zo‘ravonlik deb ta‘rifladilar. Ushbu va keyingi ishlardan ma‘lum bo‘lishicha, maktablarda bezorilik ta‘sirchan darajada keng tarqalgan. Zamonaviy statistik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, dunyo bo‘ylab maktab o‘quvchilarining uchdan bir qismi kamida bir marta zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan. Bezorilikka jalb qilish, uning paydo bo‘lishi paytida ham, kattalar hayotida ham jiddiy psixologik oqibatlariga olib keladi. Hozirda ma‘lumki, bunday oqibatlar nafaqat jabrlanuvchining holatiga tushib qolgan (o‘zini o‘zi qadrlashi pasayadi, ular depressiv va tashvishli kasalliklardan ko‘proq azoblanadi, yolg‘izlik tuyg‘usini boshdan kechiradi va hokazo) bolalar uchun ham mavjud. bezorilik tashabbuskorlari uchun (balog‘at yoshida ular noqonuniy xatti-harakatlarga, shuningdek, o‘z joniga qasd qilish xatti-harakatlariga ko‘proq moyil bo‘ladi) va bir vaqtning o‘zida jabrlanuvchi va bezori holatiga tushib qolganlar uchun. Olweus ta‘kidlaganidek, "Talaba bir yoki bir nechta o‘quvchilar tomonidan qayta-qayta va vaqt o‘tishi bilan salbiy xatti-harakatlarga duchor bo‘lgan da, uni qo‘rqitishadi". Salbiy harakat - bu boshqa shaxsga qasddan shikast etkazish yoki noqulaylik tug‘dirishga harakat qilish. Shunday qilib, zo‘ravonlik va jabrlanuvchilar o‘rtasida kuch farqlari mavjud bo‘lgan da sodir bo‘lishi mumkin, shuning uchun jabrlanuvchi zo‘ravonlik xatti-harakatlaridan himoya qila olmaydi. Bezorilik holatining rol tuzilishi mustaqil tadqiqot mavzusi bo‘lib, unda bezorilik tajovuzkor va jabrlanuvchi o‘rtasidagi dinamik o‘zaro ta‘sir sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi, unga institutsional va madaniy omillar hissa qo‘shadi. unda butun sinf jamoasi ishtirok

etadi. Guvohning roli juda muhim, chunki tajovuzkorning harakatlari ko‘pincha u o‘zining ijtimoiy mavqeini oshirish yoki saqlab qolishni xohlayotganini ma‘qullaydi. Agressiv xatti-harakatlar bevosita bo‘lishi mumkin, shu jumladan yuzma-yuz qarama-qarshilik: urish, urish, tepish va boshqa turdagi jismoniy zarar. Yoki bilvosita uchinchi shaxslarning ishtiroki, masalan, ijtimoiy chetlanish, mish-mishlarni tarqatish va psixologik zararning boshqa shakllari yoki hatto onlayn (kiberbulling). Qo‘rqitishning aksariyat ta‘riflari vaqt o‘tishi bilan takrorlash, zarar etkazish niyati, kuch muvozanati kabi zo‘ravonlikning xususiyatlari bo‘yicha o‘xshashliklarga ega va ularning barchasi bezorilikning surunkali tabiatini ta‘kidlaydi. Ota-onalar o‘smirlar hayotida faol ishtirok etmasalar, o‘smirlar nazoratdan chetlashtiriladi. Ular noto‘g‘ri odamlar bilan do‘stlashadilar, maktabda hamma narsaga qodir bo‘lishga intilmaydilar. Yangi paydo bo‘lgan bezorilik turi elektron bezorilik yoki kiberbulling deb ataladi. O‘smirlar va bolalar o‘rtasidagi virtual muloqotning kuchayishi tufayli elektron ommaviy axborot vositalari orqali bezorilik jiddiy muammoga aylanmoqda. Ushbu turdagi bezorilik onlayn raqamli zo‘ravonlik sifatida tanilgan va mobil telefonlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali texnologiyadan foydalangan holda takroriy tajovuzkor xatti-harakatlar sifatida tavsiflanadi. Kiberbullingni boshdan kechirgan talabalar elektron pochta, chat xonalari, tezkor xabarlar, veb-saytlar yoki matnli xabarlar orqali haqoratlangan. Bezorilikning bu turi an‘anaviy bezorilikdan farqi shundaki, maktab ma‘muriyatiga nazorat qilish qiyin, chunki u maktabdan tashqarida va birinchi navbatda ijtimoiy tarmoqlar orqali internetda e‘lon qilingan anonim xabarlar ko‘rinishida sodir bo‘ladi. Kiberbullingni boshdan kechirgan talabalar an‘anaviy zo‘ravonlik kabi ta‘sirlarni boshdan kechirishadi. Bolalarda uzoq va muntazam zo‘ravonlik bilan shaxsning deformatsiyasi yuzaga keladi, o‘z-o‘zini hurmat qilish pasayadi, zararli xatti-harakatlar paydo bo‘ladi, alkogol, nikotin va giyohvand moddalarga qaramlik shakllanadi, antisosyal xatti-harakatlar shakllari shakllanadi. Bunday bolalar tajovuzkorlik, zo‘ravon jinoyatlarda ishtirok etish, depressiya va bipolyar xatti-harakatlarning buzilishi bilan ajralib turadi. Maktabdagi qo‘rqitish nafaqat o‘quvchilarning jismoniy, hissiy va ruhiy-ijtimoiy hayotiga ta‘sir qiladi, balki ularning o‘quv va sinfdagi faoliyatiga bevosita ta‘sir qiladi. O‘rta maktab o‘quvchilari o‘rtasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an‘anaviy, shuningdek, kiberbulling o‘quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini nazorat qilishda o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga sezilarli darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Jismoniy zo‘ravonlik o‘g‘il bolalarda ham, qizlarda ham hisoblash va savodxonlik ko‘rsatkichlari bilan salbiy bog‘liq edi. Og‘zaki va jismoniy zo‘ravonlik haqida xabar bergan talabalar o‘qish, yozish, imlo, grammatika va tinish belgilari bo‘yicha yomon ball olgan. Bugungi kunga qadar olib borilgan turli tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlik o‘smirlarning psixo-ijtimoiy faoliyatiga, maktabga moslashishiga, ayniqsa o‘quv faoliyatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Tengdoshlarning zo‘ravonligi va yomon akademik ko‘rsatkichlar ko‘pincha o‘zaro bog‘liqdir, chunki surunkali zo‘ravonlikka uchragan bolalar salbiy hissiy va psixologik oqibatlarini boshdan kechirishadi, bu ularning sinfdagi ishtirokiga xalaqit beradi va shu bilan ularning akademik natijalariga ta‘sir qiladi. Talabalarning kichik bir qismi maktabda zo‘ravonlikning surunkali qurboni bo‘lsa-da, vaqti-vaqti bilan qo‘rqitish akademik natijalarga jiddiy putur etkazishi mumkin. 7 va 8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan

onlayn so‘rov natijalari shuni ko‘rsatadiki, tengdoshlarni qo‘llab-quvvatlash zo‘ravonlik bilan salbiy bog‘liq va o‘g‘il va qiz bolalar uchun akademik natijalar bilan ijobiy bog‘liq. Boshqa tomondan, yuqori ijtimoiy xulq-atvorga ega va past ijtimoiy tashvishga ega bo‘lgan do‘stlarga ega bo‘lish zo‘ravonlik xavfini kamaytiradi va akademik samaradorlikni oshiradi. Bezorilik va haqoratli maktab madaniyati o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga to‘sqinlik qiladi va ularning ijtimoiy va hissiy farovonligiga salbiy ta‘sir qiladi. Maktablarda bezorilik butun dunyoda keng tarqalgan muammo bo‘lib, deyarli hamma joyda bezorilikka qarshi tashabbuslar amalga oshirilayotganiga qaramay, hech bir jamiyat bu muammodan himoyalangan. Bezorilik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar zo‘ravonlikning tabiati, zo‘ravonlikka ta‘sir etuvchi omillar, zo‘ravonlik va jabrlanuvchining xususiyatlari, shuningdek, zo‘ravonlikning jismoniy, ijtimoiy, ruhiy va akademik oqibatlari haqida aniqroq ma‘lumotlarni taqdim etdi. Tadqiqotlar, shuningdek, maktablarda zo‘ravonlikning oldini olish va kamaytirishga yordam beradigan ko‘plab amaliy strategiyalarni taklif qildi. Samarali zo‘ravonlikning oldini olish dasturlari jamiyat uchun zo‘ravonlikni aniq belgilashi va o‘quvchilar, maktab xodimlari, ota-onalar va jamiyatning boshqa a‘zolarini asosiy jamoa sifatida o‘z ichiga olishi kerak. Talabalarning o‘rganishi va rivojlanishi uchun xavfsiz muhit yaratish uchun ular bir-biri bilan muloqot qilishni o‘rganishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ажиев, В. В. Особенности личности несовершеннолетних правонарушителей / В. В. Ажиев // Теория и практика общественного развития. - 2012. - № 5. - С. 288-290
2. Бердышев, И. С. Медико-психологические последствия жестокого обращения в детской среде. Вопросы диагностики и профилактики: практическое пособие для врачей и социальных работников / И. С. Бердышев, М. Г. Нечаева. - Санкт-Петербургское государственное учреждение социальной помощи семьям и детям «Региональный центр «Семья», 2005. - 76 с.
3. Бочавер, А. А. Буллинг как объект исследований и культурный феномен / А. А. Бочавер, К. Д. Хломов // Психология. Журнал ВШЭ. - 2013. - № 3. - С. 147-159.
4. Бочавер А.А., Кузнецова В.Б., Бианки Е.М., Дмитриевский П.В., Завалишина М.А., Капорская Н.А., Хломов К.Д. Опросник риска буллинга (ОРБ) // Вопросы психологии. 2015. №5. С. 149-157.
5. Быкова, Е. А. Проблема профилактики буллинга в образовательной организации / Е. А. Быкова, С. В. Истомина // Вестник Костромского государственного университета. Серия: Педагогика. Психология. Социальная психология. - 2016. - № 3. - С. 73-78.
6. Ведерникова Е.А. Буллингу младших подростков, и его профилактика в школе URL: https://elibrary.ru/download/elibrary_28782126_54637124.pdf (дата обращения 07.04.2023).
7. Всемирная организация здравоохранения, Европейское региональное бюро. Буллинг (издевательства, травля) среди подростков в Российской Федерации. URL: http://www.euro.who.int/__data/assets/pdf_file/0007/325519/HSBC-Fact-

**JAMIYATDAGI SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNI YARATISH
MAQSADIDA BUZG‘UNCHI XATTI-HARAKATLARNI ANIQLASH
VA UNI AVTOMATLASHTIRISH TIZIMINI JORIY ETISHNING
DOLZARBLIGI**

To‘rayev Boboyor Bahtiyorovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
katta o‘qituvchisi

Ochilova Mohina Behzod qizi

Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili ta’limi fakulteti
Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotasiya: maqolada ta'lim muhitidagi "psixologik tizim" ning mualliflik modeli, ta'lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni yaratish uchun buzg‘unchi xatti-harakatlarni yaxshiroq izlash, uning ishining asosiy maqsad va vazifalari, shuningdek natijalarni to‘plash va tahlil qilishning innovatsion vositalari tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: psixologik tizim, "psixologik tizim" modeli, psixologik xizmat, ta'lim muhiti, jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlim, bezorilik, stress auditi.

**THE RELEVANCE OF THE AUTOMATIZATION SYSTEM
IMPLEMENTATION SEARCHING FOR DESTRUCTIVE ABNORMAL
BEHAVIORS TO CREATE A HEALTHY PSYCHOLOGICAL
ENVIRONMENT IN SOCIETY**

Abstract: the article describes the author's model of the "psychological system" in the educational environment, the best search for destructive behaviors to create a healthy psychological environment in educational institutions, reveals the main goals and objectives of its work, as well as innovative tools for collecting and analyzing results.

Keywords: psychological services, "psychological system" model, psychological service of educational environment, socio-psychological climate in the team, bullying, stress audit.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston ta'lim tizimi kontseptual jihatdan takomillashtirish, ta'lim jarayoniga ilg‘or pedagogik metodika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida qayta ko‘rib chiqilmoqda [1]. Ushbu chora-tadbirlarning natijasi dunyoga ochiq shaxslarni, jamoada ishlay oladigan va mamlakat rivojiga hissa qo‘shuvchi rahbarlarni shakllantirishga qodir samarali ta'lim tizimi bo‘lishi kerak.

Kompleks yondashuvni va parallel ravishda mavjud muammolarni, shu jumladan ta'lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitga ta'sir ko‘rsatadigan

muammolarni hal qilishni talab qiladigan "psixologik tizim" ning maxsus modelini yaratish kerak, vazifa nazariy jihatdan qiyin, oson emas, lekin bajarilishi mumkin.

Horij mamlakatlarning ta'lim muassasalari tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, psixologik tizimlar yoki xizmatlarning ishlashi nafaqat o'quv jarayoni sifatini yaxshilashga yordam beradi, balki ko'plab yashirin jinoyatlarning oldini olishga yordam beradi. Ushbu modelni yaratishdagi asosiy muammolar deb psixolog kasbiga doimiy ishonchsizlikni, ta'lim muassasalarida psixologik xizmatlarning to'g'ri ishlashi uchun me'yoriy-huquqiy bazaning yo'qligini, shuningdek, ta'qib qilish, qo'rqitish kabi qonun hujjatlarida ta'qiqlovchi normalarning yo'qligini ta'kidlash mumkin.

Shunga qaramay, mamlakatda sog'lom psixologik muhitni yaratish va zo'ravonlikka qarshi kurashishga qaratilgan innovatsion dasturlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2014 yilda Toshkentdagi xalqaro Vestminster universiteti negizida, 2017 yilda Toshkentdagi Turin Politehnika universiteti negizida sinovdan o'tgan "Psixologik tizim – BR" mualliflik dasturi samarali natija ko'rsatdi, ta'lim muassasalarida ijtimoiy-psixologik iqlimni Real yaxshilashga yordam berdi.

2024 yilda ToshDO'TAU negizida talabalar va o'qituvchilar, shuningdek, universitet xodimlari o'rtasida psixogigiyena va psixologik iqlim mavzusida so'rov o'tkazildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, biz talabalar va kattalar orasida stress darajasi yuqori degan xulosaga keldik.

⁶⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. - <https://lex.uz/docs/3107036>

⁶⁸ Сурков Александр Алексеевич Насилие как социальный феномен: особенности конституирования

Zo‘ravonlik tushunchasi to‘g‘risida juda ko‘p mutafakkir olimlar fikr bildirganlar. Jumladan, Slavoy Zizek zo‘ravonlik hech narsa hosil qilmasligini unutadi, lekin o‘zi faqat mavjud ijtimoiy tizim ichida shaxslarning bir-biri bilan o‘zaro munosabatlari vositasi sifatida paydo bo‘ladi. U zo‘ravonlik butun ijtimoiy-siyosiy tizimni tavsiflovchi va uning harakat yo‘llarini belgilaydigan asosiy element ekanligini ko‘rsatib, noto‘g‘ri ekanligini isbotlaydi. Slavoy Zizek o‘zining navbatdagi "kinogid buzuq: mafkura" kino-eksperimentida biz haqiqatni buzish uchun kiygan ko‘zoynaklarimiz shaklida mafkurani taqdim etib, biz to‘g‘ri fikr yuritmaymiz, degan bayonot bilan hikoyani boshlaydi. "Bizning oramizdagi Musofirlar" filmi misolida (asl nomi: "ular jonli") u mafkura butun ijtimoiy tuzilishga singib ketganligini ko‘rsatishga harakat qiladi. U ijtimoiy munosabatlar va aloqalarning ayrim to‘plamlariga turtki beradigan asosiy vosita, deb fikr bildiradi.

Hozirgi kunda zo‘ravonliklar ayollarga nisbatan bo‘layotgani sir emas. Zo‘ravonlik murakkab ijtimoiy va ilmiy muammodir. Zo‘ravonlikning barcha turi ayniqsa nikoh munosabatlarida zo‘ravonlik turi ayolga zarar keltirishi bilan bir qatorda, ijtimoiy hayotda ishtirok etishiga to‘sqinlik qilib, mehnat unumdorligini pasaytiradi, sog‘liqni saqlash, sud ishi va IIB bilan bog‘liq xarajatlarni oshiradi, shu bilan davlatning iqtisodiy va siyosiy farovonligiga putur yetkazadi.

Tazyiq va zo‘ravonlikning turlari mavjud. Bular quyidagilar:

1. Jismoniy zo‘ravonlik - og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari etkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazishning o‘zga choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali insonlarning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli;

2. Ruhiy zo‘ravonlik – fuqarolarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha’nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar etkazgan harakat (harakatsizlik);

3. Iqtisodiy zo‘ravonlik — fuqarolarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo‘ravonlik shakli, fuqarolarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlanishga bo‘lgan huquqini, mulk huquqini, ta’lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik);

4. Jinsiy zo‘ravonlik — fuqarolarlarga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli, shuningdek zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga etmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash;

5. Tazyiq — sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik;

Joriy yilning statistik ma'lumotlariga murojaat qilsak, 2024 yil 3 oyi davomida 648 ta (2023 yilda 715 ta) himoya orderlari tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga berildi.

Himoya orderlari berilishi bo'yicha:

- 222 tasi jabrlanganlarning murojaati;
- 37 tasi jismoniy va yuridik shaxslarning bergan xabarlari;
- 382 tasi vakolatli organlar va tashkilotlar xodimlari tomonidan bevosita aniqlangan holatlar;

- 7 tasi davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan kelib tushgan materiallar asosida himoya orderlari berilgan.

Himoya orderlari berilganlarga o'tkazilgan tazyiq va zo'ravonlik bo'yicha:

- 487 ta holatda ruhiy zo'ravonlikka;
- 54 ta holatda jismoniy zo'ravonlikka;
- 4 ta holatda jinsiy zo'ravonlikka;
- 5 ta holatda iqtisodiy zo'ravonlikka;
- 3 ta holatda ta'qib etish;
- 95 ta holatda tazyiqqa uchraganlar.

Tazyiq va zo'ravonlik o'tkazilgan shaxslar bo'yicha:

- 418 ta er tomonidan xotinga;
- 26 ta qaynona tomonidan kelinga;
- 12 tasida kelin tomonidan qaynonaga;
- 192 tasida boshqa shaxslarga tazyiq o'tkazilgan.

Tazyiq va zo'ravonlik sodir etilgan joylar bo'yicha

- 581 tasi xonadonlarda;
- 50 tasi ko'chalarda;
- 12 tasi ish joylarida;
- 4 tasi ta'lim muassasasida;
- 1 tasi jamoat joyida.

648 ta himoya orderi berish orqali 604 ta oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit yaxshilanishiga erishildi.

- 287 ta oilalar yarashtirildi;
- 317 ta oilalardagi nizolar bartaraf etildi;
- 34 tasida nizo bataraf etilmadi.

19 ta holatda himoya orderlari takroriy ravishda berildi. Himoya orderining amal qilish muddatini uzaytirish holati 2 ta, 4 ta himoya orderi olishdan bosh tortish holati kuzatildi.

Himoya orderida belgilangan cheklovlarga rioya qilinmaganligi bo'yicha 28 ta holat aniqlanib, 28 nafar shaxslar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 2061- moddasiga asosan ma'muriy qamoq jazosiga tortildi. Bu ma'lumotlar shuni anglatadiki, ijobiy natijaga erishish uchun zaruriy chora-tadbir sifatida profilaktik tadbirlarni amalga oshirish targ'ibot turlaridan

keng foydalanish talab etiladi. Zo‘ravonliklarni aksariyat jabrlanuvchilarini xotin-qizlar tashkil etayotgani albatta bu oilaviy munosabatlarga boib taqaladi va bularning jabrlanuvchilari aynan xotin-qizlardir. Zo‘ravonlikdan erkaklar ham jabrlanishi mumkin, lekin xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan jabrlanish ehtimoli yuqoriligi, zo‘ravonlik turlari, og‘irlik darajasi va kelib chiqadigan oqibatlar keskin farqlanishini inobatga olgan holda, so‘nggi islohotlar aynan ularni himoya qilishga qaratilgan. Bugungi kunda xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish borasida jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish uchun chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga oid bir qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda shaxsni zo‘ravonliklardan, shu jumladan oilada sodir etiladigan jinoiy zo‘ravonliklardan himoya qilish mexanizmi mustahkamlab qo‘yilgan. Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha xalqaro kelishuv hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha xalqaro kelishuv oilani jamiyat asosidagi guruh deb tan oladi hamda shaxsni oiladagi zo‘ravonliklardan himoya qiladi.

Milliy qonunchiligimizda ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning hayoti, sog‘lig‘i, qadr-qimmatini va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari ustuvorlik kasb etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida: “Hech kimning qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas”,⁶⁹ - deb qayd etilgan. O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” Qonunining maqsadi ham xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, zo‘ravonlik qaysi turda bo‘lishidan qat’iy nazar jamiyat hayoti uchun o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatibgina qolmay, uning oqibatlari natijasida davlat va jamiyatning siyosiy hayotida ham bir qancha muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, tazyiq va zo‘ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish bo‘yicha sa’y-harakatlarni doimiy ravishda izchil amalga oshirish sodir etilayotgan zo‘ravonlikning kamayishiga olib kelishi aniq.

Bunga qarshi kurashish barchamizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. States, United (1918). „U.S. Compiled Statutes, 1918: Embracing the Statutes of the United States of a General and Permanent Nature in Force July 16, 1918, with an Appendix Covering Acts June 14 to July 16, 1918“. Making of Modern Law: Primary Sources, 1763–1970. 1716-bet.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривож лантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. - <https://lex.uz/docs/3107036>

⁶⁹ Ўзбекистон Республикаси конституцияси

3. Сурков Александр Алексеевич Насилие как социальный феномен: особенности конституирования 1 бўлим 1 боб 14 бет
4. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси

ZAMONAVIY JAMIYATDA FAN TEXNIKA INQILOBI KONVERGENSIYASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAMOYILLARI

Xaytboyev Boburjon Xamzayevich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi
bobur423bobur@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada fan-texnika inqilobi va zamonaviy jamiyatdagi konvergensiya kontseptsiyasi asosidagi ijtimoiy-falsafiy tamoyillar tahlil qilingan. Ilmiy taraqqiyot, texnologik innovatsiyalar va jamiyatdagi o‘zgarishlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq munosabatlarni o‘rganish orqali ushbu tadqiqot ushbu ishlanmalarning axloqiy va falsafiy oqibatlarini haqida tushuncha berishga qaratilgan. Mavjud adabiyotlar, falsafiy asoslar va amaliy tadqiqotlarni har tomonlama tahlil qilish orqali fan va texnologiya zamonaviy jamiyatni qanday shakllantirayotgani va odamlarning o‘zaro munosabatlariga qanday ta’sir qilishi haqida tushuncha beradi.

Kalit so‘zlar: fan, texnologiya, inqilob, konvergentsiya, jamiyat, falsafa, axloq, barqarorlik, innovatsiya.

Аннотация: в данной статье рассматриваются социально-философские принципы, лежащие в основе концепции конвергенции в современном обществе и научно-технической революции. Изучая взаимосвязь между научным прогрессом, технологическими инновациями и социальными изменениями, данное исследование призвано дать представление об этических, моральных и философских последствиях этих событий. Благодаря всестороннему анализу существующей литературы, философских основ и тематических исследований он обеспечивает детальное понимание того, как наука и технологии формируют современное общество и влияют на человеческие взаимодействия.

Ключевые слова: наука, технология, революция, конвергенция, общество, философия, этика, устойчивость, инновации.

Abstract: this article examines the socio-philosophical principles underlying the concept of convergence in modern society and the scientific-technical revolution. By examining the interrelationships between scientific progress, technological innovation, and societal change, this study aims to provide insight into the ethical, moral, and philosophical implications of these developments. Through a comprehensive analysis of existing literature, philosophical frameworks, and case studies, it provides a nuanced understanding of how science and technology shape modern society and influence human interactions.

Key words: science, technology, revolution, convergence, society, philosophy, ethics, sustainability, innovation.

KIRISH

XXI asrning dastlabki yillarida fan va texnikaning jadal rivojlanishi zamonaviy jamiyat hayotining turli jabhalarida chuqur o'zgarishlarga olib keldi. Ushbu o'zgarishlar nafaqat yashash, ishlash va muloqot qilish tarzimizni inqilobi bo'ldi, balki ularning inson hayoti va atrof-muhitga ta'siriga oid muhim axloqiy va falsafiy savollarni ham ko'tardi. Turli sohalarda texnologiya, axborot va bilimlarning integratsiyalashuvini nazarda tutuvchi konvergensiya kontseptsiyasi bu o'zgarishlarni yanada tezlashtirdi va butun dunyo bo'ylab shaxslar va jamoalar uchun imkoniyatlar va muammolarni yaratdi. Shu nuqtai nazardan, ilm-fan va texnologiya inqilobini va buning natijasida zamonaviy jamiyatdagi konvergensiyaning asoslovchi ijtimoiy falsafiy tamoyillarni o'rganish juda muhimdir.⁷⁰

Ilmiy-texnikaviy inqiloblar jamiyat taraqqiyotida, xususan iqtisodiy taraqqiyotda muhim rol o'ynagan. Ilmiy kashfiyotlarning texnologik innovatsiyalar bilan uyg'unlashishi tibbiyot va aloqadan tortib transport va energetikagacha bo'lgan turli sohalarda ulkan yutuqlarga yo'l ochdi. Biroq, butun tarix davomida kuzatilganidek, bu inqiloblar atrof-muhitning buzilishi, axloqiy dilemmalar va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklar kabi kutilmagan oqibatlarga olib keldi. Ushbu inqiloblarning falsafiy asoslarini tushunish zamonaviy yutuqlarning murakkab relyefida harakat qilish va ularning mas'uliyatli va barqaror amalga oshirilishini ta'minlash uchun juda muhimdir.⁷¹

Fan va texnologiya inqilobi va zamonaviy jamiyatdagi konvergensiyaning ijtimoiy falsafiy tamoyillarini o'rganish uchun falsafa, sotsiologiya, axloq va texnologiya tadqiqotlaridan olingan tushunchalarga tayangan holda multidisipliner yondashuvdan foydalanadi. Keng qamrovli adabiyotlarni o'rganish, amaliy tadqiqotlarni tahlil qilish va tanqidiy mulohaza yuritish orqali tadqiqot ushbu hodisalar bilan bog'liq asosiy mavzularni, tendentsiyalarni va axloqiy fikrlarni aniqlashga qaratilgan.⁷²

Bundan tashqari, ushbu soha mutaxassislari bilan sifatli intervyular ilmiy va texnologik ishlanmalarning ijtimoiy ta'siri haqida bevosita istiqbollarni taqdim etadi. Fan, texnika va jamiyatning o'zaro bog'liqligini ta'kidlab, fan va texnika inqilobi tomonidan qo'yilgan axloqiy muammolarni hal qilishda yaxlit va hamkorlikda yondashish zarurligini ta'kidlaydi. Ilmiy tadqiqotlar, texnologik innovatsiyalar va ijtimoiy yaqinlashuvni boshqaradigan falsafiy tamoyillarni ochib, ushbu tadqiqot ushbu sohalar o'rtasidagi nozik munosabatlarni yoritib beradi va siyosatchilar, sanoat rahbarlari va keng jamoatchilik uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi. Oxir oqibat, munozaralar tez texnologik o'zgarishlar davrida yanada barqaror, adolatli va

⁷⁰ Шарипова М. Б., Садуллоева М. Б. Профессия «учитель» и её роль в обществе //Проблемы педагогики. - 2020. - №. 1 (46)

⁷¹ Шарипова М. Б., Мустакимова Г. А. Наследие мыслителей в эстетическом воспитании учащихся начальной школы //Вестник магистратуры. - 2019. - №. 105. - С. 48.

⁷² Белкина Валентина Николаевна - психология раннего и дошкольного возраста. Учебное пособие. Гриф УМО по педагогическому образованию. - "Феникс", 2015. (17п.л.)

insonga yo‘naltirilgan kelajakni shakllantirish uchun ushbu topilmalarning oqibatlariga qaratiladi.⁷³

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamonaviy jamiyatdagi fan-texnika inqilobi inson hayotining barcha jabhalariga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi. Ilmiy va texnologik taraqqiyotning jadal sur‘atlari sanoat, iqtisodiyot va jamiyatlarni o‘zgartirgan innovatsiyalarga olib keldi. Sun‘iy intellekt, biotexnologiya, nanotexnologiya va qayta tiklanadigan energiya kabi sohalardagi yutuqlar bizning yashash, ishlash va muloqot tarzimizda inqilob qildi.⁷⁴

Texnologiya butun dunyo bo‘ylab odamlarni bir-biriga bog‘lab, ilgari hech qachon ko‘rilmagan miqyosda tezkor aloqa va hamkorlikni ta‘minladi. Internet, ijtimoiy media va mobil qurilmalar axborot, g‘oyalar va resurslar almashinuvini osonlashtirib, dunyoni o‘zaro bog‘langan va qulayroq qilish imkonini berdi. Sun‘iy intellekt va robototexnika tomonidan boshqariladigan avtomatlashtirish texnologiyalari ishlab chiqarish, transport, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda inqilob qildi.⁷⁵

Ushbu texnologiyalar turli jarayonlarda samaradorlik, mahsuldorlik va aniqlikni oshirib, sifat va iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga olib keldi. Katta ma‘lumotlar va ilg‘or tahlil vositalarining mavjudligi korxonalar, hukumatlar va tashkilotlarga ma‘lumotlarga asoslangan qarorlar va tushunchalarni qabul qilish imkonini berdi. Katta ma‘lumotlar to‘plamini tahlil qilish prognozlash, risklarni boshqarish, mijozlarni segmentatsiyalash va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni yaxshiladi, bu esa yanada samarali strategiyalar va natijalarga olib keldi. Biotexnologiya, genomika va tibbiy texnologiyalar sohasidagi yutuqlar sog‘liqni saqlash sanoatini inqilob qilib, diagnostika, davolash usullari va shaxsiylashtirilgan tibbiyotga olib keldi. Genlarni tahrirlash, telemeditsina, taqiladigan qurilmalar va salomatlik monitoringi tizimlari kabi texnologiyalar bemorlarni parvarish qilish va natijalarni yaxshilagan. Fan va texnologiya iqlim o‘zgarishi, ifloslanish va resurslarning kamayishi kabi ekologik muammolarni hal qilishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Qayta tiklanadigan energiya, toza texnologiyalar, barqaror qishloq xo‘jaligi va yashil infratuzilma sohasidagi innovatsiyalar yanada barqaror va ekologik toza kelajakka hissa qo‘shdi. Fan va texnologiya inqilobi shaxsiy hayot, xavfsizlik, tenglik va ish joyini almashtirish bilan bog‘liq axloqiy va ijtimoiy tashvishlarni kuchaytirdi.⁷⁶

XULOSA

Xulosa qilib aytganda zamonaviy jamiyatdagi fan-texnika inqilobi va konvergentsiyasi asosidagi ijtimoiy falsafiy tamoyillarni anglashda yordam beradi. Ushbu hodisalarning axloqiy jihatlarini tanqidiy tadqiq qilish orqali tadqiqot ilmiy-texnika taraqqiyotiga prinsipial va aks ettiruvchi yondashuvni qo‘llash muhimligini ta‘kidlaydi. Oldinga siljishda, turli sohalardagi manfaatdor tomonlar ilmiy

⁷³ Эргашева Г. Б., Рахматова Г. Б. К. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе // Проблемы педагогики. - 2020. - №. 1 (46).

⁷⁴ Очилова М. О., Эргашева Г. Б. Основы организации самостоятельной работы учащихся // Молодой ученый. - 2014. - №. 8. - С. 852-854.

⁷⁵ Danilov-Danilyan V.I. Ustoychivoerazvitie-problemavijivaniyacheloveka // Nauka.Obshestvo.CHelovek.- M., 2004. - 143 s.

⁷⁶ Otamuratov S. Globalashuv va millat. – T., Yangi asr avlodi, 2008. – 13 b.

yutuqlarning adolatli taqsimlanishi va jamiyat qadriyatlariga axloqiy jihatdan mos kelishini ta'minlash uchun mazmunli muloqot, axloqiy qarorlar qabul qilish va mas'uliyatli innovatsiyalar bilan shug'ullanishi juda muhimdir. Ilm-fan, texnologiya va jamiyatning o'zaro bog'liqligini e'tirof etish orqali biz zamonaviy dunyo murakkabliklarida donolik, mehr-oqibat va uzoqni ko'ra bilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Белкина Валентина Николаевна - психология раннего и дошкольного возраста. Учебное пособие. Гриф УМО по педагогическому образованию. - "Феникс", 2015. (17п.л.)
2. Шарипова М. Б., Садуллоева М. Б. Профессия «учитель» и её роль в обществе //Проблемы педагогики. - 2020. - №. 1 (46)
3. Шарипова М. Б., Мустакимова Г. А. Наследие мыслителей в эстетическом воспитании учащихся начальной школы //Вестник магистратуры. - 2019. - №. 105. - С. 48.
4. Очилова М. О., Эргашева Г. Б. Основы организации самостоятельной работы учащихся //Молодой ученый. - 2014. - №. 8. - С. 852-854.
5. Эргашева Г. Б., Рахматова Г. Б. К. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе //Проблемы педагогики. - 2020. - №. 1 (46).
6. Danilov-Danilyan V.I. Ustoychivoerazvitie-problemavijivaniyacheloveka//. Nauka. Obshestvo. CHelovek. -M., 2004. -143 s.
7. Otamuratov S. Globallashuv va millat. – T., YAngi asr avlodi, 2008. – 13 b.

UDK 211

ABU HANIFA IMOMI A'ZAMNING HAYOTI – MO'MINLAR UCHUN IBRAT MAKTABI

Buranov Abulqosim Anvar o'g'li

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti 4-kurs talabasi, dinshunos

Annotatsiya: mazkur maqolada muallif islomdagi ahli sunna val jamoa yo'nalishining eng yirik mazhabi asoschisi Abu Hanifa an-No'mon ibn Sobitning hayoti va uning axloqi haqida ma'lumotlar bergan. Uning nasabi, ilmi, kasbi va odob axloqini ibrat sifatida ko'rsatishga uringan. Bunda, No'mon ibn Sobit bilan bir davrda va undan keyin yashab o'tgan ko'plab olimlar qoldirgan manbalarga tayangan holda o'z xulosalarini keltirib o'tgan.

Kalit so'zlar: Abu Hanifa, mazhab, fiqh, aqida, adab, axloq, kasb, ilm, musnad.

Abstract: in this article, the author provided information about the life of the great scholar Ahli Sunnah wal Jamaat, the founder and eponym of the Hanafi Madhhab Abu Hanifa and his morality. His genealogy, science, profession, and

etiquette were all used as examples. At the same time, the author quoted his conclusions based on sources left by many contemporary scientists who lived in the same period and after it.

Keywords: Abu Hanifa, madhhab, Fiqh, creed, decency, ethics, profession, science, Musnad.

Musulmonlar ommasiga Imomi A'zam nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Hanifa an-No'mon ibn Sobit al-Ko'fiy (arab. أبو حنيفة النعمان بن ثابت الكوفي) milodiy 699 yilda Abbosiylar davlatining poytaxti Ko'fa shahrida tug'ilgan. Abu Hanifa No'mon ibn Sobit ahli sunna val jamoaning fiqhiy mazhab boshliqlari ichida eng yoshi kattasidir. Shuning uchun unga “Imomi A'zam” nisbati berilgan. U bolalik chog'idan tahsil olishni boshlab, yoshlik davridan fiqh ilmi bilan shug'ulangan, dars bergan va bir vaqtning o'zida kasb ham qilgan. U 22 yoshidan boshlab Abu Ismoil Hammod ibn Abu Sulaymon al-Ko'fiydan aqid va fiqh ilmlarini mukammal o'rgangan. Hammod esa o'z vaqtida tobeinlardan biri – Abu Imron Ibrohim ibn Yazid an-Naxa'iydan (arab. إبراهيم بن يزيد النخعي) tahsil olgan⁷⁷. Shuningdek, Anas ibn Molik, Abdulloh ibn Abu Avf, Abu Amoma, ibn Abbos kabi sahobalar bilan uchrashib, muloqotda bo'lgan. Abu Hanifa ustozlari vafot etgandan so'ng dars va fatvo berishni boshlagan. U kishida ilm bilan birga taqvo, ibodatga qayumlik, zohidlik kabi sifatlar ham mujassamlashgan edi.

“Imom Abu Hanifa rohimahullohi alayhning asli qayerlik ekani to'g'risida turli rivoyatlar bor. Sirojul Hindiy Abu Hanifa rohimahullohi alayhning nasabi bilan aloqador rivoyatlarni quyidagicha talqin qilish mumkinligini aytadi: “U zotning bobosi qobullikdir. So'ng navbat bilan esa Nisa va Termiz shaharlariga boradi. Balki, imomning otasi Termizda tug'ilib Anbarda o'sgandir”⁷⁸. Bundan ko'rinadiki, buyuk imomning kelib chiqishi bizning vatanimiz hududlari bilan bog'langan.

Abu Hanifaning asosiy mashg'uloti ipak sotish bo'lgan. Dastlab shug'ullangan sohasi – tijorat unga otameros kasb bo'lgan. U kasb qilishga, rizqni halol topishga alohida e'tibor qaratgan. Shu sabab, u “ipak bozorida qisqa fursatda butun to'quvchilar orasida yuksak hurmatga sazovor bo'lgan”⁷⁹ edi.

Uning axloqi haqida juda ko'plab olimlar o'z fikrlarini yozib qoldirishgan. Diniy faoliyatda faqat ilmning o'zi kifoya qilmaydi. Jumladan, Imom Buxoriyning ustozlari Makkiy ibn Ibrohim “Abu Hanifa rohmatallohi alayhning so'zlarida va fe'llarida sodiq zot” bo'lganini ta'kidlab o'tgan⁸⁰.

Abu Hanifa o'z davrida shahrining eng bilimli odami bo'lgan. Abdulloh ibn Muborakdan rivoyat qilinadi: “*Kufaga borib, ulomolaridan “Shahringizda eng ilimliroq kishi kim? deb so'radim. Ularning barchasi “Imom Abu Hanifa”, deb javob berishdi. Keyin ulardan: “Eng ko'p ibodat qiladigan va eng ko'p ilm bilan mashg'ul*

⁷⁷ Lecomte, G. // Encyclopaedia of Islam. 2nd ed : [англ.] : in 12 vol. / edited by C. E. Bosworth; E. van Donzel; W. P. Heinrichs & Ch. Pellat. Assisted by F. Th. Dijkema (pp. 1—384), P. J. Bearman (pp. 385—1058) and S. Nurit. — Leiden : E.J. Brill, 1993. — Vol. 7. P. 921-922.

⁷⁸ Шеножак. Э. Имоми Аъзам изидан. — Тошкент: Илдиз нашриёти, 2023. Б — 4.

⁷⁹ Шеножак. Э. Имоми Аъзам изидан. — Тошкент: Илдиз нашриёти, 2023. Б — 9.

⁸⁰ Ҳомидов М.А. Имоми Аъзам. — Тошкент: Ҳилол-нашр, 2022. Б — 34.

bo'ladigan odam-chi?, deb so'radim. Hamma: “*Imom Abu Hanifa*”, deb javob berishdi⁸¹.

Ma'lumki, Abbosiylar davlatining avvalgi poytaxti Ko'fa shahri edi va bu davrda shahar aholisining, jumladan olimlarning ham ko'pchiligini shialar tashkil qilar edi. Bundan xavotirlangan xalifa Abu Ja'far Mansur yangi poytaxt – Bag'dodni qurishga jazm qiladi. Shaharning tarhini chizish uchun esa Abu Hanifani Kufadan chaqirtirib keladi. Imom Abu Hanifa shaharni rejalashtirish va qurishda qatnashadi. Bu shahar aylana shaklida bo'lib, Dajla daryosining suvlari uning har bir ko'chasi va xiyobonlarini obod qilgan. Shahar juda tartibli, go'zal va fusunkor bo'lgan. Shahar tartibli va fusunkor bo'lishini odamlar Abu Hanifaning xizmati deb bilishgan. Bundan ko'rinadiki, Abu Hanifa me'morlik ilmida ham yetuk bo'lgan.

Xalifa Abu Ja'far Mansur o'z davrining eng ilmi kishisi Abu Hanifa ekanini bilardi. Uning fe'li og'irligi, podsholar suhbat va xizmatidan qochishini ham yaxshi bilardi. Ammo, shunday bo'lsa-da uni tez-tez huzuriga chaqirib turar edi. Abu Hanifa esa xalq uchun foydasi tegadigan ish bo'lsa borar, bo'lmasa bormas va aytilgan ishni bajarmas edi. Shuning uchun, olim va hukmdorning orasida jiddiy ziddiyatlar yuzaga keladi. 767 yilda shunday ziddiyatlarning eng kattasi yuzaga keladi. Xalifa Abu Hanifaning ilmi va salohiyatidan foydalanish uchun uni davlat xizmatiga, aniqrog'i bosh qozilikka taklif qiladi. Biroq, Abu Hanifa bunga ko'nmaydi. Natijada, xalifa uni qamoqqa olishni buyuradi⁸². Jazo uchun, har kuni uni bozorga olib chiqishni va odamlar oldida 10 darradan urishni buyuradi. Bu holat 10 kun davom etadi va jami 120 darra uriladi. Bu jarayonlarda Mansur: «*Agar qozi bo'lmasang, Furot daryosiga oqizib yuboraman*», deya po'pisa qiladi. Abu Hanifa esa: «*Daryoda oqishni afzal ko'raman. Bilib qo'y, men bu ishni eplay olmayman*», deya javob qaytaradi. Shunda xalifa imomga: yolg'on aytayapsan, deydi. Imom Abu Hanifa, darhol: sen yolg'onchini qozi qilishga qandoq rozi bo'layapsan, deya javob qaytaradi. Bu tortishuvlar, milodiy 767 yil 18 iyun kuni buyuk imomning sajda qilgan holatida vafot etishi bilan yakunlanadi⁸³.

Abu Hanifaning janozasiga taxminan 50000 odam yig'iladi. Janozaga xalifa Abu Ja'far Mansurning o'zi ham keladi⁸⁴. Buyuk imom o'z vasiyatiga ko'ra Bog'dodning tashqarisidagi Hayzaron qabristoni⁸⁵ga ko'miladi. Hozirgi kunda qabr atrofida Jome' al-Imam al-A'zam (arab. جامع الإمام الأعظم) masjidi joylashgan. Zamonaviy Bog'dodning shimolidagi ushbu qismi ham hozirgi kunda al-Azamiya tumani deb nomlangan⁸⁶.

Abu Hanifaning hayoti va hatto vafoti ham mo'minlar uchun ibrat bo'ldi. Uni ko'mishdan avval yuvgan g'assol Hasan ibn Amora yuvishni tamomlab bo'lib,

⁸¹ Аминов Х. Примов С. Ханафий фикҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари. — Тошкент: “Моварауннахр” 2017. Б — 23.

⁸² Ibn al-Bazzaz, Mohammed M. Virtues of Imam Abu Hanifa. — Riyadh : National King Fahd Library, 1904.

⁸³ Якуби, том. III, стр.86; Мурудж ад-Захаб, т. III, стр. 268–270.

⁸⁴ Ҳомидов М.А. Имоми Аъзам. — Тошкент: Ҳилол-нашр, 2022. Б — 34.

⁸⁵ Бу жой кейинроқ, халифа Мансурнинг келини, халифа Ал-Махдийнинг хотини – Ал-Ҳайзарон бинт Ато ал-Журашийяга (араб. الخيزران بنت عطاء) дафн қилингани учун шундай номланган.

⁸⁶ <https://www.understandingwar.org/region/adhamiya>

kafanlab qo‘yilgan jasadlariga qarab shunday deydi: «*Alloh sizni rahm qilsin va sizni mag‘firat qilsin. O‘ttiz yildan beri ro‘zador bo‘ldingiz. Qirq yildan buyon tunda yonboshlamadingiz. Sizdan keyin kelganlarni charchatdingiz. Qorilarni sharmanda qildingiz!*».

Abu Hanifa shaxs sifatida murakkab inson bo‘lgan. Uning fe‘l-atvorini bir o‘rganishda tushunib olish qiyin. U saroydagilar bilan ham, faylasuflar bilan ham til topisha olmagan. U halol kasb qilar, bandadan rizq kutmas edi. U taqvoda hammadan o‘zar, namozi, ro‘zasi, zakoti uchun qayg‘urar edi. Kasb qilmasdan qorilik yoki duogo‘ylik ortidan tirikchilik qiladiganlarni yoqtirmas edi. Uning bahslardagi eng ko‘p tanqid qilinadiganlar shialar, mutazaliylar va murjiylar (مرجئة) edi. Xususan, Abu Hanifaning “Al-fiqh al-akbar” asarida ham aynan qadar va oxirat masalalariga e‘tibor qaratilgan⁸⁷.

Abu Hanifa murosada olimlar bilan yaxshi kelishgan. Shuning uchun unga ergashganlar ham olimlar, talabalar va kasb qiluvchi taqvodorlar bo‘lishgan. Imomi A‘zam haqida boshqa mazhab sohibi imom Shofe‘iy: «*Odamlar fiqhda Abu Hanifaning boqimandalaridir*», degan. Molik ibn Anasdan odamlar «*Abu Hanifani ko‘rganmisiz?*» deb so‘rashganda, u «*Ha, agar ushbu ustunni tillo demoqchi bo‘lsa, hujjat topa oladigan odamligini ko‘rdim*», deb javob bergan ekan.

Abu Hanifa o‘zidan ulkan meros qoldirdi. Uning Al-Fiqh al-Akbar», «Musnad», «Kitab al-A‘lim val-Muta‘llim» kabi asarlari keng ommalashgan. Shuningdek, uning shogirdlari Abu Yusuf Yaqub ibn Ibrohim, Muhammad ash-Shayboniy, Zufar ibn al-Huzayl, Abdulloh ibn Muboraklar ham uning asarlariga sharhlar yozishgan va bu asarlar ham Abu Hanifaning merosi sifatida qadrlanadi. Ammo, Abu Hanifaning yana bir merosi borki, uni kitoblardagi matnlardan topmaymiz. Ularni uning tarjimai holi va kitoblari, shuningdek, buyuk imomga atab yozilgan kitoblarning mazmunidan topamiz. Bu meros – Abu Hanifaning axloqidir.

Xulqning eng go‘zali – Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning xulqi edi. Abu Hanifa uning yo‘lini tutdi. Abu Hanifaning xulqi – qur‘on va sunnat asosida qurilgan chin taqvodor xulqi edi. U o‘z hayotida doim sunnatga asoslangan va tavhid bilan jilolangan axloqiy tamoyillarga, odob qoidalariga amal qildi. U shu tamoyillardan og‘ishmadi. Qur‘on o‘qidi – amal qildi. O‘qidi – o‘qitdi. Kasb qildi – zakot berdi. Haq yo‘lida barqaror turdi. Qo‘rqmadi va shu yo‘lda shahidlikka yetishdi. Shuning uchun ham Ko‘fada va Bog‘dodda mo‘minlar unga ergashdilar. Hamon mo‘minlar Abu Hanifadan ibrat olishmoqda. Inchunun, Abu Hanifaning axloqi ibrat maktabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lecomte, G. // Encyclopaedia of Islam. 2nd ed : [англ.] : in 12 vol. / edited by C. E. Bosworth; E. van Donzel; W. P. Heinrichs & Ch. Pellat. — Leiden : E.J. Brill, 1993. — Vol. 7. P. 921-922.
2. Шеножак. Э. Имоми Аъзам изидан. — Тошкент: Илдиз нашриёти, 2023. Б — 4.
3. Ҳомидов М.А. Имоми Аъзам. — Тошкент: Ҳилол-нашр, 2022. Б — 34.

⁸⁷ Абу Ханифа // Ислам: энциклопедический словарь — М. : Наука, ГРВЛ, 1991. — С. 11-12.

4. Аминов Ҳ. Примов С. Ҳанафий фикҳи тарихи, манбалари ва истилоҳлари. — Тошкент: “Моварауннахр” 2017. Б — 23.
5. Ibn al-Bazzaz, Mohammed M. Virtues of Imam Abu Hanifa. — Riyadh : National King Fahd Library, 1904.
6. Якуби, том. III, стр.86; Мурудж ад-Захаб, т. III, стр. 268–270.
7. Ислам: энциклопедический словарь Абу Ханифа //— М. : Наука, ГРБЛ, 1991. — С. 11-12.
8. <https://www.understandingwar.org/region/adhamiya>

MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA, OILADAGI MEHR VA MUHABBATNING O‘RNI.

Huseynova Abira Amonovna,

Buxoro viloyati inson xuquqlarini himoya qilish mintaqaviy (ombudsman) vakili, F.f.d. professor.

Sultonova Nodira Ergashovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti “Tarix” kafedrasida f.f.d (PhD), dotsent

Tursunova Gulruh Xolmamatovna,

Toshkent amaliy fanlar universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchi

Annotatsiya: maqolada mehr va muhabbatni olimlar talqini. Milliy-ma’naviy tarbiya: mohiyati va tamoyillari. Mexribon farzandlarni tarbiyalashning milliy va ma’naviy omillari. Millat urf-odatlarini mehr va muhabbatning o‘rni va ahamiyati. Xalq hayotida mavjud bo‘lgan tartib va qoidalarning oilada barkamol avlod tarbiyasiga ta’siri.

Tayanch so‘zlar: oila, nikoh, mehr, muhabbat, axloq, kitob, inson, insonparvarlik, vatanparvarlik, ta’lim tizimi, odob-axloq, milliy qadriyatlar.

Abstract: in the article, scientists interpret love and affection. National spiritual education: essence and principles. National and spiritual factors of raising kind children. The role and importance of love and affection for national traditions. The effect of the order and rules existing in the life of the people on the upbringing of a well-rounded generation in the family.

Key words: family, marriage, affection, love, morality, book, human, humanity, patriotism, education system, manners, national values.

Jahondagi aksariyat davlatlar doimo millatlararo totuvlik, Vatanga, tarixiy-madaniy merosga mehr, oila va farzandlarga, ayol va ota-onaga muhabbat kabi gumanistik g‘oyalarni doimo qadrlab kelgan. Ayniqsa bugungi behalovat zamonda ko‘p millatli mamlakatlarda, tinchlik, hamjihatlikni ta’minlashda mehr va muhabbatning mazmun-mohiyatini anglash va butun dunyo xalqlariga singdirish ulkan ahamiyat kasb etadi. Jahon ilm-fanida taraqqiyparvar kuchlar “hamma hammaga yov” prinsipi o‘zining uzoq rivojlanish jarayonida yaratgan oliyjanob, boqiy qadriyatlari – mehr va muhabbatni qarshi qo‘yishga majbur bo‘lmoqda. Jamiyatda mehr va muhabbat tuyg‘usi nafaqat individual, balki juda katta ijtimoiy-antropologik

muammolardan biri hisoblanib, ushbu xususiyatlarsiz “hayotni e’zozlash”, sivilizatsiyalar inqirozini tatqiq etish zamonaviy ilm-fanning muhim masalasidir.

Mamlakatimizda “mehr” va “muhabbat”, “oqibat”, “muruvvat” kabi fazilatlarga katta e’tibor qaratish, bu tushunchalarni qayta-qayta targ’ib qilish, xalqimizni birdamlik, hamjihatlikka da’vat qilish ham bejiz emas”. [1:482] Hozirgi kunda “mehr” va “muhabbat” tushunchalariga falsafiy kategoriya sifatida yondashib, ularni ijtimoiy-antropologik jihatdan o’rganish dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Afsuski, bugun yoshlar orasida hayotni yengil-yelpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib yetmaslik holatlari uchrab turibdi. Yosh oilalar orasida arzimas sabablar bilan ajralishlar ko’payib bormoqda. Begunoh bolalar mehr va e’tiborga eng tashna vaqtda tirik yetim bo’lib, ota-ona tarbiyasidan bebahra qolmoqda. Ba’zi oilalardagi nosog’lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o’rtasidagi janjallar, ayrim xotin-qizlarimizning o’z joniga qasd qilishi holatlari mavjud. Bu muammolarni aniqlab, amaliy hal etish usullari ishlab chiqish ob’ektiv zaruriyatdir.

Sharq uchun xudoga bo’lgan mehr-muhabbat barcha munosabatlarning asosidir. Ammo u insonni, insonga bo’lgan mehr-muhabbatni unutmaydi. Insondagi go’zallikni, oliyjanob fazilatlarni, ma’naviy-ahloqiy sifatlarni ulug’lamagan Sharq mutafakkiri, shoiri, ilm ahli topilmaydi.

Mehr va muhabbat uch: shaxs, millat, insoniyat pog’onalari tahlil qilinadi. Shaxs pog’onasidagi do’slik va mehr-muhabbat konkret kishiga, insonga yo’naltiriladi. Konkret shaxsga bo’lgan munosabat sub’ekt dilini yangi-yangi tuyg’ular bilan boyitadi, unga mahbuba (mahbub)siga bo’lgan sevgisini, ishqini kuylash, ideallashtirish istagini uyg’otadi shu tariqa u o’zida insoniy fazilatlarni shakllantiradi. Mehr-muhabbat Vatan, do’slik- xalq, millat, pog’onasida yanada yuksak pog’onaga ko’tariladi. Sub’ekt o’z mehr-muhabbatini Vatan, xalq, millati e’zozlaydigan, yaratgan, qadrlaydigan va muhtoj bo’lgan narsalarga qaratadi. Ularning quvonch dardlarini o’zining ma’naviy-ruhiy intilishlar manbaiga aylantiradi. Bu o’rinda su’bekt ham qanday fidoiylikka, jasoratga, hatto o’z jonidan kechishga shay bo’ladi.

Sharq mutafakkir olimlariga o’z zamonasi va keyingi asrlarda ham ko’plab sharhlar bitilgan. Zero, bunday mo’jaz, ammo olam-olam ma’no va so’z san’atining turfa sirlarini o’z bag’riga olgan asarlar mazmun-mohiyatini chaqish barcha uchun bir xil oson emas. Shu bois, ularning kishini o’ylantiruvchi nuqtalarini anglash maqsadida tahlil va tushuntirish, maqsadga muvofiqdir. G’azal mulking sultoni Alisher Navoiyning “Qaro ko’zum...” so’zlari bilan boshlanuvchi g’azal mehr-muhabbatni asrlar osha ko’pchilikning diqqatini tortib, kuylar bastalangan va sharhlar bitib kelinayotgan she’rlardan sanaladi. Ayniqsa, unga keyingi paytlari olimlarimiz tomonidan yozilgan sharhlar ulug’ shoir ijodini yaqindan o’rganish borasidagi navbatdagi qadamlardan biri bo’ldi. Quyidagi izlanishimizga ham mo’jizakor bu g’azalning san’atkorona ifodalangan mazmunini tushunish yo’lida mehrli so’zlarga e’tiborimizni qaratdik.

Oiladagi hukmron sevgini muhabbatni olimlarimiz quyidagicha tahlil qiladilar: Ollox Taollox yaratganlarini behishtdan quvayotib, Momo Havoga debdi:—Sening

homiladorlik paytidagi mashaqqatlarini bag‘oyat orttiraman. Sen dard bilan farzandlar tug‘asan. Ishtiyoqing eringda bo‘ladi, u esa senga hokim bo‘ladi.

G‘arb mutafakkirlarning qarashlari tubdan farq qiladi. Kishilar ulug‘lab kelayotgan mutafakkirlarning ayol haqidagi fikrlari esa bundan ham g‘alati. Masalan, Xomer yozadi: Ayoldan ham halokatli narsa yo‘q.deb, ayolga salbiy ta‘rif beradi.

Yetti donishmandlardan biri hisoblanadigan Fales o‘zining ayol bo‘lib tug‘ilmaganiga hamdu sanolar aytadi. Donishmandlarning donishmandi Suqrot esa, go‘q butun erkaklarning fikrlarini ifoda etgandek, erkak qaxridan ko‘ra, ayol mexr-muhabbatidan qurqish kerak, deydi. Budda, Konfutsiy ta‘limotlaridan, Arastu, Shopengauer, Nistshe, Tolstoy, Bernard Shou asarlaridan ayol sha‘niga aytilgan turli fikrlarni istagancha keltirish mumkin. Nima uchun erkak ruhi, hissi bilan ayolni sevishga, ammo uni aqlu idroki, alfozi bilan kamsitishga intiladi? Nima uchun xaqoratli iboralar, eng taxqirona hikoyalar, o‘xshatishlar, latifalar ayol haqida? Nega erkaklar o‘zining “go‘zal yarmini” kamsitishga, xo‘rlashga odatiy hol deb qaraydilar? Mening fikrimcha, farang yozuvchisi Sofiya Segyur haq; “erkaklar ayollar haqida ko‘ngliga kelganini gapiradilar, ayollar esa erkaklar bilan ko‘ngliga kelganini qiladilar” deb yozadi. Ba‘zi G‘arb olim mutafakkirlari ayollarga nisbatan salbiy fikrlarni bildirgan.

Erkak aqlu idroki bilan yetgan haqiqat ayol qalbi bilan yetgan haqiqatdir. Erkak aqlu idroki, bilak kuchi bilan dunyoni o‘ziniki qilishga intiladi, ushbu intilishlariga qarshi chiqqan har qanday kimsaga u yov ko‘zi bilan qaraydi. Mavqe, lavozim, taxt egallashga intilgan erkakning xatti-harakatlarini kuzatsangiz, u o‘z maqsadiga yetish uchun har qanday zo‘ravonlik, qabixlik, razillikdan qaytmasligini ko‘rasiz. Ushbu maqsadi uchun erkak nafaqat aziz kishilardan, hatto o‘zidan ham kechishga shay. To‘g‘ri, uning bu xislatlari har doim ham ochiq namoyon bo‘lavermaydi, ammo ushbu maqsadiga yetolmagan erkak uni yaqinlari davrasida, oilasida amalga oshirishga intiladi. Chunki “Har bir erkak qalbida hech bo‘lmasa ojiz jonivorlar yoki ojizalar davrasini o‘ziga itoat ettirishdek g‘ayrimantiqiy istak yashiringan bo‘ladi” deb ta‘kidlanadi. (R.Grin).

Ming afsuski, erkak kuchi, quvvati to‘lib-toshib turganida, bir xamla bilan dunyoni o‘zgartirishim mumkin, deb o‘ylaganida o‘zining ijtihodlari kim uchun, nima uchun ekanligi haqida ko‘pincha o‘ylab ko‘rmaydi. Aqlu idrok da‘vatlariga qulon tutmaydi. Vaqt o‘tadi, belida quvvati, bilagida kuchi, ko‘zida nuri susaygach, erkak nima uchun yugurib, chopganlarining boisi haqida o‘ylay boshlaydi. (Shopengauer, “Odam, aslida erkak, qirq yoshigacha roman, qirqidan keyin unga ilovlar yozadi” deganida shuni nazarda tutgan.) Oqil ayol erkakning ushbu harakatlarini goho qo‘llab-quvvatlab, aslida esa kinoya bilan kuzatib, Yaratgan vujudiga jo etgan azaliy burchini ado etib boradi. U qalbi bilan sezadiki, erkak qanchalik yugurib, chopmasin, ne-ne o‘lkalarni, qit‘alarni aqlu idroki bilan zabt etmasin, bir kunimas bir kuni u azaliyat tartiblariga itoatda yashayotgan, tinch va osuda hayot bilan. farzandlari, nevaralari tufayli muabbadni yaratayotgan ayol ostonasiga qaytishga majbur. Aytmoqchi bo‘lgan fikrim shundaki, asrlar davomida ilgari surilgan aqlu idrokning (aslida erkak aqlu idrokining) har narsaga qodir, insoniyat va jamiyat taraqqiyoti ushbu kuch tufaylidir, degan aqida zimdan ayolning oiladagi yaratuvchanlik rolini inkor etib keldi. Ayol va

tarqqiyot XX asrning o‘rtalarigacha biri-biriga yot tushunchalar sifatida qaraldi. Insoniyat ayolning erkaklar bilan teng huquqli ekanligini tan olganiga hali yarim asrdan oshmadi. Endi biz ijtimoiy taraqqiyotni ayollar faolligisiz tasavvur qilolmaymiz. Ammo men ellik, yuz yil ichida ayollar hayotida keskin o‘zgarishlar sodir bo‘ladi deya olmayman. Nima uchun?

Birinchi, ijtimoiy hayotda, kasb-korda, asosiy faoliyatda differentsiatsiya ro‘y berayotgan ekan, u oilaviy hayotga xam ta’sir etmay qolmaydi. Kimdir oilaviy hayotni, turmushni olib borishi kerak-da. Ikkinchi, jamiyatimiz ko‘proq erkaklar kuchiga, saloxiyatiga tayanadi. Eng muxim lavozimlar, soxalar, yuqori maoshli vazifalar erkaklar qo‘lida. Shuning uchun ayollar, buni ular istaydilar yoki yo‘q, erkaklar shovinizmiga bo‘ysunishga majbur. Uchinchi, ayollarimizning o‘zida, tarixiy-madaniy an‘analarga tazyiqi ostida, albatta, oilada o‘z so‘zini, xukmini utkazishga moyillik kuchli. Ulardagi bu xislatni xatto inqiloblar ham o‘zgartirmadi. Ular xamon ushbu an‘analarga muvofiq tarbiya oladilar. To‘rtinchi, tabiatan ayol farzandlari o‘sib, ulg‘ayadigan oilaviy muxitga bog‘langan. Janna D,Ark, Inessa Armand kabi ayollar istisnolardir va ularni hech qachon ayollar namuna sifatida qabul qilmaganlar. Ayol farzandlarining sog‘-salomat o‘sishi, farovon yashashi uchun erkakka u yoqda tursin, hatto ya‘jujga qaram yashashga ham tayyor.

Fikrimni eradan avvalgi VII-VI asrlarda yashagan shoira Sapphoning quyidagi so‘zlar bilan yakunlamoqchiman. U yozadi: – “Oldingda o‘tirib muloyim so‘zlaringni tinglayotgan kishi mening nazarimda, baxtda, sevgida xudoga tengdir. Aslida bu fikr ularning xar ikkalasiga ham barobar taalluqlidir. Shunday baxt, sevgi nasib etganini tuyib yashaydigan erkak va ayol uchun oilada kim hukmron degan savol g‘azofonadir” deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, oilada erkakni eshitib, uning fikrlariga oqilona va samimiylik bilan javob qaytargan ayol soliha ayol sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

G‘arb olimlarimizning asarlarda “Millatni yo‘q qilmoqchimisiz? Uning ayollari tarbiyasini buz!” degan fikrlar uchraydi, ushbu jumlar Qadimgi Yunon faylasufi Suqrotga tegishli bo‘lib, bir paytlar Yevropada qudratli kuchga ega bo‘lgan va hatto Yunonistonni ishg‘ol qilgan Sparta davlati abadiy yengib bo‘lmas mamlakat sifatida ko‘rilardi. Bu qudratli davlatni har bir er o‘g‘loni bor ediki jang maydonida oxirgi qoni qolguncha arslon kabi olishardi. Ularni go‘yo jang maydonida yengish imkonsiz edi. Hatto boshqa davlatga yurishga ketayotgan qo‘shin ham Sparta chegarasini aylanib o‘tgan. Qadimdan makkorligi bilan ko‘p davlatlarni qulatgan Rimliklar ana shu yengib bo‘lmas saltanatni qulatish uchun ko‘p yillar harakat qilishdi va oxirida Yunon faylasufi Suqrotning millatni yo‘q qilmoqchimisiz uning ayollarini tarbiyasini buz iborasidan puxtalik bilan foydalanishdi.

Dastlab Rimliklar Sparta bilan do‘stlik aloqalarini yaxshilashdi va ularga o‘zlarining savdo karvonlarini jo‘natishdi. Bu paytda Sparta aholisi dehqonchilik bilan shug‘ullanar, erkaklari doimiy janglarda bo‘lgan i sababli, odatda ayollar dehqonchilik ishlari bilan band bo‘lar edi. Asta-sekin Sparta ichkarisiga kirib kelgan Rim savdogarlari qishloq ayollarini qimmatbaho buyumlar, gazlamalar bilan qiziqtirishni boshlashdi. Albatta bu chiroyli buyumlarni sotib olish uchun ularga oltin kerak edi. Bora-bora janglardan uyiga qaytayotgan erlardan ayollar jangdan oltin bilan qaytishni

talab qila boshlashdi. Ilgari vatani, halqi, or-nomusi uchun so‘nggi qoni qolguncha olishgan millatning er yigitlari endi jangga oltin uchun kiradigan bo‘ldi. Ular jangdan oltinsiz uylariga qaytishni istashmas, qaytganlarini uyda ming malomatlar kutib turardi.

Birinchi bosqich amalga oshgach Rimliklar endi ikkinchi bosqichga o‘tishdi. Ular savdo karvonlari orqali endi qullarni ham olib kelib Spartada sotishni yo‘lga qo‘yishdi. Yil o‘n ikki oy dalada ishlaydigan ayollarga bu ishlarni qullarga qildirishlari mumkinligi, o‘zlari uyda maishatda yashashlari asta-sekinlik bilan singdirildi. Vaqt o‘tib ayollar hamma ishlarini qullariga qildiradigan va har bir Spartalikning uyida qul bo‘lishi urfga aylandi. Shundan keyin erkaklari doimiy janglarda yurgan Sparta ayollariga qullari bilan yashirincha ishqiy munosabatlar qurish kabi yod g‘oyalar faol feministkalar tomonidan singdirila boshlandi. Bu ishlar boshida erlardan yashirincha tutilardi toki Sparta Malikasining o‘z quli bilan ishqiy munosabati ma‘lum bo‘lmaguncha. O‘shanda hukmdor o‘sha qulni qatl qildirib Malikani jazosiz qoldirgandi. Shu voqeadan keyin boshqa ayollar ham endi erlaridan qo‘rqmaydigan va bu ishlarini sir tutmaydigan odat chiqarishdi. G‘ururi singan erkaklar endi ilgarigidek jang maydonida o‘lishni istashmas, ular himoya qiladigan orqalarida qadrliroq hech narsa qolmagandi. Oxirgi bor Rim qo‘shinlari Spartaga bostirib kirganda qarshilarida g‘ururi singan bir hovuch qo‘rqoqlar turardi. Ilgari jang maydonida sherdek olishgan Spartaliklar bu safar jangning birinchi qismidan jang maydonini tashlab qochishdi. Shu bilan bu qudratli davlat yer yuzidan batamom yo‘q bo‘lib ketdi. Erka-tayloq Sparta ayollari esa Rim bozorlarida qul qilib olib ketildi.

Sharqda xadislarda g‘oyalar qo‘llanila boshlanganiga mana ming yillardan oshdi. Tarix charxpalagi takrorlanib boraverar ekan yangi-yangi g‘oyalar vujudga kelaveradi. Insoniyat yaralibdiki hayot uchun kurash davom etadi va unutmang ming yillar oldingi bu g‘oyalar hozir ham qo‘llanilyapdi, faqat yangicha ko‘rinishlarda, klassik usullarda... Nabiy sollallohu alayhi vasallam marhamat qilib: - «Ahlatda o‘sgan guldan ehtiyot bo‘linglar» - dedilar. Shunda sahobalar: Ahlatda o‘sgan gul qanday bo‘ladi?- deb so‘radilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: - «Yuzi go‘zalu, lekin odob va tarbiya ko‘rmay o‘sgan qiz» - deb javob berdilar. Xadislarda keltirilgan rivoyatlar insonlarni odob-ahloqini, ibo-xayosini, go‘zalligini, mehr-muhabbatini aks etgan diniy asar sifatida o‘rganiladi. Hadis ayol zoti islom dinida ekanligidan baxtiyor bo‘lishga, Allohning unga bergan fazlidan shod bo‘lishga hamda o‘zidagi bor ne‘matlarga xursand bo‘lishga undaydidan diniy asar ekanligi bilishimiz. Hadis har bir qalbi ezilgan, g‘am ostida qolgan, qayg‘usi ziyoda bo‘lgan inson uchun orzu chechagi, umid nasimi, xushxabar ziyosidir deb ta’kidlanadi.

Payg‘ambarimiz Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bola tarbiyasida va unga mehr-muhabbatini targ‘ib qilishda shunday fikrlar keltiriladi: “Etti yoshgacha farzandingiz bilan o‘ynang, o‘n besh yoshgacha unga do‘st bo‘ling, o‘n besh yoshidan so‘ng u bilan maslahatlashing”. Darhaqiqat farzand tarbiyasidagi dono fikrlarning xadislarning o‘rnini farzandlarga o‘rgatish ota-onaning asosiy farzidir.

Ali roziyallohu anhu: “Katta odam yosh bola bilan uning ya‘ni bolalarning shevasida gaplashsa, bolaning zehni silagan bo‘ladi. Bolaning fahmi, u aytgan gaplar bilan unsiyat paydo qiladi. Aytganlarini eshitadi va tushunadi. Aks holda o‘sha inson

bilan bola orasida muloqot vujudga kelmaydi. Yosh bola bilan gaplashib, unga gap uqtirish, faylasuf bilan gaplashishdan kam emas”deb ta’kidlab, bolaning ochiqligi adolatligi aqlliligi qomusiy olim darajasida tenglashtirilishi ilmi bo‘lishidan darakdir.

Muhammad Rotib Nobulsiy xadislarda “Sehr” haqida shunday deyiladi. Unga xotini dedi:- Mendagi siz o‘zgarishni hohlaydigan barcha salbiy sifatlarni yozib bersangiz. Men a’zo bo‘lgan ayollar jamiyati shuni hohlayapdi. Er bir qog‘ozga yozdi: "Men xotinimni qanday bo‘lsa shundayligicha sevaman. Unda hech qanaqa ayb ko‘rmayman". U buklangan qog‘ozni ayollar jamiyati talab qilganidek xotiniga berdi. Ertasi uyiga kelanida xotini uni bir quchoq gul bilan kutib oldi. Uning ko‘zlarida shodlik ko‘z yoshlari jilvalanar edi. U eriga dedi: “Bu men uchun kutilmagan ish bo‘ldi. Ayniqsa bu maqtov yozilgan maktubni ko‘pchilikning orasida ochganim ...” Er aytadi: "Xotinimni o‘ndan ortiq ayblari bor edi. Ammo men shuni bildimki, u ayblarni aytgan bilan hech qachon muolaja qilib bo‘lmas ekan". Qizig‘i shuki, uning xotini yetmish foizga o‘zgardi. Negaligini bilasizmi? Bu maqtovning qarshi chiqib bo‘lmaydigan sehidir. Bu moddiylik barobar bo‘la olmaydigan sanoning quvvatidir. Ayblarni aytish nafrat, adovat va sarkashlikni paydo qiladi. Maqtov esa muhabbat va surur paydo qiladi. Uy va oilada ijobiy energiya hosil qiladi. O‘z hayotingni, xotining hayotini, oilang hayotini qo‘pol va chaqib oladigan so‘zlar bilan bulg‘ama! Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “Yaxshi so‘z sadaqadir”, deganlar.

Inson antropologiyasida aql tushunchasi uch narsa sababli rivojlanadi, bu tushuncha yashash orqali namoyon bo‘ladi:

1. Doimiy tafakkur. Insonda tafakkurni rivojlanishi, odob-axloqda, madaniyatda, umuminsoniy qadriyatlarda kuzatiladi.

2. Mutafakkirlar kitobini mutolaa qilish. Kitobxonlikka mehr-muxabbatning yuqoriligi asrlar osha diniy va dunyoviy ilmni yuksalishiga xizmat qiladi.

3. Hayot tajribalariga sergak turish. Insonda hayot tajribasining o‘zi ham xayotga mehr-muhabbatining belgisi sifatida talqin etiladi. Olimlarimiz Xadisi sharifda Oisha onamiz roziyallohu anho nihoyatda taqvoli, obida, o‘ta hayoli, pokiza nafs, oliymaqom ayol edilar. U zotning hujralariga Rasululloh sollallohu alayhi vasallam, Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu va Umar roziyallohu anhu dafn qilinganlar. Hazrati Umar roziyallohu anhu dafn qilinmaslaridan oldin onamiz uylariga kirsalar, ustlaridagi ba’zi liboslarini yechar, boshlaridan hijoblarini olardilar va “Bu qabrda yotganlar erim va otam-ku” derdilar. Qachonki Umar roziyallohu dafn qilingach, uyga kirsalar ham qabrda yotgan Umar roziyallohu anhudan hayo qilib ro‘mollarini, hijoblarini yechmaydigan bo‘ldilar. Manabu xolat Sharq ayollarining xayosi ibosi, odobini namoyon etadigan xarakter sifatida talqin etiladi.

Oisha onamiz roziyallohu anhoning hujralari ko‘rsatilgan. O‘ng tarafdagi qabrlarni aytadigan bo‘lsak: o‘ng tarafdagi chetdagi qabr ikki olam sarvari Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak qabrlari, uning yonidagi, biroz pastroqdagi Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning qabrlari, uning yonidagi, biroz pastroqdagi Umar roziyallohu anhuning qabrlari. Chap tarafdagi bo‘yra ustidagi joy Oisha onamiz roziyallohu anhoning o‘rinlari. Mo‘minlarning onasi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning seviklilarining xonalari, jihozlari, joylarini joylashtirilgan. Onamiz shu xonada yashab, sahobalarga, sahobiyalarga, tobeinlarga, butun ummatga Islomning

oilaviy mavzuga tegishli hukmlaridan, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning uyda nimalar bilan mashgʻul boʻlishlari, ayollariga qanday muomala qilishlari va boshqa koʻplab hukmlarni bayon qilganlar. Xuddi shu xolatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan Oisha onamiz roziyallohu anho bir idishdan gʻusl qilish qoidalarinini oʻrgatib oʻtadilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning shunday odatlari borki, goʻshtni avval onamizga berib, keyin onamizning tishlari, soʻlaklari tekkan joyiga muborak ogʻizlarini qoʻyib, goʻshtni tanovul qilganlar. Islomiy din nuqtai nazardan erkakning ayoldagi mexr-muxabbatini koʻrinishi sifatida oʻrganish maqsadga muvofiqdir.

Xuddi shu oʻrinda Oisha onamiz kundoshlari yuborgan taomning tovogʻini urib sindirganlarida, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uylarida mehmon boʻlib turgan sahobalarga “Qani, taomdan olinglar. Onangiz rashk qildi” deganlar. Xuddi shu paytda Abu Bakr Siddiq, Hazrati Umar, Hazrati Usmon, Hazrati Ali, Hazrati Abdulloh ibn Masʻud roziyallohu anhum va boshqa sahobalar mehmon boʻlishgan. Ayollarning rashkli mexr-muhabbatini ham yuksak baxolagan inson sifatida qaraladi.

Sharqda oʻzbek ayolning mehr-muxubbatini taqsimiga sazovordir. Bu jumlaning yozishidan avval bu voqeani juda koʻp ayollarga taʼkidlash, mexr-muhabbatni sadoqatni yozish, xalqqa ibrat qilib koʻrsatish kerakligini aytib, 2010-yil 18-may kuni xizmat bilan bir xonadonga bordim. Marosim tugagach chamasi toʻqson yoshli bir onaxon menga: Qizim koʻpni duosi ijobat deyishadi, menga duo olib bergin, – dedilar. Sizga nima deb duo qilaylik deb, – soʻradim. Onaxon koʻzlariga yosh olib: Cholim urushdan eson-omon kelsinlar, shuni soʻrab bergin, bolam, – dedilar. Qaysi urushni aytyapsiz, 1941 yildagi urushmi? Ha, xuddi oʻsha urushga ketganlar. Haliyam kutyapsizmi, axir 70 yildan oshdi, – desam, onaxon: Nega kutmay, birov oʻlganini koʻrmagan boʻlsa, qora xat kelmagan boʻlsa, nikohim bor kutyapman, – dedilar. Bu moʻtabar onaxonning toʻyi 1941 yil 30 iyun kuni boʻlgan ekan. Toʻyning ertasiga kuyov va uning besh nafar ukalarini urushga olib ketishgan. Yosh kelinchak qaynona va qaynotasining xizmatini qilib, halol mehnat bilan kun oʻtkazib kelgan. Besh yildan soʻng erining ukalari urushdan qaytib kelishadi, lekin uning turmush oʻrtogʻidan darak yoʻq. Undan hech qanday xat-xabar kelmaydi. Umid bilan kutib yillar suvdek oqib oʻtib ketdi. Aka-ukalar uylandilar, farzandli boʻldilar.

Ular oʻzaro kelishib, yillar davomida kelinlik xizmatini sidqidildan ado etgan yangalariga bittadan farzandlarini berishga qaror qildilar. Sabr-bardoshi togʻdek ayol xizmatlariga yarasha mukofotini oldi. Uch qiz, ikki oʻgʻil boʻldi. Bolalarni uch kunligidan katta qildi, mana vaqt-soat oʻtib ularning kenjasi ham ellikka kiribdi. Ha bolam duo olgan omondir, – deb davom ettirdilar onaxon. Ikki oʻgʻilimga qanday qilib uy-joy qilaman derdim, buni qarangi ikki yonimdagi qoʻshnilarim, onaxon, biz ishda bizda bolalarimizni katta qilib berdingiz, yedirib-ichirib yaxshi tarbiyaladingiz. Biz koʻnglimiz xotirjam ishlab yuraverdik. Ishlarimiz yurishib boshqa joydan uy-joy qilib ketyapmiz, bu hovli bizdan sizga hadya boʻlsin, – deyishdi. Koʻzimga yosh olib Alloh taolaga shukrona aytdim. Mana hozir 15 ta nabiram, 30 ta evaram, 10 ta chevaram bor. Mendan baxtli ayol yoʻq. Onaxonning bu hikoyasini eshitib hayratda qoldim. Bu haqida kelinidan soʻradim. Kelin: “Buvamiz vafot etganlar. Mustaqillik maydonidagi temir daftarda ismlari bor. Lekin bu xaqda

buvijonimizga aytolmayapmiz, buni eshitib o‘lib qolsalarchi. Ovqat olib o‘tiradilar, eshikni qulflatmaydilar, kelib qolsa ocholmaydilar, deb. Ko‘cha eshikni o‘zlari yarim tunda qulflab kirib, namoz o‘qiydilar”, dedi. Bu onaxonning vafosiga, sabr-bardoshiga, matonatiga tog‘lar ham dosh berolmasa kerak. Ana o‘zbek ayolining sadoqati, vafosi, mehr-muhabbatining ko‘rinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. – B. 482. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. – B. 482.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O‘zbekiston faylasuflarimilliy jamiyati nashriyoti, 2010.
3. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi, 1992.
4. Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2. tomlik – T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
5. Gegel.Filosofiya religi v dvux tomax. T.1. M.: Misl, 1976. -S. 111.
6. Alimasov V.Falsafa yoxud fikrlash san’ati.T.Falsafa va xuquq. nashr., 2007. 67-b.
7. Freyd Z. Psixologiya bezsoznatelnogo.M.: Prsveshenie,1989.-S. 382 -383.
8. Teyyar de Sharden.Fenomen cheloveka. M.: Nauka, 1987. S. 208.
9. Platon. Socheneniya vtrex tomax. T. 2. M.: MЫsl. 1970. s.28.
10. Kuzanskiy N.Sochineniya vdvux tomax. -T. 2. M.: MЫsl.1980.s 386.
11. Shveyner A. Kultura etika. M.Progress, 1973.S.304.

UCHINCHI RENESSANS DAVRIDAGI YANGI O‘ZBEKISTON OILALARIDA MEHR-MUHABBAT TUYG‘ULARI TALQINI

Sultonova Nodira Ergashovna,

Toshkent amaliy fanlar universiteti “Tarix” kafedrası f.f.d (PhD) dotsent

Annatsiya: maqolada bu oliy his-tuyg‘u mehr-muhabbat butun dunyo xalqlarida sodir bo‘ladigan inksitiv (ichki his-tuyg‘u) holat bo‘lib, mehr-muhabbat tushunchalarini bugungi kundagi o‘rganilishi tahlil etilgan. Yosh avlodni ta’limga, ilmga, kitobga, mehr-muhabbati, qadriyat va an’analarga sodiqlik tuyg‘ularini shakllantirish asosiy maqsadlardan biridir.

Kalit so‘zlar: mehr, sevgi, muhabbat, axloq, kitob, inson, insonparvarlik, vatanparvarlik, do‘stlik, ta’lim tizimi, odob-axloq, milliy qadriyatlar.

Annotation: the article analyzes how this supreme feeling of love is an inactive (inner feeling) phenomenon occurring around the world, and that the concepts of love have been studied from ancient times to the present day. One of the main objectives of the younger generation is to create a sense of adherence to education, science, books, love, values and traditions.

Keywords: love, morality, books, human, humane, patriotic, friendship, education system, ethics, national values.

Аннотация: в статье анализируется, как это высшее чувство любви является неактивным (внутренним чувством) явлением, происходящим во всем мире, и что концепции любви изучались с древних времен до наших дней. Одна из главных задач молодого поколения - создать чувство приверженности образованию, науке, книгам, любви, ценностям и традициям.

Ключевые слова: любовь, нравственность, книги, человек, гуманность, патриотизм, дружба, система образования, этика, национальные ценности.

Jahonda kechayotgan global inqirozlar, qurollanish poygasi, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi, terrorizm, bir tabaqaning haddan tashqari boyib, ko‘pchilikning qashshoqlashuvi, migratsiya bilan bog‘liq nizolar insoniyat bugun konfrontatsiya avj olayotgan, beshafqat borliqqa ro‘para turganini ko‘rsatadi. Jamiyat hayotida bunday to‘lqinlar, bo‘hronlar tez-tez bo‘lib turganligini tarixdan bilamiz. Jamiyatda paydo bo‘layotgan bunday inqiroz va ziddiyatlarning negizida insonlardagi yovuzlik, birodaru yaqinlariga mehr-muhabbatning, do‘stlikning etishmayotgani yotadi. Dunyodagi tartibsizlik, axloqiy buzuvchilik, nizo-janjallar, jinoiy ishlar, qolaversa, ma‘naviy ziddiyatlar mehr-muhabbat tuyg‘usi zaiflashgani yoki yo‘qolib borayotganligi ko‘rsatib, dolzarb masalalardan biridir.

Jahondagi aksariyat davlatlar doimo millatlararo totuvlik, do‘stlik, Vatanga, tarixiy-madaniy merosga mehr, ta‘limga, oila va farzandlarga, ayol va ota-onaga muhabbat kabi gumanistik g‘oyalarni doimo qadrlab kelgan. Ayniqsa bugungi behalovat zamonda ko‘p millatli mamlakatlarda, tinchlik, hamjihatlikni ta‘minlashda mehr-muhabbat va do‘stlikning mazmun-mohiyatini anglash va butun dunyo xalqlariga singdirish ulkan ahamiyat kasb etadi. Jahon ilm-fanida taraqqiyparvar kuchlar “hamma hammaga yov” prinsipi o‘zining uzoq rivojlanish jarayonida yaratgan oliyjanob, boqiy qadriyatlari – mehr-muhabbatni qarshi qo‘yishga majbur bo‘lmoqda. Jamiyatda do‘stlik va mehr-muhabbat tuyg‘usi nafaqat individual, balki juda katta ijtimoiy-antropologik muammolardan biri hisoblanib, ushbu xususiyatlarsiz “hayotni e‘zozlash”, sivilizatsiyalar inqirozini tatqiq etish zamonaviy ilm-fanning muhim masalasidir.

Mamlakatimizda “mehr-muhabbat”, “oqibat», «muruvvat” kabi fazilatlarga katta e‘tibor qaratish, bu tushunchalarni qayta-qayta targ‘ib qilish, xalqimizni, yosh avlodni, birdamlik, hamjihatlikka da‘vat qilish ham bejiz emas”. [1;482] Hozirgi kunda yoshlar dunyoqarashida “do‘stlik” va “mehr-muhabbat” tushunchalariga falsafiy kategoriya sifatida yondashib, ularni ijtimoiy-antropologik jihatdan o‘rganish dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Afsuski, bugun yoshlar orasida hayotni engil-yelpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib etmaslik holatlari uchrab turibdi. Yosh oilalar orasida arziyas sabablar bilan ajralishlar ko‘payib bormoqda. Begunoh bolalar mehr va e‘tiborga eng tashna, ilm oladigan davrida tirik etim bo‘lib, ota-ona tarbiyasidan bebahra qolmoqda. Ba‘zi oilalardagi nosog‘lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o‘rtasidagi janjallar ayrim xotin-qizlarimizning o‘z joniga qasd qilishi holatlari

mavjud. Bu muammolarni aniqlab, ularni ilmiy va amaliy hal etishning usullarini ishlab chiqish ob'ektiv zaruriyatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi” va “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-Farmonlari, shuningdek, 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5325-son Farmoni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Sog'lom oila–sog'lom jamiyat” konseptual g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini ijrosini amalga oshirish bo'yicha normativ huquqiy hujjatlar muayyan darajada xizmat qiladi.

“O'zbekiston Respublikasining tiklanish davridan yuksalish bosqichiga o'tish jarayoniga amalga oshirilayotgan ta'lim, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarga, urf-odatlariga, mehr- muhabbat tuyg'usini shakllantirish va mehr-oqibatli, ilmiy, tarbiyali yoshlar O'zbekiston kelajagi” ekanligini qalblarga singdirish davr talabidir.

Darhaqiqat, Abdurahmon Jomiy ta'biri bilan aytganda “.Sening chin ko'ngildan aytgan chiroyli so'zlaringdan ko'ra qilgan amallaring a'lo bo'lgan i yaxshiroqdir.” Bu amallarni ilm, tarbiya bo'lsagina ko'rsata olasan. Shu sababli xar bir insonda so'z xam amal xam go'zal bo'lishi ta'kidlanadi.

Kadrlash tayyorlash milliy dasturi asosidagi zamonaviy milliy ta'lim modelining” Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishning muhim omillari”da ko'rsatilganidek, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ustuvorligi qaror topganligi; milliy o'zlikni anglashning o'sib borishi, vatanparvarlik, insonparvarlik, o'z vatani uchun iftixor tuyg'usining shakllanayotganligi, boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat, shuningdek, ”Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari”da e'tirof etilganidek, ta'limning milliy tarix, an'analari va urf-odalari bilan uzviy uyg'unligi,O'zbekiston xalqining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limning milliy qadriyatning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish; boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash; iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun sharoitlar yaratish kabi muhim vazifalarni bajarish bugungi komil inson tarbiyasi hamda zamonaviy ta'lim samaradorligini oshirish ustuvor ekanligini anglatadi.

Zamonasining peshqadam ziyolisi bo'lgan Abdulla Avloniy bolalarni mustaqil mantiqiy fikrlashga o'rgatishda ularning fikriy tarbiyasiga to'xtalar ekan, bu-muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdir”-deb fikr bildiradi.

Barkamol avlodni shakllantirish O'zbekiston Respublikasining o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlaridan biridir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub isloxotlar negizida esa inson manfaatlari yotadi, inson manfaatlarining kondirilishi-barkamol avlodni tarbiyalash kafolatidir. Ijtimoiy taraqqiyotni ko'zlagan har bir jamiyat islohotlari moxiyatida nima yotishini belgilab olish va barcha imkoniyatlarini,

mexanizmlarini ana shu vazifaga qaratishni taqazo etadi. Inson qandaydir “ilm” qurish va barcha sa’y harakatlarning maqsadi, insoniyat orzu qilib kelgan idealdir. Ushbu ideal mudom inson barkamolligini kun tartibiga qo‘ygan. Ming afsuski barkamollik barcha davrlarda ayrim shaxslarga xos fazilat bo‘lib kelgan, qolgan kishilar, ayniqsa yosh avlod ularga ergashgan, ulardek barkamol bo‘lishni orzu qilishgan xalos.

Barkamollikka erishish uchun shaxsning orzu tilagi, hoxish-istaklari kamlik qiladi (shuning uchun ham komillikka erishgan ajdodlarimiz davr, tuzum, mavjud tartiblardan ko‘ngli to‘lmagan, hatto ular bilan to‘qnashgan), komillik ob‘ektiv va sub‘ektiv omillarning uyg‘un kelishini, komillikka bo‘lgan hoxish-istak va sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashi darkor. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingina komillikka etish kabi sub‘ektiv voqelikni ob‘ektiv hodisaga aylantirish, qo‘llab-quvvatlash yo‘lga qo‘yildi.

“Komil inson g‘oyasi – ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzodga xos eng yuksak ma’naviy va jismoniy mukammallikni o‘zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g‘oya. Komil inson g‘oyasi nafaqat muayyan shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari etaklagan, ularni ma’naviyat va ma’rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan.” [2;163] Barkamol yoki komil inson kuyidagi pozitiv fazilatlarni o‘zida mujassam etadi: tavba, halol lukma bilan qanoatlanish, o‘z kasbidan foyda topib kun o‘tkazish, shariat konunlariga rioya etish, farzandlari, hatto xizmatkorlariga qo‘pollik kilmaslik, rahmdillik, saxiylik, mardlik, halimlik, xushxulqlik, sabrlilik, sadoqatlilik, vafodorlik, riyozat chekishdan qo‘rkmaslik kabilardir. Buyuk ajdodimiz Alisher Navoiy fikrlari aks etgan ushbu fazilatlarni yana davom ettirish mumkin. Xullas komil inson-iymon va e’tiqodlilik, halollik va poklikning, mehr-muhabbatning oliy timsolidir.

Beruniyning fikriga ko‘ra “Kishi ko‘ngli tartibli va kelishgan narsalarga moyil bo‘ladi, tartibsiz narsalardan nafratlanadi”. [3;28]Haqiqatdan ham betartib narsa kishini bezovta qiladi, yon-atrofga ishonsizlik uyg‘otadi. Inson his-tuyg‘ulari ham tartibli va kelishgan bo‘lishi zarur chunki inson ma’lum maqsadlarga muvofiq harakat qiladi. Aristotel aytganidek: ”Ayrim bir kishida hamma tanlaydigan ma’lum bir maqsad bo‘ladi”. [4;128]Ushbu maqsadiga erishish uchun uning ongi, aqli va his-tuyg‘ulari harakatga keladi.

To‘g‘ri, insonni bunday mexanistik tarzda anglab bo‘lmaydi, ayniqsa insonning his-tuyg‘ulari qaerda to‘xtashini, kimga yo‘naltirilishini, nimani ixtiyor, xohish qilishini bashorat qilib bo‘lmaydi. Mahbub (mahbuba) ga bo‘lgan mehr-muhabbat “Sirli bir onda yoki bir nigoh bilan tasodifan paydo bo‘lishi mumkin.

Shaxsning shakllanishi uning ijtimoiy muhit bilan aloqalariga, munosabatlariga bog‘liqdir. Oila, mahalla, mehnat jamoasi, maktab, o‘quv yurtidagi ijtimoiy muhitlar u yoki bu darajada shaxs ruhiyatiga, ichki kechinmalari va hayotiy ideallariga ta’sir qiladi. Ammo ularning ta’sirini shaxs passiv qabul qilmaydi, o‘zi ham muhit bilan aloqalarga kirishadi, undagi ayrim tomonlarni o‘zgartirishi mumkin. Mehr-muhabbat ushbu dialektik aloqalarning in’ikosi, mahsulidir.

Kishidagi mehr va muhabbat tuyg‘usi eng avvalo oilasida tug‘iladi, keyin yoru brodarlariga, qarindosh urug‘lariga, mahalla va asosiy faoliyati kechadigan muhitga ko‘chadi. Insonning tarbiyasi, ilm olishi oiladagi muhit bilan bog‘liqdir. Sharqda jamoa

bo‘lib yashash odati asrlar davomida qadriyatga aylanib kelmoqda. Bu kishida jamoaga xos bo‘lgan fazilatlarni, urf-odat, qadriyatlarni shakllantiradi. Yor-birodarlarga mehr-muhabbat ushbu odat, jamoa bo‘lib yashash tarzi tufayli shakllanadi.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish O‘zbekiston mustaqilligini ta‘minlash, ularni el-yurt ravnaqi uchun tinmay mehnat qilishga undashdir. Mustaqillikni asrash va el-yurt ravnaqi uchun mehnat qilishgina vatanparvarlik tuyg‘usini ob‘ektivlashtiradi. Shuning uchun ”inson jamiyatda o‘z o‘rni, qadr-qimmatini topib, aql-zakovat, hatti-harakat, o‘zgalar bilan samimiy, do‘stona munosabatda bo‘lib, hayotning oliy qadriyatlaridan bahramand bo‘lish maqsadida yashaydi, mehnat qiladi. Ayniqsa, u kamolotga erishish uchun, orzu umid, maqsadi yo‘lida mehnat qiladi, qobiliyatini namoyon qiladi”. Vatanparvarlik ham ushbu qobiliyatga, mehnatga ifoda etiladi.

Shunday ekan, zamonaviy ta‘limimizning maqsadi o‘zbek oilalarida yuksak ma‘naviyatga ega bo‘lgan komil insonlarni tayyorlash, ajdodlarimizning an‘ana va tajribalarini o‘rganish asosida mustaqil fikrlaydigan, el-yurt sha‘ni va shuhratini ko‘klarga ko‘taradigan, vatani taraqqiyoti uchun olijanob maqsadlar sari intiladigan, “Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak” shiori ostida vatan muxabbati va ravnaqi uchun kurasha oladigan komil insonlarni tarbiyalab voyaga etkazish har bir shaxsning insoniy burchidir. Yangi jamiyat fuqarolarining odob-ahloq va huquqiy madaniyat qoidalarini har bir shaxs qalbi va ongiga singdirish milliy o‘zini anglashda muhim ahamiyat kasb etishi barobarida mustaqilligimizni mustahkamlashga va har bir fuqaroning qalbi va ongiga singdirishga eng muhimi, huquqiy faol jamiyat a‘zosini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. – B. 482.
2. Milliy goya: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.:O‘zbekiston Respublikasi IIB Akademiyasi, 2011.-B.163.
3. Homidov H. Qirq besh alloma hikoyati.-T.: Fan. 1995.-B.28.
4. Aristotel. Socheneniya v chetirex tomax.T. 2. -M.: Misl, 1970.-S.128.
5. WWW.Ziyo.net.

DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE

Raimova Guli Madmurodovna

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Guli_raimova@gmail.com

Ortikov Muhammadqodir Musajon o‘g‘li

UzDJTU Department of Natural Sciences²

Tursunova Dilafzus Mirpo‘latovna

Academic Lyceum of the Tashkent Institute of Chemical Technology³

Abstract. this article covers environmental education and culture from the beginning of human society to the present day, and provides information on measures to improve human ecological education and culture.

Key words: ecology, education, culture, Avesta, nature, man, society.

Enter. One of the important factors is the formation of a modern ecological worldview in every member of the society to improve the ecological situation. Every moment of human life, every breath is connected with nature and the elements necessary for its life: earth, water, air. As society develops, its impact on the natural environment increases. Man is always in contact with nature, that is, with plants, as well as with its above-ground and underground resources. Nature is closely related to our spiritual and social life. If we do not notice this natural connection, then we can harm the flora and fauna of his world.

As nature is a holy place for all living beings on earth, it feeds them, clothes them, protects them from cold and heat. In turn, all living creatures give their love to nature. Only if this love is connected with the feeling of preservation and increase of natural resources, it is considered real.

Improving the ecological knowledge and culture of the population is one of the important and first tasks of today. People can save their mother nature only when they fully understand the consequences of environmental pollution.

By ecological education, we understand the extended production process of the acquisition and processing of heritage by the individual through the development of education and ecological culture. Environmental education is a branch of general education. The goal of any education is to acquire knowledge empirically collected by our generations, and its result is human knowledge and behavior in a certain environment [3, p. 196]. For thousands of years, the peoples of Central Asia and our region have developed ecological culture and education at the highest level. You can learn about this from the holy book «Avesta», which clearly expresses the education and culture of the peoples of Central Asia and our region. The book, which sheds light on the connection between man and nature, states that the material foundations of earth, water, air, and the sun are sacred, their pollution is considered a great sin, and their pollution is strictly prohibited. As a result of improper use of nature and its resources, various disturbances occur in it, as a result of which humanity itself suffers great losses and damages, as proven by today's science. The expansion of ecological problems and their solution is the final task of today's era, and to solve these problems, humanity mainly requires ecological knowledge and ecological culture. One of the main factors

for improving the ecological situation is the development of environmental education in all layers of the population, as well as the improvement of ecological culture and thinking. We must recognize our ancient traditions and respect for nature; At the moment, there are several environmental problems in our beloved country of Uzbekistan; water and air pollution, soil salinization, drying up of the Aral Sea. Ecological education is an integral part of moral education of a person. Scientists consider the quality of a person's relationship with nature, people and himself as indicators of the development of his ecological culture. The idea of ecological culture is determined by certain indicators determined by the psychological characteristics of age at each stage of personal development [1, p. 16].

After the Republic of Uzbekistan gained independence, great and important attention was paid to the elimination of environmental problems. On December 9, 1992, the Law «On Nature Protection» was adopted [4, p. 110]. This law stipulates that all educational institutions in schools, colleges, and higher educational institutions should force the population, mainly the growing generation, to form a rational attitude towards nature, use natural resources carefully, and raise environmental awareness and ecological culture. The formation of students' ecological culture includes the activities of teachers, parents and children.

The key to the success and effectiveness of environmental education is a systematic approach and its continuity. The goal of establishing a continuous environmental education system is to form a special ecological worldview based on the unity of scientific and practical knowledge, a positive emotional and valuable attitude to nature, behavior and activity that ensures a responsible attitude to the environment. In the Republic of Uzbekistan, with the support of the bodies of the Nature Protection Committee, ministries and departments, educational institutions, enterprises and organizations, non-governmental and non-profit organizations, educational activities are being carried out among all levels of the population. On ecology and environmental protection, conscious use of natural resources. In this process, mass media opportunities are widely used, various actions, exhibitions, conferences, seminars and other events are held on nature protection. Over six thousand radio and television programs were conducted by the Nature Protection Organization of the Republic of Uzbekistan in the next five years. Articles on environmental issues are constantly being published on the pages of republican newspapers. The state body of the Nature Protection Committee of the Republic of Uzbekistan, local and foreign partners, the Ecological Party of Uzbekistan, Ecoforum, «Youth Agency», «Mahalla» group. Armasi, non-governmental non-profit organizations together with the state and non-profit organization «Eko Maktab» and other public organizations annually hold festive events dedicated to global environmental dates. The National report «On the state of the environment and the use of natural resources in the Republic of Uzbekistan» is constantly published. The web portals of the State Committee for Nature Protection and its divisions, as well as the portals of its local bodies, are constantly being improved and updated.

A cultured person always maintains the balance between nature and society in this regard, guides the behavior of others in extreme situations, does not pollute the water and air in his home; the atmosphere with its emissions.

Ecological culture includes:

- nature protection culture;
- culture, use of natural resources;
- the culture of changing the ecological system.

Environmental problems can be solved, only then will all humanity unite.

Summary.

In conclusion, we can say that nature is a material and spiritual source that satisfies all the needs of life. Therefore, nature does not depend on us, but we depend on nature. It is the human and creative duty of each of us to preserve and protect nature and use its resources wisely. Nature is not a heritage left by our ancestors, it is a wealth that we should leave to our descendants.

Used literature:

1. Дерябо С.Д., Ясвин В.А. Экологическое образование в условиях экологического кризиса // Учителю об экологии детства. – Москва: 1996.
2. Тажибаев З.М. Экологик таълим ва тарбиянинг долзарб муаммолари // материалы Республиканской научно-практической конференции «Экологиянинг ҳозирги замон муаммолари ва уларнинг ечими». –Фергана, 2017.
3. Турсунов Х.Т. Рахимова Т.У. Экология // Учебное пособие. –Ташкент, 2006.

IV SHO‘BA: TA‘LIM -TARBIYA METODOLOGIYASI VA PEDAGOGIK MUAMMOLAR

TALABALARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIY SHERIKCHILIKNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sattorov Vaxob Naqshbandovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
p.f.n. dotsent

Annotatsiya: ushbu maqolaning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda bevosita ish beruvchi, ta'lim muassasalari bilan o‘zaro ijtimoiy sheriklik jarayonlariga e'tibor qaratilgan.

Аннотация: целью данной статьи является акцентировать внимание на процессах социального партнерства с непосредственным работодателем образовательными учреждениями при подготовке будущих учителей к педагогической деятельности.

Abstract: the purpose of this article is to focus on the processes of social partnership with the direct employer-professional educational institutions in the preparation of future teachers of vocational education for teaching.

Kalit so‘slar: Ijtimoiy sheriklik, hamkorlik, integrasiya, ehtiyoj, o‘quv dasturi, qayta tayyorlash, malaka, ishchi guruhlar,

Hozirda yangi ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni, soni va sifati, ta'lim dasturlari, texnologiyalarining isloh qilinishi oqibatida bir qancha o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumtalim maktablariga oliy ta'lim muassasalarini birlashtirilishi, hamkorlikni mustahkamlanishi maqsadli kadrlar tayyorlash tizimini rivojlanishida hamda ta'lim sifatini oshirishda alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonlar o‘z navbatida oliy ta'lim muassasalari va xalk ta'limni o‘zaro integrasiyasini yanada kuchaytirishni talab etadi. Oliy ta'lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda uzluksizlik va ko‘p bosqichli ta'lim, kompetensiyalarga asoslangan yondashuv, ilmiy-tadqiqot va o‘quv jarayonlarini integrasiyalashuvi, zamonaviy axborot-ta'lim texnologiyalaridan foydalanish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Oliy ta'lim muassasasida oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'limi uchun o‘quv dasturlarni amalga oshirish doirasida pedagogik, ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish amalga oshiriladi; ta'lim sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Oliy ta'lim muassasasi ta'lim faoliyati va bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda kasbiy malakasini oshirish sohasida etakchi mintaqaviy ilmiy-metodik markaz hisoblanadi.

Ta'lim tashkilotlari o‘rtasida pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish va mavjud ilmiy, o‘quv, uslubiy va kadrlar resurslaridan foydalanishni optimallashtirish orqali mintaqada mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirish zarur. Shunga ko‘ra, oliy ta'lim muassasasi

pedagog kadrlarning kasbiy malakasini oshirish vazifalarini amalga oshirishda mintaqaviy ta'lim tashkilotlarining ijtimoiy sherikligining tashkilotchisi va muvofiqlashtiruvchisi bo'lishga da'vat etiladi. "Ta'lim sohasidagi ijtimoiy sheriklik" ning asosiy g'oyasi shundaki, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohadagi muammolarni hal qilish butun jamiyatning sa'y-harakatlarini talab qiladi. Ijtimoiy sheriklik barcha sheriklar uchun umumiy bo'lgan istiqbolli maqsadga samarali erishishga, birgalikdagi faoliyatni ularning javobgarligini anglagan holda samarali muvofiqlashtirishga imkon beradi. Ijtimoiy sheriklik asosida ta'lim tashkilotlarining o'zaro hamkorligining amaldagi amaliyoti ijtimoiy adolat va manfaatlar uyg'unligi, munosabatlarni qonuniy birlashtirish, sheriklarning birbirlariga bo'lgan javobgarligi, ixtiyoriylik va teng manfaatlar, natijalarga yo'naltirilgan maqsadli ishlarni tashkil etish, doimiy ishchi guruhlarini tashkil etish bilan ijtimoiy sherikchilik asosida hamkorlik qilishi kerak. Ushbu tamoyillarga rioya qilish faoliyati ta'limning samarali rivojlanishiga hissa qo'shadigan ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini uyg'unlashtirishga imkon beradi. Ta'lim sohasidagi ijtimoiy sheriklik o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi tomonlarning har birining qiziqishi va konstruktiv hamkorligiga, har bir sherikning manfaatlarini hisobga olgan holda sa'y-harakatlar va imkoniyatlarni birlashtirishga, o'zaro manfaatli faoliyatning huquqiy asoslanishiga asoslanadi. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim tashkilotlari, professional pedagogik jamoalarning ijtimoiy sherigi teng va samarali o'zaro hamkorlikka asoslanadi, resurslarni birgalikda faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirish, sheriklarning ilg'or professional tajribalarini to'plash va uzatish, qo'shma faoliyatni samarali muvofiqlashtirishga yordam beradi. Ijtimoiy sheriklik mazmunida kasbiy rivojlanish kasbiy ta'lim darajasi va mutaxassisning kasbiy malakasiga qo'yiladigan ta'limni rivojlantirishning etakchi tendensiyalariga asoslanishi kerak. Mintaqaviy ta'lim tashkilotlarining oliy ta'lim muassasasi bilan ijtimoiy sheriklikdagi manfaatlari, birinchi navbatda, uning kuchli ilmiy tarkibiy qismi bilan belgilanadi. Oliy ta'lim muassasasi ta'limni rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlari, shu jumladan mintaqaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilmiy-tadqiqot, eksperimental ishlarni olib boradi. Uning asosida o'tkazilgan mintaqaviy, xalqaro konferensiyalar, doktorlik dissertasiyalarini himoya qilish oliy ta'lim muassasasi olimlarining ilmiy izlanishlari obro' e'tiboridan dalolat beradi. Ilmiy-pedagogik salohiyat ilmiy-tadqiqot faoliyati sohasida mutaxassislarni samarali tayyorlashga imkon beradi. Ta'lim sohasida ilmiy kadrlar tayyorlash oliy ta'lim muassasasida talabalar stendidan boshlanadi, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining quyidagi shakllari amalga oshiriladi: rahbarlik, talaba ilmiy jamiyati, ilmiy to'garaklar va ilmiy guruhlar, talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari rahbarligida ilmiy ishlar va bitiruv malakaviy ishlari bo'yicha individual ishlar hamda amaliy konferensiyalar.

Talabalarning ilmiy ishlari bo'lajak o'qituvchilar uchun o'quv bazasini kengaytiradi, ularning ilmiy ixtisosliklarini tanlashga imkon beradi. Ilmiy tadqiqot ishlari davomida talabalar tomonidan o'qituvchilar rahbarligi ostida ishlab chiqilgan axborot ta'lim resurslari zamonaviy ta'limda nafaqat sinovdan o'tish talabiga ega, balki o'quv jarayoniga tatbiq etishni ham talab qiladi. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari pedagogik hamjamiyat tomonidan ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish istiqbollari rejalashtirish, bo'lajak o'qituvchilarining

kasbiy pedagogik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqada ta'limni rivojlantirish strategiyasini belgilashda oliy ta'lim muassasasining o'rni haqida gap ketganda, bo'lajak o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashni tashkil etishda yuqori sifatli kadrlar va resurs salohiyatiga e'tibor qaratish lozim. Oliy ta'lim muassasasi bilan xamkrlikda ishlaydigan pedagoglarning asosiy ish shakllari: ilmiy-uslubiy seminarlar, professional ta'lim-seminarlar, treninglar, stajirovkalar, master-klasslar, pedagogik uchrashuvlar, davra suhbatlari, ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalar.

Oliy ta'lim muassasasining etakchi mutaxassisleri rahbarligida turli xil fanlar o'qituvchilarining metodik birlashmalari (jumladan virtual) ham tashkil etilib, ularda o'qitish uslublarining dolzarb masalalari muhokama qilinadi, yangi o'quv dasturlari ishlab chiqiladi va ko'rib chiqiladi, o'qitishning innovasion usullari joriy qilinadi va talabalarning o'quv faoliyati natijalari baholanadi va hokazo. Pedagogik amaliyot bizga amaliy tajriba orttirishga imkon beradi, ammo shuni ta'kidlash kerakki, bu tajriba o'quv dasturining shartlari bilan cheklangan. Talabalarni o'qitishning amaliy yo'naltirilgan usullarini kengaytirish zaruriyati mavjud bo'lib, uning maqsadi kasbiy va pedagogik bilimlarni tizimlashtirish, umumlashtirish, kengaytirish va bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishdir. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy sheriklikning muhim sharti o'qituvchilarning pedagogik fanlari, pedagogik amaliyotlar, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari dasturlarini tayyorlashda ishtirok etishidir. Bunday sharoitda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi tenglik va bo'lajak o'qituvchilar uchun hissiy do'stona hamkorlik muhitini yaratish ta'minlanadi. O'qituvchilarning oliy ta'lim muassasasi, ijtimoiy tashkilotlar va kasaba uyushmalarining ijtimoiy sherigi nuqtai nazaridan malaka oshirishlari kelajakda mutaxassislar va ishlaydigan o'qituvchilar uchun ham o'quv, ham kognitiv faoliyatni rag'batlantirishning yangi usullarini ishlab chiqish, "hayot orqali o'rganish" munosabatlarini shakllantirish orqali amalga oshirilishi kerak. Ijtimoiy sheriklikning umumiy vazifasi pedagogik faoliyatning ijtimoiy ahamiyatini ko'rsatishdir. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasasi va ta'lim tashkilotlarining ijtimoiy sherikligining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarining ilmiy-tadqiqot ishlari mavzularini haqiqiy ta'lim uchun muhim bo'lgan vazifalar nuqtai nazaridan muvofiqlashtirish va uni amalga oshirish uchun eksperimental maydonni aniqlash;

- oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayoni davomida, o'qituvchilik amaliyotida, bitiruv malakaviy ishini yozishda "o'qituvchi-talaba-o'qituvchi" tizimida qo'shma ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish;

- zamonaviy o'quv texnologiyalaridan foydalangan holda talabalar tomonidan darslarni, o'qituvchilarning ochiq darslarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish;

- oliy ta'lim muassasasi talabalari va o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv va uslubiy materiallar bankini yaratish; -ijtimoiy sheriklik jarayonida amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha maslahatlar berish, ijtimoiy sheriklik mavzusida seminar, trening va konferensiyalar o'tkazish va hokazo. Yuqorida aytib o'tilganlarni sarhisob qilsak, oliy ta'lim muassasasi, o'quv tashkilotlari, virtual metodik ham jamiyatlar-bu o'qituvchilarning (talabalar, o'qituvchilar) doimiy kasbiy rivojlanishi

samaradorligini ta'minlovchi qarorlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Об обеспечении социального партнерства системы среднего профессионального образования: письмо Минобразования Российской Федерации от 21 ноября 2003 г. № 19-52-1130/19-28 (с приложением) [Электронный ресурс] // Гарант: информационно-правовой портал. – Режим доступа: <http://base.garant.ru/186868> (дата обращения: 16.11.2013).
2. Реморенко И.М. Социальное партнерство в образовании: понятие и деятельность / И. М. Реморенко // Новый город: образование для изменения качества жизни. – М. ; СПб. : Югорск, 2003. – С. 36–42.
3. Ширшов Е.В. Педагогические условия проектирования электронных учебно-методических комплексов / Е. В. Ширшов, О. В. Чурбанова–Архангельск: Изд-во Арханг. гос. техн. ун-та, 2005. – 307
4. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES, 3, 710-719. (2023)

UDK 376: 159

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У ОБУЧАЮЩИХСЯ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

Быстрова Юлия Александровна

ФГБОУ ВО Московский государственный психолого-педагогический университет,

Федеральный центр инклюзивного общего и дополнительного образования,

заведующая научной лабораторией, доктор психологических наук, доцент

BystrovaYuA@mgppu.ru

Аннотация: в статье рассматривается возможность организации условий образовательной среды для формирования и запуска механизмов развития личности обучающихся с особыми образовательными потребностями, которые позволят ему в последующем активно изменить свою деятельность таким образом, чтобы не просто трудоустроится с поддержкой, сопровождением или самостоятельно, но и работать в коллективе и под руководством, брать на себя ответственность за свою деятельность. Рассмотрены мероприятия и условия на каждом этапе обучения от младшего школьного возраста до выпуска из образовательной организации.

Ключевые слова: социализация, социальные компетенции, обучающиеся с особыми образовательными потребностями, условия среды обучения

Abstract: the article discusses the possibility of organizing the conditions of the

educational environment for the formation and launch of mechanisms for the development of the personality of students with special educational needs. Development mechanisms will allow the student, after graduating from school, to actively change his activities, find a job with support, accompaniment or independently, work in a team and under guidance, and take responsibility for his activities. Activities and conditions at each stage of education from primary school age to graduation from an educational organization are considered.

Key words: socialization, social competencies, students with special educational needs, learning environment conditions

Первостепенная задача современного российского образования – социализация обучающихся и самостоятельный выбор ими жизненного пути, в первую очередь, профессионального. Особенно остро этот вопрос стоит для уязвимых групп обучающихся с особыми образовательными потребностями (ООП), в частности, с интеллектуальными нарушениями (ИН).

Образовательная среда коррекционных школ достаточно успешно формирует у воспитанников положительного отношения к труду, желания работать. Основной акцент делается на развитие самостоятельности, дисциплины и выработке практических умений в результате непосредственного включения в процесс выполнения трудовых операций на практике [6, с. 20-28].

При этом инклюзивная образовательная среда направлена на формирование у обучающихся с ограниченными возможностями здоровья таких интегративных качеств личности, с помощью которых они смогут активно включаться в совместную деятельность с остальными учениками, будут способны обращаться за помощью, научатся понимать модальность ситуаций и использовать социально-одобряемое поведение в этих ситуациях. При этом инклюзивная среда, ограничивая общение обучающегося с ООП тьюторским сопровождением, к сожалению, слабо формирует положительное отношение к деятельности, самостоятельность и ответственность [1, с. 4-15; 2; 3].

Современный рынок труда отличается многозадачностью, стремительной сменой условий и алгоритмов деятельности, требует от работника гибких навыков работы в коллективе и под руководством [3; 4]. Такая ситуация обостряет проблему, стоящую перед психологами, по формированию у учащихся с ИН тех личностных опор, которые позволят им самостоятельно усвоить реалии полноценного существования в трудовом коллективе. В этом ключе социально-психологическую готовность к профессионально-трудовой деятельности следует рассматривать как интегративное качество личности, способствующее эффективному выполнению трудовых задач. Эффективность труда зависит не только от профессиональных знаний и компетенций, но и от гибких навыков регулирования межличностных отношений, организации совместной деятельности, групповой коммуникации и т.д. [1, с. 3-6; 7; 8].

Проект будет направлен на выявление основных противоречий влияния образовательной среды на формирование интерпсихических опор, позволяющих сделать выпускнику с ООП самостоятельный профессиональный выбор и в дальнейшем успешно трудоустроиться.

Гипотеза исследования состоит в том, что психологические механизмы, определяющие способность обучающихся с ИН выполнять действия по известному алгоритму, проявлять самостоятельность, соблюдать трудовую дисциплину, сформированные образовательной средой коррекционной школы, не работают при изменении условий, способов деятельности и многозадачности в разнородной среде профессиональных колледжей и на открытом рынке труда. Уровень развития логического мышления в однородной среде приводит учащегося не к поиску нового решения задачи, а неправильному решению или к отказу от деятельности. Предполагается, что тем рычагом воздействия, который активизирует мышление и поисковую деятельность учащихся с МН, являются условия обучения, развивающие их коммуникативно-организационную компетентность, запускающие механизмы группового взаимодействия для расширения границ их социального опыта и переноса навыков в новые условия деятельности.

Цель образовательной среды сформировать и запустить механизмы развития личности учащегося с МН, которые позволят ему в последующем активно изменить свою деятельность таким образом, чтобы не просто трудоустроится с поддержкой, сопровождением или самостоятельно, но и работать в коллективе и под руководством, брать на себя ответственность за свою деятельность.

Исходя из гипотезы определены **задачи** проекта бесшовной интеграции:

1. На этапе начальной школы формируется коммуникативно-организационный компонент деятельности бенефициаров. Коммуникативно-организационная основа трудовой деятельности закладывается на всех этапах развития личности – сначала в игре, потом в учебе, поэтому социально-психологическая готовность к труду формируется той средой, в которой находилась личность на предыдущих этапах своего развития.

2. Среднее звено – формирование межличностных отношений, лидерских качеств, умения работать в команде сверстников и под руководством, соблюдения социально нормативного поведения, умения применять на практике в реальных жизненных ситуациях приобретенные социальные компетенции.

3. Старшие классы – профессиональная ориентация, формирование социальной рефлексии – способности к самоанализу, способен объективно анализировать себя, умеет видеть собственные ошибки, анализировать и исправлять их, умеет выстраивать межличностные отношения с учетом отношения к нему сверстников и взрослых; формирование способности планировать и постепенно реализовывать межличностные задачи, проявляет реальные способности к достижению жизненных планов, способности прогнозировать социальные явления в их развитии; формирование способности оценивать и регулировать собственное поведение во время социального

взаимодействия, иметь собственное мнение и знание о том, как его изменить, слушая окружающих, способности полноценно оценивать ситуацию, выбирать пути ее решения по собственной оценке, способности видеть собственные ошибки, умение исправлять их самостоятельно, способности регулировать свое поведение в напряженных ситуациях.

По нашему мнению, наиболее результативным формированием коммуникативного направления социальной компетентности осуществлялось на уроках русского языка, коррекционно-развивающих занятиях по коррекции речи, в процессе проведения всех направлений гражданского воспитания, а также в реальных условиях взаимодействия в трудовом коллективе «Особой сборки».

Формирование профессионально-ориентированного направления социальной компетентности происходило на уроках по трудовому обучению, коррекционно-развивающих занятиях по социально-бытовому ориентированию и в процессе трудовой деятельности на социальном предприятии.

Для уроков и внеклассной работы определялся и использовался разнообразный дидактический материал: фрагменты видео- и кинолент, фотографии по выбранной тематике, мини-спектакли по литературным рассказам, тематические презентации, музыкальные произведения, квесты, упражнения на решение проблемных ситуаций, игры-драматизации и т.д. Применение этого дидактического материала в рамках метода моделирования жизненных ситуаций позволило сформировать у обучающихся с интеллектуальными нарушениями социальные компетентности по следующим компонентам: операционно-содержательному, личностно-регуляторному, мотивационно-эмоциональному, поведенческому.

Метод моделирования жизненных и трудовых ситуаций мы реализовали параллельно методу создания кейсов. Кейс (от латинского «casus – сложный, запутанный случай» и английского «case-портфель») – это метод, предусматривающий совокупность социальных ситуаций, сложных для разрешения. Он определяет конкретный поэтапный способ разрешения ситуации, основанный на выполнении пошаговой инструкции. Таким способом обучающиеся с интеллектуальными нарушениями оптимизируют и повышают уровень мыслительной деятельности. Для кейсов выбирают примеры социальных ситуаций, которые для обучающихся с интеллектуальными нарушениями являются проблемными. При этом кейс формируется таким образом, что пошаговые последовательные задачи воспроизводят ключевые позиции решения проблемы. Кейс – это папка, которая включает следующий алгоритм: тип социальной ситуации → пошаговая инструкция → этапы выполнения. Он предусматривает способ организации кратковременного обучения на основе подлинных или вымышленных ситуаций. В нашем случае это были подлинные ситуации работы в социальном предприятии «Особая сборка». Метод кейсов отличается от метода моделирования жизненных и трудовых ситуаций своей конкретностью и четкостью выполнения пошаговой инструкции. Он описывает четкий портфель практических социальных задач,

1.Обследования фигур осязательно-двигательным путем под контролем зрения и усвоению их названий. 2.Нахождение идентичного предмета по форме. Каждая фигура познается в сравнении с другой. 3.Соотнесение и выкладывание фигур в эталонных формах (использование приема наложения). 4.Выбор геометрической формы по словесной инструкции (объединение зрительной формы со словом, использование тактильного восприятия). 5.Обозначение формы предмета словом. 6.Обобщение одноцветных и разноцветных геометрических фигур в соответствии с образцом (дидактическая игра «Разложи по форме»). 7.Классификация одноцветных геометрических фигур. 8.Нахождение в предметах геометрических фигур (окно - прямоугольник, крыша – треугольник и т.д). 9.Составление узоров из геометрических фигур («коврик», «ракета» и т.д.).

Коррекционно – образовательные задачи в рамках логопедической работы:

- 1.Закреплять представления ребенка о геометрических фигурах.
- 2.Упражнять ребенка в определении геометрических фигур на основе словесного описания и зрительного восприятия.
3. Продолжать развивать умение классифицировать геометрические фигуры по одному из признаков.
- 4.Учить конструировать предметы из геометрических фигур, учить узнавать геометрические фигуры в окружающих предметах.
5. Отрабатывать навыки связной, диалогической речи.
- 6.Способствовать развитию пространственных представлений, образного и логического мышления, зрительной памяти, внимания, творческого воображения, фантазии.
7. Развивать мелкую моторику!

Блоки Дьенеша-эффективный дидактический материал, успешно сочетающий в себе элементы конструктора и развивающей игры. Руководство по игре представляет собой набор из 48 геометрических фигур, различающихся по форме, цвету, размеру и толщине. Таким образом, каждая фигура характеризуется четырьмя свойствами. Все фигуры в наборе разные.

Сами фигуры являются основой техники Дьенеша. С ними состоит множество интересных дидактических игр для детей от трех до восьми лет. Основная цель блоков-научить ребенка понимать свойства предметов. С их помощью он учится различать и объединять объекты, классифицировать их.

На первый взгляд логические блоки Дьенеша могут показаться обычным набором геометрических фигур или строительных блоков. Но на самом деле это уникальный материал для развития логического, математического и пространственного мышления ребенка. Золтан Дьенеш-известный венгерский математик, психолог и педагог. Опираясь на личный педагогический опыт и

результаты исследований в психологии, он разработал теорию этапов изучения математики и разработал эффективные наглядные материалы в виде логических блоков и игровых средств.

Методика ознакомления с геометрическими телами в различных возрастных группах:

знакомство с контурами объемных геометрических форм и форм (куб, шар, цилиндр и т.д.) осуществляется в игровой и строительной деятельности в малых группах. Дети по указанию преподавателя: смотри; держись за руку; погладь; назови имя; покажи; действуй с ним; покажи подобие этой формы; найди то, что я сказал.

Дети умеют различать предметы по форме. Однако к силуэтам относятся как к игрушкам, поэтому необходимо преподавателю знакомить детей правильным терминам [5].

Дидактические игры, способствующие формированию представлений о геометрических фигурах.

Дидактическая игра «Найди предмет такой же формы»

У взрослого имеются нарисованные на бумаге геометрические фигуры: круг, квадрат, треугольник, овал, прямоугольник и т. д.

Он показывает ребёнку одну из фигур, например, круг. Ребёнок должен назвать предмет такой же формы.

Дидактическая игра «Угадай, что спрятали»

На столе перед ребёнком карточки с изображением геометрических фигур. Ребёнок внимательно их рассматривает. Затем ребёнку предлагают закрыть глаза, взрослый прячет одну карточку. После условного знака ребёнок открывает глаза и говорит, что спрятано.

Дидактическая игра «Только одно свойство»

У играющих по полному набору геометрических фигур. Один кладёт на стол любую фигуру. Второй играющий должен положить на стол фигуру, отличающуюся от неё только одним признаком. Так, если 1-й положил жёлтый большой треугольник, то второй кладёт, например, жёлтый большой квадрат или синий большой треугольник. Игра строится по типу домино.

Дидактическая игра «Чудесный мешочек»

Игра позволяет обследовать геометрическую форму предметов, упражняться в различении форм. В мешочке находятся предметы разных геометрических фигур. Ребенок обследует их, ощупывает и называет фигуру которую хочет показать. Усложнить задание можно, если ведущий дает задание найти в мешочке какую-то конкретную фигуру. При этом ребенок последовательно обследует несколько фигур, пока не отыщет нужную. Этот вариант задания выполняется медленнее. Поэтому целесообразно, чтобы чудесный мешочек был у каждого ребенка.

Дидактическая игра «Найди такой же»

Перед детьми лежат карточки, на которых изображены три-четыре различные геометрические фигуры. Ведущий показывает свою карточку (или

называет, перечисляет Фигуры на карточке). Дети должны найти такую же карточку и поднять ее.

Дидактическая игра «Кто больше увидит?»

На доске в произвольном порядке расположены различные геометрические фигуры. Дошкольники рассматривают и запоминают их. Ведущий считает до трех и закрывает фигуры. Детям предлагают назвать как можно больше фигур. Что бы дети не повторяли ответы товарищей ведущий может выслушивать каждого ребёнка отдельно. Выигрывает тот, кто запомнит и назовет больше фигур он становится ведущим. Продолжая игру ведущий меняет количество фигур.

Дидактическая игра «Посмотри вокруг» помогает закрепить представления о геометрических фигурах, учит находить предметы определенной формы. Ведущий предлагает назвать предметы круглой, прямоугольной, квадратной, четырехугольной формы, форму предметов, не имеющих углов, и т. д.

Список использованной литературы:

5. Бибина О.А. Формирование геометрических знаний у старшеклассников с нарушением интеллекта: Пособие для учителя. – Саранск: МГПИ им. М.Е. Евсевьева, 2002. – 76с.
6. Антропов А.Г. Математика во вспомогательной школе: Уч. пособие. - СПб., 1995. - 73 с
7. Смирнов И. Н., Уренбилге Ч., Профессиональная подготовка будущих учителей физической культуры к спортивной подготовке/ / наука и жизнь Казахстана (рекомендовано ККСОН МОН РК) Нур-Султан Алматы 2020. 300-30.
8. Botagos Sarsenbaeyva. Technology of school-family cooperation in promoting inclusive education. Word Journal of Educational Technology: Current Issves. 2022г. Q3;.
9. Волкова С.И., Пчелкина О.Л. Математика и конструирование в 1 классе. - М. : Просвещение, 1993. - 24 с.

ӘӨЖ 526.18

**ЦИФРЛАНДЫРУ ЖӘНЕ ЖАҒАНДАНУ КӘСІБИ МАМАННЫҢ
КӘСІБИ САЛАДА ҚАЛЫПТАСУЫ**

Кабышева Нуркамал Уалихановна

Алматы қаласы № 142 Жалпы білім беретін мектеп

Қазақ тілі мен әдебиеті пәнінің мұғалімі

guma_6565@mail.ru

Аннотация: Мақала қазіргі кезеңде мамандар даярлауда ұлттық құндылықтар негізінде болашақ бастауыш білім беру мұғалімдерінің көлденең дағдыларын дамытуға арналған. Ғылыми әдебиеттерді зерттеу негізінде трансверсальды дағдыларды дамытудың қазіргі жағдайы талданады, тәжірибе,

перспективалар және ұлттық құндылықтарды пайдалану мүмкіндіктері қарастырылады. Болашақ бастауыш білім беру мұғалімдері ұлттық құндылықтар арқылы ауыспалы және жұмсақ дағдыларды дамытуға жоғары қызығушылық танытатындығына сүйенеді.

Түйінді сөздер: Көлденең құзыреттілік, негізгі құзыреттілік, көлденең дағдылар, сандық сауаттылық, сыни тұрғыдан ойлау, көшбасшылық.

DIGITIZATION AND GLOBALIZATION FORMATION OF A PROFESSIONAL IN THE PROFESSIONAL FIELD

Annotation. the article is devoted to the development of horizontal skills of future primary education teachers on the basis of national values in the training of specialists at the present stage. Based on the study of scientific literature, the current state of the development of Transversal skills is analyzed, experience, prospects and opportunities for using national values are considered. Future primary education teachers rely on the fact that they have a high interest in developing alternating and soft skills through national values.

Key words: horizontal competence, core competence, horizontal skills, digital literacy, critical thinking, leadership.

Білім беру трансверсивтілігі мектеп пен қоғам арасындағы байланысты нығайтуға мүмкіндік беріп қана қоймай, сонымен қатар, бұл адамдардың өмір сүру сапасын оңтайландыруға ықпал етеді. Мектеп қабырғасында білім беруде тек интеллектуалды дамуға назар аударуды ғана емес, сонымен қатар оқушының эмоционалды қабілеттеріне, интеграциясына, әлеуметтік дамуына, моторикасына және басқа да өмірлік қабілеттеріне назар аударуды, әдеттегі білім берудің негізгі бағыты ғана емес, қосымша сүйемелдеу, дамыту бағдарламалары жүргізуді де қамтығаны жөн. Бұл трансверсивтіліктің гуманистік өлшемі бар деп саналады, өйткені ол түрлі әлеуметтік талаптарға және күнделікті өмірдің тиісті аспектілеріне жауап береді. Негізгі білім беру бостандық пен демократия сияқты ұлттың жоғары құндылықтарына деген сүйіспеншілікті қолдана отырып, адамның жеке басының әртүрлі салаларын дамытуды ынталандырумен сипатталады. Бұл, сондай-ақ, білім беру көзқарасының жаңартылған ұсынысы болып саналады, өйткені ол пәнаралық бір пәннің объективі арқылы қарастырылса, нашар түсінілетін көптеген жағдайларды шешудің күрделі әдісі ретінде ұсынылады. Цифрландыру және жаһандану жағдайында кәсіби маманның кез-келген кәсіби салада қалыптасуы негізгі құзыреттіліктері, дағдыларды үнемі талдауды қажет етеді. Бүгінгі таңда оқушылардың цифрлық құзыреттілігін қалыптастыру ерекше назар аударуға лайық, цифрлық технологияларды, олардың мүмкіндіктерін, ықпалы мен тәуекелдерін түсінуді, құрылғылардың, бағдарламалық қамтамасыз етудің және желілердің негізгі жұмыс істеуі мен пайдаланылуын білуді талап етеді; белсенді азаматтық ұстаным мен әлеуметтік инклюзияны, ынтымақтастықты және жеке, әлеуметтік немесе коммерциялық мақсаттарға креативті көзқарасты қолдау үшін технологияны қолдану дағдылары ашық көзқарас пен визуализацияны қажет

етеді [1]. Жас ұрпақты тәрбиелеу, атап айтсақ, бастауыш білім беру мен тәрбиелеу ісі оқытудың барлық деңгейлеріне ортақ болып табылатын және оқушы тұлғасының мінез-құлқы мен қызметін ынталан-дыратын әмірлік тұрақты бағдарлары болуға арналған ұлттық және жалпыадамзаттық құндылық-тарды дарытуға бағытталған [3]. Ал, бастауыш буындағы жас ұрпақты оқытатын, тәрбиелейтін болашақ педагогтерді даярлау олардың кәсіби, қатаңжәне жұмсақ дағдыларын дамытумен, ол дағдылардың ұлттық және жалпыадамзаттық құндылықтарға негізделуімен тығыз байланысты [1]. Сонымен қатар, Қазақстан Республикасы Білім беру туралы Заңының «Білім беру жүйесінің міндеттері» деп аталатын 11-баптың 1-пунктінде: «ұлттық және жалпы адамзаттық құндылықтар, ғылым мен практика жетістіктері негізінде жеке адамды қалыптастыруға, дамытуға және кәсіптік шыңдауға бағытталған сапалы білім алу үшін қажетті жағдайлар жасау», –деп айқын көрсетілген [2]. Бұдан балаларды ұлттық құндылықтарға баулуға болашақ бастауыш білім педагогтерін даярлауда Оқу процесінде бұл құзыреттіліктерді дамыту тек компьютерлерді, ұялы телефондарды ғана емес, сонымен қатар әр түрлі кәсіби бағдарланған тапсырмаларды орындау үшін белгілі бір пәнге сәйкес келетін бағдарламалық жасақтаманы, қосымшаларды, әлеуметтік желілерді қолданудың арқасында мүмкін болады. Біздің ойымызша, ұлттық құндылықтар дегеніміз –адамзат үшін маңызды және құнды болып табылатын ұлттың өзіндік ерекшелігі, ұлттық тілдің байлығы, ұлттық мәдениеттің мұрасы, ұлттық салт-дәстүр, ұлт тарихы, ұлттың рухани мұраттарының жиынтығы. Жеке тұлғаның ұлттық санасының қалыптасуына оң әсер ететін ата-бабамыздан ұрпақтан ұрпаққа мирас болып келе жатқан ұлттық құндылықтар біздің өміріміздің маңызды бөлігі болып табылады, себебі олар біздің сенімдерімізге ықпал етеді.Жас ұрпақты бесіктен бастап ұлттық құндылықты құрметтеуге, осы құндылықтарды бойына сіңіріп, келешек ұрпақтан-ұрпаққа жалғастыруға үйретуде болашақ бастауыш білім педагогтерін ұлттық құндылықтарды әздері қолдануымен қатар, қазіргі заман талабына сай икемді, ауыспалы, жұмсақ дағдылармен де қамтамасыз етуіміз қажет деп санаймыз [3]. Себебі, қазіргі қоғамның барлық салаларында, соның ішінде педагогтерді даярлауда білім алушылардың жоғары сапалы маман болуы үшін кәсіби дағдылармен қатар, трансверсальді дағдыларды меңгертубүгінгі күн талабы болып отыр.Болашақ бастауыш білім педагогі өзін ұлттың ажырамас бөлшегі ретінде сезініп, өз халқының тарихын, ұлттық құндылықтарды: ұлттың тілін, ұлттың рухани мәдениетін, ұлттық менталитетті, халықтың әлемдік мәдениет қазынасына қосқан үлесін бағалап, оның дамуына ықпал етеді. Ұлттық сана–сезімнің дамуы жеке тұлғаның өз ұлтының дәстүрлерін, этникалық тамырын, ұлттық кодын білуімен байланысқан, сонымен қатар адамгершілік жалпыадамзаттық құндылықтарды білу де маңызды.Қазіргі таңда адамзат бұрын-соңды болмаған өзгерістерді өз бойынан өткізуде. Мысалы, жаһан-дық және жасанды интеллект, геосаяси ахуал т.с.с. Әлеменді тар және кең профильді мамандарға бөлінбейді. Біріншілерінің шектеулі салада терең білімі бар, олар әріптестері арасында сарапшылар болып табылады, алайда одан тыс жерде аса бағаланбайды.

Екіншілерінің ауқымы кеңірек, бірақ кәсіби білімі соншалықты терең емес. Үшінші санаттағы адамдар көбірек бағаланады, олар –барлық дағдыларын геометриялық прогрессия түрінде әр түрлі жағдаяттар мен жағдайларға қолдана алатын әмбебап мамандар [3]. Олар жаңа дағдыларға ие болады, қарым-қатынас орнатады және жаңа рөлдерге ие болады. Олар үнемі бейімделуге, үйренуге және өсуге, тез өзгертін әлемде өз орнын анықтауға және қайта орналасуға қабілетті. Әлем өзара тәуелді болған сайын, бізді өмірде, жұмыста және қоғамда біріктіретін күшті серіктестер мен талантты «дирижёрларға», яғни көшбасшыларға көбірек қажеттілік туындауда. Қазір инновацияны оқшау жұмыс істейтін адамдардан гөрі, ұжымдық жұмылдыру, біліммен бөлісу және күш-жігерді біріктіру нәтижесінде жасау тиімдірек екені айқын-дала түсуде. Сонымен қатар, бүгінгі таңда, біздің ойымызша, оқу процесіне медиа сауаттылық, киберқауіпсіздік, кибербуллинг, цифрлық қоғамдағы психикалық денсаулық және т. б. сияқты бағдарламалар мен тақырыптарды енгізудің шұғыл қажеттілігі тұр. Пікірталас, тақырыптық жағдайларды шешу, эссе жазу, әлеуметтік роликтерді қарау, топтық жұмыс арқылы студенттердің тұлғааралық дағдыларын қалыптастыру жұмсақ дағдыларды, эмпатияны, төзімділік пен төзімділікті дамытуға мүмкіндік береді. Трансверсальды дағдылар жұмысқа орналасудың негізгі дағдылары ретінде қарастырылады және адамның оқу, жақсы қарым-қатынас жасау, сындарлы және салауатты ынтымақтастық динамикасына қатысу, шығармашылық пен проблемаларды шешу қабілетін көрсету қабілетін көрсетеді. Білім беру трансверсивтілігі интерпретацияның құралы ретінде пәнаралық қатынасты қолдана отырып, күнделікті жағдайларды жаһандық тұрғыдан талдауға мүмкіндік береді. Сол сияқты, бұл оқушыларға жақын, отбасылық және әлеуметтік ортада да, кәсіби салада да туындауы мүмкін мәселелерді шешуге көмектеседі. Бұл тәсіл оқушыға белгісіз болуы мүмкін белгілі бір мәдени және әлеуметтік құндылықтармен сәйкестендіруге мүмкіндік береді. Осының арқасында білім алушылардың сыни көзқарасын дамытып, оны ұстануға болады. Трансверсалдылық сонымен қатар шындықты еркін және ұтымды бақылай алатын және пассивті ойлау арқылы сонда қалып қана қоймай, кез келген әділетсіз шындыққа араласып, түрлендіре алатын автономды тұлғаның қалыптасуына ықпал етеді. Сол сияқты, білім берудің кешенді тәсілі ерекше жағдайларда болса да, оқушылардың жеке қажеттіліктеріне жауап береді. Біліктілікті арттырудан басқа, бұл еңбек нарығына шығу мүмкіндігін қамтамасыз етеді.

Әдебиеттер тізімі

1. О.Н. Мухидова Компетентностный подход к развитию профессиональной деятельности учителя // Вестник науки и образования 97 (№ 19 (97).Часть 2), С 88-91
2. Тоқаев Қ.К. Тәрбие –сапалы білімнің негізгі арқауы. 16-тамыз, 2019. <https://ult.kz/post/tokaev-tarbie-sapaly-bilimnin-negizgi-arkauy2>. «Мәдени мұра», «Рухани жаңғыру», «Мәңгілік ел» стратегиялық ұлттық жобалар тұжырымдамасы туралы.

3. <https://adilet.zan.kz/kaz/docs/P0800010163>. Білім берудің барлық деңгейінің мемлекеттік жалпыға міндетті білім беру стандарттары. Қазақстан Республикасы Оқу-ағарту министрінің 2022 жылғы 3 тамыздағы №348 бұйрығы.

O‘ZBEK MUSIQA MADANIYATI, MA’RIFATI VA MUSIQIY TA’LIM TARAQQIYOTIDA TO‘XTASIN JALILOV IJODINING O‘RNI

Yo‘ldoshali Botirov

TDPU dotsenti v.b., PhD.

yo‘ldoshalibotirov@mail.ru

Annotatsiya: mazkur maqola o‘zbek musiqa madaniyati, ma’rifati va musiqiy ta’lim taraqqiyotida To‘xtasin Jalilov ijodining o‘rni hamda musiqa pedagogikasida uning ijodidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: san’at, xonanda, ovoz gigiyenasi, matn va talaffuz, bastakor, nuqsonli talaffuz, ustozona, tovush sadosi.

Mamlakatimiz musiqa san’ati tarixida o‘zining durdona asarlari bilan munosib o‘rin olgan san’atkorlar orasida To‘xtasin Jalilovning nomi alohida ehtirom bilan tilga olinadi. To‘xtasin Jalilov - qo‘shiqchi va sozanda, ko‘plab qo‘shiq va kuylarning muallifi sifatida mashhur.

To‘xtasin Jalilovning birinchi tanigan ustoz Oppoq Oxun bo‘ldi. U xalq cholg‘u asbobi, ya’ni dutorni katta mahorat bilan chalardi. Keyinchalik To‘xtasin Jalilov Qo‘qonlik mashhur sozandalar; - g‘ijjakchi Eshon, Dapchi Madamin, changchi Yusufjonlar bilan tanishadi. Yusufjon changchi To‘xtasin Jalilovga ustozlik qildi va unga xalq musiqasi- folklorni o‘rgatadi.

To‘xtasin Jalilov – taniqli bastakor, yetuk sozanda, piri ustoz, o‘zbek musiqali teatr san’atining asoschisi, O‘zbekiston xalq artisti, qator orden va medallar sohiba, Andijon musiqa teatri, Samarqand musiqali teatri, Toshkent musiqa teatri (hozirgi Alisher Navoiy nomidagi davlat operalik Katta teatri). Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali drama teatrida musiqa rahbari hamda bidiiy rahbar sifatida qizg‘in faoliyat ko‘rsatgan. Musiqa teatri kamolatida muhim o‘rin tutgan “Tohir va Zuhra” (1945), “Alpomish” (1945), “Muqimiy” (1953), “Ravshan va Zulxumor”(1957) va boshqa asarlar uning hammuallifligida dunyoga kelgan. To‘xtasin Jalilov xalq sevib eshitadigan 200 dan ortiq dilbar qo‘shiqlar muallifi. U milliy musiqamizning o‘ziga xosligini, tabiiyligini, ohang va usullarga boyligini saqlagan holda, xalq qo‘shiqlari va kuylariga yangi xayot baxsh etgan Farg‘ona-Toshkent musiqa maktabining yirik nomoyondasi bo‘lgan .

Keyinchalik To‘xtasin Jalilov "Tashviqot aravasi" deb nom olgan ansambl tarkibida chang-g‘ijjak, dutor-doira brigadasi bilan qo‘shiqchi va g‘ijjakchi sifatida ishtirok etadi. Ansambl repertuari "Mirzodavlat", "Qora sochim", "Yorlarim", "Ramuz Dilbarjon" va boshqa mashhur xalq ohang va qo‘shiqlaridan tarkib topgan edi. [1].

To‘xtasin Jalilovning g‘ayrati hamda doimiy yangilikka intilishi hammaning e‘tiborini qaratadi. 1919-yilda uni Andijonda ochilgan yangi teatrning musiqiy rahbari etib tayinlashadi. To‘xtasin Jalilov ansamblga xalq orasida mashhur va sevimli bo‘lgan Ashurali Yusupov, Orifjon Toshmatov, Berkinboy Fayziyev, G‘ulom Rahimov va boshqalarni teatrdan ishlashga taklif etadi.

1920-yillarda tomoshabinlarni jalb qilish maqsadida spektakl oldidan kichik konsertlar uyushtirilardi. To‘xtasin Jalilovning "Signal" deb nomlangan o‘zi mustaqil yaratgan musiqa asari shunday konsertlarda ijro etishga mo‘ljallangan edi. [2]. Bu asar o‘sha davr ruhini o‘zida aks ettirgan bo‘lib, zamondoshlari ta’siri ostida yozilgan. Uning hayotiy faolligi va marsh ritmi ajoyib milliy asos bilan uyg‘unlashadi. Shu bois “Singal” asari hozirgacha ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, mashhur asarlar qatorida turadi.

1923-yilda To‘xtasin Jalilov o‘zbek musiqachilari guruhi bilan Moskvada bo‘lib o‘tgan konsertlarda ishtirok etadi. Vataniga qaytishi bilan u 24 ta el sevgan san’atkorlarni o‘zida mujassamlashtirgan "Milliy musiqa to‘garagi"ni tuzadi. Bu to‘garakda xalq cholg‘u asboblarida ijro etiluvchi kuy va ohanglari tashkil topgan edi.

1924-25-yillarda A. Navoiyning 500 yillik yubileyi munosabati bilan “Farhod va Shirin” dramasi sahnalashtiriladi. Pesada maqomning alohida qismlari, qo‘shiqlardan namunalar va taniqli xalq ohanglari uzviy ijro qilinardi. Ularning dastlabki saralanishi va rejalashtirilishi xonanda Shorahim Shoumarov hamda sozanda va musiqachilar ishtirokida amalga oshiriladi. Vokal nomerlarini o‘rganish, eshitish bilan birga olib borildi. Dialoglar xalq cholg‘u asboblarining jo‘rligida kuylanishi natijasida o‘zgacha bir shukuh baxsh etadi. Pesa bilan musiqa birga kelib, xonandaning taklifi bilan tashqi ko‘rinishi, joylar almashinuvi va turli xil qo‘shimchalar bo‘lishi mumkin edi.

1925-yilda bastakor Yu. Rajabiy pyesaning musiqasini to‘ldirdi va asarni oxiriga yetkazadi. Muhiddin Qori Yoqubov rahbarligidagi etnografik ansambl bu asarni sahnalashtirish jarayonida uni qayta ko‘rib chiqishdi va bastakor To‘xtasin Jalilov bir qator qo‘shimchalar kiritdi, ariyalar qo‘shdi: “Farhod va Shirin” dramasining Farhod uchun 6- kartina ("Dugohi" ohangi), Shopur uchun 7 - kartina ("Fig‘on" ohangi), Shirin uchun ("Naylarim" ohangi). Orkestr tarkibi 12 ijrochigacha kengaytirildi. [3].

1926-yil bahorda O‘zbekiston boshqaruv tashkilotlari “Milliy musiqiy xoreografiya ansambli”ni tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Uni tashkil etish va badiiy rahbarlik qilish uchun Qori Yoqubov taklif qilinadi. 20 kishidan iborat ansambl jamoasiga xalqimizning ajoyib sozanda va xonandalari, jumladan, g‘ijjakchi To‘xtasin Jalilov ham kiritiladi.

1929-yili Samarqandda rasmiy ravishda “ Musiqali teatr” tashkil qilingan va unga To‘xtasin Jalilov musiqiy rahbar etib tayinlangan. [4].

1934-yilgacha Andijon viloyati musiqiy drama teatrida S. Abdullaning “Bog‘bon qiz”, K. Yashinning “O‘rtoqlar”, “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” spektakllariga musiqa yozadi. “O‘rtoqlar” spektakli mavzusi keyinchalik “Purtana” musiqiy dramasida rivojlantiriladi, spektakl musiqasi xalq ohanglari asosida N.N.Mironov bilan hamkorlikda yaratilib, unga To‘xtasin Jalilov va T. Rahimovlar ko‘maklashdilar [5].

Moskvada 1937-yillarda o‘tkaziladigan o‘zbek san’atining 10 yillik yubileyiga tayyorgarlik munosabati bilan To‘xtasin Jalilov milliy ashula va raqs ansambli rahbari sifatida endigina tashkil etilgan O‘zbek davlat filarmoniyasiga o‘tkaziladi. Bu ansambl moskvalik tomoshabinlarga ajoyib o‘zbek ashula va kuylarini taqdim etadi. Ansambl ijrosidagi “Endi sendek jonon”, “Ustozim”, “Ey nozanin”, “Gul yuz uzra”, “Qari navo”, “O‘ynar” xalq ashulalari va “Navo”, “Segoh”, “Shahnoz-Gulyor” maqom parchalari katta e’tibor qozonadi. 1938-yilda bu ansambl Ozarbayjon, Belorussiya va Ukraina respublikalariga gastrol safarlarini uyushtiradi. Ozarbayjonda neftchilar, Ukrainada esa shaxtyorlar uchun berilgan konsertlar katta muvaffaqiyat qozonadi. Respublikamizda ansambl katta Farg‘ona kanali va Kattaqo‘rg‘on suv ombori quruvchilariga ham konsert beradi. 1938-yilda bu ansambl o‘zbek xalq cholg‘u asboblari orkestri sifatida qayta tashkil etiladi.

1940-yilda Toshkentda Muqimiy nomidagi musiqiy drama va komediya teatri tashkil etiladi. Teatr faoliyatining boshidanoq unda milliy orkestr (keyinchalik kichik simfonik orkestri) tashkil etilib unga To‘xtasin badiiy rahbari etib ham tayinlanadi [6]. Bu jamoa teatr faoliyatining birinchi kunlaridanoq, zamonning barcha muhim talablariga javob berishga intiladi. Bu intilish teatr repertuarini tashkil etuvchi pesalarini tanlashda asos bo‘lib hisoblanadi. Teatrning ahamiyati shundan iboratki, u musiqiy drama janri milliy asarlarini yaratish laboratoriyasi bo‘lib xizmat qiladi.

To‘xtasin Jalilov yaratgan kuylar ko‘plab musiqiy dramalarning musiqasini yaratishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu dramalar Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Qo‘qon hamda O‘zbekistondan tashqarida ham namoyish etiladi. Respublikaning ko‘plab bastakorlari To‘xtasin Jalilov tomonidan taqdim etilgan ashulalardan musiqiy drama asarlarini yaratishda ijodiy foydalanishar edi.

To‘xtasin Jalilov yorqin musiqa namunalarini yaratish jarayonida o‘zbek folklor boyligidan foydalanadi. Ba’zan u (hech qanday ishlovsiz) haqiqiy o‘zbek ashulalarini kiritadi. U buni shunday ustalik bilan qiladiki, ular har doim o‘rinli va dramatik g‘oyani ochiq ifodalovchi bo‘lib chiqadi. [2].

To‘xtasin Jalilov tomonidan 45 ga yaqin musiqiy dramalar yaratilgan bo‘lsa, ulardan "Tohir va Zuhra", "Gulsara", "Alpomish", "Muqimiy", “Ravshan va Zulxumor”lar kabi dramalar o‘zbek musiqa janrida mumtoz asarlarga aylandi. To‘xtasin Jalilov musiqasining ta’sirchanligi asosini o‘zbek ashulalarining boy ohangdorligi va jozibadorligi bo‘lib, bastakorning o‘zi ham aynan ular asosida tarbiyalangan va ular uning ashula va musiqiy dramalarida tabiiy tarzda amalga oshirilganligidadir. Musiqa san’ati sohasida o‘zining ulkan xizmatlari uchun To‘xtasin Jalilov bir necha marta orden va medallar bilan taqdirlangan, unga 1937-yilda O‘zbekiston SSR Xalq artisti unvoni beriladi. Ustoz To‘xtasin Jalilov 1966-yilda 73 yoshida vafot etdi.

Xulosa o‘rnida, o‘zbek musiqa madaniyati, ma’rifati va musiqiy ta’lim taraqqiyotida To‘xtasin Jalilov ijodining o‘rni hamda musiqa pedagogikasida uning ijodidan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari aynan hozirgi kun yoshlariga ibrat maktabi, qolaversa ular ijodining samarali bo‘lishiga sabab bo‘lmog‘i tayin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Olimboyeva K. Axmedov M. “O‘zbekiston xalq musiqachilari” - T.: UzSSR Badiiy adabiyot davlat nashriyoti. 1959. - 77-bet.
2. I. Akbarov, T. Jalilov - M., Sovet bastakori, 1974-10- bet.
3. Korsakova A. “O‘zbek opera teatri”. -M., UzSSR badiiy adabiyot Davlat musiqa nashriyoti. 1961- 64- bet.
4. O. Matyoqubov. Andijon samosi. Jannat makon: 91- bet
5. Pekker Y. O‘zbek operasi. -M.: Dav. mus. nashr. 1983. 50- b. 2. Korsakova A. “O‘zbek opera teatri” – 86- b.
6. Muqumiy nomidagi O‘zbek davlat musiqiy drama va komediya teatri. - M.: UzSSR badiiy adabiyot Davlat nashriyoti, 1959. 8 bet.

**7-8 YOSHLI BOLALARNI JISMONIY TARBIYA VA
SOG‘LOMLASHTIRISH DARSLARINI TASHKIL ETISH SHART-
SHAROITLARINI REJALASHTIRISH METODIKASI**

Alimboyeva Roziya Davulovna

*Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU “Ijtimoiy- gumanitar fanlar” kafedrasida
dotsent, O‘zbekiston, Toshkent*

Annotatsiya: 7-8 yoshli bolalarni jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish darslarini tashkil etish shart- sharoitlarini rejalashtirish metodikasi, asosiy vositalari, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam, mustaqil shug‘ullanish ko‘nikmalarini singdirish tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi ekanligi, hozirgi kunning balalar harakat faolligini tarbiyalashda jismoniy mashqlarning ahamiyati, katta ekanligi hamda salomatlikni mustaxkamlash va kuch- quvvatini yanada faollashtirishga to‘g‘ri tanlov ekanligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: reja, metodika, harakat, quvvat, mustaxkam, kuch, sifat, ko‘nikma, daraja, jarayon, avlod, sog‘lom, baquvvat, shug‘ullanish, malaka, singdirish

**METHODOLOGY FOR PLANNING THE CONDITIONS FOR
ORGANIZING PHYSICAL EDUCATION AND FITNESS CLASSES FOR 7-8-
YEAR-OLD CHILDREN**

Alimboyeva Roziya Davulovna

*Senior Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences, Tashkent
State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi,
Uzbekistan, Tashkent*

Annotation: it is an integral part of the educational process, the methodology of planning the conditions and conditions for organizing physical education and wellness classes for 7-8-year-old children, the basic tools, and the ability to regularly and independently engage in physical education and sports. Information is given about the importance and importance of physical exercises in raising children's movement activity, as well as the right choice to strengthen health and strengthen their strength.

Key words: plan, method, movement, strength, strong, power, quality, skill, degree, process, generation, healthy, vigorous, engagement, skill, assimilation

Jismoniy tarbiya harakatni rivojlantiruvchi asosiy vosita shaxsni kompleks shakllantirish tizimining uzviy qismidir. 7-8 yoshli bolalarni jismoniy tarbiya va sogʻlomlashtirish darslarini tashkil etish shart- sharoitlarini rejalashtirish metodikasi shugʻullanuvchilarning yosh jixatdan mashqlarni amaliy mashgʻulotlarni olib borishda juda muhim yoʻllari haqida maʼlumotlarga tayanamiz. Bolalar salomatligi haqida gʻamxoʻrlik, ularda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, jaxon talablariga mos boʻlgan raqobatbordosh kadrlarni tayyorlashda, jismoniy tarbiya va sport asosiy vositadir, chunki “Sogʻlom tanda sogʻ- aql” degan xalqimizning ibratli soʻzlari bunga yorqin asosdir. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam, mustaqil shugʻullanish koʻnikmalarini singdirish tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Aynan maktab davridan boshlab yoshlarni belgilangan maqsad bilan taʼlim- tarbiya bilan taminlashimiz asosiy masaladir. Maktablarda 7-8 yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi darslarini tashkil etishda daslab shugʻullanuvchilarning salomatligi haqidagi maʼlumotlardan albatta ogoh boʻlish lozim hamda tasdiqlangan vrach maʼlumotnomasi asosida amaliy dars mashgʻulotlariga yoʻllash mumkin boʻladi. Jismoniy tarbiya amaliy mashgʻulotlari juda faollikda olib boriladi, chunki har bir bolaning rivojlanish koʻrsatgichlarini koʻtarish masqsadida ularga murabbiy yoki oʻqituvchi eʼtiborli yondoshsa juda maqsadga muvofiqdir. Hozirda barcha maktablarda jismoniy tarbiyasi darslarini tashkil etish uchun qulay sharoitlar mavjud. Shuning uchun guruxdagi barcha bolalarning faol shugʻullanishini tashkil etish muhimdir. Bolalarimiz bizning kelajagimizdir deb takidlaydi yurtboshimiz.

Jismoniy tarbiyasi darslarini tashkil etishda maktabning ichki imkoniyatlari asosida shugʻullanuvchilarga sharoitlar yaratib mashgʻulotlarni oʻtkazadi. Oʻqituvchi mashgʻulotlarni shifokor bilan rejalashtiradi. Shifokor murabbiyga jismoniy mashqlarni tanlashga uni meʼyorini aniqlashga yordam beradi. Bolalarda jismoniy tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun oʻquv tipidagi mashgʻulotlar ertalabki badantarbiya daqiqalari chiniqtiruvchi muolajalar, harakatli oʻyinlar ekskursiyalar sayohatlar bayramlar yakkama-yakka va mustaqil mashgʻulotlar tarzida uyushtiriladi. Bulardan tashqari musiqa darslarida ham jismoniy tarbiyani vazifalarini hal qiladigan jismoniy mashqlar oʻyinlar va raqslardan vosita tarzida foydalaniladi. Oʻquv tipidagi jismoniy mashqlar bilan shugʻullanish mashgʻulotlari bolalarni harakatga oʻrgatishda asosiy rol oʻynaydi. Bu mashgʻulotlar hamma guruhlarda oʻtkaziladi. Bolalarda har bir bola bilan ayrim jismoniy mashqlar alohida eʼtiborli olib boriladi. Chunki guruxda asosiy guruxda shugʻullaniuvchi va sogʻlomlashtiruvchi guruxda shugʻullanuvchi bolalarni ajratib olgan maʼqul. Ularning ihtiyoriga qarab eʼtiborli holatda asosiy gurux bilan qoʻshib olib boriladi.

Mashgʻulotlar asosan uch qismdan tashkiliy- tayyorlov, asosiy, yakuniy qismlariga boʻlib olib boriladi va ularning har birida oʻzlarining aniq vazifalari hal qilinadi. Jismoniy mashqlar osonlashtirilib ochiq sport maydonlarida ham olib borish maqsalga muvofiqdir. Shuningdek maktab hovlilarida ham bemalol katta tanaffuslarda xarakatli oʻyinlardan foydalansa boʻladi. Tabiat bilan sayohat va shu joylarda harakatli

va syujetli boshqa shakllarda olib boriladi. O‘qituvchi oldin jismoniy mashqlarni tanlab so‘ngra syujet tanlaydi. Yurish yugurish to‘siqlardan oshish suzish va ochiq havoda bo‘lishi kerak bo‘lgan vaqt hisobiga o‘tkaziladi. Ertalabki badantarbiyaga ham o‘rganish birinchi masaladir. Ertalabki ovqatlanishdan oldin uydagi mashg‘ulot ularni tetiklashishiga yordamchi bo‘ladi va nonushta qilib mashg‘ulotlarga qatnashadilar. Ertalabki badantarbiya individual yoki ota- onalar bilan bolalarning barchasi bilan birgalikda umumiy o‘tkaziladi. Ertalabki badantarbiya xilma-xil yurish yugurish va turli xil mashqlar bajarish hamda sakrash bilan tugallanadi. Ayrim hollarda mashq ritmiga moslashtirilgan qo‘shiqlar bilano‘tkazilsa foydali bo‘ladi. Tizimli o‘tkazilgan jismoniy mashqlar asosan bolalarni kuchini elastikligini mustahkamlaydi nafas olish qon aylanish va yurak tomirtizimi ishlarini organlardagi modda almashinuvi jarayonini yaxshilaydi. Bundan tashqari ertalabki badantarbiya uyushgan holda yaxshi kayfiyat bilan

boshlansa, har kungi bajarilgan jismoniy mashqlarning ta‘sir kuchi qomatni tutish va jismoniy mashqlarning sog‘liqqa foydasi haqidagi dastlabki elementar bilimlarni shakllanishiga olib keladi. Kichik yoshdagilarda jismoniy mashqlar kimlarga yoki nimalargadir taqlid qilish va hayotda uchraydigan syujetlarni o‘z ichiga olishi kerak. Mashqlardan yoshiga qarab tanlanadi. Jismoniy tarbiyasi darslarida jismoniy mashqlar oddiydan murakkabroqlariga asta ketma-ketlikda o‘zlashtirilib boriladi. Mashg‘ulotlar davomida mashqlar sonini asta ko‘paytirilib boriladi va bu ularning xarakter faolligini oshirishga xissa qo‘shadigan bo‘lishi lozim. Bu esa maktab dasturiga asoslangan holatda olib boriladi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida bolalar faolligi oshib borishga va natijalarni yaxshilanishga xissa qo‘shishga xarakter qilish muximdir. Jismoniy mashqlar uni bajarilish og‘irligiga qarab belgilanadi. Yelka va bo‘yin muskullari mashqlari, qorin va bel muskullari mashqlari 6 (olti) marta takrorlanadi. Chiniqtiruvchi muolajalar kundalik va hayotiy chiniqtirishdan tashqari bolalar bilan maxsus havo va quyosh vannalari suvda cho‘mltirish orqali chiniqtirishlar kiritiladi. Bulardan tashqari yana ayrim protseduralar borki ular jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borilgandagina effekt beradi Levi Gorinevskaya va A.I.Bikovaning bola organizmini chiniqtirish va jismoniy tarbiya daqiqalari rasm mashg‘ulotlarida plastilin bilan ishlash paytida hisob nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari davomida ham o‘tkazilsa bo‘ladi degan fikrni tasdiqlaydi. Bu mashg‘ulot uchun 6 ta jismoniy mashq tanlanib ular o‘rnidan turgan o‘tirgan holda bajariladi. O‘yinlar ertalab soat 8 larda va tushlikdan so‘ng o‘tkaziladi. Uni maqsadi bolalarda bizga ma‘lum bo‘lgan jismoniy sifatlarini rivojlantirishdir. Harakatli o‘yinlarni tanlashda bolalarning jismoniy tayyorgarligi maydon va undagi sharoitga e‘tibor beriladi. O‘qituvchi o‘yinni tanlab olgandan so‘ng uni qo‘llash usuliyatini puxta o‘ylab so‘ngra o‘tkazadi. Bola uchun notanish o‘yinlarni o‘ynatish ancha qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Katta yoshdagilarga esa mustaqil vazifalar beriladi. O‘yinlar 20-25 daqiqagacha davom etadi 3-4 marotaba qaytariladi. Sayohat haftasini ham belgilash maqsadga muvofiqdir. Bir oyda 1 marta uyushtiriladi bu esa ularni yana ham xursand qiladi va erkin xarakatlarni keng joylarda olib borish kayfiyatni ham ko‘taradi. Rejadagi boradigan joy mashg‘ulot ssenariysi tuzilib sharoiti hisobga olinishi va lozim bo‘lgan jihozlar tayyorlanadi. Yoshiga qarab sayohat muddati

soatgacha davom etkazish mumkin. Jismoniy madaniyat bayramlari, bayram kunlari “Yangi yil”, “Navro‘z”, “Mustaqillik” munosabati bilan sport musobaqalari o‘tkaziladi. Har xil o‘yinlar raqslar, musiqa bilan bajariladigan jismoniy mashqlar bayram dasturi ssenariysiga kiritilishi mumkin bo‘ladi. Jismoniy mashqlar bilan individual shug‘ullanish mashg‘ulotlari vrach yordamida bolalar jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda o‘tkaziladi. Bu mashg‘ulotlarda tana tuzilishida nuqsoni borlar yoki surunkali hamda yurak tomir sistemasida kasali borlar shug‘ullanishi uchun qulay imkoniyatlar bor. Uni davom etish muddati kasallarni jismoniy tayyorgarligi darajasiga bog‘liq. Mashg‘ulotlar davomida shifokor maslahati asosiy rolni o‘ynaydi. Jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug‘ullanish mashg‘ulotlari bolalarga o‘zlari yaxshi ko‘rgan jismoniy mashqlar bilan mashg‘ul bo‘lish imkoniyatini beradi. Buning uchun o‘qituvchi ularga jihozlangan gimnastika shaharchasi yoki maxsus bolalar maydonchasidek suzish havzasi sport jihozlari va anjomlarini tayyorlab qo‘yganligini inobaga olishi lozim. Mashg‘ulot paytida o‘qituvchi bolalarga aynan ularni e‘tiborini tortadigan harakatlar bilan shuhullantirsa barcha bolalarga qiziqarli bo‘ladi va kutulgan samarani beradi. Buda jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi yoritiladi va uni bajarilishi uchun aniq vazifalar belgilanadi. Vazifalar har xil bo‘lishi mumkin masalan uyda ertalabki badantarbiya vaqtida 60-70 ta arqonchada sakrash, 10-15 ta o‘tirib turish, oldinga engashish 10-15 ta shunga o‘xshash mashqlarni vazifa etib belgilash lozim. Buning uchun oldindan o‘qituvchilar bolalarga shu mashqlarni bajara olishligini belgilab olishi kerak. Rejalashtirishda bolalarning jismoniy tayyorgarligi ehtiborga olinishi shart. Jismoniy tarbiya darsining vazifalari va unga qo‘yilgan talablar Jismoniy tarbiyada pedagogik jarayonning natijalari jismoniy tarbiya darslarida olib boriladigan o‘quv-tarbiyaviy ishlarning sifatiga bog‘liq. Bunga har bir dars zamiridagi qator vazifalarni hal etish bilan erishiladi. Jismoniy tarbiya darslari ta‘lim berish o‘qitish e‘tiborini tarbiyalash va sog‘lomlashtirishdek jismoniy tarbiya jarayonining umumiy vazifalaridan kelib chiqib har bir dars uchun aniqsa tanishtirish o‘zlashtirish «Mustahkamlash, takomillashtirish»dek mazmunga ega bo‘lgan xususiy vazifalarni qo‘yish va uni hal qilishni nazarda tutadi. Ta‘lim berish vazifalari bolalarni jismoniy tarbiya dasturda tavsiya qilingan mashqlarni bajarishga o‘rganilgan mashqlarni mustahkamlash va takomillashtirishgashuningdekmalaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga hamda o‘rganilgan mashqlarni turli sharoitda amaliyotda qo‘llashga o‘rgatishga yo‘naltiriladi.

Ta‘lim vazifalarini izchil ravishda bajarish jismoniy tarbiya dasturidagi butun o‘quv materiallarini izchil va mustahkam o‘rganishga olib keladi. Ta‘limning ayrim vazifalarini hal etish uchun nisbatan uzoq vaqt yoki qator ketma-ket darslar zarur vazifalar boshqa hillarini hal etish uchun esa bir darsning o‘zi kifoya qiladi. Masalan aynan mashq uchun esa arqonga ma‘lum usulda tirmashib chiqish va uni bajarishda harakatlar ketma- ketligini bir darsning o‘zida texnik jihatdan mukammal o‘rganib olish mumkin emas. Jismoniy tarbiya darslarida faqat ta‘lim tarbiya emas balki insoniy fazilatlar e‘tiborlilik diqqatini boshqara olishi intizomi irodasi saranjomlilik maqsadga intilishi mustaqilligi va qiyinchiliklarni yengishdagi qat‘iyati va boshqalarni qo‘shib tarbiyalash talab qilinadi. Sog‘lomlashtirish vazifalari ham tarbiya vazifalari kabi har bir darsda hal etilishi lozim. Jismoniy tarbiya darslarini to‘g‘ri uyushtirish va o‘tkazish

tegishli kiyim bosh bilan shug‘ullanishni mashg‘ulotlarning joylarida zaruriy sanitariya gigiena holatini saqlash va rioya qilish darslarni ochiq havoda o‘tkazilishi sog‘lomlashtirish vazifalarini hal etish imkoniyatini yaratadi. Jismoniy tarbiya darsining samarasi ko‘pincha o‘qituvchining tuzgan rejasini hayotiyli shug‘ullanuvchilar faoliyatini tashkillash uchun tanlagan usuliyati va uslublari mavjud jihozlar va sport anjomlaridan texnik vositalardan sport inshootlaridan effektli foydalana olish temperatura iqlim sharoiti o‘quvchilarning tayyorgarligi ularning yoshi individual xususiyatlarini hisobga olib effektli foydalana olish bilan bog‘liq.

Darsning tashkil etishda quyidagilarni:

1. Tibbiy va gigiyena sharoitini yaratish va unga rioya qilishni moddiy-texnik jihatdan ta‘minlashni darsda o‘quvchilar faoliyatini tashkillash usuliyatlarini to‘g‘ri tanlash

2. Tanaffuslarda ochiq maydonlarga suv sepilishi sport zallari esa oynalari ochilib shamollatilishi orqali qo‘yilgan vazifani effektli hal qilishni nazarda tutadi.

3. Quyoshli kunlarda jismoniy mashqlar o‘tkazish vaqtida ijobiy xissiyot vujudga keladi, ko‘proq kislorod yutiladi, modda almashinuvi orqali, ayrim organlar va organizm tizimlarining quvvatini imkoniyatlarini oshiradi

Tanaffuslarda ochiq maydonlarga suv sepilishi sport zallari esa oynalari ochilib shamollatilishi. Aniqlanishicha inson o‘pkasida u tinch turgan holda havo ventilyatsiyasi almashishi minutiga atrofida yuqori intensivlikda bajarilayotgan mashqlarda yugurish sport o‘yinlari organizmni havo yutishi va undan ortiq darajadan oshishi mumkin. Shuning uchun mashg‘ulot joylarini toza havo bilan ta‘minlashning ahamiyati muhim. Ayniqsa zaldagi jihozlar, anjomlar, matlar, gilamlar, polni tozaligi doimiy diqqat va eotiborni talab qiladi. Har bir darsdan so‘ng jihozlar o‘z joyida bo‘lishi lozim. Ochiq xavoda. Quyoshli kunlarda jismoniy mashqlar o‘tkazish vaqtida ijobiy xissiyot vujudga keladi, ko‘proq kislorod yutiladi, modda almashinuvi orqali, ayrim organlar va organizm tizimlarining quvvatini imkoniyatlarini oshiradi. Quyosh, xavo va suv organizmni chiniqtirish uchun, yuqori va past haroratga organizmning moslashuvini oshirish uchun foydalaniladi. Natijada issiqlikni boshqaruvchi apparat mashqlanadi va inson organizmi ob-havoning keskin o‘zgarishiga o‘z vaqtida javob berish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiya vositasi sifatida shug‘ullanuvchilarni faol harakat faoliyatlarini tashkil etadi. Farzandlarimiz kelajagimiz ularning sog‘lom bo‘lishi jamiyatimizni asosiy rivojlantiruvchi kuchidir. Sog‘lom avlod-sog‘lom yurt deganlaridek jismoniy tarbiya va sport bilan birga hayot tarzingizda birga bo‘ling.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Aminov V. Sog‘lom turmush tarzi – inson omilini kuchaytirish garovi. – T.: Tibbiyot, 1999, o‘quv qo‘llanma

2.K.M. Maxkamdjonov, X. Tulenova. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Ma‘ruzalar matni TDPU, 2001-2002 yy.

HARAKAT FAOLLIGIGA ERISHISHNING ASOSIY VOSITALARI VA ULARDAN FOYDALANISH HUSUSIYATLARI

Alimboyeva Roziya Davulovna

Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU “Ijtimoiy- gumanitar fanlar” kafedrası
dots., O‘zbekiston, Toshkent

Annotatsiya: harakat faolligiga erishishning asosiy vositalari va metodikasi jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam, mustaqil shug‘ullanish ko‘nikmalarini singdirish tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi ekanligi, hozirgi kunning mustaqil yoshlarni harakat faolligini tarbiyalashda jismoniy mashqlarning ahamiyati katta ekanligi hamda salomatlikni mustaxkamlash va kuch- quvvatini yanada faollashtirishga to‘g‘ri tanlov ekanligi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: harakat, quvvat, mustaxkam, kuch, sifat, ko‘nikma, daraja, jarayon, avlod, sog‘lom, baquvvat, shug‘ullanish, malaka, singdirish.

THE MAIN MEANS OF ACHIEVING MOVEMENT ACTIVITY AND THE FEATURES OF THEIR USE

Alimboyeva Roziya Davulovna

*Senior Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences, Tashkent
State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi,
Uzbekistan, Tashkent*

Annotation: information about the main means and methods of achieving movement activity, physical training and the instilling of the skills of regular, independent participation in sports is an integral part of the educational process, that physical exercises are of great importance in educating the independent youth of today's movement activity, and that it is the right choice to strengthen health and further activate their strength given.

Key words: movement, strength, strength, power, quality, skill, degree, process, generation, healthy, strong, occupation, skill, assimilation.

Yilimiz 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab quvvatlash yili” deb nomlandi shu munosabat bilan yilga oid yoshlarni faollashtirish va salomatligini mustaxkamlash bo‘yicha Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishlari uchun sport turlariga jalb etishda, sport tadbirlari, musobaqalar, estafetalar, marafon tadbirlari va barcha sohalarda sport sog‘lomlashtirish ishlarini muntazam tashkillashtirish uchun katta e‘tibor qaratildi. Jismoniy tarbiya harakatni rivojlantiruvchi asosiy vosita shaxsni kompleks shakllantirish tizimining uzviy qismidir. Yoshlar salomatligi haqida g‘amxo‘rlik, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jaxon standartlariga mos bo‘lgan raqobatbordosh kadrlarni tayyorlashda jismoniy tarbiya va sport asosiy vositadir, chunki “Sog‘lom kadr sog‘lom jamiyat” degan xalqimizning ibratli so‘zlari bunga yorqin asosdir. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam, mustaqil shug‘ullanish ko‘nikmalarini singdirish tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

Sport hozirgi kuning mustaqil O‘zbekistonimizda jadal rivojlanib borayotgan va keng ahamiyat qaratilayotgan bir davrni o‘tkazmoqda. Yoshlarni kuch sifatlarini tarbiyalashda jismoniy mashqlarning ahamiyati katta ekanligi biz uchun ma’lum. Jismoniy tarbiya va sport sohasiga alohida e’tibor qaratilgan shunday ekan yoshlarimiz ham o‘z salomatligini mustaxkamlash va kuch-quvvatini yanada faollashtirishga jismoniy tarbiya va sport bilan birga bo‘lishga vaqt ajratmoqdalar. Harakatlar tananing fazodagi bo‘shliqdagi holatiga qarab; harakat trayektoriyasi yo‘liga harakatning yo‘nalishiga; harakat amplitudasi (og‘ishi)ga qarab bajarish uchun sarflangan vaqti; harakatni tezligi; harakatni davomiyligi uzunligi tempi ritmi kuchiga qarab tavsiflanadi harakat holatlarini tahlil qila olsakgina harakatlarni tavsiflay olishimiz mumkun amaliyotda tananing fazodagi holatini, harakatning yo‘nalishiga qarab belgilab tananing holati harakati fazoda harakatning ma’lum elementlarini yuzaga keltiradi gavdaning ma’lum tomonlari fazodagi egri troyektoriya bo‘yicha elastik holati tanani ayrim a’zolarini yig‘ishtirilganligi, harakatlar davomida bu pozalar va turishlarni uzluksiz o‘zgarib turishi va h.k.lar o‘z navbatida jismoniy yukning hajmini ortishiga olib keladi tananing vertikal holati osilish va tayanishlar gorizontal holatlar gorizontal muvozanat saqlashlararalash osilishlar tayanishlar va h.k.lar.

shakli va natijani tekshirishga ega bo'lgan talabalarning faoliyati. Ularni ushbu faoliyatni turini tashkillashtirish va rag'batlantirishga ko'mak berish fan o'qituvchilarining vazifasidir. Faqatgina o'qituvchi talabaning yoshini, uning shaxsiy fazilatlarini inobatga olishi, talabalar xotirasi va e'tiboriga yuklarni teng taqsimlashi ularning mustaqil ta'lim olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchi talabalar bilan ishlaganda talabaning ayrim jihatlariga e'tibor bermoqligi lozim bo'ladi: - bilim olishga ehtiyojini; - intellektual mahoratini; - bilim olishga yondashuvini; - o'qishga ishtiyoqini; - fe'l-atvorini; - ma'lumotlarni qabul qilish qobiliyatini; - til bilishini; -kompyuter savodxonligini; Talabaning turli xil fanlardan mustaqil ishlashi samaradorligi birinchi navbatda uning shaxsiy fazilatlari, intizomi, motivatsion munosabati, xotira, e'tibor, ixtiyoriy fazilatlar va boshqalar kabi aqliy fazilatlarga bog'liq, ammo samarali mustaqil ishlashning asosiy shartlaridan biri bu ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. So'nggi yillarda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish sohasida ma'lum tajribalar bo'lsada, bu ishlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shuni alohida takidlash joizki, talabaning tor yoki keng ma'noda bo'ladimi baribir shu mustaqil ta'limsiz ta'limni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi haqida gap bo'lishi mumkin emas. Yuqoridagi kabi mustaqil ta'lim shakllaridan foydalanib talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish ta'lim sifatini oshirishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muslimov N.A., Quysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. Toshkent: TDPU. 2006.
2. Pirimjarov M.X. Oliy maktabda talabalarning mustakil ishlari samaradorligini oshirish.// Xalq ta'limi.2007.№4.
- 3.Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES,3, 710-719. (2023)
- 4.Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o'qitishda inovatsialar. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES,3, 734-745 (2023)

OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY AHAMIYATI

Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Termiz davlat pedagogika institute
Maktabgacha ta'lim nazariyasi o'qituvchisi PhD
mohira.quvvatova@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada oliy ta'lim talabalarining kreativligini rivojlantirishdagi muommolar, kreativlik tushunchasining mohiyati, kreativ shaxsni tayyorlashda duch keladigan kamchiliklar haqida ma'lumotlar qisqacha keltirilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, interfaol metodlar, integrasion yondashuv, integrallashgan metodik tizimi, reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik.

Abstract: in this article, the problems in the development of creativity of higher education students, the essence of the concept of creativity, and the shortcomings encountered in the preparation of a creative person are briefly presented.

Key words: creativity, interactive methods, integration approach, integrated methodological system, reproductive, creative research and innovation.

Jahonda kasbiy tayyorlash jarayonida talabalarning kreativligini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Janubiy Koreyada o'tkazilgan Xalqaro ta'lim forumida 2030-yilgacha qabul qilingan “Incheon declaration” da “Ta'lim–taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat”[1] sifatida e'tirof qilingan. Kreativ yondashuv asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, o'qitishning variativ shakllarini ishlab chiqish, kasbiy tayyorlash jarayonida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Talabalarni kasbiy-pedagogik tayyorlashning asosiy maqsadi shaxsni kreativ inson hamda maxsus ijodiy fikrlash bilan rivojlantirishdir. Bo'lajak pedagog-tarbiyachi uchun faqat maxsus bilimlarni egallashning o'zi yetarli emas, shaxsning individual mayllariga, ijodiy salohiyatiga eng mos keladigan bunday jihatlarni rivojlantirishni hisobga olish kerak. Bu faoliyatini ijodkorlik, o'ziga xoslik hamda kreativ salohiyatni ro'yobga chiqarishsiz tasavvur qilib bo'lmaydigan pedagog-tarbiyachilarni tayyorlashda o'z aksini topishi lozim.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kreativligini rivojlantirish negizida kasbiy xususiyatlar muhim rol o'ynaydi.

G.N.Ibragimova ta'kidlanishicha kreativlikni rivojlantirish:

talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning umumkasbiy va sohaga yo'naltirilgan kognitiv, ijtimoiy kompetensiyalarga yo'naltirilgan faoliyati tuzilmasi komponentlarini aniqlashtirish yordamida;

interfaol ta'lim muhitida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning integrallashgan metodik tizimi, reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari mazmuni, shuningdek jarayon samaradorligini baholashning prognostik va kvalimetrik metodikasi ishlab chiqish yordamida;

tashkiliy-ijodiy hamda integrasion yondashuv asosida o'quv va tarbiyaviy faoliyatni loyihalashtirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari vositasida talabalarda kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar shakllantirish yordamida, - deb ta'kidlaydi [2; 57-b].

Davlat standartlarini tahlil qilib, biz shunday xulosaga keldikki, ijodkorlik qobiliyati pedagogik ta'lim talabalarining majburiy muhim belgisi sifatida standartlarda mustahkamlangan. Ushbu mutaxassislik talabalari, shubhasiz, pedagogika fanlar bo'yicha bilimga ega bo'lishlari kerak, ammo bu etarli emas. Ushbu bilimlardan motivatsiya, o'ziga xoslik hamda fikrlashning ravonligi bilan bir qatorda kreativlik va iqtidorni erkin namoyon qilish uchun asos sifatida foydalanish kerak.

Demak, oliy ta'lim muassasasi talabalarining kreativligini rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirishda individual xususiyatlarni effektiv aniqlash va

pedagogik jarayon dinamikligini ta'minlashga qaratilgan o'z-o'ziga motivatsiya berish bilan birga GESTalt psixologiyasi va inson, jamiyat atrof muhitga bog'liq o'zgaruvchi jarayonga bo'lgan aqliy qobiliyatini nisbiy faoliyatga frontal moslashtirish yetakchi omillardab biridir.

Inson, jamiyat atrof muhitga bog'liq o'zgaruvchi jarayonga bo'lgan aqliy qobiliyatini nisbiy faoliyatga frontal moslashtirishda muhitning o'rni va uni tashkil etish qator izlanishlarni talab qiladi.

A.Maslou[3] fikricha kreativlikni hayotdagi har qanday vazifaga qo'llash mumkin bo'lgan sifat sifatida tushunadi. Uning fikricha, kreativlik tug'ilishdanoq har bir insonga xos bo'lgan, lekin atrof-muhit ta'sirida ko'pchilik tomonidan yo'qolgan sifaddir.

Kreativlikni to'rt jixatga ko'ra tasniflash mumkin: ijodiy jarayon, kreativ mahsulot, ijodkor shaxs hamda ijodiy muhit muhim hisoblanadi. Ijodiy jarayonga qo'shilish orqali inson ijodiy muhitda aktivlashadi, ijodiy inson xususiyatlariga ega bo'ladi, keyinchalik ijodiy mahsulotda faollashadi. Ba'zi olimlar kreativlik uch xarakterga bo'lingan degan fikrga qo'shiladilar[4].

-gipotezani oldinga surish harakati;

-kreativlik harakati;

- mantiqiy ishlab chiqilgan g'oyaning harakati.

Oliy ta'lim muassasasi talabalarining kreativligini rivojlantirish imkoniyatlarini individual xususiyatlarni effektiv aniqlash va pedagogik jarayon dinamikligini ta'minlashga qaratilgan o'z-o'ziga motivatsiya berish, GESTalt psixologiyasi va inson, jamiyat atrof muhitga bog'liq o'zgaruvchi jarayonga bo'lgan aqliy qobiliyatini nisbiy faoliyatga frontal moslashtirish asosida takomillashtirishda talabaning inson, jamiyat atrof muhitga bog'liq o'zgaruvchi jarayonga bo'lgan aqliy qobiliyatini nisbiy faoliyatga frontal moslashtirish dastlab uning qobiliyatlarini tavsiflash orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqotlarni tahlil qilib, ilmiy ish uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan umumiy g'oya - pedagogik ta'limning tarkibiy qismlarini kreativlik birlashtiradi degan xulosaga kelish mumkin. Shunday qilib, talabalarining kreativligini rivojlantirish o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ta'lim butun jarayonning asosiy va tizimni tashkil etuvchi bo'g'iniga aylangan uslubiy tayyorgarlik orqali amalga oshirilishi kerak. Shundan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim talabalarini ta'lim olishning xususiyatlarini ta'kidlab o'tish joizdir. Pedagogik faoliyat talabalariga ko'ra ta'lim shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu esa jamiyat tomonidan yosh avlodni hayotga tayyorlash uchun ishonib topshirilgan kasb egalarining xususiyatlarida jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. Bu xususiyatlar maktabgacha ta'lim talabalarining kreativligini rivojlantirishda namoyon bo'ladi hamda talabalarining og'zaki va og'zaki bo'lmagan kreativligini rivojlantirish zarurligidan iborat hisoblanadi.

Ijodkorlikning yuqori darajasiga ega bo'lgan pedagog yuksak darajada rivojlangan badiiy didga, uslub tuyg'usiga, insonning obyekt muhitiga estetikani kiritish qobiliyatiga ega bo'lishi hamda qo'shimcha ravishda yuqori darajadagi bilimga ega bo'lishi lozim. Bu aqliy qobiliyatini nisbiy faoliyatga frontal moslashtirish asosida

amalgam oshiriladi.

Bundan tashqari, talabalarining og‘zaki bo‘lmagan ijodkorligi rivojlangan o‘ziga xos, shuningdek majoziy hamda hajmli-fazoviy fikrlashni nazarda tutadi, ular nostandart pedagogik yechimlarni topish qobiliyatida namoyon bo‘ladi, nafaqat yangi narsalarni ixtiro qiladi, balki kamchiliklarni tuzatish yoki yangi xususiyatlarni qo‘shish hamda mavjud jarayonlarni modernizatsiya qilishi lozim.

Fikrlashning o‘ziga xosligi hamda ravonligini ko‘rsatish uchun faqat maxsus bilimning o‘zi yetarli emas. Binobarin, biz bitiruvchilarning aniq amaliy faoliyati uchun ayrim fanlarning ahamiyatini asosli tushuntirishni zarur deb bilamiz. Ushbu individual xususiyatlar, shuningdek, umuman kasbga bo‘lgan munosabat, o‘qituvchilar ta’limi talabalarining kreativ rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Kreativlik tanish vaziyatda yangi muammoni ko‘rish va uni hal qilish yo‘llarini topish, mustaqil ravishda ishlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Kasbiy va pedagogik faoliyatning allaqachon ma’lum bo‘lgan usullarini birlashtirish va o‘zgartirish. Kreativ shaxsni rivojlantirish bugungi kunda butun ta’lim tizimining asosiy vazifasidir. Zero, yetarlicha rivojlanmagan ijodiy tafakkurga ega bo‘lgan talaba kelajakda doimiy o‘zgaruvchan dunyoni idrok etishda, nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishda qiyinchiliklar va muammolarni boshdan kechiradi, sodir bo‘layotgan hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni qandaydir tarzda odatdagidan farq qila olmaydi.

Ijodkorlik har bir insonga ma’lum darajada xosdir va uning namoyon bo‘lishiga atrof-muhit ta’siri, taqiqlar, ijtimoiy munosabatlar va boshqalar to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun talabalarning mustaqil ishiga e’tiborni kuchaytirish juda ijobiy nuqta sifatida talqin qilinishi mumkin.

Ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishning asosiy ijtimoiy funktsiyasi mavjud bilimlarni o‘zgartirishda, ularning faol ijodiy va ijodiy qayta ishlashida va shu asosda yangi bilimlarni olishda ekanligi ayon bo‘ladi. Bilim fikrlash orqali o‘zgartiriladi va shu ma’noda ular fikrlashni rivojlantirish vositasidir. Shuning uchun talabalarga samarali fikrlash usullarini, bilimlarni mustaqil ravishda to‘ldirish va yangilash usullarini o‘rgatish, ulardan nazariy va amaliy muammolarni hal qilishda ongli ravishda foydalanish bo‘yicha maqsadli va tizimli ishlarni olib borish kerak.

Talabalarning ijodkorligini oshirish bo‘yicha muhim jihatlari: shaxsning ijodiy o‘zini o‘zi tarbiyalashini ta’minlash va talabalarning ijodkorligini oshirish uchun sharoit yaratish; o‘qitishning kasbiy va uslubiy darajasini doimiy ravishda takomillashtirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. –p.4-5. <http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>.
2. Шиянов Е.Н. Развитие личности в обучении. – М.: Академия. 1999.
3. Маслоу, А. Г. Новые рубежи человеческой природы / А.Г. Маслоу. – М.: Смысл., 2011. - 495с.
4. Варлакова Ю.Р. Развитие креативности будущих бакалавров педагогического образования в вузе. Специальность 13.00.08 – теория и методика

профессионального образования Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Красноярск-2013. 178 с.

“AVESTO” DA AXLOQIY VA ESTETIK MADANIYATGA OID QARASHLARNING NAMOYON BO‘LISHI

Karimova Madina Xolmuratovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi

karimova1810@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqola axloq-odob masalalarining ahamiyatini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, Avestoda ko‘rsatib o‘tilgan g‘oyalar orqali axloq-odob, estetik madaniyat kabi tushunchalar butun insoniyat davri uchun muhim masala ekanligi haqidagi qarashlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: axloq, xulq, madaniyat, ma’naviyat, estetik madaniyat, ezgulik

ON MORAL AND AESTHETIC CULTURE IN "AVESTO". EXPRESSION OF VIEWS

Annotation: this article is aimed at revealing the importance of moral issues, and through the ideas presented in the Avesta, the views that such concepts as morals and aesthetic culture are an important issue for the entire human era have been analyzed.

Keywords: ethics, behavior, culture, spirituality, aesthetic culture, goodness

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma’naviy axloqiy tarbiya ham muhim o‘ringa ega. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongida singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Sharqda axloqiy va estetik madaniyat uzviy bog‘liq holda talqin etilgan. Axloqiy-estetik madaniyat tarixi ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichlarida axloqiy va estetik qarashlarning shakllanib borishi va inson mohiyati, o‘zligini ro‘yobga chiqarishning o‘ziga xos shakli va usuli bo‘lgan axloqi va nafosatli faoliyatidir. Inson tarbiyasi muammolari barcha dinlarning muqaddas kitoblarida ustuvor masala hisoblanadi. Olam, inson tarbiyasi haqidagi qarashlar, g‘oyalar ta’limotlar Qadimgi turon va Eron zaminida vujudga kelgan zardo‘shiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da o‘z aksini topgan bo‘lib muomala odobi, xulq go‘zalligi, insonning tashqi madaniyati, o‘zaro munosabatlaridagi o‘zni tutish qonun-qoidalari xususida atroflicha bayon etilgan. Unda bayon qilingan yaxshilik va go‘zallik, yomonlik va xunuklik mezonlarini teran anglash har bir insonning halol mehnat asosida rizq topishiga, hunar va ilm olishiga, o‘zgalarni hurmat qilishiga, tabiat va jamiyatdagi go‘zallikni teran anglab yetishiga xizmat qiladi.

“Avesto” da inson tarbiyasiga oid qarashlar, g‘oyalar sistemasi mavjud. Ajdodlarimizning tabiat va jamiyatda yaxshilik va go‘zallikni qaror toptirish uchun yer, olov va havoni ilohiylashtirgan holda insonda yuksak insonparvarlik fazilatlarini ko‘zda tutganlari hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. U tabiat, jamiyat, inson olamining azaldan yaxlit va bir butun ekanligini uqtirish natijasida har bir inson tabiat ne‘matlaridan bo‘lgan suvni tejash, bulg‘amaslik, tuproqni iflos qilmaslik, hayotda doimo ozodalikka rioya qilib yashash, “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyiliga amal qilsa, uning doimo g‘olib bo‘lishiga ishonch tuyg‘usini shakllantirib, har bir insonni ana shu tamoyil asosida yashash ruhida tarbiyalaydi. Mana shuning o‘zi “Avesto” da axloqiy va estetik madaniyat insonning tabiat bilan uyg‘un yashash, uning go‘zalliklaridan bahraman bo‘lish, sevishtirish, avaylash, pok va ozoda yashash bilan belgilanishini ko‘rsatadi.

Zardo‘sh tiylar uchun butun tabiatni – yer, suv, daraxt, o‘simlik, jonivorlarni e‘zozlash, yerga ishlov berib, sug‘orib, bog‘-rog‘lar va ekinzorlar barpo etish, chorvachilikni keng yo‘lga qo‘yish, suv va olovni muqaddas tutish bir so‘z bilan aytganda bunyodkorlik, yaratuvchanlik hayotiy maqsad bo‘lgan. «Avesto»da shaxsning axloqiy-estetik madaniyati ifodalovchi tushunchalar sifatida «go‘zal», «chiroyli», «qoyilmaqom», «beg‘ubor», «yaxshi», «ezgu» namoyon bo‘ladi. Bu esa “Avesto” da axloqiy-estetik madaniyat o‘zaro chambarchas bog‘liq hodisa sifatida ifodalanganidan dalolat beradi. «Avesto»da axloqiy-estetik madaniyat insonlarni mehnat qilib, moddiy boyliklar yaratib to‘q, farovon hayot kechirishga dav‘at etilganligida aks etadi. Zero, inson o‘z mehnati orqali tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni o‘zgartiradi, ularni insoniylashtiradi va nafosatlashtiradi. Shu asnodan o‘zining ham axloqiy-estetik madaniyatni yuksaltiradi.

«Avesto»da insoniyat tarixining ilk davrlarida shakllangan axloqiy-estetik madaniyat turmush tarzida aks etgan. Bu xususan «Inson uy tiklab, olovga va oilasiga, xotini va farzandlariga, podalariga o‘rin ajratib bersa, yem-xashak ko‘p bo‘lib, chorvasi va itlari to‘q yashasa, uyida noz-ne‘matlar muhayyo bo‘lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, uyida e‘tiqodi sobit, olovi alangali, boshqa narsalari ham mo‘l-ko‘l bo‘lsa o‘sha manzil muhtaramdir»[1] deyiladi. Unda ilgari surilgan axloqiy va estetik qarashlar jamiyatda har bir shaxsning yuksak madaniyatga ega bo‘lish, ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal idealiga asoslanib farovon hayot yaratishni aks ettiradi. «Avesto»da insonning turmush tarzi, yashashi, madaniyati, ma‘naviyati nafosat dunyosi eng yaxshi insoniy fazilatlar orqali namoyon bo‘ladi. Bu asar «ajdodlarimizning, - deb yozadi A.Sher, - axloqiy-estetik qomusi, qadimiy urf-odatlarining o‘ziga xos, abadiyatga daxldor majmui sifatida qimmatlidir»[2].

“Avesto”da insonning kundalik faoliyati uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ya‘ni yaxshilik va go‘zallikni tarannum etuvchi, yomonlik va xunuklikni qoralovchi o‘gitlar, pand-nasihatlardan iborat bo‘lgan axloq va nafosat normalari o‘z aksini topgan. Masalan “Yaxshi a‘moli zotlarning eng oliy xohishi yangi dunyo qurmoqlikdir. Menga xonumon, qishloq, shahar va o‘lka, uning nom va ovozasini olamlarga yoyguvchi farzandlar ato qil.

Ey mardum! Firibgarlar so‘ziga aslo quloq solmang. Chunki ular rostlik tarafdorlarining dushmanidir.

Har bir ayol va er o‘zi durust va yaxshi deb bilgan narsasiga amal qilishlari va boshqalarni ham ogohlantirishlari hamda ular ham o‘sha narsaga amal qilishlari kerak” [1], degan juda ko‘plab fikrlarni o‘qiymiz.

“Avesto”da qanoat, mehribonlik, insof, kasb va ilmni sevmok, yomon ishlardan yuz o‘girish, adolatli bo‘lish, bemorlar holidan xabar olish, har ishda jasorat ko‘rsatish kabi yaxshi so‘z, yaxshi fikr, yaxshi amal, shuningdek, dushmanlik, toshbag‘irlik, hasad, xasislik va orsizlik, qo‘rqoqlik, shakkoklik kabi yomon niyat, yomon so‘z, yomon amallarni ifodalovchi mezonlarning mavjudligini ko‘rish mumkin. “Avesto”da bayon qilingan yaxshilik va go‘zallik, yomonlik va xunuklik mezonlarini teran anglash har bir insonning halol mehnat asosida rizq topishiga, hunar va ilm olishiga, o‘zgalarni hurmat qilishiga, tabiat va jamiyatdagi go‘zallikni teran anglab yetishiga, har xil behayoliklardan saqlanishiga xizmat qiladi.

“Avesto”da inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni teran anglash suv, tuproq, quyosh, havo, o‘simlik va hokazolarning yuksak qadrlab, ma’naviy estetik qadriyat darajasiga ko‘tarilganligini ko‘ramiz. “Avesto” – bu butun insoniyatni ezgulikka chorlovchi, komillik sari yetaklovchi, tabiat, jamiyat va insonni axloqiy va estetik mezonlar asosida uyg‘unlashtiruvchi qadriyatdir. Har qanday ma’naviy tarbiya jarayonining tamal toshlaridan biridir. Insoniyat tarixi yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik, ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va buzg‘unchilik o‘rtasidagi tinimsiz kurashlardan iborat ekanligini ko‘rsatar ekan, bunda kimki “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” tamoyiliga amal qilsa, uning doimo g‘olib bo‘lishiga ishonch tuyg‘usini shakllantirib, har bir insonni ana shu tamoyil asosida yashash ruhida tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avesto. Tarixiy - adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasini. -Toshkent: “Sharq, 2001. –B. 96-226.
2. A.Sher Axloqshunoslik O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti Toshkent: 2010. - 25 b.
3. Karimova M.X “Yoshlarda ma’naviy axloqiy hislarni rivojlantirishda abdulla avloniy asarlarining ahamiyati va roli” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(1/2), Jan., 2023
4. Karimova M. Yosh avlodni tarbiyalashning ma’naviy axloqiy jihatlari. Ayol ma’naviyat gulshani IIV respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2015 yil. 311-313 b.
4. Karimova M “Ilk o‘spirinlik davridagi o‘quvchilarda axloqiy hislarni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari” monografiya T-2021. 64-66 b.
5. Karimova M.Kh. The role of moral values in adolescents and their role in determining the criteria of spiritual perfection. Scientific reports of Bukhara state university 2020/6(82), 283-290 p.
6. Karimova M.Kh The importance and value of spirituality as an important period in the formation of moral feelings. European scholar journal Volume 3, Issue 3 March, 2022 85-86 p.

UDK:433

TARIX FANI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Karimova Feruza Xolmuratovna

Buxoro viloyati Vobkent tumani 23-IDUM maktabi o'qituvchisi
karimova1810@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada tarix darslarini tashkil etishda fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish hamda darslarni mavzulardan kelib chiqqan holda ma'lum bir guruhlariga ajratish va ushbu fanni o'qitishning zamonaviy integratsion usullari ilmiy asosda jamlangan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagogik texnologiya, metod o'yin, guruh.

Annotation: this article is interdisciplinary in the organization of history lessons. making connections and teaching lessons on topics classification into specific groups and modern integration of teaching this subject methods are summarized on a scientific basis.

Key words: innovation, pedagogical technology, game method, group.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosini jahon ta'limi standartlariga javob bera oladigan ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo'lida amaliy faoliyat olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu-o'qituvchi va o'quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va o'quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo'l kelishi amaliyot ko'rsatib turibdi. Hozirgi zamon har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rni va roliga har tamonlama qarash vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi a'nanaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmog'i lozim. Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida oliyjanob fazilatlarni mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida tarix fanining muhim maqsadi eng qadimgi davrdan to bugungi vaqtgacha boʻlgan vatanimiz va jahon tarixiga doir eng asosiy hodisalar bilan oʻquvchilarni tanishtirish, ularni Oʻzbekiston va jahon xalqlarining madaniy va maʼnaviy merosiga, ilgʻor qadriyatlarga, milliy va umumbashariy anʼanalarga hurmat ruhida oʻstirish, buyuk merosimizning keyingi davomchilari, shuningdek uni boyituvchilari boʻlmish munosib vorislarni voyaga yetkazishdan iboratdir shu sababli tarix darslarini samarali va mazmunli tashkil etishda texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tarix fanini oʻqitishda texnologiyalardan foydalanish oʻquvchilar faolligini, bilimlarni mustahkamlash hamda oʻquvchilarda jamoa bilan ishlash malakasini shakllantirishga uchun samarali hisoblanadi. Tarix fani uchun samarali boʻlgan texnologiyalaridan biri “toʻgʻri top” oʻyinidir.

“Toʻgʻri top” oʻyini uchun ikkita plakat kerak boʻladi. Oʻqituvchi birinchi navbatda biror mavzu boʻyicha kalit soʻzlarni boshlanishi yozib qoʻyadi, oʻquvchi esa tartibni oʻzgartirgan holda kalit soʻzlarning davomini yozib qoʻyadi. Quyida biz oʻyinni umumiy-oʻrta taʼlim maktablarining 6-sinflarida tarix fanini oʻrganishda qoʻllanishini koʻrib chiqamiz.

1- plakat

1. Poleolit bu...
2. Mezolit bu...
3. Neolit bu...
4. Eniolit bu...
5. Bronza bu...
6. Temir davri bu...

2-Plakat 1.Insoniyat tarixida ilk tosh davri boʻlib er.avv. 1 mln.-12 ming yilliklarni oʻz ichiga oladi...

2.Oʻrta tosh davri boʻlib, er.avv. 12 – 7 ming yilliklarni oʻz ichiga oladi...

3.Yangi tosh davri boʻlib, er.avv. 6 – 4 ming yilliklarni oʻz ichiga oladi...

4.Mis tosh davri boʻlib, er.avv. 4 – 3 ming yilliklarni oʻz ichiga oladi ...

5.Er.avv. 3 – 2 ming yilliklarni oʻz ichiga olib, matriarxatdan patriarxat ajralib chiqadi...

6.Er.avv. 1 – ming yillikdan boshlanib, bu davrda insoniyat tarixidagi 2 – mehnat taqsimoti roʻy beradi...

“Kim biladi?” oʻyinida oʻquvchilar ikki guruhga boʻlinadi. Birinchi guruh aʼzolari “Oʻzbekiston tarixi” 8-sinf darsligidan biror hukmdor yoki tarixiy shaxs haqida maʼlumot oʻqishadi. Ikkinchi guruh aʼzolari esa hukmdor yoki tarixiy shaxsni kim ekanligini aniqlashadi. Keyingi navbatda ikkinchi guruh aʼzolari biror hukmdor yoki tarixiy shaxs haqida maʼlumot oʻqishadi. Birinchi guruhdagilar esa hukmdor yoki tarixiy shaxsni kim ekanligini aniqlashadi. Har bir toʻgʻri javob uchun yutuqli kartochkalar berishadi. Bu oʻyinni xoxlagan mavzu yoki fanni oʻrganishda dars jaryonida oʻquvchilarni zeriktirishga yoʻl qoʻymaslik, qiziqtirish maqsadida ham oʻtkazish mumkin. Masalan, 8-sinfda “Oʻzbekiston tarixi” fanida foydalanish mumkin:

1- guruh: U hukmdor Abulxayrxonning farzandi Shohbudoqsultonning o‘g‘li. Uning ismining ma‘nosi “Kuch qudrat” demakdir. U XV asrning 80-yillarida o‘z davlatini tuzgan.

2- guruh: Shayboniyxon.

1-guruh Jonibek sultonning nabirasi shayx Muhammad Islomga ixlosi baland edi. U karvon yo‘llarini qayta jonlantirish, sardobalar karvonsaroylar qurish va taminlashga ahamiyat beradi. 1572-yili Akbarshoh ho‘zuriga elchi yuboradi.

2-guruh Abdullaxon II

O‘yin shu tarzda davom etadi. Ushbu o‘yin ta‘lim oluvchilarda fanga yoki o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Tarixga bo‘lgan ijodiy yondashuvni o‘stiradi, mantiqiy fikrlash malakalarini oshiradi.

Biz fikr yuritgan o‘yinli texnologiyalardan foydalanib mashg‘ulotlarni olib borishni ham faol o‘qitish shakllaridan biri deb atash mumkin. Bunday darslar o‘qituvchi va o‘quvchilarning ijodiy yondashuvini, o‘quvchilarning faolligini va fanni yaxshi o‘zlashtirishlarini ta‘minlaydi. O‘yinli texnologiyalar natijasida o‘quvchilarning bilish faoliyati rivojlanadi, o‘quv materialini o‘rganishga qiziqishi oshadi va bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Har bir fanning samarali o‘qitilishi uchun alohida yondashuv va metodologik ta‘minot talab etiladi va ushbu jarayonlarda pedagoglardan innovatsion dunyoqarash va o‘ziga xos malaka, talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Umumiy o‘rta ta‘lim davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi. «Ta‘lim taraqqiyoti», 3-maxsus son.-T.: «Sharq», 2009.
2. Tarix o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2015.
3. A. Harris, Teaching and Learning in the Effective School. Aldershot: Ashgate, 1999. –401.
4. Toshtemirova Saodat Abdurashidovna. Ta‘lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida //Uzluksiz ta‘lim.-2020.-No 1 (86). —S.5
5. F. Aqchayev “Tarix fanini o‘qitishda o‘yinli texnologiyalardan foydalanish” O‘quv-uslubiy qo‘llanma TOSHKENT – 2018 52-64 b.

TARIX FANINI O‘QITISHDA MILLIY MINIATYURADAN FOYDALANISH (BOBURNOMA MISOLIDA)

Haydarov Sulaymon Amirqulovich
TMC Instituti, Pedagogika va psixologiya
kafedrasida dotsenti PhD.

haydarov_sulaymon82@mail.ru

Annotatsiya. ushbu maqolada tarix darslarida o‘quvchilarning faolligini oshirish, dars jarayonida san‘at asarlari orqali tarix fanini samarali o‘zlashtirilishiga xizmat qilishi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: san‘at asarlari, texnologiyalar, dars, o‘quvchi, metod, samaradorlik.

USE OF MINIATURES IN TEACHING THE HISTORY. (IN THE EXAMPLE OF BOBURNOMA)

Annotation. this article explains how to increase the activity of students in history lessons, to serve the effective study of history through works of art in the classroom.

Keywords: works of art, technology, lesson, reader, method, efficiency.

KIRISH. Dunyoda ta’limni zamonaviy talablar asosida tashkil etish, uning mazmunini milliy an’analar, qadriyatlar asosida takomillashtirish orqali samaradorlikka erishish asosiy yo’nalishlarini tashkil etadi. Shu yo’nalishda tarix fanini o’qitishda bugungi kundagi yangiliklar, o’zgarishlar va qonunlar, zamonaviy manbalar, erishilayotgan natijalar, bo‘lib o‘tayotgan eng so‘nggi voqeliklar bilan bir qatorda tarixiy manbalardan foydalanish texnologiyalarini yaratish dolzarb pedagogik muammolar sirasiga kiradi. Ayniqsa, YUNESKO tashkiloti tomonidan har yili ta’limga oid yangiliklarning e’lon qilinishi va ularning dunyo ta’lim amaliyotida keng qo’llanilishi ta’limning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mazkur tashkilot tomonidan miniatyura san’atini zamonaviy sharoitda o’rganish masalalari ham xalqaro miqyosda targ‘ib qilib kelinmoqda. Respublikamizning bir qator tarixchi, pedagog olimlari hamda metodistlari tomonidan tarix o’qitish metodikasining turli masalalari o’rganilgan bo‘lsa-da, uning fanlararo aloqadorlik tamoyillari, xususan, tarix ta’limida miniatyura san’ati asarlaridan foydalanishga oid jihatlari maxsus ilmiy muammo tarzida tadqiq etilmagan. Miniatyura san’atining tadqiqotiga oid izlanishlar asosan tarix, filologiya va san’atshunoslik yo’nalishlarida amalga oshirilgan. Jumladan, respublikamiz olimlaridan san’at tarixi sohasidagi ayrim masalalar S. Murzayev, R. Fatxullayev, X. Karimov, tomonidan qisman o’rganilgan. San’atning, xususan, miniatyura san’atining tarixiy aspektlari G. Pugachenkova, L. Rempel, A. Hakimov, A. Madraimovlarning tadqiqotlarida atroflicha o’rganilgan. Xususan, O‘zbekiston hududida miniatyura san’atining paydo bo‘lish tarixi G. Pugachenkova, L. Rempellarning tadqiqotlarida yetarli darajada o‘z aksini topgan. Miniatyura san’atining badiiy pedagogika yo’nalishini o’rgangan N. Oydinov, S. Bulatov, A. Sulaymonovlarnin ilmiy ishlarida aynan tarixiy mavzudagi miniatyura san’ati asarlaridan foydalanish ifoda qilinmagan bo‘lsa-da, biroq ularning tadqiqotlarida tarix o’qitish usulining turli xil jabhalari yoritib berilgan, ya’ni tadqiqotlarda bu borada muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Metodologiya. Ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ular tarix ta’limini muhim manbai – miniatyura san’atining didaktik imkoniyatlariga yangicha pedagogik tafakkur asosida yondashishga nazariy asos vazifasini o‘taydi. Shuningdek, turli faktlar kontekstida o’rganish va tahlil qilish asosida miniatyura san’ati asarlaridan foydalanib, «O‘zbekiston tarixi» fanini optimal mazmun va metodikasi bo‘yicha o’qitishning didaktik asoslari yaratildi.

O‘zbekiston tarixini o’qitish jarayonida miniatyura san’ati asarlaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi tajribalar asosida isbotlangan quyidagi amaliy ahamiyatga ega:

-tarix ta'limi konsepsiyasi va Davlat ta'lim standarti yo'riqnomalari mohiyatining tadqiq etilishi ta'lim jarayonida ulardan to'g'ri foydalanish imkonini beradi;

- miniatyura san'ati asarlaridan foydalanishda «O'zbekiston tarixi» o'quv fani dasturi, darslik va qo'llanmalarga qo'yilgan didaktik talablarning yangilanayotgan pedagogik tafakkur asosidagi tahlili didaktik vositalarning samaradorlik koeffitsientini oshiradi;

- muayyan didaktik talablar asosida tanlab olingan hamda «O'zbekiston tarixi» o'quv fani bo'yicha mavzular kesimida foydalanish uchun ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar tarix ta'limini ob'ektivligi, aniq tarixiy dalillarga asoslanganligini ta'minlaydi. Natijada tarix ta'limida ob'ektivlikka asoslangan samaradorlik ta'minlanadi.

Natijalar qismi. Jamiyat tomonidan ta'lim-tarbiya tizimi oldiga qo'yilgan bunday mas'uliyatli vazifa pedagogika fanining rivojlanishiga o'zining katta ta'sirini ko'rsatadi. Ana shunday rivojlantirish yo'nalishlaridan biri faol ta'lim ekanligi e'tirof etilgan. Faol ta'lim deganda biz ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy ob'ekti va sub'ekti hisoblangan tahsil oluvchi (o'quvchi) tinglovchilarning ongli va faol ishtiroki, mustaqilligi va ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi omillar tizimini tushunamiz. Miniatyura san'ati asarlari o'quvchilarda yuqoridagi sifatlarni shakllantirishning muhim omili sifatida e'tiborlidir.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida juda ko'plab faollashtirish omillari qayd etilgan. Ana shunday muhim omillardan biri bizning nazarimizda o'quv materialini dolzarblashtirish hisoblanadi.

Muhokama qismi. Ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan dolzarblashtirish tushunchasining lug'aviy ma'nosi o'quv materialini ayni payt va kelajakda zarur va muhim ahamiyatga ega ekanligini tahsil oluvchilar ongiga yetkazib, uni o'rganishga his-tuyg'u, qiziqish uyg'otuvchi va faol o'quv bilishga undovchi omil deb e'tirof etiladi. Pedagogika nuqtai nazaridan olib qaraganda, dolzarblashtirish o'quv materialini tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarurligini ko'rsatsa, psixologik jihatdan materialni o'zlashtirishga ularda ehtiyoj tuyg'usini uyg'otadi. Miniatyura san'ati namunalarini tarixiy manba sifatida o'rganishga nisbatan ongli ehtiyojni yuzaga keltirish o'quv materialini sifatli o'zlashtirishning muhim shartlaridan biridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, tarix ta'limini tarixiy mavzudagi miniatyura san'ati asarlari vositasida tashkil etish o'quvchilarda tarixiy tafakkurni o'stirishning muhim omillaridan biridir.

O'zbekiston tarixi ta'limi samaradorligini oshirishda tarixiy mavzudagi miniatyura san'ati asarlaridan foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishlari qo'llaniladigan miniatyuralarning pedagogik tahlili ularning tarix ta'limi bilan aloqadorligini asoslash uchun nazariy va amaliy zamin yaratadi. Zero, tavsiya etilayotgan manba Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarlariga ishlangan miniatyuralar o'sha davr tarixining tasviriy talqini sifatida o'quv materialini vizual tarzda taqdim etish vositasi sifatida o'quvchilarning tarixiy bilimlarni o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan dabiyyotlar ro‘yxati:

1. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In *Conference Proceedings* (pp. 41-43).
2. Davrenov, J., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O‘RGANISHDA XVI-XVIII ASRLARDA YAPONIYA DAVLATI TARIXINI AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(6).
3. Narmatov, D., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O‘QITISHDA ISPANIYA XV-XVII ASRLARDAGI TARIXI. *Scientific progress*, 1(6).
4. Хайдаров, С.А., (2022). Захриддин Мухаммад Бобур: бир кўлда мўйқалам-у, бир кўлда тож. *Scientific progress*, 3(3).
5. 1.Khaydarov S,A. (2023). Using technologies in teaching social sciences. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ), (pp. 305-309). 11(9).
6. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi O‘zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
<https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24652>
7. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1/2), 92-96.

**ОҚУШЫЛАРДЫҢ ФУНКЦИОНАЛДЫҚ САУАТТЫЛЫҒЫ:
ЭЛЕКТРОНДЫҚ МӘТІНМЕН ЖҰМЫС**

Исмаилова Гайнигуль Кабидуллиновна

филология ғылымдарының кандидаты, профессор, «Семей қаласының Шәкәрім атындағы Университеті» КеАҚ, Семей қаласы, Қазақстан

gainigul_ismailova@mail.ru

ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-6061-6590>

Турикпенова Айгуль Жумановна

PhD доктор, аға оқытушы, «Семей қаласының Шәкәрім атындағы Университеті» КеАҚ, Семей қаласы, Қазақстан

Aidilan_76@mail.ru; ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-4623-7498>

Григорьева Галина Борисовна

педагогика ғылымдарының кандидаты, аға оқытушы, «Семей қаласының Шәкәрім атындағы Университеті» КеАҚ, Семей қаласы, Қазақстан

grigala1010@mail.ru; ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0003-1928-945X>

Хасенова Клара Ергешбаевна

экономика ғылымдарының кандидаты, доцент, «Семей қаласының Шәкәрім атындағы Университеті» КеАҚ, Семей қаласы, Қазақстан

klarita_khassenova@mail.ru; ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-0063-8536>

Аннотация. Мақалада функционалдық сауаттылық пен оқу сауаттылығын дамыту туралы, олардың Қазақстан Республикасының білім беру жүйесіндегі орны туралы қарастырылған. Функционалдық сауаттылықтың негізгі дағдысы оқу сауаттылығы зерделеніп, электронды мәтіннің мазмұнын нақты түсінуін бағалау емес, оқу барысында меңгерген білімдері мен дағдыларын өмірлік жағдайларда қолдана білу ептіліктерін қалыптастыру, яғни, оқушылардың мәтін мазмұнын өз мақсаттарына жету үшін пайдалана білуі қарастырылған.

Түйін сөздер: функционалдық сауаттылық, оқу сауаттылығы, PISA тесті, мәтін, ақпарат, түсіну, рефлексия

ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ГРАМОТНОСТЬ УЧАЩИХСЯ: РАБОТА С ЭЛЕКТРОННЫМ ТЕКСТОМ

Исмаилова Гайнигуль Кабидуллиновна

кандидат филологических наук, профессор «*Университет имени Шакарима города Семей*» НАО, Семей, Казакстан

gainigul_ismailova@mail.ru; ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-6061-6590>

Турикпенова Айгуль Жумановна

PhD, ст. преподаватель «*Университет имени Шакарима города Семей*» НАО, Семей, Казакстан

Aidilan_76@mail.ru; ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-4623-7498>

Григорьева Галина Борисовна

кандидат педагогических наук, ст. преподаватель «*Университет имени Шакарима города Семей*» НАО, Семей, Казакстан

grigala1010@mail.ru; ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0003-1928-945X>

Хасенова Клара Ергешбаевна

кандидат экономических наук, доцент, «*Университет имени Шакарима города Семей*» НАО, Семей, Казакстан

klarita_khasenova@mail.ru; ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-0063-8536>

Аннотация: в статье рассмотрены вопросы развития функциональной грамотности и грамотности чтения, их место в системе образования Республики Казахстан. Основной навык функциональной грамотности изучена грамотность чтения, предусматривается не оценка фактического понимания содержания электронного текста, а формирование умений применять знания и навыки, приобретенные в процессе чтения, в жизненных ситуациях, т. е. умение учащихся использовать содержание текста для достижения своих целей.

Ключевые слова: функциональная грамотность, читательская грамотность, тест PISA, текст, информация, понимание, рефлексия.

**FUNCTIONAL LITERACY OF STUDENTS: WORKING WITH
ELECTRONIC TEXT**

Ismailova Gainigul Kavidullinovna

Candidate of philological sciences, professor *NAO University named after Shakarim of Semey city*", Semey, Kazakhstan

gainigul_ismailova@mail.ru; ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-6061-6590>

Turikpenova Aigul Zhumanovna

PhD, *NAO University named after Shakarim of Semey city*", Semey, Kazakhstan

Aidilan_76@mail.ru; ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-4623-7498>

Grigorieva Galina Borisovna

Candidate of Pedagogical Sciences, *NAO University named after Shakarim of Semey city*", Semey, Kazakhstan

grigala1010@mail.ru; ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0003-1928-945X>

Khasenova Klara Ergeshbaevna

candidate of economic sciences. assistant professor, *NAO University named after Shakarim of Semey city*", Semey, Kazakhstan

klarita_khasenova@mail.ru; ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-0063-8536>

Annotation. the article considers the issues of the development of functional literacy and reading literacy, their place in the education system of the Republic of Kazakhstan. The main skill of functional literacy is reading literacy, which provides not an assessment of the actual understanding of the content of an electronic text, but the formation of skills to apply knowledge and skills acquired in the process of reading in life situations, i.e. the ability of students to use the content of the text to achieve their goals.

Key words: functional literacy, reading literacy, PISA test, text, information, comprehension, reflection.

Сауаттылық – адамның өз ана тілінде жазу және оқу дағдыларының болуы. Дәстүр бойынша, "сауатты" сөзі оқи алатын және жаза алатын немесе тек қандай да бір тілде оқи алатын адамды білдіреді. Қазіргі мағынада бұл грамматика мен емленің белгіленген нормаларына сәйкес жазу қабілетін білдіреді. Тек оқи алатын адамдарды "жартылай сауатты" деп те атайды. Статистикада сауаттылық деп адамның күнделікті өміріне қатысты қысқа, қарапайым мәтінді оқу, түсіну және жазу қабілетін айтады. Ересектердің сауаттылық деңгейі – 15 және одан жоғары жастағы сауатты адамдардың үлесі. Белгілі бір халықтың сауаттылық көрсеткіші (кейде жай сауаттылық деп те аталады) сауатты адамдар саны мен бүкіл халықтың саны арасындағы қатынас болып табылады.

Функционалды сауаттылық – ол оқу мен жазудағы сауаттылықты, жаратылыстану ғылымдарындағы сауаттылықты, математикалық сауаттылықты, компьютерлік сауаттылықты, отбасы өміріндегі мәселелік сауаттылықты, денсаулық мәселесіндегі сауаттылықты, қаржылық сауаттылықты, заң туралы сауаттылықты қарастырады.

1965 жылы Тегеранда өткен сауатсыздықты жоюға арналған Бүкіләлемдік конгресте «функционалды сауаттылық» термині ұсынылды, ал 1978 жылы Білім беру саласындағы статистиканы халықаралық стандарттау туралы ұсыныста ЮНЕСКО тарыпанан ұсынылған түсініктеме қайта қарастылып, «функционалды сауаттылық – барлық әрекет түрлерінде болады, тиімді қызмет ету үшін қажет сауаттылық және өзін-өзі және қоғамды (әлеуметтік ортаны) дамыту үшін оқу мен жазуды пайдалану мүмкіндігі» деп анықталды.

Функционалды сауаттылық ұғымы ғылыми-техникалық талаптар мен әлеуметтік прогресс нәтижесінде пайда болып, мағыналық тұрғыда әмбебап сипатта ғана емес, мәдени-тарихи сипатта да қолданылады. Себебі Кеңестік кезеңнің алғашқы 10 жылдығында адамзаттың оқи білуі, жаза білуі, арифметикалық төрт амалды білуі қызметтік әрекетті игеріп кетудің негізгі көрсеткіші болды. Қазіргі кезеңде сауаттылық ұғымының ауқымы кеңейіп, оның көрсеткіштері түрліше сипатталады (Әдістемелік құрал. 2013).

Елдің білім беру сапасының нысаналы көрсеткіштерін анықтау үшін әлемдік педагогикалық қоғамдастық PIRLS, TIMSS, PISA және т.б. халықаралық тестерді әзірледі: PIRLS – мәтіндерді оқу және түсіну сапасын халықаралық зерттеу; TIMSS – математикалық және жаратылыстану білімінің сапасын халықаралық зерттеу; PISA – халықаралық зерттеудегі функционалды сауаттылық деңгейі. Жасөспірімдердің білім деңгейін бағалайтын мұндай зерттеулерге әлемнің 50-ге жуық елі қатысады.

PISA (programme for International Student Assessment) – оқу, математика және жаратылыстану сауаттылығы бойынша 15 жастағы білім алушылардың оқу жетістіктерін бағалауға арналған халықаралық зерттеу.

Зерттеуге 15 жастағы балалардың қатысуы көптеген елдерде оқушылардың осы жасқа дейін міндетті оқуын аяқтағанымен түсіндіріледі. Оқушылардың дамуының дәл осы кезеңінде болашақта оларға пайдалы болуы мүмкін құзыреттерді анықтау маңызды. Қазақстанда 15 жастағы жасөспірімдер негізінен 9-10 сыныптарда оқиды, колледж студенттері де бар. Зерттеуді Экономикалық ынтымақтастық және даму ұйымы (Organization for Economic Cooperation and Development) әр үш жыл сайын өткізеді.

PISA зерттеуінде оқу сауаттылығы ұғымын оқушылардың жазбаша мәтіндерді ұғына оқу қабілеттілігі және оларға рефлексия, олардың мазмұнын өз мақсаттарына қол жеткізу үшін қолдануы, білімдері мен дағдыларын қоғамның белсенді өміріне араласуы үшін дамытуы деп түсінуге болады. Оқушылардың оқу сауаттылықтарын тексеру оқу техникасы немесе мәтіннің мазмұнын нақты түсінуін бағалауға емес, оқу барысында меңгерген білімдері мен дағдыларын өмірлік жағдайларда қолдана білу ептіліктерін бағалауға бағытталған. Оқу сауаттылығын бағалау барысында үш аспекті есепке алынады: оқу материалдарының форматы, тапсырманың түрі, мәтіннің қолдану жағдайы немесе мақсаттары (Қазақстанның 15 жасар оқушыларының оқудағы жетістіктеріне халықаралық баға берілді. 2011).

PISA бағдарламасы пәндер бойынша құзыреттіліктерді әр өткізген сайын кезектесіп тереңдетіп бағалауға мүмкіндік береді. PISA алғаш рет 2000 жылы

жүргізілді. Мысалы, PISA бағдарламасы 2009 жылы оқу сауаттылығына, ал 2012 жылы математикаға, 2015 жылы жаратылыстану-ғылыми білім сапасын бағалауға баса назар аударды.

Қазақстандық оқушылар PISA халықаралық зерттеуіне 2009 жылдан бері қатысып келеді (салыстыру үшін: Ресей бұл бағдарламаға 2000 жылдан бері, Қырғызстан – 2006 жылдан бері қатысады). Жоғарыда айтылып өткендей, бағдарламаның әдіснамасына сәйкес әрбір ел бойынша іріктеуде 15 жасар оқушылар қамтылды. Қазақстанда жалпы білім беретін 184 мектептің (орыс және қазақ тілдерінде оқытатын) және 16 колледж бен кәсіптік-техникалық училищенің шәкірттері болды.

PISA-2009 бағдарламасына қатысқан 65 елдің жалпы рейтингінде Қазақстан 59-шы орынға ие болды.

Оқу сауаттылығы бойынша нәтижелер келесідей:

2009 жылы – 390 балл (59-орын); 2012 жылы – 393 балл (63-орын).

2015 жылы жалпы есепте Қазақстанның оқу сауаттылығы бағытындағы орташа балы 427 балды құрады (72-ден 52-орын). Ең жоғары оқу құзыреттілігін Сингапур (535 ұпай), Гонконг (527 ұпай) және Канада (527 ұпай) сияқты елдердің қатысушылары көрсетеді (Ирсалиев және т.б. 2017).

Қазақстанның PISA-2018-дегі оқу сауаттылығы бойынша орташа балы 387 балды, математикалық – 423 балды және жаратылыстану – 397 балды құрады.

2021 PISA-ға жаңартылған оқу бағдарламасы бойынша оқитын жасөспірімдер қатысты. Тестілеу 2022 жылы короновирустық инфекция кезіндегі карантиндік шараларға байланысты жүргізілді.

2022 жылы ҚР БҒМ қазақстандық мектептер оқушыларының функционалдық сауаттылығын дамыту, атап айтқанда, білім беріп қана қоймай, оларды өмірде қолдану дағдыларын қалыптастыратын осындай білім беру мақсатында "жаһандық құзыреттілік" курстарын енгізу бойынша іс-шаралар кешенін жоспарлады.

Функционалды сауатты тұлғаның негізгі белгілері: бұл белгілі бір қасиеттерге, шешуші құзыреттерге ие, адамдар арасында өмір сүре білетін және тәуелсіз тұлға.

Функционалдық сауаттылық метапәндік ұғым болып табылады. Метапән – стандарттық білім мазмұнымен ғана шектелмей, әр пән сабақтарының ғылыми мазмұнын жүйелеп, талдап, анализдеп, зерттеу жүргізіп, өзіндік ой тұжырым жасауына және өзіндік іс-әрекетінің қалыптасуына, шығармашыл дамуына негіз болатын инновациялық әдіс.

PISA зерттеуінде оқу сауаттылығы деңгейлерге бөлінеді:

- мәтіннен қажетті ақпаратты қарапайым критерий бойынша іздеу;
- қажетті ақпаратты жан-жақты іздеу;
- мәтіннен қажетті ақпаратты іздеу, ақпарат бөліктері арасындағы байланысты тану, белгілі немесе қарама-қайшы ақпаратпен жұмыс істеу;
- терең мазмұнды ақпаратты қамтитын үзінділердің бірізділігін немесе комбинациясын табу және орнату, тапсырманы орындау үшін мәтіндерде қандай ақпарат қажет екендігі туралы қорытынды жасау;

- күрделі мәтіндерді түсіну және оларды түсіндіру, мәтін мазмұнына қатысты қорытындылар мен гипотезаларды тұжырымдау.

Функционалдық сауаттылықтың негізгі дағдылары – оқу сауаттылығы. Бұл адамның жазбаша мәтіндерді түсіну және пайдалану, олар туралы ойлау және мақсаттарына жету, білімі мен мүмкіндіктерін кеңейту, әлеуметтік өмірге қатысу үшін оқумен айналысу қабілеті.

Функционалдық сауаттылықты қалыптастыру сөйлеу әрекетінің барлық түрлерінде: оқуда, жазуда, тыңдауда және сөйлеуде еркін сөйлеуді білдіреді. Тілдік пәндерде мәтінмен, электронды мәтінмен жұмыс істеу дағдысы заманауи білім алушыларға өте қажет.

Мәтінмен жұмыс жасағанда мәтіннің белгілі бір бөліктерін таңдап алу, оларды қарапайым тұжырымдар жасағанда пайдалану, оқиғалар арасында байланыс орнату, мәтіннің жалпы идеясын анықтау, құрылымдағы элементтерді анықтау, кейіпкерлердің іс-әрекетін қарапайым тілде түсіндіру, кейіпкерлердің іс-әрекетін сипаттау және олардың сезімдерін салыстыру, олардың қарым-қатынасын түсіндіру, мәтіннен үзінді келтіру арқылы басты кейіпкерлердің ерекшеліктерін, олардың ниеттері мен сезімдерін түсіндіру, мәтіннің мағынасын түсіндіру немесе мәтіннің негізгі идеясын түсіндіру сияқты аспектілер мәтіннен ақпарат алу мақсатында ұсынылады.

Ақпаратты түсіну және пайдалану үшін мәтінде келтірілген деректерді анықтау және қажетті ақпаратты көрсететін сөйлемнің астын сызуға, одан қорытынды жасауға, мәтінде берілген ақпараттың дәйектілігі туралы тұжырымдауға, әр бөлімді ажыратуға және көрсетуге мүмкіндік береді.

Мәтін құрылымындағы карталар, сызбалар, диаграммалар және фото иллюстрацияларға сүйене отырып, білім алушылар әртүрлі мәтіндерден ақпаратты қорытындылау дағдыларын игереді.

Мәтіндердің форматы: оған ақпарат дәйекті абзацтар түрінде ұсынылатын толық мәтіндер және ақпарат белгілі бір бөліктерде ұсынылатын толық емес мәтіндер, сонымен қатар карталарды, кестелерді, диаграммаларды қамтуы мүмкін.

Толық мәтіндерді білім алушылар күнделікті өмірде, оның ішінде оқу орнында оқиды. Сипаттамасы: баяндау (әңгіме, өлең, хат, газет немесе журнал мақаласы, оқулық мақаласы, оқу құралы, жарнама, фильмнің қысқаша мазмұны, ойын, блог жазбасы, әртүрлі сайттардағы материалдар); талқылау (шығармашылық ойлау, пікір, өз пікірін дәлелдеу).

Толық емес мәтіндер: графиктер, диаграммалар, кестелер, географиялық карталар және жергілікті жердің карталары, нысандар, жоспар, орындар, ғимараттар, кіру билеттері, қозғалыс кестесі, сайт карталары.

Оқу сауаттылығы бойынша тапсырмаларды орындау кезінде 3 оқу дағдысына назар аудару керек:

1. Қажетті ақпаратты табыңыз және бұл ақпаратты жалпы мәтіннен алыңыз;
2. Жалпы түсінік қалыптастыру;
3. Мәтіннің мазмұны мен нысаны туралы өз көзқарасын ұсыну.


PISA тестінің түріне сәйкес жасалған оқырман құзыреттілігін диагностикалауға арналған бірқатар тапсырмаларды ұсынуға болады. Оларды

оқу үрдісінде қолдану оқу дағдыларын қалыптастырудың мықты жақтары мен кемшіліктерін анықтауға көмектеседі және оқытушыға да, білім алушыға да пайдалы болады.

1-тапсырма.

Театр ([зрек](#). *theatron* – ойын-сауық орны; ойын-сауық) – сахналық өнердің өмір көріністерін [драмалық](#) әрекет арқылы көрермендердің көз алдында актерлер күшімен бейнелейтін бір түрі; ойын-сауық немесе [спектакль](#); түрлі сахналық ойын-сауықтар, сонымен қатар жалпы [мәдени шаралар](#) өткізілетін орын-жай.

Алматы қаласындағы «Абай атындағы Қазақ ұлттық опера және балет театрының» ресми сайтымен танысыңыз <https://www.gatob.kz/kz/o-teatre/istoriya-teatra/>. Басты бетке барып, «Театр туралы» бастырмасын басып, «Театр тарихы» бөлімін табыңыз. Театр тарихы туралы ақпаратпен танысып, сұрақтарға жауап беріңіз.



Сурет-1. Алматы қаласындағы «Абай атындағы Қазақ ұлттық опера және балет театрының» скриншоты

1. Сұрақ-жауап. Мәтін бойынша сұрақтарға жауап беріңіз

1. Театр ғимаратының құрылысы қай жылы басталып, қай жылы аяқталды?
2. Театр ғимаратының сәулетшілері кімдер?
3. Ғимаратты қайта қалпына келтіру жұмыстары қашан жүргізілді?
4. Театрда алғаш орындалған қойылым қалай аталады?
5. Театр қашан академиялық мәртебесін алды?
6. Абай атындағы Қазақ ұлттық опера және балет театрының ғимаратында 793 көрермен орны бар.

А. Иә

Ә. Жоқ

2. *Пікір алмасу*. Басты бетке барып, «Репертуар» қойындысынан «Афиша» бөлімін таңдаңыз. Осы бөлімнен алдағы уақытта болатын қойылымды таңдаңыз. Не себепті ол қойылымды таңдағаныңызды түсіндіріңіз.


3. *Мәтін құрау*. Сіз театрдың жарнама бөлімінде жұмыс істейсіз, бұқаралық пайдаланушыға алдағы болатын қойылым туралы жарнамалық мәтін жазыңыз.

2-тапсырма.

Кітапхана – мәдени-ағартушылық ғимарат. *Кітапхана* баспасөз шығармаларын жинау, сақтау, насихаттаумен, оқырмандарға баспасөз

шығармаларын берумен, мәдени-ағарту және ғылыми-көпшілік жұмыстарын ұйымдастырумен шұғылданады. Кітапхана атқаратын міндетіне, кітап қорының құрамына және жұмыс әдісіне қарай екіге бөлінеді: а) көпшілік; ә) ғылыми және арнаулы.

Семей қаласындағы «Абай атындағы облыстық әмбебап кітапханасы» ресми сайтымен танысыңыз https://semeylib.kz/?page_id=151. Негізгі беттен «Кітапхана туралы» бастырмасынан өтіп, «Кітапхана ережесі» бөлімімен танысып, сұрақтарға жауап беріңіз.



Сурет-2. Семей қаласындағы «Абай атындағы облыстық әмбебап кітапханасының» скриншоты

1. Сұрақ-жауап. Мәтін бойынша сұрақтарға жауап беріңіз.

1. Кітапхана пайдаланушысы алған басылымын (кітап т.б.) неше рет ұзарта алады және оны қалай жүзеге асырады ?
2. Кітапхана пайдаланушыларының міндетіне нелер жатады?
3. Басылымдарды және басқа материалдарды неше күндік мерзімге үйге алуға болады?
4. Пайдаланушы қандай жағдайда жазбаша түрде өтініш жаза алады?
5. Кітапхана пайдаланушысы кітапханада өтетін іс-шараларға қатыса ала ма?

А. Иә

Ә. Жоқ

2. Пікір алмасу. Басты бетке барып, «Электронды каталог» қойындысын басып іздеген кітаптарыңызға тапсырыс беріңіз. Қандай кітаптарға тапсырыс бердіңіз? Іздеген кітаптарыңызды таптыңыз ба? Қиындықтар болды ма?


3. Мәтін құрау. Сіз театрдың жарнама бөлімінде жұмыс істейсіз, бұқаралық пайдаланушыға Семей қаласындағы «Абай атындағы облыстық әмбебап кітапханасы» туралы жарнамалық мәтін жазыңыз.

3-тапсырма.

Термин (*лат.*) *terminus* - ғылым, техника, өнер туралы және т.б. кейбір тұжырымдаманың атауы болатын сөз немесе сөз тіркесі. Терминология – терминдер саналы икемдеуге және реттеуге оңай көнімді лексиканың ерекше секторын құрайтын, өндірістің, қызметтің, білімнің сапасындағы терминдердің жиынтығы. Терминот — қазақ терминологиясы жайлы толық мәлімет беретін сайт. Сайт Қазақстан Республикасы Үкіметінің жанындағы

терминологиялық комиссия бекіткен терминдерді пайдалану үшін, салааралық терминологиялық қорды біріздендіру және жетілдіру үшін пайдаланылады. Сайт 2016 жылы 20 қазаннан бастап іске қосылған.

Арнайы сілтеме арқылы Termincom.kz.-тің ресми сайтымен танысыңыз <https://termincom.kz/articles/?id=27>. Негізгі беттен «Термин» бастырмасын басып, «Салалалық терминдер» бөлімімен танысып, сұрақтарға жауап беріңіз.



Сурет-3. Termincom.kz. сайтының скриншоты

1. Сұрақ-жауап. Мәтін бойынша сұрақтарға жауап беріңіз.

1. Салалық терминдер бөлімінде қандай сөздіктер бар?
 2. Статистика бойынша ең көп ізделген салаларға қайсылары жатады?
 3. Мемлекеттік терминология комиссиясы қай жылдар аралығындағы терминдер мен атауларды бекіткен?
 4. Терминдер хронологиясы бөлімінде қандай жинақтар бар?
 5. Базада барлығы 386 350 термин бар.
- А. Иә
Ә. Жоқ

2. Пікір алмасу. Басты бетке барып, «Алаң» бастырмасын басып қызу талқыдағы сауалдарға сарапшы мамандардың қайтарған жауаптарымен танысып шығыңыз. Сіздің қандай сауалыңыз бар? Өз пікіріңізді білдіріңіз.

3. Мәтін құрау. Сіз сайттың жарнама бөлімінде жұмыс істейсіз, бұқаралық пайдаланушыға Termincom.kz сайты туралы жарнамалық мәтін жазыңыз.

Функционалдық сауаттылықты - адамның сыртқы ортамаен қарым-қатынас жасау, оған тез бейімделу және жұмыс жасау қабілеті. қалыптастыру - бұл күрделі, көп қырлы, ұзақ процесс. Қажетті нәтижелерге әр түрлі заманауи білім беру педагогикалық технологияларын шебер, сауатты ұштастыра отырып, сыныптағы күнделікті жүйелі жұмыс арқылы ғана қол жеткізуге болады.

Көптілді және көпмәдениетті ортада функционалдық сауаттылықты дамыту бойынша жұмыс білім беру үдерісіне қатысушыларды байытады және әлеуметтік-мәдени орта саласындағы күнделікті мәселелерді оңай шеше алатын толыққанды тұлғаны қалыптастыруға көмектеседі.

Әдебиеттер:

1. Оқушылардың функционалдық сауаттылығын қалыптастыру (бастауыш сыныптар). (2013). Әдістемелік құрал. – Астана: Ы.Алтынсарин атындағы Ұлттық білім академиясы, 2013. – 66 б.

2. Pisa халықаралық зерттеуі туралы қысқаша мәлімет.
(<https://goo.edu.kz/content/view/44/4416?lang=en>)
3. Қазақстанның 15 жасар оқушыларының оқудағы жетістіктеріне халықаралық баға берілді (2011).
(https://www.soros.kz/kk/kazakhstan_poluchil_mezhdunarodnu/)
4. "2021-2022 оқу жылындағы Қазақстан Республикасының орта білім беру ұйымдарындағы оқу-тәрбие процесінің ерекшеліктері туралы" әдістемелік-нұсқаулық хат. (2021). Ы. Алтынсарин атындағы КеАҚ. 2021.– 338 Б. // <https://uba.edu.kz/ru/metodology/>
5. Ирсадиев С., Култуманова А., Сабырұлы Е., Аманғазы М. (2017). PISA-2015 халықаралық зерттеуінің негізгі нәтижелері, Ұлттық есеп / – "Ақпараттық-талдау орталығы" АҚ, 2017. – 241 бет
6. https://www.soros.kz/kk/kazakhstan_poluchil_mezhdunarodnu/
7. <https://www.gatob.kz/kz/o-teatre/istoriya-teatra/>
8. https://semeylib.kz/?page_id=151.
9. <https://termincom.kz/articles/?id=27>

PSIXOKORREKSIYANING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA METODLARI.

PSIXODINAMIK YO‘NALISH

Xaitova Dilafruz Yusupovna

Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistri

Dilafruzkhaitova.yu@gmail.com

Kirish. ushbu maqolada psixokoreksiya va uning yo‘nalishlariga nazariy va qiyosiy tarzda yondashuvlar yoritilgan. Psixologik korreksiyaning insonlarda emotsional holatlar, vaziyatlarning diagnostikasi, shuningdek, salbiy asoratlar oldini olishning o‘ziga xosligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar psixologiya va psixokorreksiya sohalari uchun muhimligiga to‘xtalgan.

Psixodinamik yo‘nalishga psixoanalitik nazariyaga yo‘naltirilgan psixoterapiya turlari kiradi: klassik psixotahlil (Freyd), Adlarning 141 individual psixologiyasi, Yungning analitik psixologiyasi, Rankning irodaviy terapiyasi, Shtekelning faol analitik terapiyasi, Fromm-Rayxmannning interpersonal psixoterapiyasi, Xorning xarakterologik tahlili (tahlili), gumanistik psixotahlil (Fromm), Klyaynning ego-tahlili, Sallivanning interpersonal psixoterapiyasi va boshqalar. Mazkur yo‘nalish asosi Z.Freydning ishlaridir. Freyd birinchi bo‘lib psixikani instinkt, aql va ongning urish maydoni sifatida tasvirlagan.

“Psixodinamik” atamasi shaxsni tashkil qiluvchi tuzilmalar orasidagi tugallanmas tortishuvlarni aks ettiradi⁸⁸. Psixodinamik yo‘nalish ta‘limoticha, determenizm ongsiz psixik jarayonlar bilan ta‘riflanadi. Shunga binoan shaxsda anglanmagan qarama-qarshi motivlarni, intrapsixik mojarolarni asl sabablarini hamda mijoz muammolarini hal qiluvchi muhim yechimlarni mijoz tomonidan anglanilishi muhimligiga etibor beriladi. Z.Freyd o‘z asarlarida instinktiv hayot talabi va unga qarshilik ko‘rsatish

⁸⁸ Nishanova Z.T., Xalilova N.I.Psixokorreksiya.- T.: Fan va texnologiya nashriyoti.2007. 483 b.

natijasida yuzaga keladigan intrapsixik mojarolar oqibatida insonda turli kasalliklar namoyon bo‘la boshlashini ma’lum qiladi.

A.Adlerning analitik individual psixokorreksiyasi. Uning bosh g‘oyasi quyidagicha: inson mukammallikka intiladi, chunki unda o‘zidan qoniqmaslik hissi va uni tugatish istagi bo‘ladi. Bola atrofidagi olam undan katta, kuchli ekanligini ko‘rgani bois unda o‘zidan qoniqmaslik hissi paydo bo‘ladi. Ota-onaning nodemokratik munosabati bu hisni yanada chuqurlashtirib yuborishi mumkin.

O‘zidan qoniqmaslik hissi – to‘liqsizlik kompleksini tugatish uchun inson o‘zo‘ziga o‘zining kuchini ko‘rsatishga harakat qiladi. Bu jarayon konstruktiv (bunda boshqalarga yaxshilik qilish hisobiga insonning o‘ziga bo‘lgan hurmati oshadi) yoki destruktiv (bunda boshqalarni kamsitish evaziga insonning o‘ziga bo‘lgan hurmati oshadi) yo‘l bilan amalga oshishi mumkin. To‘liqsizlik kompleksining paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun bola o‘zini xavfsiz his etishi kerak. A.Adlerning mashhur asari “A’zolarining to‘liqsizligi haqida” deb nomlanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan terapiya. 1951 yilda K.Rodgers o‘zining shaxs va xulqatvor nazariyasini “Mijozga yo‘naltirilgan terapiya” kitobida keltirib o‘tadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra xavotirlanish bu organizmning idrok oldi vaziyatga noqulaylik va qo‘zg‘alish ko‘rinishidagi reaksiyasidir.

Ekzistensial terapiya. Ushbu terapevtik yo‘nalish asoschilari R.Mey va I.Yalom hisoblanadi. Bu nazariya dinamik xarakterda bo‘lib, unda terapiya mijozning universal ekzistensial notinchligiga qarama-qarshi ravishda olib boriladi. Bu terapevtik yo‘nalishning asosiy mohiyati “inson sub’ektivligi uning hayotiy tajribasi natijasidir” degan fikrga tayanadi. Bu yo‘nalishning asosiy vazifasi – insonga hayotning fundamental savollariga javob topishga ko‘maklashishdan iborat.

Artterapiya. Dastlab Z.Freyd va K.Yungning egodagi himoya mexanizmlarining namoyon bo‘lishi sifatidagi nazariy g‘oyalari asosida vujudga keldi (sublimatsiya, proeksiya). Dastlab psixotahlilda paydo bo‘lgan artterapiya hozirda barcha yo‘nalish vakillari tomonidan keng qo‘llanilmoqda.

Artterapiyaning yutug‘i shundaki, u terapevtik aloqani o‘rnatishni chuqurlashtirishga yordam beradi. Bir vaqtning o‘zida ham terapevtik va diagnostik metod hisoblanadi, psixoterapiyaning har qanday shakli va vaziyatlarida qo‘llash mumkin.

Artterapevtik mashg‘ulotlarni asosiy to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin. Dastlabki bosqichda ishtirokchilar tasodifiy ijodiy faoliyatga tayyorlanadi. Buning uchun turli o‘yinlar va maxsus mashqlardan foydalaniladi: “Erkin bo‘ling va nimani kerak deb hisoblasangiz, shuni amalga oshiring”,– degan qo‘llanma aytiladi. Ikkinchi bosqich asarni yaratish jarayonidir⁸⁹.

Uchinchi bosqich – o‘z ishini muhokama qilish jarayoni. To‘rtinchi bosqichda har bir guruh a’zosining muvaffaqiyatini ta’kidlash va mashg‘ulot haqida iliq taassurotlar almashinadi.

Kollaj. Artterapevtik metodlarning bir varianti kollaj texnikasi hisoblanib, birbiridan ko‘rinishi va rangi jihatidan farq qiluvchi materiallarni asosga tanlab

⁸⁹ Nishanova Z.T., Asomudinova Sh. Psixologik maslahat. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010 -248 b.

yopishtirish bilan belgilanadi. Bolalarga jurnallardan qirqib olingan rasmlar, tasviriy fragmentlar, turli tasviriy ifodalardan muayyan obraz yaratish taklif etiladi.

Kollaj texnikasi shaxsiy yozuvlar, kichik jumlalar bilan to'ldirilishi mumkin. Odatda jurnallardan qirqib olingan rasmlar turli hajmdagi qog'ozlarga yopishtirilishi mumkin. Kollaj texnikasi psixologiyada xuddi rasm chizdirish singari proyektiv metod sifatida qo'llanilishi ham mumkin. Proeksiya keng ma'noda shaxsiy ichki dunyosini yuzaga chiqarish bilan belgilanadi. Kollajda insonning kechinmalari, tassavvurlari, intilishlari, his-tuyg'ulari, qadriyatlarini ifodalanadi. Inson uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi narsalar uning ishida o'z ifodasini topadi, ikkinchi darajali narsalarga esa kamroq e'tibor qaratiladi⁹⁰.

Boshqa artterapevtik texnikalar singari kollaj bir vaqtning o'zida ham terapevtik, ham psixodiagnostik vazifalarni bajaradi. Kollaj axborotga boy bo'lib, uning yaratilishi va tahlilida insonning ongli ustanovkalari bilan birga uning anglanilmagan kechinmalari, ehtiyojlari, munosabatlari ham o'z aksini topadi. Kollajni yaratishda turli mavzularni taklif etish mumkin. Masalan “Men kimman?”, “Men qandayman?”, “Biz va boshqalar”, “Mening o'tmishim”, “Bugunim va kelajagim”. Kollaj obrazi terapiya maqsadiga ko'ra belgilanadi. Masalan, kollaj texnikasini o'smirlar guruhida ularni birlashtirish maqsadida o'tkazish mumkin. U holda “Biz kimmiz”, “Biz qandaymiz” mavzulari tanlanadi, yoki oilaviy konsultatsiyalarda ota-onalardan bolalari bilan “Bizning oila” mavzusida kollaj yaratishini so'rash mumkin. Kollaj yakka tartibda yoki kichik guruhlarda (2-4 kishi) amalga oshiriladi. Uning bajarilish muddati qat'iy vaqt chegaralaridan to'liq vaqtning umuman chegaralanmaganligigacha belgilanishi mumkin.

Psixolog kollajni yaratishda kuzatuvchi yoki guruh a'zosi sifatida ishtirok etishi mumkin, yoki vazifa kattalar ishtirokisiz mustaqil xuddi uy vazifasi sifatida bajarilishi mumkin. Kollajni ayniqsa, 9-11 sinflarning psixologik mashg'ulotlarda qo'llanilishi juda qiziqarli. Yuqori sinf o'quvchilarining ijodiy yondoshuvi psixoterapevtik vazifalar bilan birga ijtimoiy-psixologik vazifalarni ham yechish imkonini beradi. Bundan tashqari ularga ijobiy hamkorlik tajribasini, bir-birini eshitish va tushunishga o'rgatishga kelishmovchiliklarni hal etishga yordam beradi.

O'yin terapiyasi. Ta'limiy o'yinlar kichik guruhlarda quyidagi xilda o'tkaziladi: o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar – “Ayiqlarga nima kerak?”, “Jajji oyoqchalarimiz”, “Zumrad uchun ko'ylaklar”. Stol ustiga qo'yib o'ynaladigan o'yinlar – “Nima qayerda yuradi?”, “Men aytgan narsani ko'rsat”, “Kimning qo'lida nima bor?”. Og'zaki usuldagi ta'limiy o'yinlar- “Qo'g'irchoq Lolaxonni cho'miltiramiz”, “Qo'g'irchoq Lolaxon mehmonga keldi”, “Ajoyib xaltacha”, “Shaklini top”, “Rangini top” kabi o'yinlar kiradi. Eshitish va ko'rish a'zolarini faollashtirish uchun “Xilini top”, “Qaysi daraxtning mevasi?”, “Nimaning pati”, “Mevasini top”, “Onasini top”, “Mevalar va barglar”, “Domino”, “Yovvoyi va uy hayvonlari”, “Ishlash uchun nima zarur”, “Bu uychada qanday hayvon yashaydi”, “Bu kim yoki nima?” singari o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'yinlar orqali bolalarda meva va sabzavotlar, hayvonlar va parrandalar, yil fasllari, kiyim-kechak va boshqalar kabi tasavvurlar boyitilib, kengaytirilib, qurish va eshitish, esda saqlab qolish xususiyatlari rivojlantirilib boriladi. Katta guruhlarda o'ynaladigan “Ayting biz topamiz”, “Topgan

⁹⁰ Дубровина И. В. Рабочая книга школьного психолога. – М.: Просвещение, 1991. – 303 с. 482.

topag'on", "Oshqovoq pishdi", "Loy o'yini", "Bog'bonlar" o'yinlari orqali mehnatga muhabbat ruhi tarbiyalanib boradi⁹¹.

Bolalar qalbida musiqaga bo'lgan muhabbat hissini oshirishda musiqiy- ta'limiy o'yinlarning roli beqiyosdir. Tarbiyachi bolalarga turli xil musiqa asboblari ko'rsatib, chalib berish orqali, cholg'u asboblari ovozi va tuzilishi va turlari bilan tanishtirib boradi. "Ovozidan top", "Nimada chalyapman", "Qo'ng'iroq qanday jaranglayapti" kabi o'yinlar orqali tarbiyachi bolalarga ovoz va cholg'u asboblari tovush xususiyatlarini farqlashga o'rgatadi. "Tapur-tapur qayrag'och", "Tomga tosh otdim", "O'ynab ber", "Sanamalar", "Mushtum va kaftchalar", "Yomg'ir" kabi milliy o'yinlar orqali bolalarni musiqa ritmiga mos harakat, o'yinli ashulani ijro etish, qarsaklar va mimik harakatlarni to'g'ri bajarishga o'rgatib boriladi.

XULOSA. Guruhiy va individual psixokorreksiya psixologik muammolarni hal qilishdagi ikki xil yondashuvdir. Individual psixokorreksiya muayyan shaxs bilan ishlashga, uning o'ziga xos xususiyatlarini, tajribasi va muammolarini hisobga olgan holda yechim topishga qaratilgan. Psixologik suhbatlar davomida psixolog bemorning shaxsiy qiyinchiliklarini aniqlash va hal qilishga intiladi va unga stress, tashvish yoki depressiya bilan kurashishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi. Guruhiy psixokorreksiya, aksincha, bir vaqtning o'zida bir nechta ishtirokchilar bilan ishlashga qaratilgan. Guruhiy mashg'ulotlar odamlarga o'z tajribalarini almashish, yordam berish va muammolarni hal qilishning yangi usullarini o'rganish imkonini beradi. Ushbu usullarning ikkalasi ham o'zlarining afzalliklariga ega. Inson mukammallikka intiladi, chunki unda o'zidan qoniqmaslik hissi va uni tugatish istagi bo'ladi. Bola atrofidagi olam undan katta, kuchli ekanligini ko'rganida unda o'zidan qoniqmaslik hissi paydo bo'ladi. Ota-onaning nodemokratik munosabati bu hisni yanada chuqurlashtirib yuborishi mumkin. Individual psixokorreksiya muammoning shaxsiy tomonlarini chuqurroq va batafsil o'rganish imkonini beradi, guruhiy psixokorreksiya esa guruhdagi o'zaro aloqa va o'zaro yordam orqali ishtirokchilar tajribasini boyitish imkonini beradi. Turli xil psixologik qiyinchiliklarni hal qilishda individual va guruhiy usullarni o'z ichiga olgan, kombinatsiyalangan yondashuv, ko'pincha, eng samarali hisoblanadi. Psixokorreksion yordam ko'rsatishda mijozni o'z-o'zini anglashi, shaxsiy uyg'unlik, "men"ni adekvat integratsiyasi, borliq chegaralarini kengaytirib berish psixologning asosiy vazifasi hisoblanadi. Psixologik yordamning samaradorligi mijoz nuqtai nazarini faollashtirishga asoslanadi. Kognitiv xulq-atvor yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan psixologning asosiy vazifasi esa diagnostik o'qitish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nishanova Z.T., Asomudinova Sh. Psixologik maslahat. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2010 -248 b.
2. Nishanova Z.T., Kamilova N.G., Alimova G.K. Psixogigiyena.-T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2009.-244b.
3. Nishanova Z.T., Qurbanova Z., Abdiyev S., Tulyaganova Sh.T. 66 b.

⁹¹ Nishanova Z.T., Qurbanova Z., Abdiyev S., Tulyaganova Sh.T. 66 b.

4. Nishanova Z.T., Xalilova N.I. Psixokorreksiya.- T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2007. 483 b.
5. Дубровина И.В. Практическая психология в образовании. – М.: Педагогика, 1998.
6. Дубровина И.В. Школьная психологическая служба. –М.: Педагогика, 1991. – 232 с.
7. Дубровина И.В. Я работаю психологом. –М. 2001.
8. Дубровина И.В. Рабочая книга школьного психолога. – М.: Просвещение, 1991. – 303 с.
9. Колесникова Г.И. Основы психопрофилактики и психокоррекции. Ростов-н/Д.: Феникс. 2002. 482 с.
10. Лебедева Л.Д. Практика Арт-терапии: подходы, диагностика, система занятий. – СПб.: Речь, 2003.
11. Осипова А.А. Введение в практическую психокоррекцию: групповые методы работы. Москва-Воронеж. 2000.
12. Осипова А.А. Общая психокоррекция. –М.: 2005. Шевандрин Н.И. Психодиагностика, коррекция и развитие личности. –м. 1998.
13. Adizova T.M. Psixokorreksiya. – T. 2005.
14. Barotov Sh.R. Ta’limda psixologik xizmat. – Buxoro, 2007. Psixodiagnostika.– T. Fan va texnologiya nashriyoti. 2008.

OLIV TA’LIM MUASSASASI TALABALARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIV AHAMIYATI

Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Termiz davlat pedagogika institute

Maktabgacha ta’lim nazariyasi o’qituvchisi PhD

mohira.quvvatova@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada oliy ta’lim talabalarining kreativligini rivojlantirishdagi muammolar, kreativlik tushunchasining mohiyati, kreativ shaxsni tayyorlashda duch keladigan kamchiliklar haqida ma’lumotlar qisqacha keltirilgan.

Kalit so’zlar: kreativlik, interfaol metodlar, integrasion yondashuv, integrallashgan metodik tizimi, reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik.

Abstract: in this article, the problems in the development of creativity of higher education students, the essence of the concept of creativity, and the shortcomings encountered in the preparation of a creative person are briefly presented.

Key words: creativity, interactive methods, integration approach, integrated methodological system, reproductive, creative research and innovation.

Jahonda kasbiy tayyorlash jarayonida talabalarining kreativligini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari ta’lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Janubiy Koreyada o’tkazilgan Xalqaro ta’lim forumida 2030-yilgacha qabul qilingan «Incheon declaration» da “Ta’lim– taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat”[1] sifatida e’tirof

qilingan. Kreativ yondashuv asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, o‘qitishning variativ shakllarini ishlab chiqish, kasbiy tayyorlash jarayonida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish masalalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Talabalarni kasbiy-pedagogik tayyorlashning asosiy maqsadi shaxsni kreativ inson hamda maxsus ijodiy fikrlash bilan rivojlantirishdir. Bo‘lajak pedagog-tarbiyachi uchun faqat maxsus bilimlarni egallashning o‘zi yetarli emas, shaxsning individual mayllariga, ijodiy salohiyatiga eng mos keladigan bunday jihatlarini rivojlantirishni hisobga olish kerak. Bu faoliyatini ijodkorlik, o‘ziga xoslik hamda kreativ salohiyatni ro‘yobga chiqarishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydigan pedagog-tarbiyachilarni tayyorlashda o‘z aksini topishi lozim.

Oliy ta‘lim muassasasi talabalarining kreativligini rivojlantirish negizida kasbiy xususiyatlar muhim rol o‘ynaydi.

G.N.Ibragimova ta‘kidlanishicha kreativlikni rivojlantirish:

talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning umumkasbiy va sohaga yo‘naltirilgan kognitiv, ijtimoiy kompetensiyalarga yo‘naltirilgan faoliyati tuzilmasi komponentlarini aniqlashtirish yordamida;

interfaol ta‘lim muhitida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning integrallashgan metodik tizimi, reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari mazmuni, shuningdek jarayon samaradorligini baholashning prognostik va kvalimetrik metodikasi ishlab chiqish yordamida;

tashkiliy-ijodiy hamda integrasion yondashuv asosida o‘quv va tarbiyaviy faoliyatni loyihalashtirish, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari vositasida talabalarda kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar shakllantirish yordamida, - deb ta‘kidlaydi [2; 57-b].

Davlat standartlarini tahlil qilib, biz shunday xulosaga keldikki, ijodkorlik qobiliyati pedagogik ta‘lim talabalarining majburiy muhim belgisi sifatida standartlarda mustahkamlangan. Ushbu mutaxassislik talabalari, shubhasiz, pedagogika fanlar bo‘yicha bilimga ega bo‘lishlari kerak, ammo bu etarli emas. Ushbu bilimlardan motivatsiya, o‘ziga xoslik hamda fikrlashning ravonligi bilan bir qatorda kreativlik va iqtidorni erkin namoyon qilish uchun asos sifatida foydalanish kerak.

Demak, oliy ta‘lim muassasasi talabalarining kreativligini rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirishda individual xususiyatlarni effektiv aniqlash va pedagogik jarayon dinamikligini ta‘minlashga qaratilgan o‘z-o‘ziga motivatsiya berish bilan birga GESTalt psixologiyasi va inson, jamiyat atrof muhitga bog‘liq o‘zgaruvchi jarayonga bo‘lgan aqliy qobiliyatini nisbiy faoliyatga frontal moslashtirish yetakchi omillardab biridir.

Inson, jamiyat atrof muhitga bog‘liq o‘zgaruvchi jarayonga bo‘lgan aqliy qobiliyatini nisbiy faoliyatga frontal moslashtirishda muhitning o‘rni va uni tashkil etish qator izlanishlarni talab qiladi.

A.Maslou[3] fikricha kreativlikni hayotdagi har qanday vazifaga qo‘llash mumkin bo‘lgan sifat sifatida tushunadi. Uning fikricha, kreativlik tug‘ilishdanoq har bir insonga xos bo‘lgan, lekin atrof-muhit ta‘sirida ko‘pchilik tomonidan yo‘qolgan sifattir.

Kreativlikni to‘rt jixatga ko‘ra tasniflash mumkin: ijodiy jarayon, kreativ mahsulot, ijodkor shaxs hamda ijodiy muhit muhim hisoblanadi. Ijodiy jarayonga qo‘shilish orqali inson ijodiy muhitda aktivlashadi, ijodiy inson xususiyatlariga ega bo‘ladi, keyinchalik ijodiy mahsulotda faollashadi. Ba‘zi olimlar kreativlik uch xarakterga bo‘lingan degan fikrga qo‘shiladilar[4].

-gipotezani oldinga surish harakati;

-kreativlik harakati;

- mantiqiy ishlab chiqilgan g‘oyaning harakati.

Oliy ta‘lim muassasasi talabalarining kreativligini rivojlantirish imkoniyatlarini individual xususiyatlarni effektiv aniqlash va pedagogik jarayon dinamikligini ta‘minlashga qaratilgan o‘z-o‘ziga motivatsiya berish, GESTalt psixologiyasi va inson, jamiyat atrof muhitga bog‘liq o‘zgaruvchi jarayonga bo‘lgan aqliy qobiliyatini nisbiy faoliyatga frontal moslashtirish asosida takomillashtirishda talabani inson, jamiyat atrof muhitga bog‘liq o‘zgaruvchi jarayonga bo‘lgan aqliy qobiliyatini nisbiy faoliyatga frontal moslashtirish dastlab uning qobiliyatlarini tavsiflash orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqotlarni tahlil qilib, ilmiy ish uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy g‘oya - pedagogik ta‘limning tarkibiy qismlarini kreativlik birlashtiradi degan xulosaga kelish mumkin. Shunday qilib, talabalarning kreativligini rivojlantirish o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ta‘lim butun jarayonning asosiy va tizimni tashkil etuvchi bo‘g‘iniga aylangan uslubiy tayyorgarlik orqali amalga oshirilishi kerak. Shundan kelib chiqib, maktabgacha ta‘lim talabalarini ta‘lim olishning xususiyatlarini ta‘kidlab o‘tish joizdir. Pedagogik faoliyat talabalariga ko‘ra ta‘lim shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bu esa jamiyat tomonidan yosh avlodni hayotga tayyorlash uchun ishonib topshirilgan kasb egalarining xususiyatlarida jiddiy o‘zgarishlarga olib keladi. Bu xususiyatlar maktabgacha ta‘lim talabalarining kreativligini rivojlantirishda namoyon bo‘ladi hamda talabalarning og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan kreativligini rivojlantirish zarurligidan iborat hisoblanadi.

Ijodkorlikning yuqori darajasiga ega bo‘lgan pedagog yuksak darajada rivojlangan badiiy didga, uslub tuyg‘usiga, insonning obyekt muhitiga estetikani kiritish qobiliyatiga ega bo‘lishi hamda qo‘shimcha ravishda yuqori darajadagi bilimga ega bo‘lishi lozim. Bu aqliy qobiliyatini nisbiy faoliyatga frontal moslashtirish asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, talabalarining og‘zaki bo‘lmagan ijodkorligi rivojlangan o‘ziga xos, shuningdek majoziy hamda hajmli-fazoviy fikrlashni nazarda tutadi, ular nostandart pedagogik yechimlarni topish qobiliyatida namoyon bo‘ladi, nafaqat yangi narsalarni ixtiro qiladi, balki kamchiliklarni tuzatish yoki yangi xususiyatlarni qo‘shish hamda mavjud jarayonlarni modernizatsiya qilishi lozim.

Fikrlashning o‘ziga xosligi hamda ravonligini ko‘rsatish uchun faqat maxsus bilimning o‘zi yetarli emas. Binobarin, biz bitiruvchilarning aniq amaliy faoliyati uchun ayrim fanlarning ahamiyatini asosli tushuntirishni zarur deb bilamiz. Ushbu individual xususiyatlar, shuningdek, umuman kasbga bo‘lgan munosabat, o‘qituvchilar ta‘limi talabalarining kreativ rivojlanishiga ta‘sir qiladi.

Kreativlik tanish vaziyatda yangi muammoni ko‘rish va uni hal qilish yo‘llarini topish, mustaqil ravishda ishlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Kasbiy va pedagogik faoliyatning allaqachon ma’lum bo‘lgan usullarini birlashtirish va o‘zgartirish. Kreativ shaxsni rivojlantirish bugungi kunda butun ta’lim tizimining asosiy vazifasidir. Zero, yetarlicha rivojlanmagan ijodiy tafakkurga ega bo‘lgan talaba kelajakda doimiy o‘zgaruvchan dunyoni idrok etishda, nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishda qiyinchiliklar va muammolarni boshdan kechiradi, sodir bo‘layotgan hodisalar o‘rtasidagi aloqalarni qandaydir tarzda odatdagidan farq qila olmaydi.

Ijodkorlik har bir insonga ma’lum darajada xosdir va uning namoyon bo‘lishiga atrof-muhit ta’siri, taqiqlar, ijtimoiy munosabatlar va boshqalar to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun talabalarning mustaqil ishiga e’tiborni kuchaytirish juda ijobiy nuqta sifatida talqin qilinishi mumkin.

Ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishning asosiy ijtimoiy funktsiyasi mavjud bilimlarni o‘zgartirishda, ularning faol ijodiy va ijodiy qayta ishlashida va shu asosda yangi bilimlarni olishda ekanligi ayon bo‘ladi. Bilim fikrlash orqali o‘zgartiriladi va shu ma’noda ular fikrlashni rivojlantirish vositasidir. Shuning uchun talabalarga samarali fikrlash usullarini, bilimlarni mustaqil ravishda to‘ldirish va yangilash usullarini o‘rgatish, ulardan nazariy va amaliy muammolarni hal qilishda ongli ravishda foydalanish bo‘yicha maqsadli va tizimli ishlarni olib borish kerak.

Talabalarning ijodkorligini oshirish bo‘yicha muhim jihatlar: shaxsning ijodiy o‘zini o‘zi tarbiyalashini ta’minlash va talabalarning ijodkorligini oshirish uchun sharoit yaratish; o‘qitishning kasbiy va uslubiy darajasini doimiy ravishda takomillashtirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. –p.4-5.
<http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>.
2. Шиянов Е.Н. Развитие личности в обучении. – М.: Академия. 1999.
3. Маслоу, А. Г. Новые рубежи человеческой природы / А.Г. Маслоу. – М.: Смысл., 2011. - 495с.
4. Варлакова Ю.Р. Развитие креативности будущих бакалавров педагогического образования в вузе. Специальность 13.00.08 – теория и методика профессионального образования Диссертация на соискание ученой степени кандидата

O‘ZBEK TILIDA TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINING PEDAGOGIK ASOSI

Noryigitova Odina Abdualim qizi

Odinaabdualimqizil@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,

O‘zbek tili ta’limi fakulteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: O‘qituvchi o‘quvchilarda kognitiv ravishda yangi bilimlarni berish, vazifalar belgilash, nutqni o‘stirish, tinglab tushunish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish, tinglab tushunishning targ‘ib qilinishi, nutqning idrok qilinishida tinglashning asosiy o‘rinni egallashi haqida ushbu maqolada batafsil ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: tinglab tushunish, nutqiy ko‘nikma, idrok, kognitiv strategiya.

Annotation: In this article, the teacher will give students cognitive new knowledge, set tasks, develop skills such as speech development, listening comprehension, the promotion of listening comprehension, and its main role in the perception of speech. information is provided.

Key words: listening comprehension, speaking skills, perception, cognitive strategy.

Tinglab tushunishning targ‘ib qilinishi nutqning idrok qilinishida asosiy o‘rinni egallaydi, chunki boshqa til ko‘nikmalariga qaraganda tinglab tushunishni o‘rganishda ko‘proq vaqt sarflanadi. Avvallari nutqni idrok qilishda o‘qish, yozma nutq va og‘zaki nutq ko‘nikmalariga katta e’tibor berilgan. Tinglab tushunish ko‘nikmasi bundan mustasno bo‘lgan. Xorijlik tadqiqotchilar bu sohada ko‘pgina yutuqlar bo‘lishiga qaramasdan, tinglab tushunish hali ham murakkab jarayon ekanligini ta’kidlashadi. Ma’lumki, o‘quvchilarning tinglab tushunishida pedagogning roli ham muhimdir. Pedagog, avvalo, matn tanlashda bolaning yoshini, qiziqishlarini ham hisobga olgan holda, o‘quvchiga o‘rgatmoqchi bo‘lgan ko‘nikma haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmog‘i lozim. Ya’ni o‘qituvchi o‘zi xohlagan natijaga erishmoq uchun aniq strategiyalar tuzib chiqmog‘i va bu strategiyalar kerakli natijaga erishishda o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tashi kerak. Xorijlik tadqiqotchilar tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun kerakli strategiyalardan foydalanish lozimligini ta’kidlashdi va samarali strategiyalarni ishlab chiqishdi [1].

L.Vandergriftning ta’kidlashicha, tinglovchilar tushunishni osonlashtirish va ta’lim sifatini yanada samarali qilish uchun metakognitiv, kognitiv va ijtimoiy-ta’sirchan strategiyalardan foydalanadilar. Metakognitiv strategiyalar juda muhim, chunki ular tilni o‘rganish jarayonini nazorat qiladi, tartibga soladi va yo‘naltiradi. Kognitiv strategiyalar o‘rganiladigan materialni boshqaradi va tinglash vazifasiga ma’lum bir texnikani qo‘llaydi. Ijtimoiy-ta’sirchan strategiyalar tinglovchilarning boshqalar bilan hamkorlik qilish, tushunishni tekshirish yoki xavotirni pasaytirish uchun foydalanadigan usullarni tavsiflaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki,

metakognitiv strategiyalardan foydalangan tinglovchilar yaxshi natijaga erishganlar [3]. Gho va Taibning aytishicha metakognitiv strategiya uch turdagi bilimlarni o‘z ichiga oladi: Shaxs bilimi, vazifa bilimi va strategik bilimlar. Ularning ta’kidlashicha tinglab tushunishda strategik bilimlar muhim rol o‘ynaydi [5].

O‘qituvchilar tadqiqotga pragmatik munosabatda bo‘lsa, tinglovchilarga dars davomida qanday tinglash haqida qaror qabul qilishga o‘rgatadilar. Darslarda tinglab tushunishdan foydalanish tinglovchilarning tinglash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Biroq bunday natijaga erishish uchun o‘quvchilarda ko‘proq tinglab tushunish darslarini tashkillashtirish lozim. Til o‘qitish amaliyotida tinglab tushunishning ham bir qator qiyinchiliklari bor. Tinglash har xil vaziyatlarda amalga oshiriladi. Masalan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa jarayonida, radio, audio-video materiallar orqali bo‘lishi mumkin. Audio materiallarini tinglashda tembr, ovozning balandligi, so‘zlovchining jinsi (erkak, ayol yoki bolalarning ovozi) ham ta’sir qiladi. Audio materiallar bir martalik va qisqa muddatli taqdimot bo‘lgan i uchun ham tinglovchining xotirasida ma’lumotlar yaxshi saqlanib qolmasligi mumkin. Lekin audiomatn bir necha marotaba qayta eshittirilganda o‘quvchi uchun audiomatnni tushunish yana ham osonlashadi [2].

Tinglovchi audio materiallarni tinglaganda talaffuz va intonatsiya qoidalariga amal qiladi, bu esa tinglovchining orfoepik bilimlarini mustahkamlashga va tinglash orqali tushunishni taminlashga yordam beradi. Matnni tinglab tushunishda tinglovchilar noma’lum so‘zlarga duch kelganda ular bu so‘zlarning ma’nosini qidirib, eshittirilayotgan ma’lumotni tinglamasligi mumkin. Tinglash vaqtida hatto e’tiborni biroz buzish ham tushunishga xalaqit berishi mumkin. O‘qituvchi bu holatlarni ham oldindan nazoratga olgan holda tinglovchilarga tushunmagan so‘zlarini tushuntirib berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar matn tinglovchi uchun qiziqarli bo‘lsa, bunday holatda tinglovchi matnni katta qiziqish bilan tinglaydi. Bu ham tinglab tushunishning o‘quvchilarga tezroq va samarali tarzda yetkazib berish usullaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jabborov E., Tilovova G., Meyliyeva G. O‘zbek tili o‘qitishning amaliy metodikasi (o‘quv qo‘llanma) –Qarshi, 2010, 77 b.
2. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova I. Pedagogika nazariyasi va tarixi (darslik) –Toshkent:, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2010, 464 b.
3. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akadem nashr., 2010, 112 bet.
4. Маркова А.К. Формирование мотивация учения в школьном возрасте. Пособие для учителя. –М.: Просвещение, 1983 г. 96 с.
5. <https://www.llas.ac.uk/resources/gpg/67resources> > gpg;

**RESPUBLIKAMIZDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMINING BUGUNGI
KUNDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

Noryigitova Odina Abdualim qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

O'zbek tili ta'limi fakulteti 4-kurs talabasi

Odinaabdualimqizi1@gmail.com

Jobborova Gulnoza Kadamovna, katta o'qituvchi

Annotatsiya: Respublikamiz oliy ta'lim tizimida zehqli, iqtidorli, qobiliyatli va keng fikrlovchi, ijodkor jismonan nuqsonli bolalarni o'qitish hamda ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash har bir mamlakatning inklyuziv ta'lim tizimidagi ustuvor vazifadir. Uchinchi renessansga poydevor qo'yish loyihasida aynan nogironligi bo'lgan shaxslarga ta'lim berishning innovatsion bosqichlarining ayrim xususiyatlari ushbu maqolada batafsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, nogironligi bor o'quvchilar, xalqaro inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim.

Annotation: in the higher education system of our republic, educating intelligent, talented, capable and broad-minded, creative children with physical disabilities and preparing them for professional activities is a priority task in the inclusive education system of every country. This article describes in detail some features of the innovative stages of education for persons with disabilities in the project of laying the foundation for the third renaissance.

Key words: inclusive education, students with disabilities, international inclusive education, preschool education.

Inklyuziv ta'lim tushunchasining bugungi kunda tez-tez takrorlanishiga sabab ko'pchilik bu tushunchani sog'lom va nogiron bolaning bir darsda yonma-yon o'tirib qatnashishi deb o'ylashlaridadir. **Inklyuziv ta'lim** bu farqlash xususiyatlaridan qat'i nazar, barcha shaxslarning ehtiyojlarini teng ravishda tushunishga va qondirishga qaratilgan o'quv modeli. Inklyuziv ta'limning e'tibor nuqtasi o'quvchining ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi, irqidan qat'iy nazay uning nimaga ehtiyoj sezayotganligini o'rganadi. Shundan kelib chiqqan holda, o'qituvchilar o'quv materiallarini o'zgartirishi va o'quvchilarga yaxshiroq yordam berish uchun shaxsiylashtirilgan strategiyalardan foydalanlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi [1].

2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo’yicha “yo’l xaritasi” ishlab chiqildi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko’rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi [3].

Konsepsiya erishilgan natijalar, maqsadli ko’rsatkichlar va tegishli davrga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlardan kelib chiqqan holda 2022-yildan boshlab har yili tasdiqlanadigan alohida “Yo’l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilandi.

Ta’lim sifati bo’yicha “Yevropa Kengashi sohasidagi hamkorlik strategiyasi” tibbiy oliy ta’limda yagona tizimni vujudga keltirish maqsadida Yevropa davlatlari ta’lim tizimining bir-biriga yaqinlashuvi va mobillashuvini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Oliy kasbiy ta’lim muassasalari Yevropa assotsiatsiyasi EURASHE, ENIC-NARIC axborot tizim markazi, Yeducation International va Yevropa komissiyasi bilan mustahkam aloqa o’rnatgan. Shunga ko’ra, ta’lim sifatini oshirish xalqaro raqobatbardoshlikni ta’minlash, milliylikni saqlagan holda rivojlangan davlatlar ta’lim tizimini, xususan, Bolonya deklaratsiyasini atroflicha tahlil etish orqali xalqaro ta’lim tizimiga tizimli kirib borish, tibbiy ta’limda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish negizida xalqaro ta’lim standartlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Respublikamiz oliy ta’lim tizimida zehni, iqtidorli, qobiliyatli va keng fikrlovchi, ijodkor jismonan nuqsonli bolalarni o’qitish hamda ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash har bir mamlakatning inklyuziv ta’lim tizimidagi ustuvor vazifa sifatida muhim ahamiyatga ega. Uchinchi renessansga poydevor qo’yish loyihasida aynan nogironligi bo’lgan shaxslarni masofaviy oliy ta’limga qamrab olishda innovatsion yondashuv inklyuziv ta’lim misolida ko’rsatib berishimiz bugungi eng dolzarb muammolardan biridir [2].

O‘zbekistonda oilaviy sharoitidan qat’i nazar, barcha bolalar davlat umumta’lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Faqat xohlovchilar o‘z yonidan pul to‘lab xususiy maktablarda o‘qishi mumkin. Lekin imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog‘lom bolalar bilan teng sharoitda o‘qiyotgani haqida maqtanib bo‘lmaydi. 2020-yil 13-oktyabrda qabul qilingan “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar sanalgan:

- alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan bolalar o’qitiladigan ayrim ta’lim muassasalarida ular uchun to‘siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar o’qitiladigan ta’lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitishga mo‘ljallangan uskuna va jihozlar bilan to‘liq ta‘minlanmagan;

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta’lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo‘lga qo‘yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan farzandlarini umumta’lim muassasalarida o‘qitishi mumkinligi haqida yetarli ma’lumotga ega emas;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayapti;

- pedagogika yo'nalishidagi OTMlar o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

- pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

